

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**M.N. Umurzakova**

# **IJTIMOIIY SUG‘URTA**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

5520100 – Ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishi talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2023**

**UO‘K: 33(575.1)**

**KBK: 65.9(2)27**

**U 49**

Umurzakova M.N.

Ijtimoiy sug‘urta [Matn]: O‘quv qo‘llanma / M.N.Umurzakova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 324 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma ijtimoiy ish (pensiya ta‘minoti) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari, ijtimoiy sug‘urta sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar va doktorantlar hamda ijtimoiy sohaning moliyaviy ta‘minotini mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmada ijtimoiy sug‘urtaning shakllanishi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy sug‘urtaning vujudga kelish, ijtimoiy sug‘urtaning maqsadi, vazifalari va uslublari, ijtimoiy sug‘urtaning nazariy konsepsiyalari, ijtimoiy sug‘urtani tashkil etish va amal qilish tamoyillari tahlil qilingan.

**Mas‘ul muharrir:**

**Vaxabov A.V.** – O‘zMU professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Taqrizchilar:**

**Abulqosimov X.P.** – O‘zMU professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Mamatov B.S.** – Toshkent moliya instituti dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 2023-yil 31-maydagi 10-sonli qaroriga asosan nashrga ruxsat berilgan.

**ISBN 978-9910-9680-8-2**

© Umurzakova M.N.  
© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

## KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqaror sur‘atlarini ta‘minlash Oliy ta‘lim muassasalarida malakali va kuchli raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash tizimini isloh etishni taqozo etadi.

Mustaqillik davrida ta‘lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari va malaka talablari ishlab chiqildi, amaliyotga joriy etildi va muttasil takomillashtirilib borilmoqda. 5520100 – Ijtimoiy ish (pensiya ta‘minoti) yo‘nalishi Davlat ta‘lim standarti va malaka talablarida «Ijtimoiy sug‘urta» fanini o‘qitish nazarda tutilgan.

«Ijtimoiy sug‘urta» fani iqtisodiyot sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu holatni mamlakatimizda olib borilayotgan faol ijtimoiy siyosat doirasidagi islohotlarda ijtimoiy sug‘urtaning ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi orqali kuzatish mumkin.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi bandi aholini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish va 2021 yil «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» davlat dasturida ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish va ijtimoiy sug‘urtani samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ustuvor vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda.

«2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida»<sup>1</sup> jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida:

– 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tizimi bilan to‘liq qamrab olish;

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategisi to‘g‘risida»gi Farmoni.

- ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ijtimoiy sugʻurta tizimini yaratish, jumladan ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasini tashkil etish;
- kam taʼminlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish;
- «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi boʻlgan shaxslar boʻyicha alohida maʼlumotlar bazasini yaratish, jumladan «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ni «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» bilan integratsiya qilish;
- ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash taʼtilida boʻlish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qoʻshib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish;
- bolalikdan nogironligi boʻlgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qoʻshib hisoblash amalga oshirilmoqda.

Jahon tajribasi koʻrsatishicha, ijtimoiy sugʻurta aholini ijtimoiy himoya qilish instituti, moliya tizimi va sugʻurta sohasining muhim elementi hisoblanib, iqtisodiyoti rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining eng muhim ijtimoiy kafolati sifatida namoyon boʻladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tarkibidagi Bolalar fondi (ЮНИСЕФ), Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, «dunyo aholisining bor-yoʻgʻi 45 foizi ijtimoiy himoya tizimi doirasidagi pulli toʻlovlarning kamida bitta turi bilan taʼminlangan, qolgan 55 foizi (yaʼni, 4 milliardga yaqini) hech qanday moliyaviy yordam olmagan»<sup>2</sup>. Bir vaqtning oʻzida, dunyo aholisining boshqa guruhlari yetarli darajada ijtimoiy himoyaga ega emas, jumladan, «jami ishsizlarning faqat 22 foizi ishsizlik nafaqasini, nogironlikning ogʻir shaklida boʻlgan shaxslarning faqat 28 foizi nogironlik nafaqasini oladi»<sup>3</sup>. Bunday sharoitda aholini ijtimoiy

<sup>2</sup> An assessment of the social protection system in Uzbekistan, Based on the Core Diagnostic Instrument (CODI). A joint report by ILO, UNICEF, and the World Bank. (ISBN9789220321263 (print), 9789220321270 (web PDF)) Moscow, Russia: International Labour Organization, 2020. – P. 10.

<sup>3</sup> Доклад о Целях в области устойчивого развития. Организация Объединенных Наций. – Нью Йорк, 2019. – С. 21-23. (<https://unstats.un.org/sdgs/report/2019/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2019-Russian.pdf>).

himoya qilishda ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirish masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Ushbu oʻquv qoʻllanmaning maqsadi talabalarga ijtimoiy sugʻurta nazariyasi va amaliyoti boʻyicha chuqur bilim berish, ularda atroflicha amaliy koʻnikmalar hosil qilishdan iborat. Bunday maqsadga erishish uchun sohaning boʻlgʻusi mutaxassislari ijtimoiy sugʻurtaning kelib chiqish tarixi va shakllanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy sugʻurtaning roli, majburiy pensiya sugʻurtasini tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sugʻurtani tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, majburiy kasbiy sugʻurtalashning turlari va kasb kasalliklari sugʻurtasini tashkil etish, vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sugʻurtalashni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, ijtimoiy sugʻurta rivojlanishining xorij mamlakatlari tajribasi toʻgʻrisida aniq tasavvurga va mustahkam pozitsiyaga ega boʻlmoqlari darkor.

Oʻquv qoʻllanmaning I va II boblarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanishi hamda XVI-XIX asrlarda sugʻurta institutlari faoliyatiga asoslangan ijtimoiy himoya haqidagi nazariy tasavvurlarning shakllanishi yoritilgan.

Qoʻllanmaning III, IV va V boblarida majburiy pensiya sugʻurtasini, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sugʻurtani, majburiy kasbiy sugʻurtalashning turlari va kasb kasalliklari sugʻurtasini, vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sugʻurtalashni tashkil etish nazariyalari va amaliyoti bayon qilingan.

Oʻquv qoʻllanmaning VI, VII, va VIII boblarida ijtimoiy sugʻurta rivojlanishining xorij mamlakatlari tajribalari qiyosiy oʻrganilgan.

Oʻquv qoʻllanmada har bir mavzuning kontenti maʼruza matni, nazorat savollari, mustaqil taʼlim mavzularidan tashkil topgan.

Ushbu oʻquv qoʻllanmaning yaratilishida yaqindan yordam bergan Ustozimiz, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Vaxabov Abduraxim Vasikovichga cheksiz minnatdorchilik bildiramiz.

Eʼtiboringizga havola etilayotgan ushbu kitob ayrim kamchiliklardan holi boʻlmasligi, tabiiy. Uning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi taklif-mulohazalarni muallif samimiylik bilan qabul qiladi.

## I BOB. IJTIMOIIY SUG‘URTA FANINING PREDMETI VA METODLARI

### 1.1-§. Industrial jamiyatgacha bo‘lgan davrda aholini ijtimoiy himoya qilish shakllarining rivojlanishi

Qadimgi davrlardan to XVIII asr oxirigacha jamiyat tuzumining asosiy ko‘rinishi aholini ijtimoiy himoya qilish darajasi juda past bo‘lgan agrar jamiyat hukm surgan.«Agrar jamiyatda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi (70-80 %)ni dehqonlar, qolganini esa hunarmandlar, jangchilar va boshqa maxsus guruhlar tashkil etgan. Rossiyada aholining bunday tarkibi XX asrning 30 yillarigacha saqlanib qolgan»<sup>4</sup>.

Agrar jamiyatda aholining bunday qatlami uchun ijtimoiy himoya qilishtizimining o‘z shakli mavjud bo‘lgan. Chunonchi:

- dehqonlar uchun – oila, jamiyatning iqtisodiy (ishlab chiqaruvchi) hamda ijtimoiy jabhasi sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi katta ko‘p a‘zoli oila;

- yolg‘iz yashovchi qishloq aholisi (yetimlar va keksalar) uchun – qishloq jamoasi (tashkiloti);

- hunarmandlar uchun – hunarmandchilik sexlari va savdogarlar uyushmasining ijtimoiy tuzilmasini o‘zida namoyon etuvchi hamkorlik;

- G‘arbiy Yevropada yashovchi yolg‘iz shahar aholisi uchun – cherkov va o‘zini o‘zi idora qiluvchi shahar boshqarmalari organlari;

- jangchilar uchun – o‘zaro hamjihatlikdagi yordamning korporativ shakllari, mayib-majruh va keksa jangchilar uchun – davlat g‘amxo‘rligi.

Hayotni sug‘urta qilishning o‘xshash namunalarini tarixchilar Rim sexlari va harbiy jamoalari faoliyatining tashkil qilinishida ham topadilar. Rim davlatining hunarmandlari va harbiylari o‘zaro yordam kassasini tashkil qilishgan. Ular bu kabi kassalarga o‘lim holati, shuningdek jangchilarning o‘z yashash hududidan juda uzoqlarga xizmatga ketishi yoki jangda mayib majruh bo‘lib qolishi kabi holatlar harajati uchun badallar to‘lab qo‘yishgan.

---

<sup>4</sup> Сусоколов А.А. Культура и обмен: введение в экономическую активного населения. – М.: «Русская панорама», 2006. – С.131.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining agrar jamiyatdagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lgan:

– insonlarning o'tmishdagi (ko'pchilik holatlarda hozirgi kunlardagi ham) mentalitetini ifodalovchi o'zi va o'z oilasiga bo'lgan shaxsiy javobgarligi. Bu javobgarlik ularni o'z moddiy farovonligini har kuni nazorat qilishga va oilasini ehtiyoji doirasida don, mulk va pul zahiralarini jamlab qo'yishga undadi;

– oila, qishloq va cherkov jamoalari, hunarmandlar va savdogarlar sexlari doirasidagi o'zaro yordamning yo'lga qo'yilganligi, nafaqat, tez-tez va favqulodda kutilmaganda yuz beradigan noxush voqealar (hosilning yaxshi bo'lmasligi va ocharchilik, yong'in va epidemiyalar, urushlar va nogironlik) ning, balki insonlarning biologik va ijtimoiy muammolari (kasallik va keksalik, nogironlik va yetimlik) bilan bog'liq kundalik muammolarining mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Agrar jamiyatda aholini ijtimoiy himoya qilishning turli shakllari yaxshi rivojlanmagan edi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xizmati davlat tomonidan juda kam hollarda ko'rsatilgan. Bu xizmatlar davlat tomonidan ahyon-ahyonda, asosan, favquloddagi vaziyatlarda (hosilsiz qolib ketish va ocharchilik, epidemiyalar va kutilmagan falokatlar vaqtida) ko'rsatilgan.

Agrar jamiyatdagi ijtimoiy himoya bo'yicha me'yoriy qonunlar quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Ilk sug'urta elementlarini o'z ichiga olgan o'zaro jamoaviy yordam asosida Qadimgi Finikiya, Gretsiya va Rimda tashkil etilgan savdogarlar va hunarmandlar jamoasi a'zolari o'rtasidagi o'zaro shartnoma munosabatlari shakllangan (noxush vaziyatlar tufayli zarar ko'rganlarga birgalikda yordam berish, baxtsizlik yuz berganda ko'makka umid qilish, savdogarga uning savdo kemasi dengiz to'fonidan jabr ko'rganda, uning zararini qoplash uchun o'zaro yordam berish);

2. Davlatning ommaviy, tavsiyaviy tipdagi qonunlari. Tarixchilar bunday qonunlarning eng qadimgisi sifatida Mesopotamiya hukmdori Xammurapi (eramizdan avvalgi XVIII asr)ning tavsiyalarini e'tirof etishadi. Bu tavsiyalar bir xil nomdagi qonunlar to'plamini, noxush vaziyatlar tufayli savdogarlarning mol-mulkiga zarar yetganda, ularning bir-birlariga o'zaro yordam berishlari to'g'risidagi qonunlarni

o'z ichiga olgan. Qadimgi Misrda esa (eramizdan avvalgi XXII asrda) hosil juda kam olinadigan yillar holatini hisobga olgan holda, davlat omborlariga don zaxirasini to'plash zarurligi to'g'risida fir'avning farmoyishlari ham eng qadimgi qonun sifatida tarixchilar e'tiborini o'ziga tortgan;

3. Kambag'allarni o'ziga to'q, moddiy ahvoli yaxshi kishilar va cherkov tuzilmasi (Injil, xristian soborlari qonunlari, Kur'on) tomonidan qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi diniy qonunlar;

4. O'rta asrlar (V-XV asrlarda) ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ommaviy va davlatga xos shakllari quyidagilardan iborat bo'lgan: cherkov xayriyalari – shaharlardagi kasalxonalar va yolg'iz keksalar uchun mehr-shafqat uylari; Rossiyadagi knyaz va boyarlar yordamlari; O'rta Yevropa davlatlaridagi shaharlar (hududiy) yordamlari (yetimlar va yolg'iz keksalar uchun mehr-shafqat uylari uchun).

Sug'urtaning ilk ko'rinishi eramizdan oldingi ikki ming yillikda yashagan Bobil podshohi Hammurapi qonunlarida mavjud bo'lgan<sup>5</sup>. Unga ko'ra savdo karvonlarining birortasini yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi, o'g'riliklar natijasida zarar yetganda, ko'rilgan zararni o'rtada to'lab berishni nazarda tutuvchi kelishuv imzolanishi belgilab qo'yilgan<sup>6</sup>. Keyinchalik, eramizning ilk davrlarida avval Gretsiyada, keyin qadimgi Rimda, Hindistonda va Misrda turli maqsadlarda tashkil etilgan shu kabi sug'urta jamiyatlari amal qilgan<sup>7</sup>.

XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Angliya, Niderlandiya va Fransiyada sanoat revolyusiyasi boshlandi va bu holat mehnat va hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jumladan, uyida va dalada yumush bilan band bo'lganlarning mehnati zavod va fabrikalarga ko'chirildi, shu bilan birga bu mamlakatlarda yollanma mehnat bilan band bo'lganlarning ulushi umumiy iqtisodiy faol aholining 50 foizigacha oshdi<sup>8</sup>. Natijada aholi hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi: aholining shaharlarga ommaviy

---

<sup>5</sup> Shennayev X.M. va boshq. Sug'urta ishi. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. 4-b.

<sup>6</sup> Гомелля В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель. – М.: «СОМИНТЕК», 1994. – С. 7.

<sup>7</sup> Qo'ldoshev Q.M. O'zaro sug'urtaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, O'zbekistonda uni joriy etishning afzalliklari. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2017.

<sup>8</sup> РоиК В. Социальное страхование: теория и практика организации. – М.: «Проспект», 2016. – С. 12-13.



ko‘chishi, urbanizatsiya<sup>9</sup>, jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar va boshq. Bu holat, yollanma mehnat xodimlarining ish beruvchilar tomonidan ishga joylashish (mehnat) sharoitlariga va eng avvalo, ish haqi darajasi va ularni olishning munatazamligiga moddiy jihatdan yuqori darajada bog‘liqligini oldindan belgilab berdi. Mehnatga layoqatsizlik va ish haqini yo‘qotish bilan bog‘liq ijtimoiy xavf bo‘lgan hollarda ishchilar va ularning oila a‘zolari daromadlari bilan bog‘liq vaziyat yanada og‘irlashadi (murakkablashadi).

Ko‘p jihatdan, bunday o‘zgarishlarga jahon moliya va ishchi kuchi bozorining shakllanishi sabab bo‘lib, XIX asr oxirida bir qator jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan va quyidagilarni talab qilgan:

- sanoat mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish;
- mehnat munosabatlarini tartibga solish;
- yollanma ishchilar uchun barqaror ish haqi;
- mehnat qobiliyati uchun kompensatsiya (qoplab berilishi)ning barqaror shakllari.

Yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi bu talablar ish haqining bir qismini har oyda maxsus jamg‘armalarga muntazam zaxiralash (jamlab borish, jamg‘arish) asosida tashkil etiladigan ijtimoiy sug‘urta institutlarini shakllantirish orqali hal qilinadi. Bunda ushbu jamg‘arilgan mablag‘lar nogironlik, qarilik va boquvchisidan mahrum bo‘lish tufayli ish haqini yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy risklar yuzaga kelgan taqdirda sarflanadi. Bu davrda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo‘lgan daromad taqsimoti sohasidagi davlat, biznes va aholining o‘rni va roli o‘zgardi. Fuqaroning moliyaviy ahvoli uchun shaxsiy javobgarligi tamoyiliga asoslangan liberal qarashlarda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Shunday qilib, keng ko‘lamli ishlab chiqarish bosqichida ijtimoiy sug‘urta paydo bo‘lishining asosiy jihatlaridan biri yollanma ishchilarning o‘z daromadlarining yagona manbai – ish haqiga moddiy

---

<sup>9</sup> Frans. «urbanisation», ing. «urbanization», lot. «urbanus» – shaharga mansub, urbs – shahar. Urbanizatsiya – tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo‘lgan ko‘p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayon bo‘lib, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog‘ining ko‘payib borishini anglatadi.

qaramligi edi. Ob'ektiv va ommaviy sabablarga (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik, ish o'rnini yo'qotishi) ko'ra, uni yo'qotish riski (xavfi) xodim va uning oilasini tirikchilik vositalaridan butunlay mahrum qiladi. Shu nuqtai nazardan bu mavjud yondashuvlarni – shaxsiy mas'uliyat va ehtiyotkorlik hamda yangilarini – ijtimoiy adolat va o'zaro birdamlikni qamrab oluvchi ijtimoiy himoyaning tubdan yangi shakli talab qilindi. Biroq, bozor sharoitida yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilarning aksariyatining o'zini o'zi himoya qilishning ob'ektiv ravishda imkoni yo'qligi, degan tushuncha asta-sekin kelib chiqdi<sup>10</sup>. Xullas, aholining ommaviy qashshoqlashuvi, Angliyadagi majburiy mehnat va Fransiyadagi jamoat ishlarida muvaffaqiyatsiz tajribalar, davlat yordamining samarasizligi, ijtimoiy noroziliklarning kuchayishi shartnomaviy (mehnat shartnomasi) va jamoaviy-huquqiy (xodimlarni ommaviy va ob'ektiv ijtimoiy risklardan himoya qilish bo'yicha) munosabatlarni qamrab oluvchi yangi ijtimoiy himoya institutini tashkil etish zarurligini anglatgan. Shu tariqa ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoyaning hayotiy tajribada sinalgan ishonchli shakli sifatida shakllana boshlagan.

### **Nazorat savollari**

1. Agrar jamiyatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining kanday shakli mavjud bo'lgan?
2. Ijtimoiy himoya qilish tizimining agrar jamiyatdagi asosiy tamoyillari nimalardan iborat ?
3. Agrar jamiyatdagi ijtimoiy himoya bo'yicha me'yoriy qonunlar sanab o'ting?

### **Test savollari**

1. Sug'urtaning ilk ko'rinishi kaysi davlatlarda paydo bo'la boshlagan?
  - A) Bobil, Gretsiya va Rim.
  - B) Gretsiya, Rim va Germaniya
  - S) AQSH, Germaniya va Rim
2. Angliya, Niderlandiya va Fransiyada sanoat revolyusiyasi nechanchi asrda boshlangan?
  - A) XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida

---

<sup>10</sup> Зидер Р. Социальная история семьи в Западной и Центральной Европе (конец XVIII-XX в.) / Пер. с англ. – М.: «ВЛАДОС», 1997. – С. 142.

- B) XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida
- S) XVII asr oxiri va XVIII asrning boshlarida

3. Babil podshohi Hammurabi qonunlarida qanday sug'urtaning ilk ko'rinishi aks etgan?

A) Savdo karvonlarining yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi va o'g'riliklar natijasida zarar yetganda

B) Etimlar va yolg'iz keksalar uchun mehr-shafqat uylari nafaqalar

S) Kasalxonalar va yolg'iz keksalar tibbiy xizmatlar.

4. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Angliya, Niderlandiya va Fransiyada sanoat revolyusiyasi natijasida yollanma mehnat bilan band bo'lganlarning ulushi umumiy iqtisodiy faol aholining necha foizigacha oshdi?

A) 50 foizigacha

B) 60 foizigacha

S) 40 foizigacha

5. Yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ish haqining bir qismini har oyda qanday maxsus jamg'arma tashkil etildi?

A) Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi

B) Nogironlik jamg'armasi

S) Ijtimoiy risklarni boo'qarish jamg'armasi

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. "Ijtimoiy sug'urta" fanining mazmuni, ijtimoiy sug'urtaning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.

2. Ijtimoiy sug'urtaning kategoriyalari va nazariy asoslari.

3. Ijtimoiy sug'urta tamoyillari.

4. Ijtimoiy sug'urta tizimi tarkibi.

5. Fanning predmeti va ob'ekti.

6. Fanning ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

## **1.2-§. XVI-XVIII asrlardagi himoya tizimi shakllari rivojlanishi yoki taraqqiy etishi**

Ijtimoiy himoyaning Yangi davrdagi ommaviy ko‘rinishlari quyidagilar hisoblangan:

1. Cherkov hayriyalari.
2. Badavlat insonlarning o‘z mol-mulklarining ma‘lum bir qismini kambag‘allarga meros qilib qoldirilishi;
3. Davlat tomonidan kiritilgan talablar asosida o‘ziga to‘q fuqarolarning kambag‘allar va yetimlarga qiladigan majburiy yordamlari.

Aholini ijtimoiy himoyalashning milliy tizimini shakllantirishdagi muhim davr Yelizaveta I (Angliya) tomonidan 1601 yilda nashrdan chiqarilgan 43-Farmon bo‘lgan. Bu farmon keyinchalik «Kambag‘allarga solinadigan soliq to‘g‘risida»gi Qonun deb nom oladi. Uning asosiy nazariyalaridan keyinchalik deyarli barcha Yevropa davlatlari o‘z milliy qonunchiligini yaratishda foydalanishgan. Ushbu Farmon asosida Angliyaning hokimlik va o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy organlari zimmasiga ularni o‘z moliyaviy resurslari hisobiga va ma‘muriy choralar orqali ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini ko‘rish mas‘uliyati yuklatilgan. Bunda butun mamlakat bo‘ylab ijtimoiy himoyaning aniq me‘yorlarini belgilash zarurati bo‘lmagan.

Farmonning mazmun-mohiyati kambag‘allikka qarshi kurashish uchun davlat hokimiyatining butun kuchini safarbar etish zarurligini tan olishdan iborat edi. Bunda kambag‘al fuqarolarning turli toifalariga turlicha yondashish usullari ham qarab chiqildi. Bunday yondashish ijtimoiy yordamlarning haqiqatdan ham muhtoj va kambag‘allarga, yolg‘iz qariyalarga, nogironlarga, kasallarga berilishi hamda kambag‘allikni o‘ziga «kasb» qilib olganlarni boshqalarga ibrat tarzida jazolashda namoyon bo‘lgan. O‘zini bunday tutganlarga jazo tayinlangan va qamoqqa ham olingan.

Farmonning o‘ziga xos jihati muhtojlarga yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyatning javobgarligini qonuniy ravishda aniqlab olishdan iborat bo‘lgan. Har bir shahar va aholi yashash maskanlariga yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz va keksa fuqarolarga g‘amho‘rlik qilish yuklatildi. Agar ixtiyoriy qilingan hayriyalar miqdori yetarli bo‘lmasa, u holda hakamlar (sudyalalar) shaharning

yordamni rad qilagn barcha boy badavlat kishilariga qo‘shimcha yordam qilishni yuklashi kerak edi (sudyalarning bunga qonunan haqlari bor edi). Bunda yig‘ilgan yordamlarni taqsimlashni tashkil etish cherkovlar daromadi hisobiga amalga oshirilgan, bu narsa muhtojlar toifalarini ajratib olishni va ularga tegishli yordam berishni osonlashtirgan.

Biror kishining ijtimoiy yordamni olishi yashash uchun umuman mablag‘ning va yaqin-qarindoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlashning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Yangi paydo bo‘layotgan sanoat davrida muhtojlarni ixtiyoriy va majburiy ijtimoiy himoya qilishning muhtojlar ehtiyojlarini qoniqtirmagan shakllari, G‘arbiy Yevropa davlatlari (Angliya, Fransiya)da kambag‘allik ko‘rsatkichlarining jadal oshib ketishiga olib keldi. Bunda yashash joyiga ega bo‘lmagan va kelib chiqishi noma‘lum bo‘lgan shaxslar davlat muassalariga (qamoqxonalarga, ahloq tuzatish muassasalariga) olib kelingan. Xalqaro mehnat byurosining ma‘lumotlariga ko‘ra: «...Ijtimoiy yordamning bu kabi salbiy jihatlariga qaramasdan, u avvalo yashash uchun butkul mablag‘siz qolib ketgan kishilarga nisbatan davlatning javobgarligini belgilaydi, bu maqsadda mablag‘ ajratish amalga oshiriladi, ijtimoiy himoyani talab qiladigan ijtimoiy risklar ko‘rinishlarini ham qamrab oldi, yuz yillardan keyin ham ijtimoiy himoya mohiyatini ochib bergan asosiy qonuniyatlarni tatbiq etishni ham ko‘rsatib bergan»<sup>11</sup>.

Ijtimoiy himoyaning yana bir shakli XVIII asrning oxirida Angliyada «Speenhamland» qonuni deb atalgan tushuncha asosida tatbiq qilingan. Unga ko‘ra, kam ta‘minlangan kishilarga moddiy yordam aholining soliq to‘lashga qodir bo‘lgan qatlam tomonidan to‘langan mablag‘lar hisobidan berilishi ko‘zda tutilgan. Himoyaning shu kabi shakli yordamida yollanma qishloq ishchilariga ma‘lum eng qisqa muddatgacha kun ko‘rib turishlari uchun pulli moddiy yordam yoki non berib turilgan.

Shuni alohida ta‘kilab o‘tish kerakki, G‘arbiy Yevropada aholining muhtoj qatlamiga yordam berish borasidagi tizimda uzoq yillar davomida asosiy rolni davlat emas, balki mahalliy hokimiyatlar va qishloq boshqaruv idoralari o‘ynagan. Shahar (yoki qishloq)

---

<sup>11</sup> Social Security: Workers Educational Manual. Geneva. International Labour Office. 1970. – P. 3.

idorasining o'z kamabag'allari uchun javobgarligi tamoyili yetakchi tamoyil hisoblangan. Bunda shaharlar (o'z o'zini idora qiluvchi shahar boshqarmalari, sexlar va savdogarlar uyushmalari)ning kambag'allarni himoya qilish borasidagi faoliyati tizimli xarakterga ega bo'lgan.

XVII-XIX asrlarda ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida «Kambag'allar to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi ularga ijtimoiy himoyaning dastlabki tashkiliy-huquqiy ko'rinishini, ya'ni ijtimoiy yordam (yoki uni ilgari ijtimoiy panoj deb atashgan)ni shakllantirishga zamin yaratib berdi. Muhtojlarga yordam berish uchun mo'ljallangan mablag'larni moliyalashtirish va taqsimlash mexanizmi hududiy tamoyil negizida aholining turli xil o'ziga to'q qatlamlari ishtirokida mablag'larni yig'ish hamda taqsimlash asosida amalga oshirilgan. Bunda aholining ijtimoiy himoyasini moliyalashtirishda markaziy hukumatning ishtiroki amalda kuzatilmagan.

Davlat xarajatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular XVIII asrning oxirigacha davlatni tashqi xavflardan himoyalashni ta'minlashga, ya'ni armiyani va askarlarni ta'minlash, shuningdek mamlakatdagi ichki tartibni nazorat qilish kabilarga sarflangan. Davlat xarajatlarining miqdori unchalik ko'p emas. Masalan: «Angliya, Avstriya, Ispaniya va Fransiya tomonidan XVIII asr o'rtalarida harbiy harakatlar olib borilayotgan vaqtlarda davlat budjeti hajmi YAIM hajmining 6-10 foizini tashkil etardi. Boshqa Yevropa davlatlarida esa davlat budjeti hajmining ko'rsatkichi yana ham past bo'lib, YAIM hajmining 3-4 foizidan oshmagan»<sup>12</sup>.

Shu tariqa, agrar jamiyatda (XVIII asr boshlarigacha, Rossiyada esa XX asr boshlarigacha) aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shakllari bo'lib quyidagilar xizmat qilgan: oilaviy yordamlar; o'zaro yordamlarning jamoaviy va sexlarga xos shakllari; monastrlar qoshidagi kasalxonalar va mehr-shafqat uylarini o'z ichiga olgan cherkov hayriya ishlari; xususiy hayriya ishlari; savdogarlarni mulkiy va shaxsiy sug'urta qilish elementlari; sobiq jangchilar va ba'zi imtiyozlarga ega bo'lgan aholi toifalariga davlat tomonidan

---

<sup>12</sup> Кембриджская экономическая история Европы Нового и Новейшего времени. В 2 томах. Т.1: 1700-1870. – М.: «Изд-во Института Гайдара», 2013. – С. 132.

beriladigan yengilliklar; davlat xizmatchilariga beriladigan ijtimoiy yordamlarning shahar yoki qishloq boshqarmalariga tegishli shakllari.

XIV asrdan boshlab Shimoliy Italiya, Niderlandiya va Angliyaning rivojlangan shaharlari aholisi, XV asrdan boshlab aholining o'ziga to'q boshqa qatlamlari o'z moddiy ta'minotini yaxshilash maqsadida bank omonatlaridan, XVII asrdan boshlab esa shaxsiy sug'urtalashdan faol foydalana boshladi.

Shaxsiy sug'urtaning faol tatbiq etilishiga ba'zi bir kredit institutlari, avvalo, annuitetlar katta ta'sir o'tkazadi. Annuitetlar kapitallashtirilgan mablag'lar uchun joriy etilgan bir vaqtda to'lanadigan badallar hisobidan har yili to'lanadigan rentalarning majburiyligini o'zida ifodalagan. XIV-XV asrlarda allaqachon ma'lum bo'lgan va XVI asrda annuitetlar dastlab monastrlar uchun keng tarqalgan, keyinchalik esa shaharlar uchun ham, davlat hokimiyati uchun ham ularning moliyasini mustahkamlovchi, moliyaviy resurslarga diqqatni qaratuvchi muhim vosita hisoblangan. Bu polislar tez-tez moddiy muvaffaqiyatlar vaqtida olingan kapitalni keksalik vaqtida kishi olishi mumkin bo'lgan muntazam daromadga aylantirish uchun olingan. «Annuitet – vaqti-vaqti bilan investorga muayyan daromad keltirib turadigan investitsiyalar. Pul oqimlarini ifodalashda annuitet tushunchasi qo'llaniladi. Annuitet (inglizchadan tarjimasi – har yillik to'lov) bir xil davr mobaynida bir xil foiz stavka asosida bir xil to'lovlarning yoki pul oqimlarining kelib tushishini anglatadi»<sup>13</sup>.

Xayotni sug'urtalash metodologiyasi (uslubiyatini) shakllantirishda angliyalik Granta va Galleylarning ishlari katta rol o'ynagan. Ular XVII asrning o'rtalarida aholining o'limi va yashash davomiyligini hisoblashning matematik va statistik usullarini, shuningdek o'lim va yashash jadvalini taklif etishgan. Shu maqsadda o'lim jadvalini tuzish orqali statistik baza shakllana boshlangan. Shuningdek, shaxsiy, keyinchalik ijtimoiy sug'urtani tashkil etishda qo'llaniladigan ehtimollar nazariyasi ham rivojlana bordi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliya, Fransiya va Germaniyada yollanma ishchilar uchun ularning xohishlari asosida o'zaro yordam jamiyatlari (friendly societies) tashkil etila boshlangan.

---

<sup>13</sup>Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. 257-258-b.

Ular kasalliklar, baxtsiz xodisalar, ishsizlik va keksalik vaqtida kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy risklarni hisobga olgan holda moliyaviy mablag'larni ehtiyoj uchun saqlab qo'yishning usul va choralarini ko'rishni o'z maqsadlari deb belgilagan. Bu kabi risklar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning moliyasi aslida oddiy jamg'arma kassalarida saqlangan (nafaqa kassalari, keksalikda moliyaviy ta'minlovchi bir umrlik rentalar kassasi, kasallik yoki ishsizlik holatlari uchun yordam kassalari va h.k.). Ularning faoliyatida kam sonli omonatchilar ishtirok etsa-da, lekin ular shubhasiz ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Chunki ular o'z kelajagiga shaxsiy javobgarlik madaniyatining shakllanishida asos va majburiy (ommaviy) bo'lajak ijtimoiy sug'urtalashning ilk belgisi bo'lib xizmat qilgan.

### **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi sug'urta yuklamalarini ijtimoiy sug'urta shakllariga ko'ra qayta taqsimlashning qanday o'ziga xos mutanosibliklari qo'llaniladi?

2. Ishchi kuchiga qilingan harajatlarining tarkibi xalqaro mehnat statistikalari tavsiyalariga mos kelishi yoki kelmasligi qanday aniqlanadi? Bunda majburiy ijtimoiy sug'urtalash shakllarini amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlarning qanday ahamiyat kasb etadi?

3. Rivojlangan davlatlarda yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lashning me'yoriy tartiblari qanday hujjatlar orqali tartibga solinib turiladi?

### **Test savollari**

1. Ijtimoiy himoyaning Yangi davrdagi ommaviy ko'rinishlari qaysilar hisoblangan?

A) Cherkov hayriyalari, badavlat insonlarning o'z mulklarining ma'lum bir qismini kambag'allarga meros qilib qoldirilish

B) Ish beruvchi tomonidan kambag'allar va yetimlarga qiladigan majburiy yordamlari.

S) Ommaviy ko'rinishi mavjud emas.

2. Yelizaveta I (Angliya) tomonidan nashrdan chiqarilgan «Kambag'allarga solinadigan soliq to'g'risida»gi Qonun nechanchi yilda qabul qilingan?

A) 1601 yilda



B) 1750 yilda

S) 1800 yilda

3. XVIII asrning oxirida Angliyada «Speenhamland» qonuni deb atalgan tushuncha asosida niamala tatbiq qilingan?

A) Kam ta'minlangan kishilarga moddiy yordam aholining soliq to'lashga qodir bo'lgan qatlami tomonidan to'langan mablag'lar hisobidan berilishi ko'zda tutilgan.

B) Kam ta'minlangan kishilarni soliq to'lovlarini passaytirish ko'zda tutilgan.

S) Qishloq aholisini ijtimoiy himoya qilish ko'zda tutilgan

4. Shimoliy Italiya, Niderlandiya va Angliyaning rivojlangan shaharlari aholisi nechanchi asrdan boshlab shaxsiy sug'urtalashdan faol foydalana boshlandi?

A) XVII asrdan

B) XIX asrdan

S) XVIII asrdan

5. Annuitet -?

A) (inglizchadan tarjimasi – har yillik to'lov) bir xil davr mobaynida bir xil foiz stavka asosida bir xil to'lovlarning yoki pul oqimlarining kelib tushishini anglatadi.

B) Yollanma ishchilar uchun ularning xohishlari asosida o'zaro yordam jamiyati

S) Kasalliklar, baxtsiz xodisalar, ishsizlik va keksalik vaqtda kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy risk

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Ijtimoiy mehnat va sug'urtalash munosabatlari: o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro ta'sir nazariyasi va metodologiyasi.

2. XX asrda ijtimoiy maqsadlar uchun zaxirada to'plangan mablag'lar miqdoriga bo'lgan qarashlarning evolyusiyasi (rivojlanishi).

3. Ishchilar daromadlarining manbalari hamda Germaniya, Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqida ijtimoiy sug'urta tizimini oylik ish haqi to'g'risidagi milliy tizim nuqtai nazaridan boshqarish shartlari.

4. Xayotni sug'urtalash metodologiyasi (uslubiyatini) shakllantirishi

5. Ijtimoiy mehnat va sug'urtalash munosabatlari: o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro ta'sir nazariyasi va metodologiyasi.

### **1.3-§. Industrial jamiyat shakllanishi sharoitida ijtimoiy sug'urtaning nazariy asoslarini rivojlanishi**

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliya, Niderlandiya va Fransiyada mehnat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida katta o'zgarishlarni keltirib chiqargan sanoat inqilobi boshlandi. Ish faoliyatining dalalar va uylardan fabrika va zavodlarga ko'chishi yuz berdi. Bunda bu davlatlarda yollanma mehnat qiluvchilarning ulushi aholining iqtisodiy faol qismi umumiy sonining 50 foizigacha ko'tarilib ketdi.

Natijada aholi hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi: katta oilalar kichik oilalarga aylandi, aholining ommaviy ravishda shaharlarga ko'chishi va urbanizatsiyalashgan hayot tarziga o'tishi kuzatildi. Bular yollanma ishchilarning ish beruvchilarga qattiq moddiy tobeligini keltirib chiqardi, bu ayniqsa oylik maoshi va uni muntazam olib borishi jarayonida ko'zga tashlanib bordi. Mehnatga layoqatsizlik va oylik maoshni yo'qotish bilan bog'liq ijtimoiy risklar sodir bo'lgan holatlarda ishchilar hamda ular oila a'zolarining ahvoli tang holatga kelardi. Bu kabi ko'p o'zgarishlar XIX asr oxirida tovar, moliya va ishchi kuchi bozori tomonidan shakllangan qator jarayonlar ostida yuz beradi va quyidagilarni talab etadi: sanoat mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish; mehnat munosabatlari reglementatsiyasi; yollanma ishchilar uchun ham barqaror oylik maoshi; mehnatga layoqatlilik kompensatsiyasning turg'un shakllari.

Yollanma mehnat sohasidagi ijtimoiy himoyaga oid bu kabi talablar ijtimoiy sug'urta institutlarini shakllantirish orqali hal etilgan edi. Bu institutlar mehnatga beriladigan haqning ma'lum qismini muntazam, oyma-oy maxsus fondlarga zaxira qilib o'tkazish orqali tashkil qilingan. Undagi mablag'lar esa nogironlik, keksalik va boquvchisini yo'qotish sababli paydo bo'ladigan oylik maoshini yo'qotish bilan yuz beradigan ijtimoiy risklar sodir bo'lganda sarflangan. Bu davrda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lgan daromadlarni taqsimlash sohasida davlatning, biznesning va aholining o'rnini va roliga qaratilgan paradigma ham o'zgaradi. Fuqaroning o'z moddiy ahvoriga javobgarligi tamoyiliga asoslangan liberal qarashni o'z ichiga olgan o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Gap shundaki, XVIII-XIX asrlarda ishchilarning ijtimoiy ahvoriga nisbatan liberal qararshlar mavjud bo'lgan. Bu qarash shundan iborat ediki, muammolarning sababi ularning noto'g'ri boshqarilishi va nosog'lom hayot tarzini olib borish hisoblangan. Hech narsani o'ylamaslik, pala-partish hayot kechirish, ichkilikbozlikka mukkasidan ketish – kambag'allik va bechoralikning asosiy sababidir, bunga kishi o'zining irodasi bilan barham berishi mumkin.

Ingliz tadqiqotchisi B.Charlz London aholisining 1889-1891, 1892-1897, 1902-1903 yillardagi hayot tarzi va mehnatini o'rganishlari samarasi natijasida «London aholisining hayoti va mehnati» (Life and Labour of the People of London) deb nomlangan o'n yetti tomlik kapital asarini yozadi. U o'z asarida kambag'allikning tarqalib ketishini ko'rgazmali qilib ko'rsatib berdi va uni kambag'al insonlarga kelishiga qarab «qilgan ishiga loyiq» va «qilgan ishiga noloyiq» degan turlarga ajaratishni taklif etadi.

Yangi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlarda aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy moddiy qo'llab-quvvatlashning ommaviy va davlat tomonidan keng amalga oshirilishining zarurligi haqidagi g'oyalar keng tarqala boshlandi.

XX asrning o'rtalarida Angliya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarining aksariyat yirik olimlari va davlat arboblari tomonidan aholining nochor qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qarshi aytilgan fikrlar diqqatni o'ziga tortardi. Ular davlatning e'tiborini savdo-sotiq va bandlik, shuningdek ta'limning rivojlanishiga olib keluvchi ommaviy hayotni boshqarishga oid vazifalarga qaratishni istashdi.

XVIII asr mutafakkirlari kambag'allik – kapitalistik taraqqiyotning muqarrar oqibati, deb hisoblaganlar (A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo). Jumladan: «A.Smit milliy boylikning ortishi bilan oylik ish haqi ham oshib boradi, deb fikr bildirgan. Mehnatga yarasha mukofot olish haqqoniylik va iqtisodiy muvofiqlik bilan amalga oshiriladi, chunki bularning barchasi mehnatsevarlikka va aholi sonining ham oshishiga olib keladi. Aholi sonining o'sishi – har qanday davlat farovonligining asosi, shuningdek kambag'allik darajasini pasaytirishning garovidir»<sup>14</sup>.

---

<sup>14</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: «Соцэкиз», 1962. – С. 66-69, 73-75.

XVIII asr boshidan to XX asrning birinchi yarmigacha G'arb davlatlarida kambag'allik sabablarini o'rganish borasida ikkita asosiy yondashuv hukm surgan. Birinchisi, ijtimoiy-darvinistik tarzida o'zini namoyon etgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalishni egalitaristik<sup>15</sup> yondashuv deb atash mumkin. Umumiy qilib aytganda, kambag'allik sabablarini o'rganish borasidagi ijtimoiy-darvinistik konsepsiya yashashga, tabiiy tanlanishga, ijtimoiy tengsizlikdan qochishga, jamiyatga va kambag'allarga ziyon yetkazadigan tub islohotlarning kerak emasligiga kurashish kabi muhim masalalar ustida fikr yurgizgan.

Taniqli ingliz demografi va iqtisodchisi T.Maltus «kambag'allik aholining nihoyatda ko'payib ketishiga bog'liq, bunga kambag'allarning o'zlari aybdor»<sup>16</sup> deb hisoblagan. Davlat yordami tizimi esa kambag'allik qatlamlarning ko'payishini ta'minlaydi. Shuning uchun bechoralik va kambag'allik aholining bu toifasi sonini umumiy ocharchiliklar va epidemiyalar vaqtida boshqaruvchi rolini ham bajaradi. T.Maltus jamiyat taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishini tabiat qonunlari bilan tushuntiradi. O'sha davrda mashhur bo'lgan progressiya qonuni quyidagicha jaranglardi: «agar aholining o'sishi geometrik progressiya bo'yicha sodir bo'layotgan bo'lsa, u holda aholining kun kechirishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi». Bunday farq esa ortiqcha aholining o'sishiga sabab bo'ladi. Qayerda aholi o'sishi va mahsulot yetishmasligi paydo bo'lsa, o'sha yerda kambag'allik ham paydo bo'ladi. «Kambag'allik deb ataluvchi bu hodisa – jamiyaning ijtimoiy tuzilmasi belgisi emas, balki u inson zoti mavjudligining universal xossasi hisobalanadi, ya'ni u juda tez ildiz otadi»<sup>17</sup>.

Kambag'allarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga bo'lgan salbiy munosabatni ingliz olimi D.Rikkardo ham yoqlagan. U kambag'allarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini qarab chiquvchi

---

<sup>15</sup> Egalitarizm (fransuzcha egalitarisme, egalite – tenglik so'zidan olingan) – asosida jamiyatni uning barcha a'zolarining teng siyosiy, iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlari bilan qurish g'oyasi yotgan konsepsiyadir.

<sup>16</sup> Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселения. Мировой экономическая мысль. Сквоз призму веков. В 5 томах.Т.1. От зари цивилизации до капитализма. – М.: «Мысль», 2004. – С. 410-420.

<sup>17</sup> Мальтус Т.Р. Опыт закона о населении (Шедевры мировой экономической мысли Т.) – Петрозаводск: Изд-во «Петроком», 1993. – С. 57.

dasturni davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, o'zini oqlamagan chora, deb hisobladi. D.Rikkardo o'sha davrda Angliyada yashagan o'ziga to'q aholi tomonidan to'langan badallar hisobidan tashkil qilinadigan ijtimoiy yordamni qayta markazlashtirgan holda moliyalash shakllari haqida ham fikr bildirgan: «Har bir tushum o'z kambag'allarini ta'minlash uchun alohida fond yig'adi. Shuning uchun odamlar butun qirollikdagi kambag'allarga yordam berishni ko'zda tutgan umumiy fondan ko'ra, alohida mahalliy yig'implarni tashkil etishga qiziqishadi. Qisqacha ifodalaganda, kambag'allar haqidagi qonunlar davlatning barcha sof daromadlarining kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Agarda har qanday yordamga muhtoj inson o'zining hayot kechirishi uchun zaruriy yordamni qonun doirasida olishiga ishona olganida edi, barcha qolgan soliqlar kambag'allarga solinadigan birgina soliqlar bilan taqqoslaganda arzimas narsadek bo'lib qolgan bo'lardi»<sup>18</sup>.

Yana bir ijtimoiy yo'nalishda tadqiqot olib borgan ingliz olimi Gerbert Spenser (1820-1903 y.) o'zining «Ijtimoiy statistika» asarida (1850 y.) davlat va uning vazifalarini cheklangan jihatlariga e'tiborini qaratadi. «U davlatning vazifasi, jumladan kam ta'minlangan aholi qatlamiga ijtimoiy yordam berishni boshqarish qonunchilikda ham qat'iy nazoratga olinishi kerak»<sup>19</sup>, deb hisoblaydi. G.Spenser o'z asarlarining «Davlatning burchlari», «Davlat burchlarining chegaralari» kabi muhim boblarida, shuningdek «Kambag'allar to'g'risidagi qonunlar» bobida bu kabi masalalarga nisbatan bo'lgan liberal qarashlarni batafsil bayon etib beradi. U ommaviy hayotni tashkil qilishda narsalarning tabiiy kechishini o'zgartirish hamda kam ta'minlangan aholi qatlamiga qonuniy yordam berishni ham maqsadsiz va hattoki zararli faoliyat, deb hisoblaydi.

G.Spenserning fikricha, «kambag'allarga davlat tomonidan yordam berish davlatni jamiyatning boshqa a'zolaridan olinadigan soliqlarni oshirishga majbur qiladi. Bu narsa soliq to'lovchilar faoliyatini cheklashni bildiradi, ya'ni bu holat kambag'allikni

---

<sup>18</sup> Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: «Эксмо», 2007. – С. 139-140.

<sup>19</sup> Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 т. – М.: «Челябинск», 2014. Социум Т.2 «Социальная статистика: изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества». – С. 261-286, 287-310.

yuqotmaydi, balki yana qayta ko‘paytiraveradi. Insonlar davlat moddiy yordamlaridan qanchalik ko‘p foydalanishsa, ular ish bilan shuncha kam mashg‘ul bo‘la boshlaydilar. Natijada zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish ham shunchalik kamayib boraveradi, shu bilan birga kambag‘allik darajasi ham ortaveradi»<sup>20</sup>. Shuningdek, olimning qarashlaricha davlat yordami – bu mablag‘larni qayta taqsimlash usullaridan biridir, uni olish esa boqimanda insonlarni tarbiyalaydi. O‘z navbatida, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tashqi qonunlar emas, balki ichki qonunlar boshqarishi lozim. Kambag‘allik esa bunda insonlar orasidagi munosabatlarga malham bo‘lib xizmat qilishi kerak. Kundalik oddiy hayotga moslashish uchun inson avvalo, farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘ladigan xislatlarga ega bo‘lib borishi lozim. Kyelajakda yanada yaxshiroq yashashi uchun ba’zi bir huzur halovotidan voz kechishni o‘rganishi ham kerak.

Aholining kam ta‘minlangan qatlamini qo‘llab-quvvatlash borasidagi shu kabi liberal qarashlar Fransiyadagi jamoat vakillari fikrlarida ham namoyon bo‘ldi. Fransuz olimi Eten Klaver XVIII asrda (1788 y) yollanma ishchilar oilalari kambag‘alligiga qarshi kurashishda, «o‘sha davrda mamlakatda keng quloqch yoyib ketgan kambag‘allikni qisqartirishni amalga oshiruvchi» sug‘urta mexanizmini qo‘llashni taklif etganida, uning ushbu konsepsiyasi Fransiya olimlari va siyosatchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Uning fikrlari qattiq tanqid ostiga olindi<sup>21</sup>.

Shuni ta‘kidlash muhimki, E.Klaver aholini ijtimoiy himoyalashda sug‘urta institutlarining imkoniyatlarini oldindan ko‘ra oldi va yetarlicha baholadi. U «sug‘urta institutlarining shakllanishi aholini ijtimoiy himoyalash sohasida ommaviy birdamlikka erishishdagi muhim shart, deb qaradi. E.Klaver sug‘urta institutlarini tashkil etish uchun davlat hokimiyatining imkoniyatlaridan foydalanish kerakligini ham taklif etdi»<sup>22</sup>. E.Klaver tomonidan taklif etilgan konsepsiyani qo‘llab-quvvatlash amalda oson kechmadi. O‘sha davrlarda xalq mentaliteti boshqa qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, ularga ko‘ra har

---

<sup>20</sup> Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 т. – М.: «Челябинск», 2014. Социум Т.2 «Социальная статистика: изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества». – С. 261-286, 287-310.

<sup>21</sup> Розанваллон П. Новый социальный вопрос. – М.: «AdMarginet», 1998. – С. 19.

<sup>22</sup> Розанваллон П. Новый социальный вопрос. – М.: «AdMarginet», 1998. – С.19.

bir kishi o'zining moddiy ahvoliga oid masalalarda shaxsiy javobgarligi va birovlarining bunga aralashmasligi kerak edi. Shuning uchun o'sha davrda yashagan ko'pchilik jamoat arboblari E.Klaver «konsepsiyasini har bir insonning o'z moddiy ahvoliga shaxsan o'zi javob berishi kerakligidek ahloqiy qonunlarni buzish»<sup>23</sup>, deb qarashdi.

Bozor sharoitlarida yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni himoyalash deyarli mumkin bo'lmagan yoki juda sekin amalga oshirilgan.

Amerikalik mashhur ingliz iqtisodchisi Karl Polani yirik ingliz, nemis va fransuz olimlari va jamoat arboblari – Sharl Monteske, Fransua Kene, Adam Smit, Tomas Maltus, Edmunda Berka, Ieremiya Bentama, Tomas Mor, Genri Robinson, David Rikkardo, Jozef Taunsend, Jeyms Mill, Karl Marks, Fridrix Engelslar «aholining farovon turmush tarzi va kambag'alligi muammolari borasidagi qarashlarini o'rganadi»<sup>24</sup>. Ularning ijodi XVII-XIX asrlarga, ya'ni kapitalistik tuzumga o'tish davrlariga to'g'ri kelgan. Bu o'rganishlardan so'ng K.Polani yuqorida nomlari qayd etilgan barcha olimlar hamda jamoat arboblari ijtimoiy masalalarni yechish borasidagi yondashuvlarni soddalashtirish masalalarida qiynalishgan va ularni hal qilish borasida bergan takliflari ijrosi bo'yicha ham qoniqishmagan.

K.Polani ularing siyosiy fanlar sohasida qo'llagan metodlarini sanab o'tadi: «...Taunsend kishilik jamiyatining izohiga biologik qonunlar nuqtai nazaridan; Gobbs geometrik jihatdan yondashdi; Yum, Gartli, Kene va Gelvetsiylar jamiyat taraqqiyotini boshqaruvchi kuchga ega «nyuton» yoki fizika qonunlarini izlab topish bilan band bo'lganlar. Yuqorida aytilganlar, masalan: mental kuchga ega bo'lib, ular Gobbsning tashvishlari nimadan iborat ekanligiga, Gartli psixologiyasidagi voqealarga, Kenedagi xudbinlik ta'sirlariga yoki Gelvetsiyadagi fikrlarning foydaliligiga tegishli edi. O'sha vaqtlarda moddiy boyliklarni taqsimlash masalasida jamiyatdagi muvozanatni saqlash uchun «hyech qanday boshqaruv talab etilmagan». Bu olimlarning fikricha, bu muvozanat «bir tomonning ochlik azoblarini

---

<sup>23</sup> Зидер Р. Социальная история семьи в Западной и Центральной Европе (конец XVIII-XX вв) – М.: «Владос», 1997. – С. 142.

<sup>24</sup> Поланьи К. Великая трансформация: политические и экономические истоки нашего времени. – СПб.: «Алетейя», 2002. – С. 101-240.

ko'rishi, ikkinchi tomonga oziq-ovqatlar yetishmasligi bilan qayta tiklanavergan». Gobbs o'zining inson hayvonga o'xshash bir jonzot degan fikridan kelib chiqqan holda, mutlaq hokimiyatning zarur ekanligini isbotladi. Taunsend esa inson aslida ham hayvon ekanligini, shu sababli uning faoliyatiga davlatning minimal darajadagi aralashuvi zarurligini ta'kidlardi»<sup>25</sup>.

Polani esa biologik, fizik, siyosiy va boshqa qonunlarning kishilik jamiyatini tashkil etish jarayoniga tatbiq etilishi, nafaqat iqtisodchilarning milliy boylikni taqsimlash muammolarini tushuntirib berishlariga to'sqinli qildi, balki keyinchalik inqiloblar, urushlar va fashizm faoliyati bilan tugashi mumkin bo'lgan tizimli ommaviy inqirozlarni ham keltirib chiqaradi. Polanining fikricha, o'sha davrlarda yashagan faqat bir mutafakkirgina kapitalistik tuzumga o'tish bosqichida mehnatkash xalq boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan shiddatli sinovlarning haqiqiy ma'nosini tushuna oldi. Bu Robert Ouen edi: «...o'sha davrlarda yashagan olimlar ichida faqat u, sanoat to'g'risida asosli amaliy bilimga ega bo'lgan. Hech bir mutafakkir R.Ouen kabi industrial jamiyatning mazmun-mohiyatini chuqur ochib berolmagan. U davlat va jamiyat o'rasidagi farqni aniq tushunib yetdi; u davlatdan faqat u qila olishi mumkin bo'lgan ishlarni kutdi: jamiyatning ichki tarkibini ko'rsatib qo'yish maqsadida emas, fuqarolarga yetkazilayotgan zararlarni bartaraf etish maqsadida aql bilan aralashish shu ishlarlardan biri edi»<sup>26</sup>. R.Ouenning ijodiy merosini tahlil qilarkanmiz, K.Polani uning qarashlariga nima uchun bunday yuqori baho berganiga biz ham beixtiyor qo'shilamiz. Mamlakat hali kapitalistik jamiyatga o'tayotgan 1817 yillardayoq R.Ouen g'arbiy hamjamiyat tanlagan yo'lni bayon etdi va bu kabi shakllanishdagi ko'p muammolarni ochib berdi. R.Ouen «asosiy e'tiborni daromadlar ko'rsatkichiga emas, balki sanoat ishchilarining ma'naviy va ijtimoiy degradatsiyasiga qaratdi. Asosiy sabab sifatida ishchilarning fabrika bilan butunlay bog'liqligini ko'rsatdi»<sup>27</sup>. Shu tariqa, ushbu muammoni boshqa mutafakkirlar faqat iqtisodiy va

---

<sup>25</sup> Поланьи К. Великая трансформация: политические и экономические истоки нашего времени. – СПб.: «Алетейя», 2002. – С. 101-240.

<sup>26</sup> Поланьи К. Великая трансформация: политические и экономические истоки нашего времени. – СПб.: «Алетейя», 2002. – С. 101-240.

<sup>27</sup> Оуэн.Р. Избранные сочинения, в 2 томах, Т.1.М. – Л.: «Изд-во Академии Наук СССР», 1950. – С. 87-88.



demografik nuqtai nazar bilan qarab chiqishgan. R.Ouen esa bu muammolarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, shuningdek ma'naviy sabablari ham ko'p deb hisobladi. Shuning uchun inson xarakteri va hulq atvorini o'zgartirish uchun ishchilar va ularning oilalari yashashi uchun yangi, adolatli shart-sharoitlar yaratish kerak.

Ishchilar muammolarini hal qilishning usuli sifatida R.Ouen kooperativ tashkilotlarni tashkil etishni taklif etdi. Uning fikricha, kooperativ tashkilotlar inson turmush tarzining yagona shakli bo'lib qolishi lozim. R.Ouen muammoni hal etish sifatida ishchilarning o'zlariga ishlab chiqaruvchi assotsiatsiyalar tashkil etishini taklif etdi. Uning fikricha bu kabi ishlab chiqarish assotsiatsiyalarining vazifasi birdamlik tizimi vositasida hamma uchun farovonlik yaratish va yaqinlariga bo'lgan sevgi hamda inson tabiatini haqiqiy anglashga asoslangan korporatsiyalarni tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim edi. Qizig'i shundaki, R.Ouenning takliflari nafaqat olimlar, balki Rossiya davlat boshqaruvida ishlaydigan obro'li insonlarda ham qizig'ish uyg'otdi. R.Ouen va uning ishchilar muammosini hal etish borasidagi urinishlari Aleksandr I ning ham diqqatini o'ziga tortadi, u ikki marotaba – Vena kongressi vaqtida va Frankfurtda R.Ouen bilan uchrashadi. Bo'lajak imperator Nikolay I Nyu-Lenarkka tashrifi chog'ida xatto R.Ouenga o'zi bilan istaganicha ishchilaridan olib, Rossiyaga ko'chib o'tishi taklifini beradi. R.Ouenning qarashlari borasida shuni ta'kidab o'tish kerakki, ishlab chiqarishni tashkil etish va har bir tashkilot ichidagi boshqaruv muhiti uyg'unlashgan holda ko'ringan edi. Uning ushbu utopik loyihasini rossiyalik olim M.I.Tugan-Baranovskiy batafsil tahlil qilib chiqadi. Garchi u R.Ouenning ijodi va amaliy faoliyatini yuqori baholagan bo'lsa-da, lekin uning jamiyatni qaytadan qurish borasidagi dasturlari real hayot bilan juda kam hollarda mos tushishini to'g'ri ko'rsatib beradi.

Aholining ommaviy ravishda qashshoqlanib ketishi, Angliya va Rossiyadagi ishchilar uylarida majburiy mehnat qildirish bilan o'tkazilib kelingan samarasiz tajribalar, kuchsizlanib qolgan davlat mexanizmlari, Buyuk fransuz inqilobidan tortib Angliyadagi qo'zg'olonlarni ham o'z ichiga olgan ijtimoiy protest (norozilik)larning kuchayib borishi va boshqa shu kabi muammolar, siyosatchilar hamda ilmiy hamjamiyat vakillarini daromadlarni

taqsimlaydigan va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan yangi institutlarni tashkil etish zaruriyatini anglab yetishga undadi. «Bunday institutlar budjet tomonidan moliyalashtirilib turiladigan, davlat ijtimoiy ta'minot institutlarini, shuningdek, shartnomalarga va oshkora-huquqiy munosabatlarga (ishchilarni ommaviy va ob'ektiv ijtimoiy risklardan himoyalash bo'yicha) asoslangan tizimlarni ham o'z ichiga oladi»<sup>28</sup>. Bu industrial jamiyat yollanma ishchilari uchun ijtimoiy risklar xavfining ortib ketshinining oldini olish muammosining dolzarbligi bilan ham bog'liq edi. Aholining keng ko'lamda moddiy tang ahvoli va bu tanglikdan qutilishning oldini olishning murakkabligi ijtimoiy himoyaning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etardi. Muammo shundaki, iqtisoddagi hamda aholining o'rtacha uzoq umr ko'rish yoshidagi ijobiy o'zgarishlar va ko'tarilishlarga qaramasdan, salbiy jarayonlar ham yetarlicha yuz berayotgan edi. Sanoat ishchi kuchlarining shiddatli o'sib borishi va milliy boylik ko'payishi bilan barobarida, jamiyatda tabaqalanish, boylik va kambag'allik o'rtasida bo'linish, jamiyatda aholining turli qatlam va sinf vakillari orasida ziddiyatlar avj oldi va bular ijtimoiy zo'riqishning paydo bo'lishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning ortishiga va sanoatdagi sezilarli o'sish sur'atlariga qaramasdan kambag'allik va qashshoqlik G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Yevropaning, hattoki Angliya, Avstriya, Germaniya, Rossiya va Fransiya kabi yirik davlatlarda ham aholining deyarli to'rttdan bir qismi hayotini qamrab olgan edi.

Shu bilan birga, XVIII-XIX asrlarda kambag'allik va qashshoqlikning ta'sir doirasi qisqarmadi, aksincha, kengayib bordi. «Kambag'allik va qashshoqlikning ta'siri nafaqat mehnatga layoqatsiz va ishsizlarni, balki mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan aholining ham ancha qismini o'z domiga tortib olgandi, bu esa davlatdan tegishli choralarni ko'rish dolzarbligini talab qilardi»<sup>29</sup>. Bu davrda kishilik jamiyatining ko'p jabhalarida sifat o'zgarishlari yuz bergan: katta oilalardan (ko'p avlodli) kichik oilalarga (ikki avlodli: otanonalar-farzandlar) o'tish yuz bergan; yollanma ishchilar daromadining

---

<sup>28</sup> Роиқ В.Д. Основы социального страхования: организация, экономика и право. Учебник. – М.: «РАГС», 2007. – С. 454.

<sup>29</sup> Роиқ В.Д. Экономика и финансы и право социального страхования: Институты и страховые механизмы. – М.: «Альпина Паблицер», 2013. – С. 257.

asosiy manbasi oylik ish haqi bo‘lib qoladi; majburiy maktab ta’limi va armiya chaqiruvi joriy etildi; shahar aholisi ichida industrial mehnat bilan shug‘ullanuvchilar qishloqlardan kelgan qismining ulushi ko‘p marotaba oshib ketadi (1.1-javdvalga qarang).

### 1.1-jadval

#### 1870-1913-yillarda Yevropa davlatlarida ishchi kuchining iqtisod sektori bo‘yicha ularning umumiy soniga nisbatan taqsimlanishi<sup>30</sup>

Davlatlar	Qishloq xo‘jaligi		Sanoat		Xizmat ko‘rsatish sohalari	
	1870 y.	1913 y.	1870 y.	1913 y.	1870 y.	1913 y.
1	2	3	4	5	6	7
<b>Shimoliy-G‘arbiy Evropa davlatlari</b>						
Belgiya	44,4	23,20	37,8	45,5	17,8	31,3
Daniya	47,8	41,7	21,9	24,1	30,3	34,2
Niderlandiya	39,4	28,3	22,4	32,8	38,2	38,9
Norvegiya	49,6	39,6	22,9	25,9	27,5	34,5
Shvetsiya	67,4	45,0	17,4	31,8	15,2	23,2
Buyuk Britaniya	22,2	11,8	42,4	44,1	35,4	44,1
Shimoliy-G‘arbiy Yevropa davlatlari bo‘yicha o‘rtacha	38,7	20,9	35,9	39,5	33,3	39,6
<b>Janubiy Yevropa davlatlari</b>						
Fransiya	49,8	41,0	28,0	33,1	22,2	25,8
Italiya	61,0	55,4	23,3	26,6	15,7	18,0
Ispaniya	66,3	56,3	18,2	13,8	15,5	29,9
Janubiy Yevropa davlatlari bo‘yicha o‘rtacha	58,6	49,3	23,2	26,8	18,2	23,9
<b>Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari</b>						
Avstro-Vengriya	67,0	59,5	15,5	21,8	17,5	18,7
Germaniya	49,5	34,5	29,1	37,9	21,4	27,6
Rossiya	Ma’lu	58,6	Ma’lum	16,1	Ma’lu	25,3

<sup>30</sup> Кембриджская экономическая история Европы Нового и Новейшего времени. В 2 томах. Т.1: 1700-1870. – М.: «Изд-во Института Гайдара», 2013. – С. 132.

	mot yo‘q		ot yo‘q		mot yo‘q	
Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bo‘yicha o‘rtacha	56,6	54,9	24,4	25,8	17,6	20,7
Yevropa davlatlari bo‘yicha o‘rtacha	51,7	47,1	26,5	27,8	21,4	25,1

Hayot kechirishning bunday shartlari, shuningdek, katta jamoalarda yuzaga kela boshlagan ijtimoiylashtirish va mehnat faoliyatining turlicha jihatlari (fabrikalar, maktablar va armiyalar) timsolida savodli ishchi bo‘lish imkoniyatlari aks etdi hamda siyosiy faol fuqarolarni ham tarbiyalash imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, XIX asrning oxirlarida vakillik organlarini saylash uchun elektoral bazaning kengayishi (umumiy saylash huquqini fuqarolarga qoldirish yo‘li bilan) yuz beradi. Shuningdek, ijtimoiy-demokratik yo‘nalishga ega bo‘lgan siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari yollanma mehnat faoliyatiga qo‘yilgan talablar agregatsiyasi va artikulyasiyasi mexanizmlari sifatida shakllanib bordi.

Inson huquqlarining shakllanib borayotgan tizim sharoitida davlatning biror tajovuzlarsiz mavjud huquq va erkinliklarini «qo‘riqlash» rolini cheklovchi liberal individualizm nazariyasi inqirozi yaqqol ifoda etilgan, davlatning fuqarolar moddiy ahvolini boshqarish sohasiga aralashuviga yo‘l qo‘ymaydi. Shuningdek, liberal qarashlar o‘ziga o‘zi nafaqat bosqichma-bosqich barham beradi, balki Yevropaning iqtisodiy rivojlangan davlatlarida amalga oshirilgan real davlat siyosati ham uni ikkilanishlarsiz rad etadi. Bunday shart-sharoitlarda ijtimoiy va ijtimoiy ta‘minot sohasida davlat qayta taqsimlab berishi mumkin bo‘lgan ahamiyatli moddiy resurslar talab qilanardi. Bunda Angliya asosiy rol ni o‘ynadi. Angliyada mamlakat parlamentida davlat daromadlari va harajatlarini soliq to‘lovchilar hisobiga yuritish, shuningdek, davlatning soliq tizimini hamda ijtimoiy ta‘minotning milliy tizimini boshqarish an‘analariga e‘tibor berilgan.

Ayni vaqtda Germaniyaga XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kelgan, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohada ham davlatning muvaffaqiyatlarga erishishiga olib kelgan «yetakchilik palmasi» tushunchasini ham e‘tirof etishga to‘g‘ri keladi. Bu paytda

XIX asrning 20 yillarigacha majburiy ijtimoiy sugʻurta institutlarini tashkil etish borasidagi strategik uzilish ham bartaraf etildi.

Ijtimoiy sugʻurta institutlarini shakllantirish Gʻarbiy Yevropa davlatlari aholisining oʻrtacha umr koʻrish davri hamda yosh tarkibida XIX asr oxiri va XX asrning 30 yillarigacha boʻlgan vaqtda yuz bergan demografik oʻzgarishlarga, shuningdek industrial jamiyatning jadal rivojlanishiga sabab boʻladigan yangi mehnat munosabatlariga asoslangan.

Ilgarilari faqat jamiyatning boy qatlami foydalangan moddiy resurslardan barchaning foydalanishiga yoʻl ochilishi natijasida «isteʼmol inqilobi»ning hamda taʼlim sohasida inqilobning yuz berishiga olib keldi.

Industrial jamiyatning asosiy boʻgʻinlaridan hisoblangan «yollanma ishchilar»ga nisbatan isteʼmol mahsulotlarining yangi tuzilmasini joriy etish, ularning oilalariga ham isteʼmol mahsulotlarini jamlanmasini yangilab turish va muvozanatda ushlab imkoniyatlarini yaratdi. Gigiyenik jihatdan qulay yashash uylari ularga dam olishlarini va mehnat qilish tezligining keskin oshib ketishidan soʻng, kuchlarini tiklab olishiga yordam berdi. Taʼlim olish vaqtining uzaytirilishi bilim va sogʻlom hayot haqidagi madaniyat darajasining oshishiga olib keldi.

Industrial jamiyat aholisi hayot kechirishining yuqori sifatga koʻtarilishi aholining farovon hayotini tashkil qilish borasidagi sifat sakrashlarini oʻzida namoyon etdi, butun jamiyat rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi, ikkinchi demografik davr zamonaviy bosqichining dvigateli boʻlib xizmat qildi. Uning asosiy xarakteristikasi oʻrtacha uzok umr koʻrish davomiyligining 50-55 yoshdan (1920 yillarda) 75 yoshgacha koʻtarilishi edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida industrial jamiyatga oʻtish yollanma mehnat hamda ijtimoiy mehnat munosabatlarini keskin oʻzgartirib yubordi. Ishchilarning mehnat qilishga boʻlgan huquqi yashash huquqi kabi muhim qonunlar qatorida koʻriladigan boʻldi. Jahon hamjamiyatidagi aksariyat davlatlar konstitutsiyalari mehnat qilishga boʻlgan huquqni insonlarning asosiy huquqlaridan biri, deb hisoblay boshladi.

Ishlab chiqarish ishlari bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy mehnat munosabatlari yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilishning yangi

shakllarini talab qilardi. Shuning uchun ishchilar oylik ish haqqini yo‘qotganda (ishsizlikda) ularni sug‘urtalash joriy etildi.

Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishga bo‘lgan yuqori talablar, yollanma ishchilarning yangi roli va ishlab chiqarishdagi yuksak o‘rni, yangi joriy etilgan standartlarga asosan birgina yollanma ishchilarning o‘zlarining emas, balki ular oila a‘zolarining ham hayotiy ehtiyojlarini, nafaqat ish faoliyati bilan band bo‘lgan davrlarida, balki ularning mehnat qilishga layoqatini yo‘qotgan vaqtlarida ham ta‘minlay olishi kerak edi.

Ijtimoiy himoya yangi shakllarining eng samaralisi bu ishchilar (ular oilalari)ni yanada samarali (tejamkor va ishonchli) ravishda ijtimoiy himoyalashni ta‘minlashga yo‘l ochib beradigan majburiy ijtimoiy sug‘urta institutlari bo‘lib qoldi (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari), bu bilan ishchi kuchlarini yaratish jarayonining uzluksizligi ham ta‘minlandi. Majburiy ijtimoiy sug‘urta institutlarining shakllantirilishi insoniyat tarixida yangi bosqich paydo bo‘layotganligidan dalolat berardi. Shu vaqtdan boshlab keksa kishilar, ishlab chiqarish vaqtida nogiron bo‘lib qolganlar va ularning oila a‘zolari ijtimoiy himoyalangan hamda moddiy ehtiyojlardan qiynalmaydigan bo‘ldi, keksalik ham kambag‘allik va moddiy qiyinchilikning bir shakli bo‘lib qolishdan to‘xtadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning moddiy potentsiali ijtimoiy himoyaning avval mavjud bo‘lgan shakllaridan ancha ustunlik qildi, ishchilarni himoya qilishning qulay darajasini ta‘minladi va bu bilan ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasidagi muammolarni hal etishga yo‘l ochib berdi. Ijtimoiy himoya yangi institutlarining asosini ishchilarni ommaviy va ob‘ektiv risklardan himoyalaydigan mehnat shartnomasi munosabatlari va ijtimoiy ommaviy-huquqiy munosabatlar tashkil etardi. Majburiy sug‘urta institutlari paydo bo‘lishining iqtisodiy sabablari bo‘lib quyidagilar xizmat qiladi: mehnat faoliyatining doimiyliigi, mehnat murakkabligining va ishchilar malakasining ortishi, keng ko‘lamda mahsulot ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning ommaviyligi iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarning uzluksizligi orqali ta‘minlandi. Bu mexanizmlar bir tomondan, moliyaviy resurslarni to‘plash, ikkinchi tomondan esa, sug‘urtalangan

ishchilarning nafaqaga chiqish va uzoq muddatga boshqa sug'urta huquqlarini amalga oshirishlariga imkon yaratdi.

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy sug'urta tizimida sug'urta to'lovlarining manbasi nimalar hisoblanadi va ular yetarlicha moddiy yordam hamda nafaqa olish uchun qay darajada yetarli hisoblanadi?

2. Yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash elementlari tuzilishi qanday va ularda majburiy ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan xarajatlarning o'rnini qanday?

3. Majburiy ijtimoiy sug'urtalashga qilingan sarf-xarajatlardan uchun xizmatlar tannarxi qanday boshqariladi?

4. Ijtimoiy va shaxsiy sug'urtalash shakllarida bu xarajatlardan uchun xizmatlar tannarxi qanday boshqariladi?

### **Test savollari**

1. XVIII asrda qaysi mutafakkirlari kambag'allik – kapitalistik taraqqiyotning muqarrar oqibati, deb hisoblaganlar?

A) A.Smit, T.Maltus va D.Rikardo

B) B.Charlz va D.Rikardo

S) Gerbert Spenser

2. Ingliz demografi va iqtisodchisi T.Maltus kambag'allikni qanday ta'riflaydi?

A) «agar aholining o'sishi geometrik progressiya bo'yicha sodir bo'layotgan bo'lsa, u holda aholining kun kechirishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi».

B) B.Charlz va D. har qanday davlat farovonligining asosi, shuningdek kambag'allik darajasini pasaytirishning garovidir

S) jamiyaning ijtimoiy tuzilmasi belgisi emas, balki u inson zoti mavjudligining universal xossasi hisoblanadi, ya'ni u juda tez ildiz otadi.

3. «Ijtimoiy statistika» asarida 1850 yilda kim tomonidan yozilgan?

A) Gerbert Spenser

B) B.Charlz

S) D.Rikardo

4. E.Klaver aholini ijtimoiy himoyalashda qaysi institutlarining imkoniyatlarini yetarlicha baholagan?

A) Sug'urta institutlari

B) Bank institutlari

S) Moliya institutlari

5. Ijtimoiy himoya yangi institutlarining asosini ishchilarni ommaviy va ob'ektiv risklardan himoyalaydigan qanday munosabatlar tashkil etardi

A) mehnat shartnomasi munosabatlari va ijtimoiy ommaviy-huquqiy

B) Soliq stavkalari

S) Xayriya jamg'armalari

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Ijtimoiy mehnat va sug'urtalash munosabatlari: o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro ta'sir nazariyasi va metodologiyasi.

2. XX asrda ijtimoiy maqsadlar uchun zaxirada to'plangan mablag'lar miqdoriga bo'lgan qarashlarning evolyusiyasi (rivojlanishi).

3. Ishchilar daromadlarining manbalari hamda Germaniya, Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqida ijtimoiy sug'urta tizimini oylik ish haqi to'g'risidagi milliy tizim nuqtai nazaridan boshqarish shartlari.

4. Bismark modeliga mos ravishda tashkil etilgan ijtimoiy sug'urta tizimlari: ularning kuchli va zaif tomonlari.

5. Beveridj modeliga mos ravishda tashkil etilgan ijtimoiy sug'urta tizimlari: ularning kuchli va zaif tomonlari.

6. Sobiq Ittifoq modeliga mos ravishda tashkil etilgan ijtimoiy sug'urta tizimlari: ularning kuchli va zaif tomonlari.

### **1.4-§. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni shakllanishining nazariy asoslari**

1882 yilda Germaniyada butun mamlakat sanoat sohasi negizida tashkil etilgan birinchi majburiy ijtimoiy sug'urta instituti ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan va kasb kasalliklaridan sug'urta qilish institutlaridan biri bo'lgan edi. Uning tashkil etilishi yollanma mehnat qilayotgan ishchilarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni tarixidagi muhim bosqichga qadam



qo'yilayotganligini ifoda etardi. Chunki mehnat va ijtimoiy sug'urta munosabatlarining mutlaqo yangi ko'rinishi shakllanib ulgurgan edi.

Ilgarilari ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning sog'ligiga va mehnatga layoqatiga zarar yetishni qoplash ish beruvchilarning fuqaroviy huquqiy javobgarligi yordamida ikki xil holatda yuz bergan: 1) baxtsiz hodisalar yuz berganda ish beruvchi tomonidan aybining tan olinishida; 2) sud qarorining ishchilar foydasiga chiqarilishida. Yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilishning bunday shakli ishlab chiqarish vaqtida biror himoyaga olinmagan, biror kompensatsiya to'lovlari ololmagan jabrlangan ishchilarni himoya qilishning biror maqul bosqichini ta'minlay olmadi. Bu holat ish beruvchining fuqaroviy huquqiy javobgarligiga asoslangan zararni qoplash usuli bilan bog'liq bo'lgan, ko'p holatlarda, masalan, ish beruvchining moddiy ahvoli tang holatga kelganda – muassasaning bankrotlikka yuz tutgan holatlarida ishchiga berilgan zararni ishonchli tarzda kafolatlay olmagan. Shu sababli XIX asr o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda sanoat inqilobi bo'yicha eng muhim masala – yollanma ishchilarning korxonalaridagi baxtsiz hodisalar tufayli o'zlarining mehnatga layoqatini yo'qotishi vaqtida buning uchun moddiy kompensatsiya to'lashi masalasi bo'lib qoldi. Bu esa juda murakkab moddiy, ijtimoiy va huquqiy masala edi, chunki ishlab chiqarish vaqtida jarohat olgan ishchi uchun unga bundan keyin yashashi uchun kompensatsiya to'lash muassasadan ishchining ko'p yillik oylik maoshidan ham ko'p miqdorda moddiy resurslar talab etilardi. Jabrlangan ishchiga moddiy zararni qoplash, haqiqatdan ish beruvchi (javobgar)ning unga nisbatan befarq munosabatda bo'lganligini sudda isbotlay olgan holatidagina belgilangan. Ish beruvchining hech qanday xavfsizlik choralarini qo'llamaganligi tufayli ishchi jarohatlar olgani, buni ish beruvchi tan olganidagina ish beruvchiga jabrlangan ishchi ahvoliga moddiy javobgarligi yuklatilgan.

Tadbirkorlarning fuqaroviy huquqiy javobgarligiga asoslangan huquqiy institutlarning samarasiz ekanligi ish beruvchilar va ishchilarning ijtimoiy, mulkiy va savodxonlik jihatdan tengsizligiga, ishchilar va ular oila a'zolarining ko'rgan qiyinchiliklariga bog'liq edi. Baxtsiz hodisalar sabablarini o'rganishdagi qiyinchiliklarning ko'pi kasbiy risklarning ancha murakkab texnik, iqtisodiy, huquqiy va

ijtimoiy tabiati bilan bog‘liq edi. Ularning kelib chiqishini to‘g‘ri izohlash malakali va odil sudlarga ham yetarlicha qiyinchiliklar tug‘dirgan. Natijada kompensatsiya to‘lovlari asoslari va miqdori turli sud qarorlarida turlicha belgilangan. Ko‘pchilik hollarda sudlar aybni jabrlangan ishchilar bo‘yniga qo‘yishgan, bu esa ishchilarning mehnat qilishga layoqatini yo‘qotganida moddiy to‘lov olishi imkoniyatini yo‘qqa chiqargan, ular oilalarining och qolishiga olib kelgan. Boshqa tomondan, ishchilarning (ishlab chiqarish vaqtida jabr ko‘rganlar oilalarining) qo‘zg‘olon qilib qarshi chiqishlari keng ommaviy noroziliklarga sabab bo‘ladi, natijada ular qonun chiqaruvchilar va sud hokimiyatlaridan bu kabi murakkab vaziyatlarda chiqish yo‘llarini talab qilganlar.

Nemis olimlari A.Vagner va G.Shmoller ishchilar hayoti va sog‘ligiga zarar yetkazilganda tadbirkorlarning javobgarligini kiritish zarurligini asoslab o‘tadilar, bunday javobgarlikning moliyaviy va huquqiy mexanizmi sifatida ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz hodisalardan majburiy ijtimoiy sug‘urta qilishni taklif etadilar.

Ko‘pchilik sanoati rivojlangan davlatlar (Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya)dagi siyosiy aksiyalarning yakuni sifatida, kasaba uyushmalari va sotsial-demokratik partiyalarning mehnat va fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy himoyalash sohasidagi munosabatlari ijtimoiy-mehnat va ijtimoiy-sug‘urtaviy munosabatlarga aylantirildi. Yangi shakldagi munosabatlarning asosi ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarda ishchilarni himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat va ijtimoiy sug‘urtaviy munosabatlar bo‘lib qolaverdi. Bu munosabatlar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash institutlari negizida tashkil etiladi hamda yollanma ishchilarni himoya qilish ommaviy instituti sifatida 1884 yilda Germaniyada, Germaniya kansleri Otto Bismarkning tashabbusi bo‘yicha ishga tushirilgan. «Ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq baxtsiz hodisaga ish beruvchi javobgar etib belgilandi. Bunda ish beruvchi sug‘urta badalini to‘lash bilan sug‘urta tashkilotiga (sug‘urtalovchiga) ishchilar oldida baxtsiz hodisalar yuz bergan holatlar uchun o‘z javobgarligini bildiradi. Ish vaqtida baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda, sug‘urtalovchi ishchilar

bilan ularga kompensatsiya to'lovlari, tibbiy va realibitatsiya xizmatlariga pul to'lash orqali o'z munosabatlarini yo'lga qo'yadi. Ijtimoiy himoyaning ushbu shaklini tashkil qilishning asosiy prinsipi shundan iboratki, bunda sug'urtachi jabrlangan ishchi uchun ijtimoiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlashning oldindan qarab chiqilgan barcha shakllarini tashkil qilib beruvchi yuridik shaxsga aylanadi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta tizimining qonuniy ravishda kiritilishi Germaniyada eng samarali ijtimoiy himoya institutlarini shakllantirishda katta yutuqlarga erishishga imkon berdi. Bu tajribadan dastlab ko'pchilik Yevropa davlatlari, keyinchalik (XX asrning 30-60 yillarida) jahon hamjamiyatining aksariyat mamlakatlari foydalana boshladi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati ish beruvchining ishchiga yetkazgan zararini qoplash uchun bo'lgan individual javobgarligidan tubdan farq qiladi. U barcha ish beruvchilarning ish joyida jabrlangan har bir ishchi oldidagi jamoaviy javobgarligiga asoslanadi.

Har bir tadbirkorning belgilangan sug'urta badallarini muntazam ravishda to'lash majburiyati uni qo'shimcha harajatlardan va o'zining ishchilari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishdan ozod qiladi.

Ishchilarni kasbiy risklardan sug'urta qilishning iqtisodiy munosabatlari mehnat munosabatlariga asoslangan. Ish beruvchilar to'lagan sug'urta badallari ishchilar foydasiga sarflanadi, bunda xodimlarning mehnatiga haq to'lashni amalga oshirish maqsadida maxsus sug'urta fondlari tashkil qilingan. Bu kabi sug'urta institutlarining Germaniya, Avstriya, Italiya, Polsha va Finlyandiyada faoliyat ko'rsatgan ilk yillaridayoq ularning zarur jihatlari quyidagilarda yaqqol ko'zga tashlandi:

- sug'urta fondining shakllanishida barcha ish beruvchilarning sug'urta fondalarini moliyalashtirishda ishtirok etishi zarurligi;

- sug'urta fondlari faoliyatlarining nafaqat davlat, balki omma tomonidan ham nazorat qilinishi kerakligi kabilar shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish institutlarini Rossiyada ishga tushirish jarayoni o'zining juda qisqa (1913 yildan 1918 yilgacha, 1921 yildan 1928 yillargacha bo'lgan davr) tarixiga ega. 1930 yildan boshlab mamlakatda

fuqaroviy-huquqiy javobgarlik instituti faoliyat ko'rsata boshladi. Oxir-oqibatda mavjud vaziyat 2001 yilga kelib jahon amaliyoti talablariga javob bera oladigan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug'urta qilish institutlarini tashkil etishni talab qildi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug'urta qilish institutlarining kuchli tomonlari quyidagilardir:

– ilgari boshqa organlar bajargan vazifalarni sug'urta tashkilotlariga (sug'urtachilarga) berish borasida birlashish, bunda sug'urtachi juda murakkab, o'zining qo'lidan kelmaydigan ishlarni emas, o'z vakolati doirasidagi ishlarni amalga oshirgan (baxtsiz hodisalardan sug'urtalash uchun kompensatsiyalar to'lash, tibbiy, professional va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish);

– sug'urtachi keraksiz xarajatlarni kamaytirishdan manfaatdor yuridik shaxsga aylandi.

– rivojlanmagan bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchi ishchining ishsiz yurgan davri uchun hech qanday javobgarlikka ega bo'lmagan. Mehnatga ish haqi berish borasidagi shartnomada ishchining mehnat qilishga layoqatsiz bo'lib qolgan paytida ish beruvchi tomonidan qilinishi lozim bo'lgan harajatlar haqida hech narsa ko'rsatilmagan. Ishchining ishsiz qolib ketishi, kasallikka chalinishi, nogironligi va keksaligi holatlarida duch keladigan risklari uning moddiy ta'minlanganligiga doimiy xavf tug'dirib keladi;

– oylik ish haqining milliy tizimi, mehnat bilan bandlik muammolarini tartibga solish va bu xildagi boshqaruv tizimi faoliyatini soliq va ijtimoiy sug'urta tizimi bilan uzviy hamkorlikda olib borish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik majburiy ijtimoiy sug'urtalashning muhim nazariy konstruksiyasi hisoblanadi (buni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ijtimoiy sug'urta va ta'minot shakllanishining asosiy davrlari isbotlaydi, bu narsa iqtisodiy rivojlangan davlatlar siyosatida aniq namoyon bo'ladi;

– 1890-1940 yillar pensiya tizimining asosiy elementlarining paydo bo'lish davri bo'lib, oylik ish haqidan pensiya, tibbiyot va boshqa majburiy ijtimoiy sug'urta shakllari uchun ma'lum miqdorda pul (to'lov) ajratiladi;

– 1950-1960 yillarda ijtimoiy sugʻurtalashning milliy tizimi va oylik ish haqi tizimi faoliyatining mutanosibliyi yoʻlga qoʻyildi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda buni amalga oshirish uchun YAIM hajmining 40-50 foizidan kam boʻlmagan qismi ajratiladi. Bu davrni industrial jamiyat aholisining daromadidagi birinchi ijtimoiy inqilob deb atash mumkin;

– 1960-1970 yillarda ijtimoiy sugʻurtalash milliy tizimi, oylik ish haqi va soliq tizimi faoliyatining mutanosibliyi yoʻlga qoʻyildi. Bunda ishchining oylik ish haqidan ijtimoiy sugʻurta badali va daromad soligʻi ushlab qolish masalasiga tabaqalashgan yondashuvni (juda kam miqdorda oylik maoshi oluvchilardan ijtimoiy sugʻurta badali va daromad soligʻi ushlamaslik yoki pasaytirilgan holda olish, katta miqdorda oylik maoshi oluvchilardan esa yuqori miqdorda olish) qoʻllash amalga oshirildi va buni industrial jamiyat aholisining daromadidagi ikkinchi ijtimoiy inqilob deb atash mumkin;

– 1970-2000 yillarda «sotsialistik davlat» deb atalgan iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodiy imkoniyatlarining sezilarli ravishda kengayishi yuz beradi. Bunday davlatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish uchun sezilarli miqdorda yirik (YAIM hajmining 20-25 foiziigacha) moliyaviy mablagʻlar ajratiladi. Bu bosiqchni industrial jamiyat aholisining daromadidagi uchinchi ijtimoiy inqilob deb atash mumkin. Bunda aholining katta qismi uchun sogʻliqni saqlash, pensiya va ijtimoiy himoya tizimida sifatli xizmatlarni olish imkoniyatiga ega boʻldi.

Rossiya esa bunday bosqichlardan oʻtmadi. Chunki sobiq Ittifoq davrida pensiya taʼminotining katta qismi asosan davlat budjeti tomonidan amalga oshirilardi. XIX asrning ikinchi yarmi va XX asrning 30 yillarigacha boʻlgan davrda industrial jamiyatga oʻtish yollanma mehnatning va ijtimoiy mehnat munosabatlarining butun majmuini keskin oʻzgartirib yubordi.

Mehnat shartnomasini tuzishni kengaytirish ishchilarni nafaqat mehnat qilgan davrida, balki mehnatga layoqatini yoʻqotgan davrlarda ham moddiy taʼminlash zarurligiga olib keldi. Bu esa oxir-oqibatda mehnat va ijtimoiy sugʻurta munosabatlari oʻrtasidagi mustahqam oʻzaro aloqani yoʻlga qoʻyish kerakligiga olib keldi.

Ishchi kuchlari yetishtirib chiqarishni ta'minlashning ijtimoiy modeli uning bozor modelidan davlat boshqaruvi postulatlariga asoslanganligi bilan farq qiladi. Bunda chiqimning sezilarli qismi umumiy iste'mol va davlat (muassasadan tashqari) xizmatlari fondi yordamida ta'minlangan. Ishchi kuchi yetishtirishga bo'lgan harajatning 60-70 foizi va undan ham ko'proq qismini muassasa emas, muassasadan tashqari tashkilotlar tomonidan ta'minlangan.

### **Nazorat savollari**

1.Sanaot sohasi negizida birinchi majburiy ijtimoiy sug'urta qachon tashkil etilgan?

2.Ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning sog'ligiga va mehnatga layoqatiga zarar yetishni qoplash ish beruvchilarning fuqaroviy huquqiy javobgarligi qpy holatda yuz beradi?

3.Nemis olimlari A.Vagner va G.Shmoller qaysi majburiy ijtimoiy sug'urta qilishni taklif etadilar?

### **Test savollari**

1.«Ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalash to'g'risida»gi qonunga kachon va kim tomonidan qabul qilingan?

A) 1884 yilda Germaniyada, Germaniya kansleri Otto Bismark tomonidan

B) 1890 yilda AQShda, Otto Bismark tomonidan

S) 1894 yilda AQShda, A.Smit tomonidan

2. Majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi nechanchi asrda Yevropa davlatlari va jahon hamjamiyatining aksariyat mamlakatlari foydalana boshladi.?

A) XX asrning 30-60 yillarida

B) XVII asrning 30-60 yillarida

S) XIX asrning 30-60 yillarida

3. Rossiyada nechanchi yildan boshlab fuqaroviy-huquqiy javobgarlik instituti faoliyat ko'rsata boshlagan?

A) 1930 yildan

B) 1980 yildan

S) 2001 yildan

4. 1970-2000 yillarda «sotsialistik davlat» deb atalgan iqtisodiy rivojlangan davlatlar aholini ijtimoiy himoya qilish uchun YAIM hajmining necha foiziigacha moliyaviy mablag'lar ajratilgan.?

A) YAIM hajmining 20-25 foiziigacha

B) YAIM hajmining 6-10 foiziigacha

S) YAIM hajmining 30-35 foiziigacha

5. Sobiq Ittifoq davrida pensiya ta'minotiing katta qismi qanday moliyalashtirilgan?

A) davlat budjeti tomonidan

B) Ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan

S) Xususiy sektor tomonidan

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish

2. Ijtimoiy sug'urta institutlarini tashkil qilishning g'oyasi va konseptual modeli

3. Yevropa Ittifoqi davlatlarida olib borilayotgan davlat ijtimoiy siyosat

4. Ijtimoiy himoyani sug'urtalashga oid mexanizmlar

### **Xulosa**

Yevropa Ittifoqi davlatlarida olib borilayotgan davlat ijtimoiy siyosatining negizi bo'lib xizmat qilayotgan davlat ijtimoiy himoyasining asosini ikkita muhim institut tashkil etadi: ijtimoiy sug'urta va davlat ijtimoiy ta'minoti. Ular yordamida YAIM umumiy qiymatining 30 foizidan ko'p miqdoriga moliyaviy resurslar shakllanadi. Bunda Yevropa Ittifoqning ko'pchilik davlatlarida (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya) ijtimoiy sug'urta ulushiga ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag'ning 60-70 foizi to'g'ri keladi. Skandinaviya mamlakatlari va Buyuk Britaniyada aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini davlat budjeti tomonidan moliyalashga sarflanadigan mablag' va aholini ijtimoiy himoyalashga sarflanadigan mablag' bilan deyarli teng. Rossiyada esa ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 45 foizi ijtimoiy sug'urtalashga sarflanadi.

Ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'lar quyidagi asosiy ijtimoiy risklar ta'sirini pasaytirish uchun yo'naltiriladi: kasalliklar, nogironlik, keksalik, oila boquvchisining o'limi, homiladorlik, bola parvarishi, ishsizlik, katta yosh guruhlaridagi kasal va keksa kishilarni qo'llab-quvvatlash. Bu kabi maqsadlar uchun Yevropa Ittifoq davlatlarida

YAIM hajmining 27,5 foizi sarflanadi. Bunda ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablagʻlarning 2/3 qismi – bu nafaqalar va sogʻlikni saqlash ishlari uchun sarflanadigan mablagʻlardir.

Ijtimoiy himoyani sugʻurtalashga oid mexanizmlar yordamida tashkil etilgan, yollanma ishchi va ularni oila aʼzolarini ijtimoiy risklarning moddiy zararlaridan himoya qiluvchi asosiy institut deb atash mumkin. U bir qator mexanizmlar va qoidalar birikmasidan iborat: rivojlangan va qonuniy boshqarilib turiladigan ijtimoiy mehnat va sugʻurta munosabatlaridan; sugʻurtalashga zarurat tugʻilganda joriy etilgan sugʻurta badallaridan; ijtimoiy risklarning barcha sugʻurtalagan shaxslar oʻrtasida taqsimlanishiga; qiymati kafolatlangan sugʻurta toʻlovlarini toʻlash va tibbiy xizmat koʻrsatish. Bu mexanizm va qoidalarning ahamiyati juda muhim, chunki ular yordamida industrial jamiyatda mehnatkashlar va ular oilalarining ijtimoiy himoyasi taʼminlanadi. Bundan tashqari, ular jamiyatdagi mehnat va ijtimoiy munosabatlarga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, ish beruvchi va ishchilar oʻrtasidagi munosabatni uygʻunlashtiradi, mehnat qilish va bir tekis doimiy oylik maosh bilan taʼminlash jarayonining uzluksizligini taʼminlaydi.

Sodir boʻlishi kutilayotgan ijtimoiy risklarga kompensatsiyalar toʻlash va ularni sugʻurtalangan shaxslar oʻrtasida taqsimlash ijtimoiy himoyaning iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Ishchi oʻzining mehnatga layoqatini yoki ish oʻrnini yoʻqotgan hollarda iqtisodiy mehnat va sugʻurta munosabatlarining muhim asosi boʻlmish daromadni yoʻqotishda beriladigan kompensatsiyalar hisoblanadi.

Moliyaviy resurslarni toʻplash sugʻurta institutlariga majburiy huquqiy xarakter beruvchi qonunlar orqali taʼminlanadi. Mazkur qonunlar aholiga davlat tomonidan kafolatlangan zarur sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish vaqtida sugʻurta institutlariga moddiy taʼminot va boshqaruv masalasida katta umid beradi.

Sugʻurta toʻlovlari: ishchilarning joriy ish haqi miqdorini eʼtiborga olgan holda hisoblab chiqiladi; ishchilarning oʻz ishlab topgan mablagʻlari hisobiga toʻldirilib turiladi; faqat mehnat qilish layoqatini yoʻqotishdagi ochiq oydin koʻrinib turgan hollarda toʻlanadi (kasallik holati va nogironlik tibbiy ekspertiza xulosasi bilan



tasdiqlanadi, keksalik nafaqasiga chiqish yoshi qonunchilik me'yorlari asosida aniqlanadi); vaziyatga qarab oqilona taqsimlanadi – ishlashni boshlash va yakunlash muddatiga qaraladi, ishsizlikda, keksalikda to'lanadi (sog'lom odamga ham, kasal va nogironga ham vaziyatga qarab to'lanadi); ishchilar (ularning joriy oylik maoshidan) va ish beruvchilar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu holat ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiradi, ishchilar joriy daromadini noqonuniy ravishda pasaytirishga to'sqinlik qiladi, sug'urta to'lovlarining foydalilik va kafolatlanganlik darajasini oshiradi.

Sug'urta badallarining miqdori ijtimoiy himoyaning qabul qilingan standartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu standartlar, nafaqat, sug'urtalangan shaxslarning, balki ular oila a'zolarining ham ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kiritilgan, ya'ni aholining ish bilan ta'minlanishi jarayoni ham hisobga olingan. Mehnat qilish layoqatini vaqtinchalik va qisman yo'qotish holatini sug'urtalash tufayli fuqarolarga faol mehnat qilish faoliyatiga yana qaytishlari uchun sharoitlar yaratiladi, ularning kasallik davrlarida farzandlarini parvarish qilish choralari ham ko'riladi.

Daromadlarni qayta taqsimlash jarayoni turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi: bitta ijtimoiy tuzilma tomonidan ta'minlanib turilgan, daromadiga ko'ra bitta guruhga tegishli bo'lgan ishilar o'rtasida «gorizontal» yo'nalishda amalga oshirildi; katta miqdorda oylik maoshi oluvchilardan past darajada oylik maoshi oluvchi sug'urtalanuvchilar tomon amalga oshiriladi, ya'ni o'tmishda kam oylik olgan ishchilar endilikda katta miqdorda oylik oluvchi ishchilar bilan teng miqdorda nafaqa ola boshlaydilar. Bunda u yoki bu ishchilar toifalari bir xil protsent stavkasida sug'urta to'lovlarini amalga oshiradilar. Tibbiy sug'urta tizimlarida daromadlarni «vertikal» ravishda qayta taqsimlash jarayoni ham shu tarzda amalga oshiriladi. Daromadlarni «vertikal» ravishda qayta taqsimlash mexanizmi yordamida moddiy resurslarni turli kasblar, hududlar, shaharlar va qishloqlar o'rtasida bahamjihat holda qayta taqsimlashga erishiladi.

## **II BOB. AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA IJTIMOIIY SUG‘URTANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **2.1-§. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining huquqiy institutsional asoslari**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi mamlakat ijtimoiy siyosatining zaruriy unsuri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda iqtisodchi-olimlarning «Ijtimoiy himoya» atamasiga bergan turlicha ta’riflarini uchratish mumkin. Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarning muhim xususiyatlaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini amal qilishi hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi xisoblangan aholining ijtimoiy himoya tizimini amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Aholining ijtimoiy himoya qilish tizimida aholi muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordamning maqsadli va manzilliligini ta’minlash davlat, korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlari, xayriya jamg’armalari va boshqa nodavlat jamg’armalarining faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy himoya tizimi aholining turli xil ijtimoiy qatlamlari tomonidan olingan daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish yuli bilan aholi guruhlari daromadlari o’rtasidagi tabaqalanishni keskinlashmasligini nazorat qiladi. Shu maqsadda kam daromadli va kam ta’minlangan qatlamlarni moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, aholining katta daromadli qatlami daromadlarining yuqori chegarasini cheklash uchun turli xil yondashuvlardan foydalaniladi.

Olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo’lgan aholini ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibiy qismlari o’rtasida maqbul muvozanatga erishishning yangi yo’llarini topishga qaratilgan bo’lib, ular iqtisodiy rivojlanishning bilan ijtimoiy adolatlilik tamoyillari o’rtasidagi ziddiyatni kamaytirishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya bo’yicha V. Antropov tomonidan «har bir ishlovchi mehnat faoliyatida vaqtinchalik nogironlik, tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish, mehnat faoliyati jarayonida sog’lig’ini saqlash, mehnatni muhofaza qilish, ishchilar va ularning oilalariga yordam berish huquqini

ta'minlaydigan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlar majmuasi»<sup>31</sup>ga alohida tariflar berib o'tilgan.

«Aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasi ilk bor XVIII asrning oxiridan iqtisodiy adabiyotda qo'llanilgan. Ushbu davrda Yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilishning nazorat tizimi shakllana boshlagan (aholiga ijtimoiy himoya tizimining institutsional rivojlanishi, huquqiy bazasini shakllantirish va ijtimoiy yordam amalga oshirilgan va davlat tomonidan qisman moliyalashtiradigan ma'muriy boshqaruv). Ushbu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, davlat ijtimoiy funksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri bajaraydi va boshqa muassasalar ushbu vazifalarni bajarishga (shaxsiy va jamoat xayriya tashkilotlari, korporativ ijtimoiy sug'urta tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlari) yordam beradi. Ushbu jarayonni davlatning ijtimoiy funksiyalarining paydo bo'lishi va jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy himoyalash jihatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ular jamiyatni mustahkamlashga asoslangan.

Ijtimoiy himoyaning dastlabki unsurlari XIX asr oxirida Germaniyada davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar orqali aholini ijtimoiy himoya qilishga mablag'lar ajratilishidan boshlandi. Jamiyatning aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ijtimoiy funksiyalari davlat zimmasiga o'ta boshladi. «Ijtimoiy himoya» atamasi dastlab 1935 yilda AQShning ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonunida ishlatilgan bo'lib, ushbu mamlakat uchun yangi bosqichni belgilab berdi. Keksalik, o'lim, nogironlik va ishsizlik bo'yicha majburiy sug'urta institutlari joriy etildi. Ushbu atama dunyoning ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi, tug'ma va mehnat nogironlariga, keksa yoshdagi fuqarolarga yordam berishning milliy tizimi tashkil etildi.

Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot inson huquqlarining biri sifatida qashshoqlikni kamaytirish va uning oldini olish, insonlarning ijtimoiy himoyasiz qolishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan dasturlar va tadbirlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi. «Ijtimoiy himoya – keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy himoya qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy

---

<sup>31</sup> Антропов В. Модели социальной защиты в странах ЕС // Мировая экономика и международные отношения. 2005. № 11. – С. 70-77.

chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligidir»<sup>32</sup>. Bir vaqtning o'zida ijtimoiy himoya ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordamni to'la ma'noda qamrab oladi. Xalqaro standartlarga muvofiq, «ijtimoiy himoya tibbiy yordam, tibbiy sug'urta, oilani, ona va bolani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish huquqlarini o'z ichiga oladi»<sup>33</sup>. Ijtimoiy himoyaning maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi turli qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik, jamiyat tomonidan insonga munosib turmush darajasini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlatning o'rni va vazifalariga bag'ishlangan ilmiy nazariy konsepsiyalar mavjud. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy konsepsiyalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida quyidagicha guruhlash mumkin (2.1-jadvalga qarang).

Aholini ijtimoiy himoya qilish nazariyalarini ishlab chiqishda inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, hayot sifati konsepsiyalari muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan iqtisodiyot bo'lib, bozor iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlangan shakli, erkin bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy adolat tamoyillarini birlashtiradi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, «ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi darajasi jamiyat rivojlanishi ko'satkichlariga bog'liq hisoblanadi»<sup>34</sup>. Demak, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ustun darajada mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

---

<sup>32</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «И» ҳарфи. – Т.: «ЎМЭ» Давлат илмий нашриёти, 2001. 2-том. 69-б.

<sup>33</sup> Ярошенко И.С. Право социального обеспечения. Учеб. пос.– Киев: «КНЭУ», 2005. – С. 232.

<sup>34</sup> Калашников С. Социальное рыночное хозяйство и социальное государство // Человек и труд. 2003. № 9. – С. 32-45.

## 2.1-jadval

### Aholini ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan nazariy qarashlar evolyusiyasi<sup>35</sup>

Davrlar	Ilmiy maktab	G'oya namoyondalari	Ijtimoiy himoya muammolariga taalluqli bo'lgan asosiy g'oyalar
XVIII asr va XIX asr boshlari	Klassik siyosiy iqtisod	U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, T.M altus, Dj. Styuart Mill, J.B.Sey	Hukumatning iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha harakati bozorni «ko'rinmas qo'l» orqali boshqarishning samarali ishlashiga xalaqit beradi. Aholi daromadlarini tabaqalashtirish – resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi.
XX asr boshlari	Neoliberalizm	V.Oyken, A.Myuller-Armak, V.Ryopke, L.Erxard, F.Xayek	Fuqarolarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini beruvchi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida xis qilishi uchun jamiyatdan kompensatsiya olishida davlatning vazifasi daromadlarni shakllantirishi tizimini tartibga solishi bilan izohlanadi.
XX asr boshlari	Keynschilik maktabi	Dj.M.Keyns, Dj.V.Robinson, Dj.Xiks, F.Modilyani,	Aholi daromadlarining o'sishi orqali yalpi talabni rag'batlantirish resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va ishsizlikga qarshi kurashishga imkon beradi. Bozor mexanizmi davlatning aralashuvisiz iqtisodiy muvozanat va ijtimoiy adolatni ta'minlay olmaydi.
1920-1950 yillar	Institutsionalizm nazariyasi	T.B.Veblen, Dj.R.Kommons, R.Aron, D.S.Nort,	Davlat, yirik korporatsiyalar va kasaba uyushmalari ijtimoiy institutlar hisoblanib, iqtisodiyotga faol ta'sir ko'rsatadi va barcha fuqarolarning munosib turmush darajasini ta'minlash imkonini beradi.
1960-1970 yillar oxiri	Farovonlik nazariyasi	F.Perru, Dj.K.Gelbreyt, G.Myurdal	Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot tizimlarini rivojlantirish va eng kam ish haqini tartibga solish ijtimoiy barqarorlik va umumiy farovonlikni ta'minlaydi.
1970-1990 yillar	Inson kapitali konsepsiyasi	T.U.Shuls, G.S.Bekker, X.S.Djonson, Dj.Minser	Malakali mehnat, aholining kasbiy bilim darajasi mamlakat iqtisodiy o'sishining va raqabardoshlik ta'minlanishining bosh omili hisoblanadi. Shu sababli, ishchining ijtimoiy ta'minoti xarajatlarini qo'shgan holdagi ishchi kuchi qiymati chegarasi

<sup>35</sup> Куклин А., Леонтьева А. Социальная защита населения как потребность рыночной системы хозяйствования. Монография. – Тюмень: «ТГУ», 2013. – С. 11. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

			kengayib boradi.
1990 yillar boshi	Inson taraqqiyoti konsepsiyasi	BMTning Taraqqiyot Dasturi ekspertlari	Inson taraqqiyoti iqtisodiy o'sishning vositasi emas, balki jamiyat taraqqiyotining mezonini va maqsadini hisoblanadi.
1990 yillar	Hayot sifati konsepsiyasi	Dj.Forrester, E.Toffler, A.Mishel, S.Ayvazyan	Ijtimoiy sohalarning rivojlanish darajasi fuqarolar hayoti faoliyatining ijtimoiy xavfsizlik darajasi baholash imkonini beradi.
1990-2000 yillar	Inson taraqqiyoti va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish	D.Medouz, A.A.Bartlett, S.Murai, L.I.Abalkin, A.D.Ursul, A.V.Sidorovich	Inson taraqqiyoti fuqarolarning uzoq umr ko'rishi, sog'ligi va ijodiy hayotini aks ettiradi. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatning doimiy ravishda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan ta'minlanadi.

N.Bolotina fikricha «ijtimoiy himoya tushunchasi ijtimoiy xavf-xatarning salbiy oqibatlaridan xavfsizligini ta'minlash uchun davlatning ijtimoiy himoyalash faoliyatidir»<sup>36</sup>. Ikkinchi tarafdagi asosan ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy funksiyalari mazmuni va mamlakatda fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy choralar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy himoya aholini ijtimoiy risklarning salbiy oqibatlaridan himoyalash uchun huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy vosita va choralar tizimini qamrab oladi.

Iqtisodiy adabiyotda «ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy xavfsizlik» tushunchalari turli ilmiy tortishuvlarga sabab bo'ladi. Ayrim iqtisodchilar ushbu tushunchalarni sinonim desalar, boshqalar esa ijtimoiy himoya ijtimoiy xavfsizlikni ham qamrab oluvchi kengroq tushuncha, deb hisoblaydilar. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi ijtimoiy ta'minot bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning bepul uy-joy olish (yoki arzon narxlarda uy-joy sotib olish) huquqini, turmush darajasi, sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqni, ta'lim olish huquqini o'z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro andozalarga muvofiq, «ijtimoiy himoya, tibbiy yordam, tibbiy sug'urta, oilani, ona va bolani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni

<sup>36</sup> Болотина Н.Б. Право социальной защиты: учеб. пособие. – М.: «Знание», 2005. – С. 405.

qo'llab-quvvatlash va himoya qilish huquqini o'z ichiga oladi»<sup>37</sup>. «Insoniyat taraqqiyotining istalgan bosqichida, odatda, inson mehnatga layoqatsizlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlamasdan yashay olmasligini hisobga olish adolatdan bo'ladi»<sup>38</sup>. Shu sababli, ijtimoiy himoyalashning ijtimoiy xavf-xatarlar oqibatida shakllanadigan fuqarolarning ijtimoiy maqomini, ularning umum e'tirof etilgan huquqlarini belgilaydigan shartlarga muvofiq ijtimoiy himoyani jamiyatning asosiy vazifasi sifatida sharhlash maqsadga muvofiq.

Iqtisodchi-olim R.Djumanova tadqiqotlarida aholi turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilash yo'nalishlariga e'tibor qaratadi. «Insonlarning ta'lim olganlik darajasi ularning o'z sixat-salamatligi bilan to'g'ri proporsional»<sup>39</sup> ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, mamlakatimiz 2030 yilga qadar yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga kirish uchun ijtimoiy sohani moliyalashtirish ko'lamini jiddiy kengaytirishning dolzarbligini asoslab beradi.

N.Xasanxonova aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi: «ta'lim, fan-texnika taraqqiyoti va sog'liqni saqlash»<sup>40</sup>.

N.Majidov, U.Rayxanovlar ijtimoiy sohani moliyalashtirishda ijtimoiy sug'urtaga alohida e'tibor qaratadilar. Jumladan, «ijtimoiy himoya choralari iqtisodiyotning ehtiyojlariga muvofiq ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni yaxshilash imkonini beradigan eng maqbul vositaga aylandi»<sup>41</sup>, degan xulosaga keladilar. Shu bilan birga, YAIM hajmidagi ijtimoiy xarajatlarning ulushi ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanib, bozor

---

<sup>37</sup> Ярошенко И.С. Право социального обеспечения: учеб. пособие. – Киев: «КНЭУ», 2005. – С. 232.

<sup>38</sup> Калашников С. Социальное рыночное хозяйство и социальное государство // Человек и труд. 2003. №9. – С. 32-45.

<sup>39</sup> Джуманова Р. Тенденции и проблемы повышения уровня жизни населения в контексте обеспечения социальной безопасности в Узбекистане // Иқтисодиёт ва таълим журнали. – Тошкент, 2014. – №6. – С. 10-12.

<sup>40</sup> Xasanxonova N. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga iqtisodiy tafakkurning ta'siri // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – Toshkent, 2014. - №2. 7-9-b.

<sup>41</sup> Majidov N., Rayxanov U. Ijtimoiy sug'urta – inson kapitalini takror ishlab chiqarishga kiritilayotgan investitsiyalar shakli sifatida // Moliyachi ma'lumotnomasi jurnali. – Toshkent, 2016. - №11(59). 34-38-b.

iqtisodiyoti sharoitida jamiyatda aholining turli tabaqalari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi teng bo'lmashligini ta'kidlab o'tadilar.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ijtimoiy sohani moliyalashtirish va aholini ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishda ish haqi va unga nisbatan soliq siyosatining qo'llanilishida yagona yondashuv mavjud. Ijtimoiy himoya tizimini shakllanishida yagona yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, jamiyatda aholi daromadlarni taqsimlashda farqlar mavjud.

Aholini ijtimoiy himoya qilish – bu davlatning aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi ijtimoiy kafolatlar tizimidir. Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalikni, mehnatga layoqatsizlikni yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash (pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalar uchun nafaqalar), vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik nafaqalari), moddiy ta'minlanganligi va xizmatlarini hisobga olgan holda aholining ayrim toifalari uchun imtiyoz va qulayliklar (patronaj xizmatlari ko'rsatish, mahsulot, dori-darmonlarni yetkazib berish va h.k.) berish, onalikni himoya qilish (tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi mehnat ta'tillari), salomatlikni sug'urtalash (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari), ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni reabilitatsiya qilish, protez-ortopedik markazlar) tizimi orqali ta'minlanadi.

Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi, ijtimoiy ta'minotini amalga oshirish va aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning shartli ravishda ikki tizimini farqlash mumkin. Birinchisi, sug'urtalash tamoyillariga asoslangan (Yaponiya, Filippin va AQSH ushbu mamlakatlarda ijtimoiy himoya ustun darajada xususiy sektor, homiy tashkilotlar va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi), ikkinchisi esa davlat budjeti tomonidan moliyalashtirishga asoslangan (Yevropa davlatlari, Germaniya, Daniya va boshqa mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosan davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi) tizim.

Ijtimoiy himoya, bir tomondan, funksional tizim, ya'ni amalga oshiriladigan yo'nalishlar tizimi, ikkinchi tomondan, uni ta'minlaydigan muassasalar tizimi (davlat, sud, kasaba uyushmalari va




boshqa jamoat tashkilotlari) hisoblanadi. Har qanday davlatda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini amalga oshiradigan ijtimoiy muassasalar tizimi mavjud. Ijtimoiy himoya funksiyalarini bajarishda sug'urta kompaniyalari, turli ixtisoslashtirilgan jamg'armalar, xayriya tashkilotlari, ijtimoiy guruhlar va aholi segmentlarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlovchi jamoat va siyosiy tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy himoya fuqarolarning turmush farovonligi, rivojlanishi va xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning tamoyillari – bu har bir fuqaro yoki oilaga faqat ularning daromadlari, turmush darajasi, ijtimoiy foydali mehnat davomiyligi va sifatini baholashdan kelib chiqqan holda yordam berish, muhtoj fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishda xalqaro huquq va umuminsoniy me'yorlariga, milliy qadriyatlarga qat'iy amal qilishdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy sug'urta tizimi aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoya qilish shaklidir. Ijtimoiy sug'urta uchun xos xususiyat uning davlat ko'magida ish beruvchilar va xodimlarning maqsadli badallari, maxsus budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy himoya tushunchasi deganda, fuqarolarni turli xil ijtimoiy tahdidlardan (ishsizlik, qashshoqlik, kasallik va boshq.) himoya qilish uchun davlat, jamiyat, korporatsiyalar, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shakllarini quyidagi 2.1-rasm orqali tasvirlash mumkin:




**2.1-rasm. Ijtimoiy himoyaning yo‘nalishlari<sup>42</sup>**

Davlat va jamoat tashkilotlarining (birinchi navbatda, kasaba uyushmalari) maqsadlarini amalga oshirish, ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifalari, jamiyatning har bir a‘zosini muhim ijtimoiy huquqlarini hurmat qilishini ta’minlaydigan qonun bilan belgilangan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlar majmuini amalga oshirish, shu jumladan, shaxsning normal yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan munosib turmush darajasiga erishish faoliyatidir. Ijtimoiy himoya «farovonlik holati» konsepsiyasi doirasida barcha fuqarolar uchun ularning individual qobiliyatlari va ijtimoiy faoliyat ishtirok etish darajasidan qat’iy nazar, munosib turmush darajasini ta’minlash tizimi sifatida belgilanadi.

Tadqiqot natijalari asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismlarini quyidagicha tasniflash mumkin (2.2-rasmga qarang). Ijtimoiy ta’minot, tabiiy ravishda, fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimini qamrab oladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan va davlat tomonidan doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga beriladigan ijtimoiy nafaqalarni nazarda tutadi.

<sup>42</sup> Muallif tomonidan mustaqil shakllantirilgan.



## 2.2-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibi<sup>43</sup>

Ijtimoiy sug'urta aksariyat mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining eng keng tarqalgan va muhim element hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning mazmun-mohiyati hamon turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Ammo, barcha ta'riflarda ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim yo'nalishi (shakli) ekanligi e'tirof etiladi. Buni quyida keltirilganlar to'liq tasdiqlaydi:

– «ish bilan band aholining ko'pchilik qismi uchun majburiy bo'lgan o'zini o'zi ta'minlash, ommaviy-huquqiy prinsiplarga asoslanib, mehnat qobiliyatini yo'qotgan hollarda, o'lim yuz berganda, shuningdek ishsiz qolganida davlat tomonidan tashkil etilgan sug'urta»<sup>44</sup>;

– «keksalikda, kasallik holatida, ish qobiliyati qisman yoki to'liq yo'qotilganda, boquvchisidan maxrum bo'lganida, ishsizlikda iqtisodiy faol aholining konstitutsion huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoyaning muhim elementi »<sup>45</sup>;

<sup>43</sup> Muallif tomonidan mustaqil shakllantirilgan.

<sup>44</sup> Wannagat Georg. Sozialrecht und Sozialpolitik//Sozialrecht und Sozialpolitik. Festschrift für Kurt Jantz zum 60. Geburtstag. – Stuttgart Berlin Köln Mainz: Verlag Kohlhammer, 1973. – S. 209-210.

<sup>45</sup> Ройк В. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 13.

– «jamoaviy hamjihatlikda zararlarning qoplanishi asosida turli ijtimoiy risklardan aholini ijtimoiy himoya qilish shakli»<sup>46</sup>;

– «ijtimoiy sugʻurta toʻlovlari «kechiktirilgan isteʼmol»ni taʼminlovchi ish haqining oʻzgartirilgan shakli»<sup>47</sup>;

– «davlat tomonidan belgilab qoʻyilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli budjetdan tashqari ijtimoiy sugʻurta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sugʻurta fondlari mablagʻlari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy taʼminlash, qoʻllab-quvvatlash tizimi»<sup>48</sup>;

– «aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash shakli, uning muhim jihati ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida maxsus budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon boʻladi»<sup>49</sup>;

– «davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni taʼminlash, yordam koʻrsatish tizimi»<sup>50</sup>.

Ijtimoiy sugʻurtaning oʻziga xos mazmuni qonunchilikda ham mavjud. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq, davlat ijtimoiy sugʻurtasi hisobidan beriladigan taʼminot turlari sifatida, asosan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tugʻish nafaqalari, bola tugʻilganda beriladigan nafaqalar, davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalari<sup>51</sup> qayd etilgan.

Ijtimoiy sugʻurta kutilmagan ijtimoiy xavf-xatarlar (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, nogironlik, keksalik, homiladorlik, oʻlim hollari), hududiy doirasi (davlat sugʻurtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) boʻyicha turkumlanadi, ixtiyoriy va majburiy turlarga boʻlinadi. Davlat sugʻurta jamgʻarmasi,

---

<sup>46</sup> Андрющенко Г. Модернизация сферы социального страхования в Российской Федерации. Автор. дис. на соис. уч. ст. д.э.н. – М.: «РГСУ», 2011. – С. 16.

<sup>47</sup>Rustamov D. Oʻzbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini taʼminlash masalalari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. 21-b.

<sup>48</sup> Касимова Г., Ботиров А. Ижтимоий соҳа: бошқариш ва молиялаштириш. – Т.: «Тамaddun», 2016. 163-б.

<sup>49</sup> Mamatov B., Nurmuxamedova B. Ijtimoiy taʼminot. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. 75-b.

<sup>50</sup> Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. I harfi. – T.: «OʻME» Davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 65-b.

<sup>51</sup>Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995 yil 21 dekabr. 284-modda.

jamo'a va xususiy jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Umuman, mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimiga ijtimoiy sug'urta deb ataladi.

Ijtimoiy sug'urta maqsadi aholini turli xavf-xatarlar jumladan, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar ijtimoiy himoyalash hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va yonlanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tizimi: sug'urta to'lovi miqdori va sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim jihati ish beruvchi va yonlanma ishchilarning birdamlik tamoyiliga asoslanganligi ularni boshqarishning xususiyatini belgilab beradi. Ushbu fondlar o'zini o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Mehnatga layoqatlik va daromadni yo'qotishga olib keladigan ijtimoiy xavf-xatarlar qatoriga: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo'qotish.


Ijtimoiy yordam kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 14 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi kabilar kiradi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning shakllari ijtimoiy himoya idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya institutlari faoliyatini taxlil etishda ijtimoiy xavf-xatarlar tarkibiga ijtimoiy rivojlanishning boshqa omillari bilan belgilashni e'tiborga olish kerak. Real voqelikda inson hayotiga tahdid soluvchi ijtimoiy xavf-xatarlardan insonni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish, uning ko'lami va vositalarini tanlashga mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va demografik omillar ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda demografik vaziyat ijtimoiy himoya ob'ektini belgilagan holda asosiy parametrlarini tavsiflaydi. Iqtisodiy omillar ijtimoiy himoya moddiy asosini belgilaydi, ijtimoiy kompleks, mehnat resurslarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilaydi, shaxsiy va ijtimoiy farovonlik darajasini ta'minlaydi, aholining ijtimoiy tabaqalanishining asoslarini yaratadi.

Ijtimoiy himoya tiximi jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadlarini, turmush darajasining ijtimoiy standartlarini, fuqarolik huquqi normalari va umuman ijtimoiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish qoidalarini belgilaydi, insonning ko‘payishi, demografik, iqtisodiy va siyosiy omillar ta‘sir ko‘rsatishi, davlatning o‘z fuqarolarining hayoti va xavfsizligi uchun javobgarligini, ularning muvofiqligini belgilaydi.

Har bir jamiyatda aholini ijtimoiy himoya qilishning ma’lum bir tizimi amal qiladi. Ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy tuzilmaning zarur va muxum elementi hisoblanadi. Uning vazifasi qiyin moliyaviy xolatda bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy yordam berish yoki ijtimoiy qiyinchiliklarning oldini olishdir.

Jaxonda aholini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishda ijtimoiy risklarni boshqarishning ikki usuli, ya’ni riskni qoplash va riskni taqsimlash usullaridan keng foydalaniladi (2.3-rasmga qarang). Ijtimoiy himoya usullari, daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmi va darajasi, hamda aholini ijtimoiy himoya qilish darajasi bilan farqlanadi., Davlat qoida tariqasida, inson hayotning minimal zaruriy kafolatlarini, jamoaviy o‘zaro yordam esa insonning ijtimoiy va mehnat mavqeiga muvofiq hayot darajasini saqlab qolishni, individual himoya esa erishilgan aholini turmush darajasini saqlaydi va uning o‘shini ta’minlab beradi.



**2.3-rasm. Ijtimoiy risklarni boshqarish usullari tasnifi<sup>52</sup>**

<sup>52</sup> Соловьев А.К.. экономика пенсионного страхования: учебные пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2004. – С. 101. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga turli xil va shakllarda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan manbalardan olinadigan turli naqd pullik to‘lovlar (pensiya, ijtimoiy nafaqa va kompensatsiya to‘lovlari), hamda mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilish choralari (sanatoriya-kurortlarda davolanish, dam olish, sog‘lom ovqatlanish, sog‘liqni saqlash muassasalarini saqlash, qariyalar va nogironlar uchun qariyalar uylari, bolalar uylari va boshqalar).

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishning quyidagi shakllari amal qiladi: qonunda belgilangan va sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy sug‘urta; davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordam (to‘lovlar miqdori shaxsiy ehtiyojga bog‘liq); aholining to‘laydigan maxsus soliq hisobidan va umumiy soliq tushumlaridan moliyalashtiriladigan universal to‘lovlar tizimi (to‘lovlarni olish shartlari aholi: yoshi, oilaviy holati, mamlakatda qolish muddati va boshqa omillar bilan bog‘liq); tadbirkor tomonidan o‘z xodimlari uchun moliyalashtiriladigan ishlab chiqarish ta‘minoti; ijtimoiy sohaning boshqa turlarini to‘ldiradigan ixtiyoriy sug‘urta.

Mamlakatdagi amal qiladigan ijtimoiy himoyaning milliy tizimi mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat modeli bilan uzviy bog‘liqdir (2.2-jadvalga qarang).

## 2.2-jadval

### Aholini ijtimoiy himoya qilishning modellari<sup>53</sup>

	<i>Kontinental (Bismark modeli)</i>	<i>Anglosakson (Beveridj modeli)</i>	<i>Skandinaviya (Shved modeli)</i>
Konseptual asosi	Kasbiy-mehnat ijtimoiy birdamlik ta‘minoti	Ijtimoiy birdamlik ta‘limoti	Subsidiyalashning ijtimoiy-falsafiy ta‘limoti
Mohiyati	Ijtimoiy sug‘urta hisobidan ishchilar uchun ijtimoiy kafolatlar	Barcha uchun minimal ijtimoiy kafolatlar ta‘minoti	Ijtimoiy ta‘minotni soliqlar hisobiga moliyalashtirishdagi teng huquqlar

<sup>53</sup> Куклина А., Леонтьева А. Социальная защита населения как потребность рыночной системы хозяйствования. Монография. – Тюмень: «ТГУ», 2013. – С. 34. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tamoyili	Universal va tabaqalashtirilgan yondashuvning uyg'unligi. Ijtimoiy sug'urta mablag'lari avtonomligi (kasbiy birdamlik)	Ijtimoiy xizmatlarning universalligi, birdamligi va unifikatsiyalanganligi	Universallik, birdamlik, umr davomida ko'rsatiladigan ijtimoiy himoyaning uzluksizligi, moslashuvchanlik, ijtimoiy sheriklik
Ijtimoiy himoyaning bazaviy institutlari	Majburiy ijtimoiy sug'urta – barcha resurslarning 75 % ijtimoiy himoya uchun ijtimoiy yordam – 15 %; qo'shimcha sug'urtalash – 10 %	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – barcha resurslarning 35 %; majburiy kasbiy sug'urta – 35 %; ixtiyoriy shaxsiy sug'urta – 30 %	Majburiy ijtimoiy sug'urta – 60 %; ijtimoiy yordam – 30%, ixtiyoriy shaxsiy sug'urta – 10 %
Ijtimoiy ta'minotga sarflanadigan jami xarajatlarning YaIMdagi ulushi, %	30 %	25 %	32 %

Ijtimoiy himoya milliy modellarining bir-biridan farq qiluvchi asosiy omillari ijtimoiy himoya institutlari tuzilmasi va ko'rinishlari (majburiy ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va davlat ijtimoiy ta'minoti), tibbiy yordam va ta'lim, ularning faoliyat yuritishini ta'minlovchi resurslar hajmi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida davlatning tutgan mavqeini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

– davlat jamiyatni boshqarish bilan shug'ullanuvchi markaziy siyosiy institut hisoblanadi va u tomonidan chiqarilgan qarorlar va



mehnatga layoqatli aholini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kekak;

– davlat ishlab chiqarish, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, bepul ijtimoiy xizmatlar, imtiyozlar orqali daromadni qayta taqsimlash, ayrim hududlar yoki aholini ijtimoiy muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda ustuvorlikka ega. Ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohaslarining tijoratlashuvi imkoniyatlarining chegaralanishi esa ushbu sohalarni davlat tomonidan maqsadli moliyalashtirishni va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni talab qiladi;

– davlat ishlab chiqarishni rag'batlantirishning iqtisodiy dastaklari bilan birgalikda ma'lum darajada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga aralashishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy himoyada deganda nimani tushunasiz?
2. Ilk marotaba ijtimoiy himoya tizimiga oid qanday huquqiy asoslar yaratildi?
3. Ijtimoiy himoya tizimiga bo'lgan ye'tiborni kuchaytirishdan maqsadi nimada?
4. Ijtimoiy himoya tizimining vazifalari nimadan iborat?
5. Ijtimoiy himoya tizimi qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Ijtimoiy himoya tizimining shakllanish bosqichlarini aytib bering?

### **Test savollari**

1. Ijtimoiy ximoya tushunchasini keng ma'nodagi tarifini izohlang?
  - A) Mamlakat axolisini ijtimoiy va moddiy muxofaza qilinishini taominlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui
  - B) Mamlakat aholisini moddiy jihatdan rag'batlantirish va ximoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui
  - S) Mamlakat aholisini moddiy jixatdan rag'batlantirishni qaror toptirishdan iborat
2. Ijtimoiy ximoyaning asosiy maqsadi bu?
  - A) axoli farovonligini, qatlamlarini taolim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tavofutlariga barham berish,

insonga munosib xayot darajasini va inson taraqqiyotini taominlashga yordam berish

B) mamlakat axolisini oylik maoshlarini oshirishdan iborat bo'lgan tadbirlar

S) mamlakat axolisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishi

3. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi mazmuni birinchi marta qaysi rivojlangan davlatning «Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun»da qo'llanilgan?

A) 1935 yilda Yaponiyada

B) 1945 yilda Shevsariyada

S) 1935 yilda AQSH

4. Ijtimoiy sug'urta tizimini dastlabki shartlari nimalardan iborat?

A) ijtimoiy xaqqoniylikni taominlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolish

B) Ijtimoiy ximoyalash

S) Ijtimoiy xaf-xatarlarni oldish

5. Ijtimoiy himoyalash ob'ektlari:

A) pensiya yoshiga yetganlar, nogironlar, ishsizlar

B) xomilador ayollar, o'quvchi yoshlar, chet elga ishga ketganlar

S) kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar, ayollar, ta'lim olayotganlar

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlatlarida ijtimoiy himoyaning o'rni va ahamiyati.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining mohiyati va zarurligi.

3. Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida.

4. Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari.

5. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zarurligi.

## **2.2-§. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy sug‘urtani o‘rni**

Jamiyat rivojlanishi bilan aholining majburiy ijtimoiy sug‘urtalaganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug‘urta dasturlarining kengayishi, to‘lanadigan pensiya, nafaqalar miqdorini o‘sishi, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatining yaxshilanishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining ko‘payishi tufayli ijtimoiy sug‘urtaning mavqei sezilarli ortib bordi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy sug‘urta fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyati yo‘qotish, boquvchisini yo‘qotishi, ishsizlik kabi holatlarda moddiy yordam olishga konstitutsion huquqi borligini ko‘rsatadi. To‘lanadigan mablag‘ miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasini hisobga olgan holda amaldagi qonunchilikka asoslanib aniqlanadi. Ijtimoiy sug‘urtaning vazifalari quyidagilardan iborat<sup>54</sup>:

- ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning tirikchilik vositalarini qoplashga qaratilgan pul jamg‘armalarini shakllantirish;

- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning xarajatlar miqdorini ta‘minlash;


- jamiyatning band va ishsiz a‘zolarini moddiy ta‘minlashdagi uzilishlarini kamaytirish;

- aholining mehnat jarayoniga jalb etilmagan guruhlarining turmush darajasini yaxshilash.

Ijtimoiy sug‘urtaning bajaradigan funksiyalari 2.4-rasmda keltirilgan.

---

<sup>54</sup> Роиқ В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор Россия – СПб.: «Питер», 2014. – С. 15-16.




**2.4-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning funksiyalari<sup>55</sup>**

Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib uning muhim iqtisodiy funksiyalaridan biri, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy birdamlikni shakllantirish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.


Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash vositasi bo'lib, ishdan bo'shash, mehnatga layoqatlilik, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ish beruvchi va yollanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tengsizlik qoidasi asosida tuziladi hamda sug'urta to'lovi hajmi va sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy sug'urtaning xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin (2.5-rasmga qarang).

<sup>55</sup> Muallif tomonidan mustaqil shakllantirilgan.



**2.5-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning xususiyatlari<sup>56</sup>**

Ijtimoiy sug'urta kutilmagan ijtimoiy hodisalarning turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, nogironlik, keksalik, homiladorlik, o'lim hollari), hududiy doirasi (davlat sug'urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) bo'yicha turkumlanadi (2.6-rasmga qarang), hamda ixtiyoriy va majburiy turlarga bo'linadi. Sug'urta to'lovlari, jamoa va xususiy sug'urta jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug'urta deb ataladi.



**2.6-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning turlari<sup>57</sup>**

<sup>56</sup> Маматов Б.С. Пенсия жамғармаси фаолияти. Ўқув қўлланма. – Т.: «Баркамол файз медиа», 2017. 272-б ма'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>57</sup> Ройк В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 21.

Ijtimoiy sugʻurta tizimi ikki qismdan: birinchidan, ishlovchilarning mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni taʼminlash; ikkinchidan, mehnat qobiliyatini yoʻqotganlar yoki mehnat qobiliyatiga ega boʻlmaganlarni moddiy taʼminotni kafolatlashdan iborat.

Ijtimoiy sugʻurta tizimini moddiy asosini sugʻurta jamgʻarmalari tashkil etib, uch manbalardan ishlovchilarning sugʻurta badallari, ish beruvchining badallari va davlatbyudjetidan ajratilgan subsidiyalardan shakllantiriladi. Ijtimoiy sugʻurta fondlarining muhim jihati ish beruvchi va yollanma ishchilarning birdamlik tamoyili asosida boshqariladi. Sugʻurta jamgʻarmalari oʻzini oʻzi boshqarish va notijorat xoʻjalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Mehnatga layoqatlilikni va daromadni yoʻqotishga taʼsir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarga: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yoʻqotishlar kiradi.

Sugʻurtalangan ishchilar toʻlaydigan sugʻurta badallari maqsadli daromad soligʻi hisoblanadi va ularning oladigan daromadlaridan olib qolinadi. Sugʻurta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va aksariyat holatlarda daromadning kattaligiga bogʻliq boʻlmaydi.

Majburiy ijtimoiy sugʻurta mablagʻlari ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda imtiyozli yordam koʻrinishida ishlatiladi. Majburiy ijtimoiy sugʻurta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, daromadidan qatʼi nazar ijtimoiy sugʻurta kafolatlarini (pensiya, nafaqa va xizmat) maʼlum miqdorini olishni taʼminlashga qaratilgan.

Majburiy ijtimoiy sugʻurtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari, mehnat qobiliyatini yoʻqotganda, onalik va bolalikni muhofaza qilishda moddiy taʼminlovchi davlat kafolat tizimi sifatida qaraladi. Majburiy ijtimoiy sugʻurta mablagʻlari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqlari, yakka tadbirkorlarning badallari va davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiradi.

Majburiy ijtimoiy sugʻurtadan farqli oʻlaroq, ixtiyoriy ijtimoiy sugʻurta notijorat sugʻurta faoliyatini muhim bir koʻrinishi boʻlib, sugʻurta toʻgʻrisidagi, notijorat tashkilot toʻgʻrisidagi qonunchilik

bilan boshqariladi va notijorat sug'urta instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta ham fuqarolarning ijtimoiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgan. U fuqarolarning shaxsiy daromadidan, ish beruvchilarning ishchilarini sug'urtalashning firma daromadidan badal ko'rinishidagi mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta badallari miqdori sug'urta institutlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va u sug'urta xavf-xatari darajasiga, sug'urtalovchi tomonidan o'rnatilgan qoidalarga, ijtimoiy xizmatlar narxi, sug'urtalanganlar soni va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta to'lovlari miqdori ma'lum me'yor darajasida bo'lishi lozim. Jumladan, Halqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) «Ijtimoiy ta'minotining minimal me'yorlari to'g'risida»gi Konvensiyasida (1952 y.) ijtimoiy himoyaning 9 turi ko'rsatib o'tilgan: tibbiy xizmat, ishsizlik bo'yicha, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha, homiladorlik va tug'ruq holati bo'yicha, kasallik bo'yicha nafaqalar, oilalar uchun nafaqalar va yoshga doir pensiyalar. Xalqaro xujjatda aksariyat mamlakatlarda alohida e'tiborga molik bo'lgan kambag'al aholi qatlamiga va uy joyga boshpanasizlarga ijtimoiy himoya toifalari bo'yicha XMTning 102-sonli Konvensiyasi ro'yxatiga kiritilmagan (2.3-jadvalga qarang). Ushbu qabul qilingan Konvensiya asosida ko'plab mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida milliy qonunchilik hujjatlari shakllantirildi.

Ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi bo'lib, jaxonning ko'plab mamlakatlarida o'z fuqarolariga ularning hayotlarida salbiy ijtimoiy va iqtisodiy hodisalar sodir bo'lganda zaruriy moddiy yordam ko'rsatish maqsadida joriy etilgan.

## 2.3-jadval

### Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli Konvensiyasiga muvofiq mehnat bilan band fuqarolar ijtimoiy himoyasining minimal me'yorlari<sup>58</sup>

Ijtimoiy to'lov asoslari	Daromadlarni qoplash me'yorlari, %
Kasallik	45
Ishsizlik	45
Keksalik	40
Mehnatga layoqatsizlik	50
Nogironlik (ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalligi oqibatida)	50
Boquvchisini yo'qotganlik	40
Homiladorlik va tug'ruq holati	45
Nogironlik (tug'ma nogironlar)	40

Bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati bu har bir kishi o'z yashash sharoitlarini shakllantirish uchun yuqori darajadagi javobgarligidir. Ishlab chiqarish, savdo yoki boshqa iqtisodiy faoliyat jarayonida olingan daromad uning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishini, mehnat qobiliyatini tiklanishini, oilasini boqish va hokazolarni, ya'ni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydi.


Real voqelikda insonning hayotiga tahdid soladigan va yolg'iz o'zi bardosh berolmaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ishlab chiqarishning yetakchi omili – ish kuchining tovarga aylanishi bilan bog'liq holda ish haqi aholining band qismi uchun asosiy daromad manbaiga aylanishi – aholining ijtimoiy nochorligining o'ziga xos turini shakllantiradi – ish haqining yo'qolishi yoki ish haqini topish imkoniyatini yo'qligi tufayli erishilgan moddiy farovonlik darajasi pasayishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Inson hayotidagi bunday hodisa ijtimoiy sug'urta tizimidagi risklar deb ataladi.

Ijtimoiy risklar – bu fuqarolarning iqtisodiy jarayonda ishtirok etish imkoniyatini yo'qotishi tufayli moddiy ta'minlanmasligi

<sup>58</sup> Агеева Е.В. Социальное страхование: Курс лекций. – Иркутск: «Изд-во БГУЭП», 2013. – С. 11-12.; Конвенция N 102 Международной организации труда "О минимальных нормах социального обеспечения" (Заключена в г. Женеве 28.06.1952).



ehtimolidir. «Ijtimoiy risk – bu ob’ektiv, ijtimoiy sabablarga ko‘ra ish haqi yoki mehnat daromadini yo‘qotishi tufayli kelib chiqadigan moddiy ta’minlanmaganlik, jumladan, davolanish yoki ijtimoiy xizmatlarni to‘lash uchun qo‘shimcha xarajatlarga bo‘lgan zaruriyati hisoblanadi»<sup>59</sup>.



### 2.7-rasm. Ijtimoiy risk ko‘rinishlari<sup>60</sup>

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy risk daromad yo‘qotilishida va jamiyat tomonidan kafolatlangan turmush darajasi standartlarini yo‘qotishda ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy risklarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin<sup>61</sup>: daromad yo‘qotish; qo‘shimcha xarajatlarga bo‘lgan ehtiyoj va ijtimoiy mavqei yo‘qotish. Real vokalikda aholining aksariyat qismi o‘zlarini tirikchilik vositalaribilan ta’minlashlari uchun: mehnat qilish qobiliyati va ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘lishlari shart. (2.7-rasmga qarang).

<sup>59</sup> Роик В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 320.

<sup>60</sup> Роик В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 321-322.

<sup>61</sup> Роик В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 320-321. маълумотлари асосида Muallif tomonidan tuzilgan .

Qo‘shimcha xarajatlar talab etuvchi risklar tarkibida quyidagilarni kiritishimish mumkin: bola tug‘ilishi munosabati bilan oilada bo‘ladigan xarajatlar; tibbiy xarajatlar; rehabilitatsiya xarajatlari; bolani parvarish qilish bilan bog‘liq xarajatlar; dafn xarajatlari.

Muayyan ijtimoiy risklarni boshqarish uchun ularni quyidagi mezonlarga ko‘ra farq qiladi<sup>62</sup>: ta’sir doirasi: universal va maxsus xavflar (tanlov xavflarni qoplash usuli va shakli); amal qilish muddati: qisqa va uzoq muddatli (xavfni qoplash uchun moliyaviy vositalarni tanlash); ta’sir ob’ektiga ko‘ra: aholi guruhlari bo‘yicha (qamrov turi va hajmini tanlash); shakllanish manbasi: tabiiy (fiziologik), texnogen, iqtisodiy va fuqarolik (xavflarning oldini olish imkoniyatlari); yuzaga kelish ehtimoli va davriy xususiyatga ko‘ra inson hayoti: rejalashtirilgan, bashorat qilingan va kutilmagan (aktuar baholash usullarini tanlash).

Ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy risk jamiyatdagi xolatlar bo‘yicha quyidagi omillarning kompleks kombinatsiyasi bilan belgilanadi: davlatning ijtimoiy siyosati, fuqarolik jamiyatining yetukligi va qonunchilik bazasi, ish beruvchilar va yollanma ishchilar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini rivojlantirish. Shuningdek, ijtimoiy risk omillarining xususiyati va ularga mos ravishda himoya shakllari jamiyat, shaxs hayotiga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatga ta’sir qiluvchi quyidagi omillar majmuasiga bog‘liq bo‘ladi: bandlik sharoitlari, mehnat bozorining rivojlanishi va demografik holat; mehnat sharoitlari; Jamiyat hayotini tashkil etishning iqtisodiy shartlari; mehnatga layoqatlikni yo‘qotishning kompensatsiya va profilaktikasini tashkil etishning shartlari va shakllari.

Ijtimoiy riskni o‘lchashda: ijtimoiy – sog‘liqqa zarar, ishga layoqatsizlik, vafot etish, qaramog‘idagilar soni va h.k.; iqtisodiy – nogironlik tufayli yo‘qotilgan zararni qoplash xarajatlari, davolanish, rehabilitatsiya uchun qo‘shimcha xarajatlar ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy riskning tabiati va uning ehtimolligi darajasi bilan bog‘liq xavfni minimallashtirish uchun profilaktika choralari tizimini ishlab

---

<sup>62</sup> Роик В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 322.

chiqiladi va kompensatsiya choralarining zarur turlari, hajmi baholanadi. Ijtimoiy xavf-xatarni aniqlash va baholash imkoniyati mavjudligi tufayli, ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini shakllantirish mumkin.

Jamiyatdagi ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilish shakllari va usullari tarkibida: korxonalar, tarmoqlar xodimlarining o‘zaro yordami; qariyalar, nogironlar uchun qonun tomonidan belgilangan moddiy yordam; ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam, xayriya va boshqalar kiradi. Jaxon amaliyoti ko‘rsatishicha jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi osha borgan sari, ijtimoiy risklarni boshqarishga ko‘proq e’tibor beriladi (2.4-jadvalga qarang).

Jahon amaliyotida tarixan parallel va bir-biridan mustaqil holda davlat ijtimoiy xayriya, cherkov xayriya va uyushgan o‘zaro yordam orqali ifodalangan alohida ijtimoiy yordam turlari shakllangan va rivojlanib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya elementlarining vujudga kelishi fuqarolik jamiyatining shakllanishi, davlatchilikning mustahkamlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish, moliyaviy-kredit munosabatlarining rivojlanishi, jamiyatning ijtimoiy-demografik tuzilishining murakkabligiga bog‘liq holda rivojlanmoqda.

XMT hujjatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining milliy tizimlarni tashkil etishga bag‘ishlangan uslubiy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan. Ular tarkibida: ijtimoiy himoya maqsadi va tamoyillarini belgilash; davlat va ijtimoiy himoya ishtirokchilarning o‘rni va vazifalari; ijtimoiy kafolatlar darajasini belgilash; tashkiliy, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar kiradi. XMTning ijtimoiy vazifalari qatoriga esa: «yo‘qotilgan ish haqining kafolatli va yetarli darajada qoplanishi, moddiy farovonlikni ta’minlash huquqini amalga oshirish, inson erkinligi va qadr-qimmati, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyatlar sharoitida ma’naviy rivojlanish; tibbiy xizmatlardan kafolatlangan va keng foydalanish imkoniyati; kafolatlangan moliyaviy manbalarga ega bo‘lishni ta’minlashni kiritish mumkin»<sup>63</sup>.

Jahon ijtimoiy sug‘urta tizimlariga mantiqiy ketma-ketlik va davriylik xususiyatiga egaligi: o‘zaro ijtimoiy yordamdan o‘zaro

---

<sup>63</sup> Роиқ В.Д. Социальное страхование: теория и практика организации. Учебник. – М.: «РАГС», 2007. – С. 125.

sug‘urtalashga, keyinchalik esa uch tomonlama birdamlik tamoyillariga asoslanishi davlat tomonidan sug‘urtalash va hozirda - ixtiyoriy ijtimoiy sug‘urtani davlat tasarrufidan chiqarish kabi rivojlanish tendensiyalari xos. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy sug‘urta rivojlanishining asosida turli xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tegishli tashkiliy va moliyaviy shakllarni o‘z ichiga oladigan o‘zaro sug‘urta yotadi.

## 2.4-jadval

### Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy risklarni boshqarish bosqichlari<sup>64</sup>

<b>Risklarni aniqlash</b>	<b>Risklarni baholash</b>	<b>Risklarni nazorat qilish</b>
Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning shakllanishi va aholining turmush darajasiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish	Aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash: nogironlar soni va tarkibi, tug‘ilish va o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, kasallik darajasi, ish bilan ta’minlash va boshqalar	Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, jamiyatda aholini ijtimoiy himoya qilishga karatilgan ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minotning muvozanatli tizimlarining mavjudligi mamlakatning mehnat resurslarini ko‘paytiradi, iqtisodiy o‘shishning milliy salohiyatni oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatini beradi. Jumladan, ijtimoiy sug‘urtaning elementi bo‘lgan tibbiy sug‘urta esa – fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, tibbiy, sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarning majmuasidan iborat. Tibbiy sug‘urtaning insonning uzoq muddatli davrda ruhiy, jismoniy sihat-salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, inson sog‘lig‘ini yo‘kotgan vaziyatda unga tibbiy yordam ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan.

<sup>64</sup> Соловьев А.К. Экономика пенсионного страхования: учебные пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2004. – С. 109. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

## Nazorat savollari

1. Ijtimoiy sugʻurtaning mohiyatini tushuntirib bering?
2. Ijtimoiy sugʻurtaning muhim jihatlari aytib bering?
3. Ijtimoiy xavf-xatarlarning muhim koʻrinishlari qanday?
4. Ijtimoiy sugʻurtaning tashkil topishi haqida gapirib bering?
5. Ijtimoiy sugʻurta qaysi qoidalar asosida tartibga solib boriladi?

## Test

1. Ijtimoiy sugʻurtaning funksiyalariga nimalar kiradi?

A) Ijtimoiy himoya, qayta taqsimlash, jamgʻarish, sugʻurta toʻlovlari va takror ishlab chiqarish

B) Jamlash, xayriya qilish va Ijtimoiy adolat

S) Ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam va qayta taqsimlash

2. Ijtimoiy sugʻurta fondlari qanday moliyalashtiriladi?

A) ish beruvchi va yollanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi

B) yollanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi

S) maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi

3. Ijtimoiy sugʻurta qanday shakllarga boʻlinadi?

A) ixtiyoriy va majburiy

B) Xususiy va aralash

S) Kasallik va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa

4. Ijtimoiy sugʻurtaning turlari kaysilar?

A) Pensiya sugʻurtasi, ishsizlik sugʻurtasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash, tibbiy sugʻurta va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sugʻurtasi

B) Mol-mulk sugʻurtasi, ishsizlik sugʻurtasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash, tibbiy sugʻurta va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sugʻurtasi

S) Xayot sugʻurtasi, Pensiya sugʻurtasi, ishsizlik sugʻurtasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash, tibbiy sugʻurta va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sugʻurtasi

5. Halqaro Mehnat Tashkilotining «Ijtimoiy ta'minotining minimal me'yorlari to'g'risida»gi Konvensiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1952 yilda
- B) 1990 yilda
- S) 1980 yilda

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Ijtimoiy sug'urtaning fondining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

2. Ijtimoiy sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar amalga oshish.

3. Ijtimoiy sug'urta turlari va xususiyatlari.

4. Ijtimoiy sug'urtaning tashkil etish shart-sharoitlari va rivojlanish omillari

5. Baxtsiz xodisalardan davlat majburiy sug'urtasi.

### **2.3-§. Ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida sug'urtaning roli**

Ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U dunyoning ko'plab davlatlarida o'z fuqarolarini ularning hayotida yoqimsiz ijtimoiy iqtisodiy hodisalar yuz berganda zarur moddiy yordam berish maqsadida tashkil etilgan. Ijtimoiy himoyaning turli o'lchamlarining paydo bo'lishi va ularning bosqichma bosqich yagona davlat boshqaruvi tizimida birlashishining asosiy sabablaridan biri har bir alohida inson va kishilik jamiyati hayotida riskning yuz berishi mumkinligi hisoblanadi.

Tovar ishlab chiqarishning, shuningdek, sanoatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, mehnatning taqsimlanishi va bozor munosabatlarining rivojlanishi ishchi mehnati va uning daromadi orasidagi nomutanosiblikni buzdi hamda jamiyatning ish beruvchi va ishchilar qatlamiga bo'linishiga olib keldi. Bugungi kunda ish beruvchi tomonidan ishchining u yoki bu sohadagi qilgan mehnatiga to'lanadigan oylik ish haqi aholi faol qatlamining o'z yashash ehtiyojlarini qondirishi uchun yagona manba bo'lib qoldi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos jihati har bir insonning hayoti uchun kerakli shart-sharoit yaratib olishida o'zida yuqori darajada javobgarlikni his qilishi hisobalanadi. Kishining o'zi bunday iqtisodiy

jarayonda qaytarzda qatnashishni hal qiladi (o'z ishlarini tashkil qilishi, yollangan ishchi tarzda yoki yuridik shaxs ma'lumotisiz mustaqil ishlashi va hokazo). Ishlab chiqarish, savdo sotiq yoki boshqalar orqali kelgan daromadlar uning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondiradi. Mehnatga layoqatlilikni qayta tiklash, oilani ta'minlay olish kabilar esa ishchi kuchlarini qayta yaratishni ta'minlaydi. Lekin inson hayotida shunaqa vaziyatlar bo'lishi mumkinki, uning yakka o'zi bunday vaziyatlardan chiqib keta olmaydi. Ish o'rnini yo'qotib qo'yish yoki ishsizlik moddiy ta'minlanganlik darajasini juda pasaytirib yuborishi mumkin (bu holat insonning shaxsiy muammosi emas, uning intilishlariga endi bog'liq bo'lmay qoladi, bu holat ijtimoiy sabalarga bog'liq va shu sabab ommaviy, jamoaviy xarakterga ega bo'la boshlaydi. Inson hayotidagi bu kabi hodisalar ijtimoiy risk degan nomni oladi). Shu munosabat bilan insonlarning shunday holatlarda ijtimoiy himoyalanmaganligini qarab chiqamiz.

Ijtimoiy risk bu fuqarolarning moddiy ta'minlanganlik ehtimolligidir, natijada insonlarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok eta olish imkoniyatlarini yo'qotadilar. Jamiyatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi an'analariga amal qilgan holda barcha risklar yagona iqtisodiy riskda, ya'ni mehnat daromadining yo'qligida jamlanadi. Zamonaviy shart sharoitlarga ko'ra, inson o'zini hayot uchun kerakli narsalar bilan ta'minlashi uchun 2 ta shart talab qilindi: 1) mehnatga layoqatlilik; 2) ishga joylashish.

Ijtimoiy risk ishlab turgan ishini yoki daromadini ob'ektiv, ijtimoiy sabablarga ko'ra moddiy ta'minlanish darajasining tushib ketishi, shuningdek, davolanish va ijtimoiy to'lovlar uchun qo'shimcha harajatlarga zaruratning paydo bo'lishidir.

Ijtimoiy risklarni quyidagi 3 ta katta guruhga birlashtirish mumkin:

- 1) daromadni yo'qotish;
- 2) qo'shimcha harajatlarga zaruriyat;
- 3) ijtimoiy mavqening yo'qotilishi.

O'z navbatida daromadni va o'z mavqeidan marhum bo'lish risklarini ikkita guruhga bo'lish mumkin:

- 1) shaxsning o'zining avvalgi ish o'rniga qayta olishi yoki faoliyat turini o'zgartira olishi holati;
- 2) bularni amalga oshira olmasligi holati.

Qo'shimcha harajatlarni qilish zaruriyati tufayli paydo bo'ladigan risklar ichidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: oilada farzand tug'ilishi munosabati bilan qilinadigan katta oilaviy harajatlar; tibbiy yordam olish uchun qilinadigan harajatlar; salomatlikni qayta tiklash uchun qilinadigan harajatlar; biror yaqin kishisi olamdan o'tganda qilinadigan harajatlar; marhumni ko'mish uchun qilinadigan harajatlar.

U yoki bu risklarni boshqarish maqsadida risklarni klassifikatsiyalashning boshqa mezonlari ham alohida ko'rsatiladi.

- ta'sir ko'lami o'lchamiga ko'ra: universal va maxsus risklar (risklarni koplash metodlari va shakllarini tanlash);

- ta'sir davriga ko'ra: qisqa va uzoq muddatli (risklarni qoplashning moliyaviy qurollarini tanlash);

- ta'sir ob'ektiga bog'liqligi: aholining alohida guruhlarini bo'yicha (qoplashning ko'rinishini va o'lchamini tanlash);

- paydo bo'lish manbasiga ko'ra: tabiiy (fiziologik), texnogen, iqtisodiy va umumiy fuqarolik (risklardan ogohlantirish imkoniyatlari);

- inson hayotiga kirib kelishi va siklik xarakteriga ko'ra: rejali, kutilgan va oldindan aytilgan (muhim baholash metodlarini tanlash);

Shunday qilib, ijtimoiy risklar – bu insonlarning normal ijtimoiy ahvolini buzuvchi sabablardir. Ijtimoiy risklar insonlarning sog'ligiga, mehnatga layoqatiligining yo'qotilishi yoki mehnat qilishga talabning yo'qligi, mehnat bilan band qatlamning ham moddiy ta'minlanmaganligi tufayli daromadning yo'qotilishi, kasallikdan davolanishi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha harajatlar, oilada boquvchisini yo'qotish tufayli daromad manbaidan mahrum bo'lish tufayli paydo bo'ladi.

Ijtimoiy risk ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotidagi turli omillarning murakkab jamlanmasini ifoda etadi. Ularga davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati, fuqarolik jamiyati va qonunchilik bazasining puxtaligi, ish beruvchilar va yollanma ishchilar orasidagi mehnat munosabatlarining taraqqiy etganligi kabilar kiradi.

Bunda ijtimoiy riskning aniq omillarining mazmun mohiyati va himoyalash shakllari ham jamiyatning, shaxsning, davlat olib borayotgan siyosatning hayotiylikiga ta'sir etuvchi omillar jamlanmasiga bog'liq bo'ladi va ular quyidagilardir:



- bandlik shartlari, mehnat bozorining rivojlanganligi va demografik vaziyatlar;
- mehnat sohasida shartlar;
- kundalik hayotni tashkil qilishdagi iqtisodiy shartlar;
- mehnatga layoqatlilikning oldini olish va bunday holatda kompensatsiya to‘lashni tashkil qilish shartlari va shakllari.

Ijtimoiy riskni o‘lchash mumkin: bu xildagi riskning natijaviy ko‘rsatkichi ikkita ko‘rinishda guruhlanadi:

1) ijtimoiy – salomatlikka ziyon yetishi, mehnatga layoqatsizlik, o‘lim, biror shaxs uchun uning qaramog‘ida bo‘lganlarning ko‘payib ketishi, vafot etuvchilar sonining oshishi va xokazolar;

2) iqtisodiy – mehnat qilishga bo‘lgan layoqatlilikning yo‘qolishi natijasida ko‘rilgan zararlar, davolanish, reabilitatsiya uchun qo‘shimcha to‘lovlar sarflash.

Ijtimoiy riskning mohiyati va yuz berish ehtimoli risklarni minimal darajada kamaytirish borasida oldindan qilinadigan ishlar tizimini ishlab chiqishni va zararlarni kompensatsiyalash borasida qilinadigan ishlarning muhim shakllarini hamda keng ko‘lamda joriy etilishini hisobga olishni taqozo etadi.

Chunki ijtimoiy riskni mavjud bir jarayon deb qarash va baholash mumkin, demakki ijtimoiy riskni boshqarish tizimini yaratish ham mumkin.

Riskni boshqarish riskni aniqlash, baholash va uning ta‘sirini nazrat qilishga yo‘naltirilgan maqsadli ta‘sir ko‘rsatishdir.

Risklarni boshqarish o‘zining mohiyati bo‘yicha har qanday iqtisodiy tizim (jarayon) ning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Risk hajmi olinadigan daromad bilan bevosita proporsionaldir. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning, tizimning faoliyatini samaradorligi to‘laligicha risklarni boshqarish jarayonini qanchalik samarali tashkil qilinganligiga bog‘liq.

Riskni boshqarish – ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uning maqsadi noqulay holatlar yuzaga kelganda ob‘ektning ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi.

Riskni boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlari mavjud: risk obektining tahlili; riskni aniqlash; riskni baholash; riskka ta‘sir etish

usullarini aniqlash; qaror qabul qilish; riskka bevosita ta'sir o'tkazish; boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish.

Risk tahlili – boshlang'ich bosqich bo'lib, uning maqsadi ob'yektning hozirgi vaqtdagi tarkibi, xususiyatlari haqida, kelajakda uning holatini o'zgarishi haqida zarur axborotlarni olish hisoblanadi.

Riskni aniqlash bosqichi ob'yektning mavjud risklarini tavsifini, ya'ni ularning sifat jihatlari va ta'rifini nazarda tutadi.

Baholash – bu aniqlangan risklarning miqdoriy tavsiflarini aniqlash: ehtimolligi va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar hajmi. Mazkur bosqichda noqulay holatlarning rivojlanish ssenariylari jamlamasi shakllanadi; zarar ko'rish ehtimolligini taqsimlash funksiyalari quriladi.

Aniqlash va baholash o'zaro uzviy bog'liq hisoblanadi va har doim ham ularni alohida mustaqil qismlarga ajratish imkoni bo'lmaydi. Undan tashqari, riskni boshqarish jarayoni qaramaqarshi yo'nalishda borishi ham mumkin: baholashdan aniqlashga, misol uchun, zarar ko'rib bo'lingadan keyin uning sabablarini aniqlashda.

Riskka ta'sir etish usullarini tanlash bosqichida kelajakda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni minimallashtirish rejalashtiriladi. Buning uchun uni kamaytirishning turli uslub va usullari qo'llaniladi. Riskka ta'sir etish usullarini tanlash ularning samaradorligini solishtirish orqali, shu jumladan turli usullarning kompleks kombinatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim

Riskka bevosita ta'sir etish bosqichi to'rtta asosiy uslublardan tashkil topadi: istisno qilish, pasaytirish, saqlash va riskni o'tkazish.

Riskni istisno qilish deganda mazkur risk bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatti-harakatlar va chora-tadbirlarni rad qilish tushuniladi.

Riskni pasaytirish - ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni yoki noqulay holatlarni ro'y berish ehtimolligini kamaytirishni bildiradi. Bu yo'nalishda oldini olish tadbirlari amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar deganda binolar va inshootlarning xavfsizlini kuchaytiruvchi turli xildagi choralar, nazorat va ogohlantiruvchi tizimlarni, yong'inga qarshi qurilmalarni o'rnatish, ekstrimal holatlarda harakatlanish bo'yicha xodimlarni o'qitish kabilar tushuniladi.

Iqtisodiy muhit risklarini pasaytirish uchun turli xildagi usullardan foydalaniladi: diversifikatsiya – mablag'larni (kapitalni) qo'yilmalarning

turli ob'yektlari bo'yicha, foydalanishning turli yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash jarayoni; qo'shimcha axborotlarga ega bo'lish; limitlashtirish – xarajatlar, sotuv, kredit va shu kabilarning limitini (chegarasini) o'rnatish.

Risklarni saqlash zararlarni kompensatsiyalashga yo'naltirilgan har qanday ta'sirlardan voz kechish yoki noqulay holatlar ro'y berganda zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus zahira fondlarini tashkil qilish (o'z-o'zini sug'urtalash). Riskka ta'sir etishning oxirgi usuli o'z-o'zini sug'urtalash nomini olgan. Risk saqlanishi holatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga yana zararlarni kompensatsiyalash va ishlab chiqarishni tiklash uchun kredit va qarzlarni olish, davlat dotatsiyalarini olish va boshqalar kiradi.

Risklarni o'tkazish bo'yicha choralarga mavjud daraja saqlangan holda u uchun javobgarlikni uchinchi shaxslarga o'tkazish tushuniladi. Ularga ma'lum to'lov asosida riskni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishni nazarda tutuvchi sug'urtalash, shuningdek turli xildagi moliyaviy kafolatlar, kafilliklar va boshqalar kiradi. Riskni o'tkazish, shuningdek ko'zda tutilmagan holatlar ro'y berganda o'z javobgarligini kamaytiruvchi yoki riskni kontragentga o'tkazuvchi maxsus kelishuvlarni hujjatlar (shartnomalar, savdo bitimlari va hokazolar) matniga kiritib qo'yish bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Aniq bir risklarga ta'sir qilishning qulay va sodda usullari tanlanganidan so'ng korxonaning barcha risklari jamlanmasini boshqarish strategiyasini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Bu bosqich qaror qabul qilish hisoblanib, unda talab qilinadigan moliyaviy va mehnat resurslari aniqlanadi, menedjerlar o'rtasida vazifalarni aniqlash va taqsimlash amalga oshiriladi, tegishli xizmatlar bozori tahlil qilinadi, mutaxassislar bilan maslahatlar o'tkaziladi.

Risk-menejmentning yakunlovchi bosqichi olingan natijalarni hisobga olgan holda va yangi axborotlarning paydo bo'lishi bilan tanlangan strategiyani amalga oshirish natijalarini nazorat va tahrir qilish hisoblanadi. Nazorat menedjerlardan ko'rilgan zararlarni, uni kamaytirish bo'yicha qo'llangan choralar, ularning amaliy samaralari haqida axborot olishdan iborat. Olingan natijalar tahlili va ishlovi muntazab o'tkazilib turilishi lozim.

Riskni boshqarish ko‘plab rahbarlarda, avvalo, odatiy sug‘urtalash bilan bog‘lanadi. Haqiqatdan ham, sug‘urta azaldan riskka ta’sir etishning dunyoda keng tarqalgan usullaridan hisoblanadi va hozirgi kunda ham shundayligicha qolmoqda. Bugungi kunda AQSH, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan yirik mamlakatlarda yillik sug‘urta mukofotlarining to‘lovlari yalpi ichki mahsulotining 7-9% ini tashkil qilmoqda. Horijda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari sug‘urta bilan qamrab olingan: tibbiy sug‘urta, hayot sug‘urtasi, mulkiy sug‘urta, yuklarni sug‘urtalash, foyda sug‘urtasi, bankrotlik sug‘urtasi, fuqarolik javobgarligining har xil turlari. Hech bo‘lmaganda sug‘urtaning bitta turi amal qilmaydigan soha topilmaydi, undan tashqari sug‘urtaning ko‘plab turlari turli mamlakatlarda majburiy hisoblanadi.

Risklarning turkumlanishi deganda oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun ularni ma’lum belgilari bo‘yicha alohida guruhlariga ajratish tushuniladi. Risklarni turkumlashning quyidagi mezonlari mavjud: risklar xavf soluvchi obektlar sinflari; riskni yuzaga kelish sabablari risklarga ta’sir etish imkoniyati.

Risk obektlarining kompleks sinflari: ishchi kuchi; mol-mulk; sarmoya; axborot.

Yuzaga kelish sabablari bo‘yicha risklar quyidagilarga bo‘linadi: tabiiy hodisalardan kelib chiquvchi – suv toshqini, do‘l, yer qimirlashi, epidemiya va sh.k.; ijtimoiy-jamoat muhitdan kelib chiquvchi – aldov, jinoyat, ko‘zda tutilmagan ziyon yetkazish; texnikaviy muhitdan kelib chiquvchi – texnikaviy vositaning ishdan chiqishi; xo‘jalik jarayonlari va iqtisodiyotning holati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan - inflyasiya, bozor kon’yunkturasi, bank foizi, valyuta kurslari va boshqalar.

Riskka ta’sir etish imkoniyati bo‘yicha: ekzogen (tashqi) risklar, ularga ta’sir etish qaror qabul qiluvchi shaxs ta’siri ostiga tushmaydi va risklarni amalga oshishi natijasida yuzaga keluvchi zararlarni, oqibatlarini kamayishi bilan cheklanadi; endogen (ichki) risklar, qaror qabul qiluvchi shaxs ta’sir doirasida bo‘ladi, qaysiki ular uchun risklarni yuzaga kelish ehtimolligi kamayadi va ayrim hollarda butunlay bo‘lmaydi.

Iqtisodiy muhitlar uchun xos bo‘lgan risklarning tasnifiy tizimi o‘z tarkibiga guruhlar, toifalar, turlar, kichik turlar va xillarni oladi.

Ehtimolli natijasi (riskli hodisa) bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi:

Haqiqiy risklar – salbiy yoki nolli natijani olish ehtimolligi: tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo).

Spekulyativ risklar – ham ijobiy, ham salbiy natijani olish ehtimolligi: moliyaviy risklar.

Risklarni yuzaga kelishining asosiy sabablaridan kelib chiqib, ular quyidagilarga bo'linadi: tabiiy; ekologik; siyosiy; transport; tijorat.

Tarkibiy belgisi bo'yicha tijorat risklari quyidagilarga bo'linadi: mulkiy, mulklarni o'g'irlik, sovuqqonlik, texnik va texnologik tizimlarda ortiqcha quvvat va boshqalar sababli yo'qotish ehtimolligi; ishlab chiqarish, turli sabablar bilan ishlab chiqarishdagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish ehtimolligi; savdo, to'lovlarning kechikishi, tovarlarni transportirovka qilish jarayonida to'lovlarni rad qilish, tovarlarni yetkazib bermaslik va boshqa sababli zarar ko'rish ehtimolligi. moliyaviy risklar, pul mablag'larini yo'qotish ehtimolligi bilan bog'liq. Moliyaviy risklar ikki turga bo'linadi: pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar va sarmoyalarni qo'yish bilan bog'liq bo'lgan risklar (investitsion risklar).

Pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar quyidagi xillardan iborat: inflyasion; deflyasion; valyuta; likvidlik.

Investitsion risklar quyidagilardan iborat: boy berilgan naf riski – bu qandaydir amalni (misol uchun, sug'urtalash, xedjirlash, investitsiya va sh.k.) bajarilmasligi natijasida bilvosita moliyaviy zarar (foyda ololmaslik)ga olib keluvchi risk.

Daromadlilikni pasayish riski quyidagi xillardan iborat: foiz risklari – tijorat banklari, kredit muassasalari, investitsion institutlar tomonidan jalb qilingan mablag'lari bo'yicha to'layotgan foizlarining taqdim etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalaridan ko'tarilib ketishi natijasidagi yo'qotishlar xavfi; kredit riski – qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzini va tegishli foizlarni to'lanmaslik xavfi. Shuningdek kredit risklariga qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqargan emitentning ular bo'yicha foizlarni yoki asosiy qarz summasini to'lay olmaslik holatiga kelib qolish riski ham kiradi. Kredit bevosita yo'qotishlar risklariga bo'linishi mumkin.

Bevosita moliyaviy risklar quyidagi xillarga bo‘linishi mumkin: birja riski, selektiv risk, bankrotlik riski hamda kredit riski.

Sug‘urtada barcha risklar ikki guruhga bo‘linadi: sug‘urtaviy va nosug‘urtaviy (sug‘urta shartnomasiga kiritilmagan). Sug‘urtaviy risk – bu sug‘urta hodisasini ro‘y berish ehtimolligi va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararning miqdoriy hajmi nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.

Sug‘urta riskining asosiy mezonlari:

- risk tasodifiy xarakter kasb etishi kerak, bunda sug‘urta shartnomasida ishtirok etayotgan barcha tomonlarga sug‘urta hodisasining ro‘y berish aniq vaqti va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararning hajmi oldindan ma’lum emas;

- mazkur riskning namoyon bo‘lish tasodifiyligini bir turdagi obektlar jamlamasi bilan solishtirish mumkin, ya’ni statistik kuzatuvlar olib borish kerak;

- riskni amalga oshishida aks etuvchi sug‘urta hodisasining ro‘y berishi sug‘urtalanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxsning xohish-irodasi bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak;

- sug‘urta hodisasining ro‘y berishi davr va makonda ma’lum emas;

- riskni amalga oshish oqibatlarini pul ifodasida ob’yektiv o‘lchash va baholash imkoni mavjud.

Nosug‘urtaviy risklar – bu risklar ob’yektiv mavjud bo‘ladi, ammo sug‘urtalovchi mas’uliyati hajmiga qo‘shib, ya’ni sug‘urtaga qabul qilib bo‘lmaydi.

Xavf-xatar manbalaridan kelib chiqib risklarni quyidagilarga bo‘lish mumkin: tabiiy ofatlar (yer qimirlashi, sel, do‘l va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lganva insonning ongli xatti-harakati (o‘g‘irlik, talonchilik va boshqa g‘ayri huquqiy xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek yuqorida sanab o‘tilganlarning aralash risklari (misol uchun, mutaxassis-epidemiologning maqsadli harakati bilan yuzaga keluvchi epidemiyalari).

Sug‘urtalovchining mas’uliyati hajmi bo‘yicha risklar yakka tartibdagi (masalan, tasviriy san’at asarlarini tashish va ko‘rgazmasi) va universal (masalan, muntazam uchrovchi mulkiy risk – o‘g‘irlik) turlarga bo‘linadi.

## Xulosa

Aholini ijtimoiy himoya qilish keng tushuncha bo'lib, davlatning bevosita aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlar tizimidir. Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalikni, mehnatga layoqatsizlikni yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar, vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalikni himoya qilish, ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash, nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash tizimi orqali ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaning bosh maqsadi aholi farovonligining yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy sug'urtaga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarning birinchisi ularning, eng avvalo, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilganidir. Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoyaga muhtoj turli aholi qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi va shu nuqtai nazardan maxsus jamg'armaga ega bo'lmog'i lozim. Bu jamg'arma mablag'lari ish beruvchilar, shuningdek sug'urta qilingan xodimlarning badallari hisobidan shakllantiriladi. Demak, ijtimoiy sug'urta badallarga asoslanadi. Bu uning ikkinchi muhim xarakterli belgisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan, ijtimoiy risklardan himoyalash shaklidir. Bu – ijtimoiy sug'urtaga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgi. Barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozimligi, ya'ni majburiyligi ijtimoiy sug'urtaning to'rtinchi muhim xarakterli belgisi deyish mumkin.

Ijtimoiy sug'urta aksariyat mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida eng keng tarqalgan va muhim element sifatida ko'riladi hamda mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimini anglatadi. Ijtimoiy sug'urta davlat tomonidan joriy etilib, keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash va ularga yordam ko'rsatish tizimini namoyon qiladi.

## Nazorat savollari

1. Ijtimoiy risk qanday ko‘rinishlarda yuzaga keladi?
2. Ijtimoiy risklarni boshqarish deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy risklarni boshqarishda davlatning aralashuvi qanday?
4. Ijtimoiy risklarni kamaytirish usullari deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy risklarni nazorat yetuvchi organ qaysi?

### Test

1. Ijtimoiy risklarni qanday guruhga birlashtirish mumkin?
  - A) daromadni yo‘qotish, qo‘shimcha harajatlarga zaruriyat, ijtimoiy mavqening yo‘qotilishi.
  - B) Ishlab chiqarish xarajlari, moliyaviy risk, daromadni yo‘qotish.
  - S) sog‘liqni yo‘qotish, ijtimoiy mavqening yo‘qotilishi.
2. Ijtimoiy risklar – bu
  - A) Insonlarning normal ijtimoiy ahvolini buzuvchi sabablardir.
  - B) Baxtsiz xodisalar extimoli
  - S) ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotidagi turli omillarning murakkab jamlanmasini ifoda etadi
- 3) Riskning natijaviy ko‘rsatkichi qanday ko‘rinishda guruhlanadi?
  - A) Ijtimoiy – salomatlikka ziyon yetishi, mehnatga layoqatsizlik, o‘lim, biror shaxs uchun uning qaramog‘ida bo‘lganlarning ko‘payib ketishi, vafot etuvchilar sonining oshishi va xokazolar va iqtisodiy – mehnat qilishga bo‘lgan layoqatlilikning yo‘qolishi natijasida ko‘rilgan zararlar, davolanish, rehabilitatsiya uchun qo‘shimcha to‘lovlar sarflash.
  - B) Vafot etuvchilar sonining oshishi va xokazolar va iqtisodiy – mehnat qilishga bo‘lgan layoqatlilikning yo‘qolishi natijasida ko‘rilgan zararlar
  - S) Myehnatga layoqatlilikning yo‘qolishi natijasida ko‘rilgan zararlar
- 4) Riskni boshqarish –bu
  - A) Ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uning maqsadi noqulay holatlar yuzaga kelganda ob‘ektning ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlarini kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi



B) Shaxsning ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlarini kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi

S) Sug‘urta badallari ustidan nazorat o‘tkazish.

5. Riskni boshqarishning qanday asosiy bosqichlari mavjud?

A) Risk obektining tahlili; riskni aniqlash; riskni baholash; riskka ta’sir etish usullarini aniqlash; qaror qabul qilish; riskka bevosita ta’sir o‘tkazish; boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish

B) Qaror qabul qilish; riskka bevosita ta’sir o‘tkazish; boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish

S) Boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning roli.

2. Ijtimoiy riskning iqtisodiy mohiyati, tushunchasi va uning ko‘rinishlari.

3. Ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyili sifatida.

4. Ijtimoiy risklarni boshqarishda xususiy sug‘urtaning roli.

5. Ijtimoiy risklarni tavsifi va guruhlanishi.

6. Davlat va xususiy tashkilotlarning sug‘urtani ta’minlashdagi asosiy farqlari.

### **III.BOB. DAVLAT IJTIMOIIY SUG‘URTASI BO‘YICHA NAFAQALAR TAYINLASH VA TO‘LASH TARTIBI**

#### **3.1-§. Mehnatga layoqatlilik vaqtinchalik yo‘qotilganda majburiy ijtimoiy sug‘urtalash nafaqasi va sug‘urtalanadigan shaxslarga ajratiladigan yordam pullari miqdorini aniqlash**

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Ushbu ijtimoiy nafaqa vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda), sanatoriy-kurortlarda davolanganda, kasallangan oila a‘zosini parvarishlash zarur bo‘lganda, karantinda, sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda, mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a‘zo (protez) qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda tayinlanadi va to‘lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asos bo‘ladi va ish stajiga bog‘liq holda quyidagi miqdorlarda begilanadi (6.1-jadvalga qarang, navbatdagi bet).

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorini belgilash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblab chiqariladi: o‘rtacha oylik ish haqi; o‘rtacha kunlik ish haqi; nafaqaning kunlik miqdori; mehnatga qobiliyatsizlikning butun davri uchun nafaqa miqdori. 3.1-jadvalda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorlari o‘rtacha oylik ish haqiga foizlarda belgilangan. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim. Uni to‘lash xarajatlari ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

«Koronavirus infeksiyasi bilan zararlanishi yoki zararlangan deb gumon qilinishi munosabati bilan karantinga joylashtirilgan ota-onalar (ular o‘rnini bosuvchi shaxslar, vasiylar, homiylar), shuningdek, ularning 14 yoshgacha bo‘lgan bolasini parvarish qilayotgan shaxslarga o‘rtacha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to‘lanadi»<sup>65</sup>.

---

<sup>65</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

### 3.1-jadval

#### O‘rtacha oylik ish haqiga foizlarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorlari<sup>66</sup>

Xodimlar toifalari	Umumiy ish staji	Ijtimoiy nafaqa miqdori (ish haqiga nisbatan foizlarda)
Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo‘ladigan xatarli o‘simtalar, jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklar, SPID, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo‘yicha hisobda turgan xodimlar	8 yil va undan ortiq	100%
	5 yildan 8 yilgacha	80%
	5 yilgacha	60%
<ul style="list-style-type: none"> <li>– ishlayotgan 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga;</li> <li>– baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;</li> <li>– qaramog‘ida 16 yoshga (o‘quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo‘lgan xodimlarga;</li> <li>– Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;</li> <li>– Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko‘chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari, qalqonsimon bez va xavfli o‘smalar bilan bog‘liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;</li> <li>– mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan xodimlarga.</li> </ul>	Ish stajidan qat’iy nazar	100%
Umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin	Ish stajidan	80%

<sup>66</sup> «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

(sag'ir) yetimlar	qat'iy nazar	
Umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga	8 yil va undan ortiq	80%
	8 yilgacha	60%

Yollanma ishchilarni kasal vaqtlarida ularga qisqa muddatli yordam pullari berish orqali sug'urtalash majburiy ijtimoiy sug'urtaning shakllaridan biri hisoblanadi. Bundan maqsad mehnat qilishga layoqat vaqtinchalik yo'qotilgan holatlarda ishchilarni muayyan daromad bilan ta'minlash hisoblanadi. Bu esa ishchilarni kasallik vaqtlarida ham ishlashga majbur qiladigan moliyaviy ta'sirni pasaytirishga yo'l ochib beradi.

Barcha industrial rivojlangan davlatlarda yollama ishchilar uchun kasallikni vaqtida sug'urtalash tizimi mavjud. O'z vaqtida bu tizim vaqtinchalik ishchilar va o'zini o'zi mehnat bilan band qilgan shaxslarning to'liq bo'lmagan bandligi masalasini o'z ichiga olmagan. Bu esa kasallik vaqtlarida ularning ijtimoiy himoya darajasini sezilari ravishda pasaytiradi. Boshqacha aytganda, kasallikda beriladigan yordam pullari faqat yollanma ish bilan shug'ullanayotgan fuqarolarga, ya'ni ularning majburiy ijtimoiy sug'urtalashga huquqi borligini qonunan, mehnat shartnomasiga asoslangan holda to'lanadi. Qisqa muddatli yordam pullarining miqdori XMTning konvensilari asosida reglamentlashtiriladi. Demak, XMTning «Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida» 102-sonli Konvensiyasiga ko'ra, qisqa muddatli yordam pullarining minimal miqdori oylik maoshning 45 foizidan kam bo'lmasligi lozim. XMTning «Tibbiy xizmatlar va kasallik sababli beriladigan yordam pullari to'g'risida»gi 130-sonli Konvensiyasiga (1969 yil) ko'ra, qisqa muddatli yordam pullarining minimal miqdori yo'qotilgan ish haqining 60 foizidan kam bo'lmasligi lozim (6.2-jadvalga qarang).

To'lov shartlari qonuniy minimumlikni o'z ichiga oladi: unda kasallik vaqtida pul to'lab berishlar hisobga olinmagan, ya'ni bunday yordam puli to'lash ish beruvchilarning shaxsiy tashabbuslari yoki jamoaviy shartnomalar shartlariga asosan amalga oshirilishi kerak edi.

Ijtimoiy sugʻurta tizimlari tomonidan yordam puli toʻlash davomiyligining chegarasi joriy qilingan holatlarda, XMT konvensiyalarida aks ettirganidek, ularni 26 hafta (120-sonli konvensiya) va 52 hafta (13-sonli konvensiya) muddat ichida kechiktirmasdan amalga oshirish kerak boʻladi.

### 3.2-jadval

#### **Yollanma ishchilarning kasallik vaqtlarida beriladigan yordam pullarining qonunan belgilangan bosqichlari va davomiyligi (2009 yil)**

Davlatlar	Kutish davri	Yordam pulining boshlangʻich bosqichi		Yordam pulining navbatdagi bosqichi	
		Davomiyligi	Oldingi ish haqi %	Maksimal davomiyligi	Oldingi ish haqi %
Avstraliya	7 kun	Maksimum davomiylik yoʻq	Turgʻun stavka (mamlakatdagi oʻrtacha ish haqining taxminan 25 %)		
Braziliya		15 kun	100	52 hafta	91
Germaniya		6 hafta	100	78 hafta	70
Norvegiya		52 hafta	100		
Slovakiya		3 kun	70	52 hafta	90
Yaponiya	3 kun	18 oy	60		

Vaqtinchalik mehnatga layoqatini yoʻqotishdan sugʻurtlash predmeti sifatida ijtimoiy risklarning quyidagi guruhlari maydonga chiqadi:

– sugʻurtalangan shaxsning kasallik yoki jarohat tufayli vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatga tushishi sababli daromadini yoʻqotishi;

– oilaning sugʻurtalangan aʼzosining vaqtinchalik mehnatga layoqatini yoʻqotishi yoki oilasidan biror kishining (masalan farzandining) karantinga tushishi hamda unga parvarish zarurligi tufayli daromadini yoʻqotishi;

– sugʻurtalangan shaxsning bevosita statsionar davolanish kursini olganidan soʻng, sanotoriya-kurort muassasasida davolanishi lozimligi sababli daromadini yoʻqotishi.

Mehnat qilishga bo'lgan layoqatini vaqtinchalik yo'qotishi tufayli yordam pullarining ijtimoiy iqtisodiy jihatdan belgilanishi sug'urtalangan shaxsning yoki uning sug'urtalangan shaxs kasalligi yoki jarohati tufayli yo'qotgan daromadiga to'lov to'lab berishdan iboratdir.

Sug'urtalangan shaxsning kasallik yoki jarohat tufayli vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatga tushib qolganida, bunday ko'rinishdagi sug'urta tizimida to'lanadigan barcha mablag'ning taxminan 80 foizi sarflanadi.

### **Nazorat savollari**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 maydagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 sentyabrdagi 515-sonli «Davlat ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3.Mehnatga layoqatini vaqtincha yo'qotganlikda beriladigan yordam puli qanday sug'urtalash kerak bo'lgan vaziyatlarda va qanday mablag'lar hisobidan beriladi?

### **Test savollari**

1.Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorini belgilash uchun qanday ko'rsatkichlar hisoblab chiqariladi?

A) o'rtacha oylik ish haqi; o'rtacha kunlik ish haqi; nafaqaning kunlik miqdori; mehnatga qobiliyatsizlikning butun davri uchun nafaqa miqdori

B) o'rtacha kunlik ish haqi; nafaqaning kunlik miqdori; mehnatga qobiliyatsizlikning butun davri uchun nafaqa miqdori

S) nafaqaning kunlik miqdori; mehnatga qobiliyatsizlikning butun davri uchun nafaqa miqdori

2. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga chalingan bemorlarga O'rtacha oylik ish haqiga necha foizlarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorlari to'lab beriladi?

A) 8 yil va undan ortiq ish staji uchun 100 foiz

B) 6 yil va undan ortiq ish staji uchun 100 foiz

S) 5 yil va undan ortiq ish staji uchun 100 foiz

3. Umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag'ir) yetimlarga necha foizlarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi miqdorlari to'lab beriladi?

A) 80 foiz

B) 75 foiz

S) 55 foiz

4. XMTning «Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida» 102-sonli Konvensiyasiga ko'ra, qisqa muddatli yordam pullarining minimal miqdori oylik maoshning necha foizidan kam bo'lmasligi lozim?

A) 45 foiz

B) 70 foiz

S) 50 foiz

5. Germaniyada yollanma ishchilarning kasallik vaqtlarida beriladigan yordam pullarining necha foiz deb belgilangan?

A) 100

B) 75 foiz

S) 55 foiz

### **Mustaqil ish mavzulari**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 iyuldagi PF-175-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonining aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi roli.

2.Mehnatga layoqatini vaqtincha yo'qotganlikda beriladigan yordam puli berishning asoslari.

3.Vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sug'urtalashning xalqaro tajribalari.

### **3.2-§. Homiladorlikda va tug'ruqdan so'ng beriladigan nafaqalar, ularning miqdorini aniqlash amaliyoti**

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqani tayinlash va to'lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi. Barcha xodimalarga tuqqunga qadar va tuqqanidan keyin jami 126 kalendar kunga ta'til beriladi. Ushbu nafaqa 100 %

miqdorida butun ta'til davri uchun bir yo'la to'lanadi. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar xodimning haqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi. Ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar ish beruvchilar hisobidan to'lanadi, ya'ni 2010 yilgacha homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan to'lanar edi. 2010 yildan buyon respublikada xodimalarga ushbu nafaqalarni ish beruvchining o'z mablag'laridan, budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga esa tegishli budjetlar mablag'lari hisobidan to'lash tartibi amal qiladi. 2010 yilda belgilangan ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni ish beruvchilar hisobidan to'lash tartibi 2020 yil 1 yanvargacha uzaytirildi (26.12.2018 yildagi PQ-4086-son). Ishlovchi ayolga «dekret puli» vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida homiladorlik va tug'ish ta'tilining butun davri (126 kalendar kun, tug'ish qiyin kechgan yoki 2 va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 140 kun) uchun to'lanadi. Nafaqa to'liq ish haqi miqdorida to'lanadi. «Bunda ushbu miqdor tashkilotda haqiqatda ishlagan vaqtga qarab tabaqalashtiriladi: ishga qabul qilingan kundan boshlab kamida 12 oylik ish stajiga ega bo'lganda – o'rtacha oylik ish haqining 75%i, ish staji bir yildan ortiq bo'lganda 100%i to'lanadi»<sup>67</sup>.

«2022 yil 1 sentyabrdan boshlab budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilandi»<sup>68</sup>. Ilgarilari homiladorlik va tug'ish nafaqasi budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga Davlat budjeti hisobidan, boshqa tashkilotlarda ishlovchi ayollarga ish beruvchi tomondan to'lab berilardi. Budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda ishlovchi ayollarga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasining to'lab berilishi xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini

---

<sup>67</sup> <https://kun.uz/26830130>.

<sup>68</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 maydagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.



ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 sentyabrdagi 515-sonli «Davlat ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra, «Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi nizom» tasdiqlandi. Unga muvofiq ushbu nafaqa xodimning farzandi tug'ulguniga qadar minimal iste'mol xarajatlarining 4 baravari ( $498000 \cdot 4$ ) miqdorida to'lanadi. Minimal iste'mol xarajatlari miqdori o'zgarganda, minimal iste'mol xarajatlarining miqdori e'lon qilingan oydan keyingi oynning birinchi sanasidan boshlab nafaqa miqdori e'lon qilingan minimal iste'mol xarajatlarining yangi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.

Belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash va to'lash uchun asos bo'ladi. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida undagi ma'lumotlar hududiy ambulator-poliklinikaning yoki tug'ruqxona muassasasining mas'ul xodimi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligining «Tibbiyot» axborot tizimiga kiritiladi. Bunda «Tibbiyot» axborot tizimiga mehnatga layoqatsizlik varaqasining seriyasi, raqami, sanasi hamda nafaqa oluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, telefon raqami va mehnatga layoqatsizlik davri kiritiladi. «Tibbiyot» axborot tizimi tomonidan ma'lumotlar «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olingan ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda tekshiriladi. «Tibbiyot» axborot tizimi tomonidan tekshirilgan ma'lumotlar avtomatik ravishda «Yagona ryestr» axborot tizimiga yuboriladi. «Yagona ryestr» axborot tizimiga tomonidan nafaqa oluvchining oxirgi olti oy davomida<sup>69</sup>:

---

<sup>69</sup> [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/hususiy\\_sektorda\\_ishlovchi\\_bulajak\\_onalarga\\_nafaqa\\_tulanadi](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/hususiy_sektorda_ishlovchi_bulajak_onalarga_nafaqa_tulanadi).

- uzluksiz ish stajiga ega ekanligi – «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali;
- mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari mavjudligi – Davlat soliq qo‘mitasining ma‘lumotlar bazasi orqali;
- budget tashkilotlarida ishlashi yoki ishlamasligi Moliya vazirligining «UzASBO» dasturiy majmuasi orqali avtomatik ravishda tekshiriladi.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasini oluvchining oxirgi 6 oy davomidagi uzluksiz ish stajini hisoblashda, Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi budget tashkilotlaridan tashqari yuridik shaxslarda mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan kunga qadar 6 oy uzluksiz ish staji inobatga olinadi. Bunda ushbu davrda o‘ttiz bir kundan ko‘p bo‘lmagan tanaffuslar bo‘lganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan kundan oldingi o‘n ikki oy davomidagi ketma-ket davrlar ish stajini hisoblashda qo‘llaniladi. Agar oxirgi 6 oy davomidagi uzluksiz ish staji davrida xodimning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari mavjud bo‘lmasa, ushbu davr ish stajini hisoblashda inobatga olinmaydi.

Bolani parvarishlash uchun ta‘tilda bo‘lgan ayolning ish stajini Davlat soliq qo‘mitasi bazasi orqali tekshirishda uning ta‘tilga chiqishidan oldingi davri hisobga olinadi.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasi xodim yillik (asosiy va qo‘shimcha) mehnat ta‘tilida, bolani parvarishlash uchun ta‘tilda, ishni vaqtincha to‘xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, ta‘lim tashkilotlarida tahsil olishi munosabati bilan berilgan ta‘tilda bo‘lganda hamda ish joyi saqlanadigan boshqa hollarda ham to‘lab beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasi oluvchining oxirgi olti oy davomidagi uzluksiz ish staji davridagi mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari mavjud bo‘lsa va «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ish staji to‘g‘risidagi ma‘lumot bo‘lmagan taqdirda, bu haqda «Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan ikki ish kuni ichida nafaqa oluvchining «Tibbiyot» axborot tizimida qayd etilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar, shuningdek, ish beruvchining Davlat soliq qo‘mitasi bazasidagi va

«Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi shaxsiy kabinetlariga xabarnoma yuboriladi. Nafaqa oluvchining ish staji nomutanosibligi (noto‘g‘ri kiritilganligi yoki kiritilmaganligi) xabarnoma olingan oydan keyingi oyning oxirgi ish kuniga qadar «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ish beruvchi tomonidan to‘g‘rilanishi lozim. Xabarnoma yuborilgan nafaqa oluvchilarning oxirgi olti oy davomidagi uzluksiz ish staji xabarnoma yuborilgan oydan keyingi oyning oxirgi ish kunida qayta tekshiriladi. Nomutanosiblik to‘g‘rilanmagan hollarda, nafaqa tayinlashni rad etish to‘g‘risidagi qaror «Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi. «Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan nafaqa oluvchining oxirgi olti oy davomidagi uzluksiz ish staji, mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari va uning yuridik shaxslarda ishlashi tasdiqlanganda, nafaqani tayinlash to‘g‘risidagi qaror avtomatik tarzda shakllantiriladi.

«Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan: nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganda, nafaqaning to‘lov shakli va muddati bo‘yicha; nafaqa tayinlashni rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganda, rad etish sabablari bo‘yicha nafaqa oluvchining «Tibbiyot» axborot tizimida qayd etilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar, shuningdek, ish beruvchining Davlat soliq qo‘mitasi bazasidagi va «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi shaxsiy kabinetlariga avtomatik tarzda xabarnoma yuboriladi.

«Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan har oyning 4-sanasiga qadar nafaqa bo‘yicha to‘lov ro‘yxat (vedomost)lari AT «Xalq banki»ga taqdim etiladi hamda Jamg‘armaning g‘azna hisobvarag‘idan zarur mablag‘lar belgilangan tartibda AT «Xalq banki»ga o‘tkazib beriladi. Bunda muddatning oxirgi kuni bayram va dam olish kunlariga to‘g‘ri kelganda, to‘lov ro‘yxatlari va zarur mablag‘lar keyingi 2 ish kuni mobaynida AT «Xalq banki»ning tuman (shahar) bo‘limiga taqdim etilishi va moliyalashtirilishi mumkin. Nafaqani to‘lash uchun AT «Xalq banki» va uning bo‘limlarida alohida maxsus bank hisobvaraqlari ochiladi. «Yagona ryestr» axborot tizimi tomonidan to‘lov ro‘yxatlari bank plastik kartasi bo‘yicha shakllantiriladi. Bunda tegishli banklararo reprotssessing markazlaridan nafaqa oluvchining

nomiga ochilgan, aktiv holatda bo'lgan, oxirgi 60 kun davomida oxirgi tranzaksiya amalga oshirilgan bank plastik kartasi tanlab olinadi. Nafaqa oluvchining bank plastik kartasi bo'lmaganda, to'lov naqd pul ko'rinishida amalga oshiriladi.

AT «Xalq banki» va uning bo'limlari tomonidan nafaqa: nafaqa oluvchilarning bank plastik kartasiga to'lov amalga oshiriladigan oyning 10-sanasiga qadar o'tkaziladi; naqd pul ko'rinishida to'lov amalga oshiriladigan oyning 27-sanasiga qadar beriladi. AT «Xalq banki» va uning bo'limlari tomonidan nafaqani naqd pul ko'rinishida nafaqa oluvchining murojaatiga asosan, biroq nafaqa tayinlanganligi to'g'risida SMS-xabar yuborilgan kundan boshlab to'qson kun davomida belgilangan tartibda to'lanadi.

Homiladorlikda va tug'ruqdan so'ng beriladigan yordam pullari ishdan ta'tilga chiqqan ayolga, uning mehnat ta'tili davomidagi davr ichida to'lab beriladi. Bunday yordam pulini berishdan maqsad, homilador ayolning ish faoliyatini tug'ruqqacha va tug'ruqdan so'ng ham, farzand parvarishining ilk oylarida ham uning shu voqealar sababli yo'qotgan daromadini tiklab berishdan iboratdir.

Onalikni himoya qilish XMTning ilk tashkil etilgan davrlaridanoq, bu tashkilotning e'tibor markazida bo'ldi. 1919 yilda «Onalikni himoya qilish to'g'risida»gi 3-sonli Konvensiya qabul qilingan edi. Bu Konvensiya 1952 yilda qayta ko'rib chiqilgan va «Onalikni himoya qilish to'g'risida»gi 103-sonli Konvensiya nomini olgan.

Onalar sog'ligiga XMTning 1952-yilda qabul qilingan «Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida»gi Konvensiyada alohida qayd etilgan. Unga ko'ra, milliy qonunchilikda homiladorlik va tug'ruq holatlari (yoki ularning noxush kechish holatlari) uchun tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyin ham tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish faoliyatini qayta ko'rib chiqish zarurligi aytib o'tiladi. Bunday tibbiy yordam shifokor yoki malakali doya tomonidan ko'rsatilishi kerak, shuningdek onaning ahvoli qoniqarli bo'lmagan holatlarda uni kasalxonaga yotqizish yordamini ham ta'minlay olishi zarur.

XMTning 102-sonli Konvensiyasi va ijtimoiy ta'minot Yevropa kodeksida homiladorlikda va tug'ruqda beriladigan yordam pulining to'lanishi lozim bo'lgan minimal vaqt davri (12 hafta, ya'ni 84 kun) qayta ko'rib chiqilgan. Butun dekret ta'tili uchun to'lanadigan pul

ayolning avval olgan daromadining 45 foizidan kam bo'lmashligi lozim, deb keltirilgan.

### 3.3- jadval

#### Sug'urtaviy ta'minot ko'rinishlarining sug'urtalash lozim bo'lgan holatlarga bog'liqligi

Sug'urtalash lozim bo'lgan holat	Sug'urtaviy ta'minot ko'rinishlari
Oilaning sug'urtalangan a'zosining vaqtinchalik mehnatga layoqatini yo'qotishi yoki oilasidan biror kishining (masalan farzandining) karantinga tushishi hamda unga parvarish zarurligi tufayli daromadini yo'qotishi;	Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarida beriladigan yordam puli
Sug'urtalangan shaxs o'rnatilgan tartibda maxsus tibbiy yoki statsionar muassasalarda davolanayotganligi sababli uning daromadining yo'qotilishi	Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarida beriladigan yordam puli
Homiladorlik va tug'ruq	Homiladorlik va tug'ruqda beriladigan yordam puli. Homiladorlikning ilk oylaridayoq tibbiy muassasa hisobiga olingan ayollarga beriladigan bir martalik yordam puli
Farzandning dunyoga kelishi	Farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik yordam puli
Bolani u bir yarim yoshga kirgancha parvarishlash	Bola parvarishi uchun beriladigan oylik yordam puli
Sug'urtalangan shaxs yoki uning oilasidagi voyaga yetmagan biror kishining o'limi	Dafn marosimi uchun ijtimoiy yordam puli

Vaqtinchalik ishga layoqatsizlikdan sug'urtalash tizimida sug'urtalashni talab etadigan vaziyatlar paydo bo'lishi, sug'urtaviy ta'minotning turli ko'rinishlarining yuzaga kelishi bilan ham bog'langan.

## Nazorat savollari

1. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha tayinlanadigan nafaqa.
2. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha tayinlanadigan nafaqa nafaqa miqdori.
3. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash uchun umumiy ish stajini aniqlash va hisoblash tartibi.
4. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa.

## Test savollari

1. Xodimalarga tuqqunga qadar va tuqqanidan keyin jami necha kalendar kunga ta'til beriladi?
  - A) 126 kalendar kun
  - B) 130 kalendar kun
  - S) 120 kalendar kun
2. 2010 yildan homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar qaysi mablag'lari hisobidan to'lash tartibi amal qiladi?
  - A) ish beruvchining o'z mablag'laridan va budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga esa tegishli budjetlar mablag'laridan
  - B) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan
  - S) Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'laridan
3. Homiladorlik va tug'ish ta'tilining nafaqasi qanday miqdorda to'lanadi?
  - A) 12 oylik ish stajiga ega bo'lganda – o'rtacha oylik ish haqining 75%i, ish staji bir yildan ortiq bo'lganda 100%i to'lanadi
  - B) 10 oylik ish stajiga ega bo'lganda – o'rtacha oylik ish haqining 75%i, ish staji bir yildan ortiq bo'lganda 100%i to'lanadi
  - S) 5 oylik ish stajiga ega bo'lganda – o'rtacha oylik ish haqining 75%i, ish staji bir yildan ortiq bo'lganda 100%i to'lanadi
4. 1919 yilda «Onalikni himoya qilish to'g'risida»gi 3-sonli Konvensiya qachon qabul qilingan?
  - A) 1919 yil, 1952 yilda qayta ko'rib chiqilgan yilda
  - B) 1920 yil, 1952 yilda qayta ko'rib chiqilgan yilda
  - S) 1930 yil, 1952 yilda qayta ko'rib chiqilgan yilda

5. XMTning 102-sonli Konvensiyasi va ijtimoiy ta'minot Yevropa kodeksida homiladorlikda va tug'ruqda beriladigan yordam pulining to'lanishi lozim bo'lgan minimal vaqt davri qancha?

- A) 12 hafta
- B) 10 hafta
- S) 20 hafta

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hisoblash tartibi.
2. Bola tug'ilganda beriladigan suyunchi.
3. Bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni tayinlash va to'lash.
4. Nafaqalarni to'lash yuzasidan nazorat o'rnatish.

### **3.3-§. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarda majburiy sug'urtalashda sug'urta badallarini aniqlash tartibini takomillashtirish**

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarida beriladigan qisqa muddatli yordam pullarining o'ziga xos jihatlarini hisobga oluvchi moliyaviy tizim sifatida taqsimlovchi tizim yoki yillik hisob-kitoblar tizimi maydonga chiqadi. Shunga muvofiq holda, sug'urta badallari har yili shunday darajada belgilanadiki, ular yordam pullarini to'lashga ketgan harajatlarni qoplashi va yillik hisobotni boshqarish uchun yetarli bo'lishi lozim.

Qisqa muddatli yordam pullarini moliyalashtirish uchun lozim bo'lgan badallar stavkasi hisob-kitoblar yoki moliyaviy yil natijalariga ko'ra belgilanadi. Birinchi holatda yil boshidayoq vaqtinchalik badalni joriy qilish mumkin va u yil oxirida ishning haqiqiy holatini hisobga olish bilan to'ldirilib ketiladi. Bunday jarayonni o'zaro sug'urtalash jamiyatlarida, kasallik va onalikda olinadigan yordam pullari nisbatlarida, ba'zan boshqa to'lovlarda, masalan, dafn marosimi uchun beriladigan to'lovlarda ham qo'llaniladi.

Sug'urta badallari stavkasi moliyaviy yilning aniq ma'lumotlari asosida belgilangan hollarda, ish beruvchilar va ishchilar yakuniy badal sifatida qanday miqdordagi summani olishlarini oldindan bila olmaydilar. Bu holat ularga kelgusi yil uchun o'z oldilarga qo'ygan

iqtisodiy va moliyaviy rejalarga halal berishi mumkin. Shuning uchun ilgari belgilangan sug'urta badallari stavkalari tomon yuguradilar. Bu sug'urta badali stavkasi oldindan, oldingi yilgi hisob-kitoblarni ko'zdan qochirmagan holda, aniq hisoblashlar orqali belgilanadi. Hisob-kitoblarda qo'llanilgan elementlar, foydalanilgan ko'rsatkichlar va ma'lumotlarning statistik bazasi to'plamiga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha kasallanish darajasining statistik hisob-kitobi yuritiladi. Bunday hisob-kitoblarda ma'lumotlar kasallanish dinamikasini yaqqol ko'rsatib turuvchi jadvallar shaklida umumlashtiriladi va kasallanish koeffitsiyentini hisoblab chiqish imkonini beradi. Bu kabi jadvallar asosida yil davomida bitta sug'urtalangan kishiga o'rtacha qancha pul to'lab berilganligi haqida ma'lumot olish mumkin.

Ijtimoiy sug'urta tizimida moliyaviy hisob kitoblarni amalga oshirish uchun kerakli aktuar bazani olish uchun har bir komponent, shuningdek, yosh, jins, geografik hududlar, kasblar, kasalliklarning asosiy sabablari borasidagi ma'lumotlarni ham izlab topishga to'g'ri keladi.

Kasallik darajasini aniqlashda boshqa omillar ham muhim rol o'ynaydi. Kasallanish darajasiga ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillar katta ta'sirini o'tkazadi, bu omillar hududiy shart-sharoitlarga bog'liq holda, hududlarda bir xilda kechmaydi. Bunday omillar ichidan yordam pullari va oylik maoshi, ishsizlik darajasi kabilar o'rtasidagi nisbatlarni yodga olish mumkin. Tajribalar ishsizlik davrida kasallik sababli yordam pullari olish holatlari ko'payganligini ko'rsatdi. Yana bir muhim omil – mehnatga layoqatsizlikning shifokorlar tomonidan tasdiqlanishi jarayonidir.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to'lanadi: ishlayotgan 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga; baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez



(adenoma, rak) va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga; mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan xodimlarga.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo'ladigan xatarli o'simtalar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar, SPID, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobda turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to'lanadi: umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibiga kiritilgan asosiy o'zgarishlarga muvofiq, ijtimoiy soliq stavkasi budjet tashkilotlari uchun 25 foiz, boshqa soliq to'lovchilar uchun 12 foiz miqdorida saqlab qolingan. «Hunarmand» uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandchilik faoliyati sub'ektlari ijtimoiy soliqni har oyda to'lashdan bir yilda bir marotaba bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy to'lovlarni to'lashga o'tkazilgan. 2022 yil 1 yanvardan 2023 yil 1 yanvarga qadar respublika tumanlarida (Toshkent shahri bundan mustasno) faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida belgilangan.

### **Xulosa**

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash va to'lash tartibining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga Davlat budjeti hisobidan nafaqa to'lanadi; nafaqa xodimning farzandi tug'ilguniga qadar minimal iste'mol xarajatlarining 4 baravari miqdorida Moliya vazirligi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta

jamg'armasi hisobidan to'lanadi; nafaqa fuqarolarning murojaatlarisiz «Yagona ryestr» axborot tizimi orqali tayinlanib, to'lanadi.

Majburiy ijtimoiy sug'urtaning ko'rinishlaridan yana biri yollanma ishchilarni kasallik, homiladorlik va tug'ruq, farzand tarbiyasi va parvarishi kabi vaqtinchalik mehnat faolyatining to'xtashiga yoki uzilishiga olib keladigan vaziyatlarda sug'urtalash hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda ijtimoiy risklar aholini mehnatkash qatlami uchun odatiy va ommaviy jarayon hisoblanadi hamda bundagi daromadning yo'qotilishi «vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi» sababi bilan to'lov to'lash orqali kompensatsiyalanadi. Bundan maqsad yollanma ishchining yo'qotgan daromadini kompensatsiyalash hisoblanadi.

Vaqtinchalik mehnat qilishga layoqatini yo'qotish holatlarida yordam pullari belgilash – sug'urtalangan shaxsning o'zi yoki uning oila a'zolaridan kasal bo'lganda yoki jarohatlanganda, sug'urtalangan shaxsning parvarishiga muhtoj bo'lgan vaziyatlarda yo'qotilgan daromad uchun pullik to'lov berishdan iboratdir.

Kasalliklar yoki jarohatlar sababli vaqtinchalik mehnat qilishga layoqatini yo'qotish holatlarida yordam pullarini to'lashga ketgan mablag' mazkur sug'urta shaklida to'lanadigan umumiy mablag'ning taxminan 80 foizini tashkil etadi.

Vaqtinchalik mehnatga layoqtini yo'qotish holatida yordam pulini to'lash mehnatga layoqatsizlikning dastlabki 3 kuni uchun ish beruvchining mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi, keyingi kunlar uchun esa majburiy ijtimoiy sug'urtalash mablag'lari hisobidan ketadi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarida beriladigan yordam pulining miqdori, sug'urtalangan shaxs oylik ish haqi o'rtacha qiymatini o'rtacha oylik ish haqiga mos ravishda belgilab qo'yilgan yordam pulining protsentlardagi ifodasiga (60%, 80%, 100%) ko'paytirish orqali aniqlanadi.

### **Nazorat savollari**

1.Oila a'zolarini parvarishlash bilan bog'liq holatda beriladigan yordam puli qanday sug'urtalash kerak bo'lgan vaziyatlarda va qanday mablag'lar hisobidan beriladi?

2.Nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy rehabilitatsiya qilish yo'nalishlari haqida nimalarni bilasiz?

3. Aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish qanday tashkil yetilgan va qanqay manbalardan mablag' bilan ta'minlanadi?

4. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsion to'lovlarning turlari va moliyalashtirish manbalari nimalarfan iborat?

### **Test savollari**

1. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'i nazar ish haqining necha foizi miqdorida quyidagilarga to'lanadi?

A) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga; baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga 100 foiz miqdorda

B) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga; baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga 50 foizmiqdorda

S) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga; baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga 60 foiz miqdorda

2. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar bo'yicha hisobda turgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi qanday miqdorlarda to'lanadi?

A) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

B) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 55 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 45 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 35 foizi miqdorida.

S) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 65 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha

bo'lgan xodimlarga ish haqining 55 foizi miqdorida; umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 45 foizi miqdorida.

3.2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibiga kiritilgan asosiy o'zgarishlarga muvofiq, ijtimoiy soliq stavkasi budget tashkilotlari uchun necha foiz miqdorida saqlab qolingan?

A) 25 foiz

B) 30 foiz

S) 20 foiz

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sug'urtalashning normativ-huquqiy asoslari.

2. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sug'urtalashda sug'urta badallari.

3. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni majburiy ijtimoiy sug'urtalashda o'rtacha ish haqini hisobga olish.

## IV BOB. PENSIYA SUG‘URTASI

### 4.1-§. Pensiya sug‘urtasining tarixi, predmeti va kategoriyalari

Eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Rimda birinchi marta harbiy xizmatni o‘tay olmaydigan keksa yoshdagilarga va janglarda jarohat olgan harbiylarga «pensiylar – muntazam to‘lovlar joriy etilgan. Ko‘plab manbalarda pensiylar Yuliy Sezar tomonidan harbiylar uchun o‘ylab topilganligi qayd etilgan»<sup>70</sup>.

«VII asrda Xalifa Umar tomonidan pensiylar Islomning beshta ustunidan biri bo‘lgan zakot (xayriya) shaklida joriy qilingan»<sup>71</sup>. Bunda hukumat xazinasiga yig‘ilgan soliqlar (zakot, juzya) hisobidan muhtojlarga, shu jumladan, kambag‘allarga, qariyalarga, yetimlarga, beva ayollarga va nogironlarga moddiy yordam berilgan.

Fransiyada 1673 yilda harbiy-dengiz floti ofitserlari uchun pensiya ta‘minoti joriy qilingan. 1790 yildagi «Buyuk fransuz inqilobi» davrida Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va 50 yoshga to‘lganlar uchun mo‘ljallangan edi. Fransiya pensiya tizimi birdamlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bunda pensiya to‘lovlari iqtisodiy faol aholining ijtimoiy to‘lovlari hisobidan shakllantiriluvchi daromadlar hisobiga amalga oshiriladi. Pensiya ta‘minotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari va assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Pensiya badallari ish beruvchilar va ishlovchilar o‘rtasida taqsimlanadi. Erkin kasb egalari, jumladan, kichik tadbirkorlik sub’ektlarining, dehqonlarning Pensiya fondiga to‘laydigan har oylik to‘lovlari miqdori ish haqining 16,35 foizni tashkil qiladi. Fransiyada pensiylar o‘rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi va bunda so‘nggi 11 yillik mehnat staji hisobga olinadi. Biroq, Fransiyada minimal va maksimal davlat pensiyasi amal qiladi. Bugungi kunda minimal davlat pensiyasi taxminan yiliga 6 ming yevroni tashkil qiladi, maksimal davlat pensiyasi miqdori esa bundan 2 barobarga ko‘p. Pensiyaga chiqishning minimal yoshi 60 yilni tashkil qiladi. Agar fuqaro 41 yil ishlagan bo‘lsa, u to‘liq miqdorda pensiya oladi. Agar mehnat staji kam bo‘lsa, pensiya miqdori 1,25 foizga kamayadi.

<sup>70</sup> Мосейко В. Генезис пенсионных систем как проявление социальной функции государства. (<https://www.rusrand.ru/Doklad5/Moseiko.pdf>).

<sup>71</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Пенсия>.

Agarda fuqaro 65 yoshida munosib tarzda pensiyaga chiqadigan bo'lsa, u holda u qachon mehnat faoliyatini boshlaganidan qat'iy nazar o'z pensiyasini to'liq oladi. Fransiya Qariyalar ishlari bo'yicha vaziri Mishel Delone mamlakatda 60 yoshdan oshganlar umumiy aholi ulushida 23,4 foizni tashkil etayotganini ta'kidlar ekan, keksalarni ishlab chiqarishga faol jalb qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ular istiqbolda, nafaqat, davlat xizmatlari uchun, balki, ko'plab kompaniyalar uchun ham bag'oyat foydali shaxslarga aylanishlari mumkinligini alohida qayd etadi.

«Rossiyada pensiya qonunchiligi Nikolay I davrida (1825-1885-yy.) qabul qilingan bo'lib, shu asosda pensiyalar 25 yil xizmat qilgan ofitserlarga va harbiy xizmatchilarga to'langan»<sup>72</sup>.

Buyuk Britaniya pensiya tizimi dunyodagi eng qadimiylaridan biri bo'lib, ommaviy va universal pensiya ta'minoti 1908 yilda joriy qilingan. Mazkur tizim tashkil etish, tartibga solish va imkoniyatlar tanlovi bo'yicha bir muncha murakkab hisoblanadi. Buyuk Britaniyalik pensionerlar oylik maoshi va ish stajidan kelib chiqib, davlatdan bazaviy pensiyani ham, milliy sug'urta tizimidan mehnat pensiyasini ham olishi mumkin. Davlatning bazaviy pensiyasini 65 yoshdan oshgan erkaklar va 60 yoshdan oshgan ayollar olishadi, uning miqdori ish stajiga bog'liq bo'ladi. Pensiyaning miqdori cheklangan va inflyasiyadan kelib chiqib, davlat tomonidan indeksatsiya qilinadi. Ishchi-xodimning o'rtacha oylik ish haqining 20 foizi miqdorida davlat tomonidan kafolatlanadi. Mehnat pensiyasi ham ishchi-xodimning badallari hisobiga shakllantiriladi, biroq, bunda ish beruvchi bilan teng ikkiga bo'linadi. Mehnat pensiyasi to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar miqdoriga bog'liq bo'lib, daromadning 20 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada xususiy pensiyalarni jamg'arishning turli-tuman usullari – korxonada korporativ dasturlardan tortib, to nodavlat pensiya fondlariga ixtiyoriy tarzda pensiya jamg'arishning rivojlangan tizimi ham – mavjud.

Daniyada 1891 yilda va Yangi Zelandiyada 1989 yilda kambag'allarga maqsadli yordam ko'rsatishga mo'ljallangan pensiya tizimi shakllangan va bu tizimni moliyalashtirish soliq tushumlari hisobidan amalga oshirilgan. Avstraliyada dastlabki davlat pensiyalari

---

<sup>72</sup> <https://www.segodnya.ua/newsarchive/14-ijulja-1956-v-cccr-pojavilic-pencii.html>.

keksa fuqarolarga 1908 yilda to‘langan. «Pensiya ta‘minoti tizimi Italiyada 1919 yilda, Kanadada 1927 yilda, AQShda 1935 yilda joriy qilingan»<sup>73</sup>. Yaponiyada esa 1941 yil, ya‘ni Ikkinchi jahon urushi davrida shakllangan.

«Birinchi marta umumiy pensiya sug‘urtasi qonuniy jihatdan Shvetsiyada 1913 yilda joriy qilingan»<sup>74</sup>. Biroq, qonun bilan belgilangan pensiya to‘lovlari miqdori o‘sha davrda ahamiyatli bo‘lsa-da, kambag‘allikdan holi bo‘lish imkonini bermagan va qariyalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning davlat tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatgan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining aksariyati o‘z pensiya sug‘urtasi tizimini Germaniya modeli asosida shakllantirdi. Angliya-Sakson (AQShdan tashqari) va Shimoliy Yevropa davlatlari pensiya tizimini shakllantirishda Daniya va Yangi Zelandiya modellaridan foydalanishdi. Pensiya tizimining ushbu ikki turi turli vazifalarni bajarishgan. «Pensiya tizimining Germaniya modeli ishchining pensiyaga chiqqanidan so‘ng uning ijtimoiy maqomini saqlab qolishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Angliyada joriy qilingan Daniya modeli esa kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgandir»<sup>75</sup>.

Shuni alohida qayd etish zarurki, pensiyalar qadimiy tarixga ega bo‘lib, avvalo, harbiylarga berilgan. Xalifa Umar davrida barcha qatlamni, avvalo, muhtojlarni nafaqa tayinlash orqali ijimoiy muhofaza qilish amaliyoti birinchi bo‘lib keng joriy etilgan. Hozirgi ijtimoiy himoyalanganlik, kam taminlanganlarni keng ko‘lamda davlat tomonidan adolatli moddiy, moliyaviy taminlash tizimi va mexanizmini, aynan, uning sof insonparvarlik g‘oyasi, amalda qo‘llagan ijtimoiy siyosati, ilk boshlab bergan samarali, halqchil islohoti mevasi, samarasi, deyish mumkin.

Pensiya tizimi tarixi va taraqqiyotining dastlabki bosqichi XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi va «birinchi marta ijimoiy sug‘urtaga asoslangan davlat pensiya ta‘minoti tizimi Germaniyada Otto fon

---

<sup>73</sup> Сулакшин С. Государственная экономическая политика и экономическая доктрина России. К умной и нравственной экономике. В 5 т., Том 1. – М: «Directmedia», 2013. – С. 306.

<sup>74</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

<sup>75</sup> Гусаков Д. История пенсионного обеспечения и социального страхования в России. – М.: «Санкт-Петербургский государственный институт психологии и социальной работы», 2010. – С. 260.

Bismark tomonidan 1889 yilda joriy qilingan»<sup>76</sup>. Diqqatga sazovor jihati shundaki, O.Bismarkning pensiya islohotlari va g'oyalari sabab, ijtimoiy himoya tizimi va ijtimoiy sug'urta taraqqiyotiga zamin yaratilgan, ushbu modelda mehnat va pensiya sug'urtasi tadbirlari nisbatan puxta ishlab chiqilgan va boshqa mamlakatlar ushbu modelni o'z amaliyotida qo'llay boshlagan hamda kelgusidagi pensiya islohotlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

O.Bismark tomonidan yaratilgan pensiya modeli<sup>77</sup> (Bismark modeli – pay-as-you-go) «avlodlar birdamligi»ga asoslangan «taqsimlanuvchi» pensiya tizimini nazarda tutadi, bunda hozirgi pensionerlarning pensiyasi hozirgi ishlayotgan avlod tomonidan to'lanadi. Bugungi kunda ishlayotgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy to'lovlar miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, keyinchalik ular tomonidan to'langan to'lovlarga mutanosib ravishda pensiya miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi. Germaniya fuqarolari tomonidan Pensiya fondiga to'lanadigan har oylik to'lovning o'rtacha miqdori ular ish haqining 20 foizini tashkil qiladi, uning teng yarmini ish beruvchi to'laydi. Fuqaro harbiy xizmatni o'tayotgan vaqtda yoki ayollarning dekret ta'tili davomida to'lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya hisob-kitoblari individual koeffitsiyentlar asosida (butun mehnat faoliyatida) amalga oshiriladi. U pensiyaga chiqish yoshiga, mehnat stajiga, ish haqi miqdoriga va pensiyaning turiga bog'liq bo'ladi. Germaniyada ishlovchilarning ko'pchiligi nodavlat pensiya fondlarida ishtirok etishadi va xususiy pensiya rejalariga ega bo'ladi. Ushbu model demografik omillarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, o'sha davrlarda jami aholi tarkibida keksalar soni katta ulushga ega bo'lmagan va davlat tomonidan ularni pensiya bilan ta'minlashda moliyaviy muammolar ham yuzaga kelmagan.

Angliyalik iqtisodchi, 1942 yilda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug'urta tizimining asoslarini yaratgan U.Beveridj tomonidan yaratilgan model esa ijtimoiy sohada davlatning rolini kuchaytirish zarurligini nazarda tutadi. Uning fikriga ko'ra, oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar (yordam) va milliy sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari davlat

---

<sup>76</sup> Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах / А. Федотов // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.

<sup>77</sup> Martin Kitchen. The Cambridge Illustrated History of Germany: – Cambridge University Press. 1996. – P. 352.



budjeti hisobidan, ijtimoiy himoyaning boshqa xarajat (tadbirlari)lari ish beruvchilar va ishchilar hamda davlat subsidiyalari hisobidan amalga oshirilishi kerak. Beveridj modelining o‘ziga xos xususiyati: davlat – barcha aholining ijtimoiy himoyasini kafolatlashi; ish beruvchi – yollanma ishchilarning ijtimoiy sug‘urtasini amalga oshirishi; ishchi – qo‘shimcha shaxsiy sug‘urtalashni amalga oshirishi zarur.

#### 4.1-jadval

### Bismark va Beveridj pensiya tizimi modellarining qiyosiy tahlili<sup>78</sup>

	<b>Bismark modeli</b>	<b>Beveridj modeli</b>
Tashkil etish asoslari	Majburiy pensiya sug‘urtasi tizimi	Ijtimoiy ta’minot tizimi
Tamoyili	Iqtisodiy (kasbiy) birdamlik	Ijtimoiy birdamlik
Moliyalashtirish manbasi	Ijtimoiy sug‘urta badallari	Davlat budjeti (soliqlar)
Qamrovi	Barcha ish bilan band aholi	Barcha aholi
Pensiya miqdori	To‘langan sug‘urta badallari miqdoriga bog‘liq	Mehnat hissasiga bog‘liq bo‘lmagan minimal miqdor
Davlatning ishtiroki darajasi	Minimal darajada	Maksimal darajada
Sug‘urtalangan shaxsning ishtiroki darajasi	Maksimal darajada	Minimal darajada
Maqsadi	Yo‘qotilgan ish haqini kompensatsiyalash	Fuqarolarni kambag‘allikdan himoya qilish

Bismark va Beveridj pensiya modellarining asosiy elementlari bugungi kunda ham aksariyat mamlakatlarda amal qilayotgan pensiya tizimida ham mavjud. Ilmiy adabiyotlarda ushbu modellar ko‘pincha qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, ularning kamchiliklari va afzalliklari aniqlangan. Quyidagi 4.1-jadvalda Bismark va Beveridj pensiya

<sup>78</sup> Ignacio J. Conde-Ruiz, Clara I. González. From Bismarck to Beveridge: the other pension reform in Spain. Journal of the Spanish Economic Association. Published online: 30 August 2016. This article is published with open access at Springerlink.com.

modellarining asosiy (bazaviy) farqli jihatlari keltirilgan. Har ikkala model ham sof shaklda emas, balki amalda keng qo‘llaniladi. Turli xil milliy pensiya tizimlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, demografik omillar, mehnat bozori, moliya bozori holatidan kelib chiqib, Bismark va Beveridj modellarining ayrim elementlaridan foydalanishadi.

Shunday qilib, Bismark modelining asosiy elementlari Fransiya, Avstriya, Gretsiya, Portugaliya, Germaniya, Finlyandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Belgiya kabi mamlakatlar pensiya tizimlarining asosini tashkil etdi. Buyuk Britaniya, Kanada, Niderlandiya, Daniya, Shveysariya, Avstraliya va AQSH mamlakatlari pensiya tizimlari Beveridj modeliga asoslangan.

“Pensiya” atamasi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning ajralmas tushunchalaridan biriga aylanib ulgurdi. Pensiya bilan bog‘liq munosabatlar ushbu iqtisodiy atamaning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, ahamiyati, u haqida turli makon va zamonda iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan turlicha qarashlar, talqin-ta’riflarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan va ko‘rsatmoqda. Pensiya atamasi lotincha «pensio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «to‘lov»<sup>79</sup> ma’nosini anglatadi

Arizona universiteti professori Jun Peng tadqiqotlarida «pensiylar pensionerlarning davriy daromadlari, kechiktirilgan to‘lovlar, fuqaroning mehnatga layoqatsizligi tufayli yo‘qotilgan ish haqi uchun kompensatsiya ekanligi qayd etilgan hamda ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan talqin qilingan»<sup>80</sup>.

Ijtimoiy sug‘urta sohasida yirik olim V.Roikning fikricha, «pensiylar fuqarolarga keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo‘qotganida moddiy jihatdan ta’minlanmaslik riskidan ijtimoiy himoya qilishning muhim shakli bo‘lib, yo‘qotilgan ish haqi (daromadi)ning bir qismining qoplanishiga mo‘ljallangan oylik pulli to‘lovlardir»<sup>81</sup>. Bu esa fuqarolarning keksalik davrida yashashlari

<sup>79</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. P harfi. Tahrir hay’ati T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – T.: «O‘zME», 2008. 50-b.


<sup>80</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA:Auerbach Publications, 2008. – P. 2-5.

<sup>81</sup> Роик Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 46.

uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishini yoki ularning ijtimoiy xavfsizligi ta'minlanishini anglatadi.

Ilmiy tadqiqotlarda pensiyalarning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etuvchi ta'riflarda ushbu tushunchaga xos bo'lgan zaruriy xarakterli belgilar va xususiyatlar ham ochib berilishi zarurligi qayd etilgan (4.1-rasm).

Pensiya ta'minoti – keksalik va pensiyaga chiqish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotish holatlarida aholini moddiy ta'minlanmaganlik riskidan ijtimoiy himoya qilishning muhim sohasidir. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra pensiyaning kirib kelishi va rivojlanishi nisbatan yaqinda, XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan. Bu davr insoniyat tarixiga keksa yoshga yetgan aholi qatlaminin g kambag'alligi va ehtiyojlari uchun kurash davri hisoblanadi. Pensiya ta'minotini ham ahamiyati va qamrovi jihatidan, yollanma ishchilarning doimiy bandligini hamda ularning munosib oylik ish haqi olishini ta'minlash kabi muhim voqea bilan tenglashtirish mumkin.



**4.1-rasm. Pensiyalarning mohiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim xarakterli belgilar (xususiyatlar)<sup>82</sup>**

<sup>82</sup>Mamatov B.S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2022. 25-38-b.

Iqtisodiy adabiyotlarda pensiya ta'minotiga nisbatan turli-tuman ta'riflar mavjud. Masalan, V.Roikning fikricha, «pensiya ta'minoti – bu keksalik va pensiyaga chiqish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotish holatlarida moddiy jihatdan ta'minlanmaganlik riskidan aholini ijtimoiy himoya qilishning eng muhim yo'nalishi»<sup>83</sup>dir. S.Xmelevskayaning fikricha, «pensiya ta'minoti – bu davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va keng ma'noda pensiya sug'urtasini qamrab oladi»<sup>84</sup>. S.Orlov va A.Shemetovning ilmiy tadqiqotlarida, «pensiya ta'minoti – bir qancha sabablarga ko'ra (qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va h.k.) mehnatga layoqatini yo'qotgan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi»<sup>85</sup>, sifatida ta'riflangan.

AQShning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e'tirof etib, mazkur tizimdagi mavjud muammolarni va istiqbolda kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni tadqiq etadi. Pensiya ta'minotiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; jahon miqyosida aholining umr ko'rish davrining uzayib borayotganligi; ijtimoiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi (taqchilligi); davlat sektoridagi ishchi va xodimlar uchun pensiyalarining oshirilishi; tibbiyot xarajatlarning yuqori darajada o'sishi. Mazkur omillar fuqarolar pensiya ta'minoti tizimiga faol ta'sir ko'rsatadi va davlat tomonidan tegishli chora-tadbirlari ko'rilishi zarurligini taqozo etadi. J.Pengning qayd etishicha, «AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan

---

<sup>83</sup> Роик В.Д. Социальное страхование: теория и практика организации: учебник и практикум для магистратуры. – М.: «Проспект», 2016. – С. 38.

<sup>84</sup> Хмелевская С.А. Пенсионное страхование: философия, история, теория и практика: Учебник. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2018. – С. 38.

<sup>85</sup> Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации: Монография. – Курган: «Курганского гос. ун-та», 2013. – С.6.

keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi lozim bo'ladi»<sup>86</sup>. AQShda fuqarolarning pensiyaga chiqishida moddiy ta'minlanganlikning ikki darajasi amal qiladi. Birinchisi, pensiyaga chiqishda daromadning yashash uchun zarur bo'lgan eng asosiy xarajatlar uchun yetarli bo'lishi bo'lsa, ikkinchisi, moliyaviy xavfsizlikning pensionerning pensiyaga chiqqunicha bo'lgan davr bilan pensiyaga chiqqandan keyingi davr daromadlari taqqoslanganda daromad miqdori pensionerning hayot darajasidan lazzatlanishi uchun yetarli miqdorda bo'lishini anglatadi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pensiya ta'minoti ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan talqin etilib, fuqarolarning keksalik davrida yashashlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishini yoki ularning ijtimoiy xavfsizligi ta'minlanishini nazarda tutadi.

Professor A.Vaxabov ilmiy ishlarida «pensiya ta'minoti – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim o'rin tutishi, ijtimoiy sug'urta dasturining bir qismi hisoblanishi, pensiyalarni tayinlash va to'lash tartibini ham o'zi ichiga qamrab olishi hamda barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning ustuvor yo'nalishi»<sup>87</sup> ekanligi qayd etilgan.

Darhaqiqat, ijtimoiy ta'minotning bir ko'rinishi bo'lganligi uchun pensiya ta'minoti mamlakatdagi ijtimoiy siyosat bilan bog'langan. Bir vaqtning o'zida, u mamlakatdagi o'ziga daxldor bo'lgan huquqiy-me'yoriy bazaga bevosita bog'liqdir.

Pensiyaning tarixiy prototiplariga moddiy resurslar saqlanilgan jamg'arma kassalari, sotib olingan turli ko'chmas mulk kabilar kiradi. Ularni odamlar keksalik paytida vaqtida ishlatish uchun zahira sifatida saqlab qo'yganlar.

Davlat tomonidan aholini keksalik paytida ishonchli daromad bilan ta'minlashning ilk ko'rinishlari davlatga qurolli kuchlar yoki fuqarolik (davlat va hududiy) xizmatlari safida xizmat qilgan

---

<sup>86</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA: Auerbach Publications, 2008. – P. 2-5.

<sup>87</sup> Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. 11, 16, 23-b.

shaxslarga nisbatan qo'llanilgan. Bunday shaxslar juda keksayib qolganlarida yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda davlat tomonidan moddiy mablag' bilan ta'minlangan. Davlat va hududiy organlar shu yo'l bilan ish beruvchi sifatida davlat xizmatchilariga keksalikda (davlatga xizmatini tugatgach), ba'zi sabablarga ko'ra davlat ishlarida ishlay olmay qolganlarida, ularning moddiy ahvolini barqarorlashtirish maqsadida moddiy yordamlar bergan.

Pensiya ta'minotini jamoat amaliyotida ommaviy ravishda qo'llash XIX asrning oxirida amalga oshirildi va majburiy ijtimoiy pensiya instituti ko'magida boshqarildi. Mazkur jarayon quyidagi kompleks sabablarga asoslangan holda amalga oshirilgan edi: industrial mehnatni tatbiq etishning ommaviy xarakteri, yollanma ishchilarning shahar (urbanizatsiyalashgan) muhitda yashashi, katta oilalarning bo'linishi va ularning kichik oilalarga aylanishlari.

Yollanma ishchilar hayot tarzining ushbu tipi ularning yagona daromadi bo'lgan, muntazam oladigan oylik ish haqiga butkul tobeligiga asoslangan edi. Ijtimoiy risklar sodir bo'lganda, ya'ni ishchiga keksalikda, baxtsiz voqealar yuz berganda, boquvchisini yo'qotgan vaqtida oylik ish haqi berilmay qo'yilganda, ishchi va uning oilasi yagona daromad manbaidan mahrum bo'ladi. Bu narsa esa kambag'allikka, ijtimoiy ta'minlanganlik darajasini yo'qotish va ijtimoiy qashshoqlik jariga qulash kabi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bunday katta ijtimoiy muammoni hal etish maqsadida ish beruvchilar va ishchilarning zimmalariga qonun yo'li bilan moddiy javobgarlikni yuklash kiritildi. Unga ko'ra, ish beruvchilar va ishchilar, ish haqining ma'lum bir qismini ijtimoiy risklar yuz berishi mumkin bo'lgan holatlar uchun zahira sifatida, muntazam ravishda jamg'arishlari kerak edi. Bu kabi moddiy zahiralarning eng qulay iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlari deb quyidagilar tan olingan edi: 1889 yilda Germaniyada kiritilgan majburiy jamoaviy (ijtimoiy) pensiya sug'urtasi; 1936 yilda sobiq SSSR da kiritilgan davlat ijtimoiy pensiya ta'minoti; moddiy zahiralarning to'plashning aralash, birlashgan shakllari. Masalan: 1944 yilda Buyuk Britaniyada kiritilgan majburiy pensiya sug'urtasi va uni to'ldiruvchi korporativ pensiya sug'urtasi;

Pensiya sug'urtasi mexanizmlarini amaliyotda qo'llash – yollanma ishchilarni ijtimoiy himoyalashning eng samarador chorasi, ish beruvchilar va ishchilar uchun qulay va imkon darajada qilingan moddiy imkoniyatidir.

XIX asrning oxirlarida aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi keskin pasayib ketadi, ammo mehnat qilish yoshining chegarasi balandlashib, mehnat faoliyatini tugatgandan keyingi dam olish vaqti esa juda kamayib bordi. Shu sababli keksa kishilar har doim farzandlariga moddiy jihatdan tobe bo'lib qolaverdi, keksalik kambag'allikning go'yoki sinonimiga aylanib qoldi.

Pensiya sug'urtasi, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy sug'urta turlarining kiritilishi moddiy yetishmovchiliklarga sabab bo'ladigan risklarning salbiy ta'sirlarini sezilarli ravishda pasaytirdi, kelgusida ularning salbiy ta'sirlarini eng past darajagacha tushirish hamda zararlarni qoplash chora-tadbirlarini ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ijtimoiy sug'urtalashni amalda tatbiq qilayotgan davlatlarda pensiya yoshidagi aholining kambag'allik darajasi ko'rsatkichi aholining boshqa qatlamlarining kambag'allik darajasi ko'rsatkichidan ancha past. Shuningdek, pensiya yoshiga yetgandan keyingi yashash davri ham 15-20 yilga ko'tarilganligi kuzatilmoqda.

Pensiya tizimi deganda ijtimoiy himoya institutlari va maxsus ixtisoslashtirilgan tashkiliy tuzilmalar yig'indisi nazarda tutiladi. Bu tizimning vazifasi fukarolarni keksalikda qonunan belgilangan yoshga yetganda, nogironlikda, bokuvcisini yo'qotganda moddiy ta'minlash, mazmun mohiyatiga esa pul mablag'larini jamg'arish va to'lab berish hisoblanadi.

Pensiya sug'urtasining vazifasi majburiy va ixtiyoriy sug'urtalash tamoyillariga asoslangan pensiya ta'minotini amalga oshirish hisoblanadi. Bunda sug'urtalangan shaxslarga oylik ish haqining ma'lum qismida (40 % dan 50 % gacha va undan ham yuqori) pensiya olish imkoni beriladi.

Pensiya olish uchun unga davogar bo'lgan barcha shaxslardan bir qator kvalifikatsiya (vaziyatni baholash) shartlari talab qilinadi. Ulardan eng asosiylari – pensiyaga chiqish uchun qonunda belgilangan yoshga yetish, zarur bo'lgan mehnat stajining hujjatlar bilan

tasdiqlanligi, nogironlikka uchraganligi haqidagi tibbiy xulosa, boquvchining o'limi.

Ko'pchilik davlatlarning milliy pensiya tizimida pensiya institutlarining xilma xil shakllari mavjud. Ulardan asosiylari universal yordam pullarining davlat tizimlari, majburiy hamda ixtiyoriy pensiya va shaxsiy sug'urta institutlari kabilar hisoblanadi.

Milliy pensiya tizimi shakllanishining negizida ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv pensiya tizimiga kiritilgan barcha aholini (kambag'allikka qarshi kurash) pensiya daromadining minimal darajasi bilan ta'minlashni qarab chiqadi. Ikkinchi yondashuv esa pensiyani oylik ish haqining zahirada turgan bir qismi sifatida qarab chiqadi. Pensiya sug'urtalangan ishchi daromadining saqlanib qolinishini kafolatlashga qaratilgan bo'lib, u pensiyagacha bo'lgan davrdagi oylik ish haqi miqdoriga qarab beligilanadi.

Pensiya ta'minoti to'g'risidagi bunday qonun 1944 yilda Xalqaro mehnat tashkilotining «Daromadni ta'minlash haqida» deb nomlangan №67-sonli tavsiyasida keltirilib o'tilgan. Bu tavsiyada majburiy ijtimoiy sug'urtaning maqsadiga aniqlik kiritilgan. Unga ko'ra, majburiy ijtimoiy sug'urtaning maqsadi – muhtojlikni kamaytirish va ishchilarning keksayganda mehnat layoqatini yo'qotganda daromadlarining kamayishini, belgilangan miqdorgacha qayta tiklash orqali qashshoqlikni yo'q qilish edi.

Pensiya ta'minotining rivojlanishi jarayonida maqsadlarning konvergentsiyasi (yaqinlashuvi, mos kelishi) yuz beradi: universal tizimlardagi bo'shliqlar sug'urta tizimlari bilan to'ldirildi, sug'urta tizimlari esa minimal kafolatlar haqidagi fikrlarni o'zida mujassam eta boshladi. Ikki tomonlama iqtisodiy muhit va pensiyaning ikki tomonlama vazifalari nafaqat omma tan olgan fakt bo'lib qoldi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarida o'z aksini topdi.

Pensiyaning ikki tomonlama xarakteri quyidagilarni bildiradi: bir tomondan, u kambag'allikdan himoyalashni ta'minlaydi va pensiya daromadining minimal darajasini kafolatlaydi; boshqa tomondan, sug'urtalanishi lozim bo'lgan hodisalar yuz berganda, pul ishlab olish vazifasini bajaradi, ya'ni yo'qotilgan daromadni to'liq yoki qisman qoplaydi.



Pensiya sug'urtasining ikki xil shakli mavjud: majburiy va ixtiyoriy sug'urta. Majburiy pensiya sug'urtasining mablag'lari korxonalar, muassasalar, barcha mulkchilik tashkilotlari, yollanma ishchilardan (Rossiyadan boshqa ko'pchilik davlatlarda) maqsadli o'tkazilgan to'lovlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va davlat subsidiyalari to'layotgan sug'urta badallari hisobiga shakllantiriladi.

Ixtiyoriy pensiya sug'urtasi davlatning moliyaviy qo'llab quvvatlashi bo'lmagan holatlarda jamoaviy birdamlik va o'zaro yordam tamoyili asosida quriladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining pensiya masalalariga bag'ishlangan sharhlarida pensiya tizimi va institutlarining quyidagi turli ko'rinishlariga ta'riflar beriladi: «davlat (majburiy) pensiya tizimi; majburiy xususiy pensiya sug'urtasi; pensiya taqsimlash tizimi; kattiq nazoratdagi pensiya; avvalgi olingan oylik maoshga bog'liq pensiyalar; sug'urtalangan pensiya tizimi; badal to'lash joriy etilgan pensiya tizimi; to'lovlar joriy etilgan pensiya tizimi; shartli jamg'ariladigan pensiya tizimi; qisman jamg'ariladigan pensiya tizimi»<sup>88</sup>.

Pensiya tizimi va institutlari mavjud turlarining bunday kesimi shundan dalolat berdiki, insoniyat asrlar davomida keksa kishilarni ijtimoiy himoya qilishning turli ko'rinishlari ustida izlandi hamda ularni amaliyotda tatbiq qildi.

E'tiborli jihati shundaki bularning barchasi bir-birini to'ldirgan holda, aholining barcha qatlamining ijtimoiy himoyasini o'zida mujassam etadi. Shuningdek ular pensiya dasturlari va institutlarining turli topshiriqlarini bajarish bilan, yagona milliy pensiya tizimini shakllantiradi. Muayyan pensiya tizimining arxitekturasi milliy o'ziga xosliklarni – mamlakatning siyosiy tuzilmasini, iqtisodiy rivojlanganlik darajasini va madaniy an'analarining aksi hisoblanadi.

Pensiya tizimining asosini 60-80 foiz ehtiyojmandlarga ham yetib boradigan davlat dasturlari (ishtirok etish majbur bo'lgan) tashkil etadi. Qoidaga ko'ra, ixtiyoriy tizim mehnatga layoqatli aholining 10-

---

<sup>88</sup> Финансовое обеспечение пенсионных систем. Международная организация труда. – М.: «Бюро МОТ в Москве», 2001. – С. 6-11.

15 foizini qamrab oladi. Pensiya institutlarini turlarga ajratishda ishlatiladigan metodlarning turli ko‘rinishlari mavjud<sup>89</sup>:

- belgilanishiga ko‘ra – yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo‘qotganligi uchun beriladigan pensiyalar;

- ijtimoiy himoyalashning tashkiliy-huquqiy shakllariga ko‘ra – ijtimoiy pensiyalar, ijtimoiy-sug‘urtaviy pensiyalar, harbiylar va davlat xizmatchilari uchun davlat pensiyalari;

- moliyalashtirilish manbasiga ko‘ra – bular sug‘urta badallari to‘lash, sug‘urta badallari to‘lamaslik (davlat ta‘minlaydigan) asosida tashkil etilgan;

- pensiya va sug‘urta badallari miqdorini aniqlash usullariga ko‘ra – sug‘urta badallari va pensiyalarning belgilangan va belgilanmagan miqdorlari;

- tashkil etish usuliga ko‘ra – majburiy va ixtiyoriy tashkil etilgan;

- boshqaruv uslubiga ko‘ra – davlat yoki xususiy sug‘urta tashkilotlari tomonidan boshqariladigan;

- moddiy resurslarga egalik shakllariga ko‘ra – davlatga tegishli va xususiy.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini majburiy ijtimoiy pensiya sug‘urtasi tamoyillariga asoslangan holda ish yuritadigan institutlar tashkil etadi.

Pensiya sug‘urtasi o‘z iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra, keksalik va nogironlikda yuz berishi mumkin bo‘lgan risklarni kompensatsiyalash (o‘rnini qoplash) uchun ishchilar va ish beruvchilar mehnat haqlarining biror qismini (ishchilar foydasiga) jamg‘arish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Majburiy ijtimoiy pensiya sug‘urtasi haqidagi doktrinaning mohiyati quyidagidan iborat: davlat qonun yo‘li bilan ishchilarni majburiy pensiya sug‘urtasi tizimiga kiritadi va shunga asoslanib, ularning moddiy ahvolini keksalik hamda nogironlikda yuz berishi mumkin bo‘lgan risklardan himoyalaydi. Shuningdek, bu bilan ishchining mehnat qilishi tufayli oladigan daromadi hisobiga yashab kelayotgan, mehnat qilishga hali layoqatsiz bo‘lgan oila a‘zolari ham

---

<sup>89</sup> Якушев Л.П. Социальная защита (Учебное пособие) Государственная академия управление им. С.Орджоникидзе. – М.: «ГАУ», 1998. – С. 21-40.

sug'urtalanadi. Buning uchun davlat ish beruvchi va ishchining o'ziga ham ishchining oylik maoshini sug'urta qiluvchi sifatida maydonga chiqish vazifasini yuklaydi, ular ish haqlaridan muntazam ravishda maxsus sug'urta fondlariga pul o'tkazib turishlari kerak bo'ladi.

Mehnat pensiyasining asosiy belgisi uning ijtimoiy-sug'urtaviy xarakteri hisoblanadi va bu ijtimoiy-sug'urtaviy xarakterning mazmuni esa sug'urta riski deb nomlangan tushuncha orqali ochib beriladi. Milliy pensiya qonunchiligida sug'urta riski sug'urtalanayotgan shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlarini yo'qotishi deb ta'kidlanadi. Bu yo'qotishlar pensiya yoshining yaqinlashgani, nogironlik, boquvchisini yo'qotish kabi vaziyatlar hisobiga yuz beradi.

Pensiya sug'urtasi uchun o'ziga xos belgisi shundan iboratki, u ishchilar daromadini ularning ishlab turgan davri bilan va pensiyaga chiqqan davri o'rtasida qayta taqsimlashga asoslanadi. Boshqacha aytganda, majburiy pensiya sug'urtasida sug'urta riski sifatida har doim daromadlarni yo'qotish maydonga chiqadi. Ma'lum pensiya yoshiga yetish, nogironlikka uchrash yoki boquvchisini yo'qotish sug'urtalash lozim bo'lgan holatlar hisoblanadi. Bunday sug'urta risklarining yuz berishi bilan sug'urtachi pensiya to'lovini amalga oshirishga majburdir.

Pensiya sug'urtasi uchun uning quyidagi jihati xarakterli hisoblanadi: pensiya sug'urtasi ishchilarning daromadlarini ularning ishlab turgan va pensiyaga chiqqan davridagi vaqt oralig'ida qaytadan taqsimlashga asoslanadi.

Boshqacha aytganda, majburiy pensiya sug'urtasida har doim ishchining daromaddan mahrum bo'lishi sug'urta riski sifatida maydonga chiqadi. Aniq bir yoshga yetish (pensiya yoshiga), nogiron bo'lib qolish yoki boquvchisini yo'qotish kabi belgilar sug'urta qilish uchun sabab holatlari, ya'ni sug'urta risklarining yuzaga kelishi holatlari bo'lib hisoblanadi, bu kabi holatlar yuz berganda esa sug'urtachi albatta pensiya to'lovini amalga oshirishni boshlashga majbur.

Mehnat bilan bandlik darajasining shakllari va shartlari, oylik ish haqi miqdorlari o'rtasidagi mavjud farqlarni hisobga olgan holda, pensiya maqsadlari uchun mablag' to'plashning turli xil usullari

amalda tatbiq qilina boshlandi. Bularning asosida majburiy ijtimoiy sugʻurta, shaxsiy sugʻurta va davlat ijtimoiy taʼminoti tamoyillari yotadi. Shu munosabat bilan «pensiya turlarini sinflarga ajratishning XMT ekspertlari tomonidan taklif qilingan yana bir usuli soha mutaxassislarida qiziqish uygʻota boshladi»<sup>90</sup>.

Muhtojlikni hisobga olgan, hech qanday badallar toʻlovisiz boʻlgan pensiya: shaxsiy va oilaviy daromadi belgilangan daromaddan kam boʻlganlarga beriladigan pensiya; odatda ish beruvchilar va ishchilardan hech qanday toʻlov badallari olmasdan, davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Hech qanday badallar toʻlovisiz boʻlgan qatʼiy umumiy pensiya: oylik ish haqiga emas, ish stajiga bogʻliq boʻlgan bir xil miqdordagi pensiya; pensiya yoshiga yetgan yoki nogironligi bor boʻlgan rezidentlar yoki fuqarolarga beriladi; ish beruvchilar yoki ishchilarning toʻlagan badallarini jalb etmasdan moliyalashtiriladi.

Badallar toʻlanadigan pensiya: oylik ish haqiga emas, ish stajiga bogʻliq boʻlgan bir xil miqdordagi pensiya; ish beruvchilar yoki ishchilarning oylik ish haqi fondiga badallar koʻrinishida borib tushadigan toʻlovlari hisobiga moliyalashtiriladi.

Badallar toʻlanadigan oylik ish haqiga bogʻliq pensiya: oylik ish xaqiga bogʻliq pensiya; ish beruvchilar yoki ishchilarning oylik ish haqi fondiga soliqlar koʻrinishida borib tushadigan toʻlovlari hisobiga moliyalashtiriladi.

Jahon tajribasi hech bir davlatda toʻliq jamgʻariladigan yoki taqsimlanuvchi pensiya taʼminoti mavjud emasligini koʻrsatadi. Umuman, «xalqaro tajribada pensiya taʼminoti tizimi nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi: oʻrnatilgan toʻlov tizimi (Defined Benefit – DB) va oʻrnatilgan badal tizimi (Defined Contribution – DC)»<sup>91</sup>. Oʻrnatilgan toʻlov tizimida pensiya taʼminoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan taʼminlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda toʻlov miqdori aktuar hisoblar yordamida oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish haqlari va oldingi mehnat staji asosida hisoblanadi. Pensiya toʻlovi pensionerning umri davomida

---

<sup>90</sup> К реформе социального обеспечения: принципы и прагматизм. – М.: «Бюро МОТ в Москве», 1999 – С. 36.

<sup>91</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications, 2008. – P. 181-186.

annuitet shaklda amalga oshirilib boriladi. O'rnatilgan badal tizimida pensiya to'lovining miqdori oldingi to'langan badallarning hajmiga bog'liq bo'ladi. Ushbu turdagi pensiya fondining mablag'laridan investitsiyalash natijasida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida hisob raqamga ega bo'ladi va unda badallar jamg'arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to'lovlarini olishda riskning mavjudligidir.

Pensiya ta'minotining turli ko'rinishlardagi institutlari davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish imkoniyatlarini va uning o'ziga xos jihatlari o'zida aks ettiradi. Uning asosiy ko'rinishlari quyidagilar hisobalanadi:

1. Universal yordam pullari tizimlari. Bu kabi yordam pullari yordamida mamlakatning barcha fuqarolari kambag'allikdan himoya qilinadi. U ish staji va oldingi ish haqi qandayligidan qat'iy nazar, belgilangan yoshga yetgancha beriladi. Bu xildagi yordam pullari oladigan shaxslar, odatda, butun hayoti davomida turg'un ish faoliyati va biror daromad manbai bilan ta'minlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular tez-tez kambag'allik riskiga duchor bo'lishadi, o'zlarining keksalik paytlari uchun yetarlicha mablag' jamg'ara olishmaydi.

Demak, bu kabi universal yordam pullarini olish uchun yagona shart, oluvchining yoshidan tashqari, uning shu davlat fuqarosi ekanligi ham hisoblanadi. Migrantlar (xorijiy davlat fuqarolari) uchun esa mazkur davlatda qancha muddatga qonunan yashashga ruxsat berilganligi ahamiyatlidir.

2. Ijtimoiy yordam tizimlari. Bu tizimda fuqarolarning qoniqarsiz moddiy ahvoli sababli beriladigan yordam pullari qarab chiqiladi. Unga qonun bo'yicha olinadigan yoki ishlab topiladigan yordam pullari ham kiradi. Masalan: fuqaro pensiya yoshiga yetguniga qadar mehnat faoliyati bilan band bo'lsa, unga mehnat pensiyasiga chiqishga huquq beriladi yoki nogironligi bo'lganlarga ham shunday huquqlar beriladi. Bu kabi holatlarda ko'shimcha yordamlar olayotgan kishilarning kun kechirishlari uchun yetarli moddiy mablag' berishga qaratiladi, bu moddiy mablag' yoki pensiyaning miqdori eng kam oylik ish haqiga asoslanib belgilanadi.

Ijtimoiy yordam institutlari fikriga ko'ra, nafaqalar o'z zarur hayotiy ehtiyojlarini minimal darajada qoniqtirish uchun ham mablag' ishlab topa olmaydigan fuqarolar toifalariga berilishi lozim. Ijtimoiy yordam uchun moliyaviy resurslar federal, hududiy va mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladi.

3. Majburiy ijtimoiy sug'urta tizimlari. Keksalikdagi pensiya yoki majburiy ijtimoiy pensiya sug'urtasi tizimlaridagi yordam pullari sug'urtalangan shaxslarga, ularning bandligi va sug'urta badallarini to'layotganligi haqidagi ma'lumotlarga asoslanib beriladi.

Ijtimoiy pensiya sug'urtasi ishchilar va yollanma ishchilar daromadlarini optimal qayta taqsimlashga qaratilgan, ya'ni daromadlarni butun hayoti uchun teng taqsimlaydi. Qayta taqsimlash deganda, yollanma ishchilar daromadlarining biror qismini ularga mehnat qilishga yaramay qolgan vaqtlarda (keksalik yoki nogironlikda) pensiya ko'rinishida to'lab berish nazarda tutilgan.

Ko'pchilik insonlar uzoq umr ko'rishni niyat qilib, butun xayoti davomida, ertangi kunga kafolat sifatida, ishlab turgan vaqtlarida ham yetarlicha jamg'arma to'plab boradilar.

O'rtacha umr ko'rish parametrini, keltirilgan daromad va pensiya miqdorining oshib borishini bilgan holda pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallarining miqdorini bilish qiyin emas.

Majburiy ijtimoiy pensiya sug'urtasi tizimlari aholining katta qismini qamrab olgan pensiya instituti hisoblanadi: u o'z huquqi doirasida 80-85 foiz yollanma ishchilar va shuningdek 40-50 foiz ish bilan band axoliga xizmat ko'rsatadi. Bundan tashkari bular ancha arzon, resurslarning ma'lum qismini bu guruhga mansub yosh guruhlari qayta taqsimlab olishlari mumkin. Industrial rivojlangan mamlakatlarda bu kabi jamgarma tizimlariga, butun moliyaviy resurslarning 80-90 foizi to'g'ri keladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun ajratilgan moliyaviy resurslar esa yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 12-20 foizini tashkil etadi.

4. Jamg'arilib boriladigan pensiyalar. Bunday pensiyalar pensiya resurslarini jamg'arishning individual shakli bo'lib, nodavlat pensiya fondlari va moddiy resurslarni investitsiya qiluvchi (odatda, ularni fond bozoriga kirituvchi) kompaniyalar orqali boshqariladi. Jamg'arilib boriladigan pensiyalar hayot davomida kerak bo'lgan

ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Ularning miqdori sugʻurtalangan shaxslarning shaxsiy hisoblari va moliyaviy resurslarni fond bozoriga kiritish orqali tushgan pul mablagʻlarining miqdoriga bogʻliq.

5. Ixtiyoriy pensiya sugʻurtalari. Sugʻurtaning bu turi ish beruvchilarning, ishchilarning, aholining mehnat bilan band boʻlgan turli qatlamlarining va boshqa fuqarolarning toʻlayotgan badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Odatda, pensiyaning bu turi jamgʻarish tamoyillariga asoslanadi va korporativ pensiya tizimlari, shuningdek, shaxsiy pensiya rejaları yordamida tashkil etiladi.

Asosiy pensiya institutlari va ijtimoiy taʼminotning turli koʻrinishlari pensiya sugʻurtasining hamda davlat pensiya taʼminotining milliy tizimini hosil qiladi. bu kabi tizimlarning shakllanishida va boshqarilishida muhim rol davlatga tegishlidir. Bunda davlat ish beruvchilar va ishchilarga sugʻurta institutlarini tashkil qilishda yordam koʻrsatadi.

### **Nazorat savollari**

1. Pensiya tizimining rivojlanish bosqichlari?
2. Pensiya taʼminotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari va assotsiatsiyalarning ahamiyati qanday?
3. Fransiyada Pensiyalar oʻrtacha ish haqi va mehnat staji qanday hisobga olinadi?

### **Test**

1. Fransiyada 1673 yilda kimlarga pensiya taʼminoti joriy qilingan?
  - A) harbiy-dengiz floti ofitserlari uchun
  - B) Tibbiy xizmatchilari uchun
  - S) Keksa nogironlar uchun
2. Fransiyada nechanchi yilda «Buyuk fransuz inqilobi» davrida Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilingan?
  - A) 1790 yil
  - B) 1890 yil
  - S) 1790 yil
3. Rossiyada pensiya qonunchiligi Nikolay I davrida (1825-1885-yy.) kimlarga berilgan?

- A) 25 yil xizmat qilgan ofitserlarga va harbiy xizmatchilarga
- B) 30 yil xizmat qilgan harbiy xizmatchilarga
- S) 30 yil ish staji mavjud fuqorolarga

4. 1908 yilda Buyuk Britaniya qanday pensiya ta'minoti joriy qilingan?

- A) Universal pensiya ta'minoti
- B) Xususiy pensiya tizimi
- S) Jamg'ariladigan pensiya ta'minoti

5. Germaniyada 1889 yilda pensiya ta'minoti kim tomonidan joriy qilingan?

- A) Otto fon Bismark
- B) U.Beveridj
- S) A.Shemetov

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Davlat pensiya ta'minoti tizimining mohiyati va ahamiyati
2. O'zbekistonda Davlat pensiya ta'minotining huquqiy asoslari.
3. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotining zarurligi va ahamiyati
4. Pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi
5. Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati.

#### **4.2-§. Majburiy pensiya sug'urtasining nazariy asoslari**

Keksalik jarayoni keng qamrovdagi savollarni o'z ichiga oladi. Bu savollarga biologiya va tibbiyot, demografiya va ijtimoiy psixologiya, gerontologiya va ijtimoiy ta'minot, falsafa va sug'urtalash, iqtisod va sotsiologiya kabi qator fanlar javob izlashga harakat qiladi. Bu savollar yuzasidan ushbu fanlar beradigan umumiy xulosa quyidagicha bo'ladi: «insonlar hayotini keksalik chog'larida yengillashtirishning muhim maqsadlari ularni ijtimoiy ta'minlash va ommaviy hayotga ijtimoiy integratsiyalash hisoblanadi»<sup>92</sup>.

Aholini ijtimoiy ta'minlash va ijtimoiy himoyalash institutlarini tashkil qilishning mohiyati nazariy asoslari keksa yoshdagi aholi hayotining sifati konsepsiyalari va doktrinalarida, avlodlarning turmush tarzi va shartnomalari doktrinalari orqali ochib beriladi.

---

<sup>92</sup> Роиқ В.Д. Превратит старость в радость. Основы жизнедеятельности населения в пожилом возрасте. – М.: «МИК», 2008. – С. 192-216.



Fanda pensiya sugʻurtasi haqidagi tasavvurlar shakllanib boʻldi. Bu kabi sugʻurta nafaqat aholining bozor iqtisodiyoti davrida duch keladigan risklardan koʻrgan zararini qoplash uchun, balki ommada ijtimoiy haqiqat haqidagi tasavvurlarni hosil qilish uchun ham xizmat qilgan.

Xorijiy manbalardan olingan maʼlumotlar tahlili pensiya sugʻurtasi nazariyasi yetarlicha ishlab chiqilganligini koʻrsatib berdi. Oʻz vaqtida pensiya sugʻurtasi sohasida xorijiy va milliy doktrinalarning yetishmasligini tanqid bilan eʼtirof etish lozim. Shuning uchun ikkinchi demografik oʻtishning zamonaviy bosqichi sharoitida ijtimoiy mehnat munosabatlarining oʻzgarishi, pensiya institutlarini zamonaviylashtirish kabilar oʻzining tashkil etilishi va samarali boshqarilishi uchun nazariy asoslarni ishlab chiqishni talab etadi<sup>93</sup>.

Bunda quyidagilarga eʼtibor qaratish talab etildi: iqtisodiy munosabatlarning yangi standartlarini usluban va qonunan asoslashga; pensiya sugʻurta resurslarini xususiylashtirish masalalariga hamda ularning oylik ish haqi va sugʻurta ajratmalaridagi ahamiyatiga; oylik ish haqi va mehnatga haq toʻlash tushunchalarini aniqlashtirib olishga; oylik ish haqi, mehnatga haq toʻlash, sugʻurtalangan shaxslarning pensiya resurslari kabi tushunchalar orasidagi oʻzaro bogʻlanishni aniqlash va qonuniy tarzda ularning lugʻaviy maʼnolarini ochib berishga; pensiya sugʻurtasining ijtimoiy va moliyaviy samaralari oʻrtasidagi oʻzaro aloqani oʻrnatishga; YaIMdan pensiya sugʻurtasiga ajratilgan mablagʻ ulushiga va bu mablagʻlarning bitta pensionerga toʻgʻri keladigan ulushiga; tibbiy va geriatric sugʻurtalashga qilinadigan harajatlarning minimal va optimal miqdorlariga.

Boshqacha ifodalaganda, sugʻurta resurslarining xususiylashtirilishi, bu resurslarning kimga tegishliligi, qanday shartlar bilan unga ega boʻlish va sugʻurtalangan shaxslarning ularni risklar yuz berganda ishlatishi, YAİM da oylik ish haqi va pensiya taʼminotiga ajratilgan mablagʻ ulushining optimal ulushlari kabi masalalarini nazariy asoslash talab etiladi.

---

<sup>93</sup> Ройк В.Д. Страхование рисков старости. Медицинские, гериатрическое и пенсионное. – СПб.: «Питер», 2014. – С. 14-15.

Bunda pensiya sug'urtasi tashkil etishdagi muhim nazariy va uslubiy masalalar quyidagilar hisoblanadi:

– pensiya sug'urtasini 2-3 avlod davomiyligi (bu esa 60-90 yilni tashkil etadi) uchun moddiy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida qilinadigan «avlodlar shartnomasi»ning mazmunli ravishda asoslanib berilishi; bu shartnoma bugungi zamonaviy shart sharoitlarda pensiya, tibbiy va geriatric sug'urtalar, keksa avlodni aholining daromadlari tizimini boshqarish, bandligini ta'minlash orqali ijtimoiy parvarishlashga, ish beruvchilar, ishchilar, davlat, oilalar, jamiyatlar va mahalliy hokimiyatning bu kabi ishlarni amalga oshirishdagi ahvolga javobgarlik mexanizmlarini shakllantirishga harajatlar qilish zarurligini qayta qarab chiqishga undaydi.

– keksalikda keladigan ijtimoiy risklarning nazariy jihatlarini baholash nazariyasini ishlab chiqish: risklarning turlari, ularning oqibatlarining ehtimolliklari va bahosi, risklarning vaqt va fazoda taqsimlanishi, keksalikda keladigan risklarning turlari va ularga demografik, moliyaviy va ijtimoiy sabablarning ta'siri;

– sug'urtalangan shaxslarga mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganda davolanish, realitatsiya xizmatlarini olish va ularga moddiy ta'minot yaratish uchun pensiya tayinlash mezonlarini aniqlashtirib olish;

– aholini, ularning moddiy resurslarini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan samarali boshqarib borishda, sug'urta tizimi elementlarining tarkibi (yollanma mehnat – oylik maosh – sug'urta badallari – mablag'lar - sug'urta to'lovlari) hamda ularning o'zaro bog'liqligida pensiya sug'urtasi va ta'minoti institutlarining o'rnini va rolini tizimli qarab chiqish;

– ijtimoiy sug'urta sub'ektlarining iqtisodiy va huquqiy munosabatlarining bazaviy asoslarini, shuningdek, pensiya sug'urtasining me'yoriy-qonuniy bazasini ularning mexanizmlarini samarali boshqarishdagi shaxsiy javobgarligi nuqtai nazaridan aniqlashtirib olish.

Pensiya sug'urtasining shakllanishi va samarali boshqarilishini tizimli ravishda yo'lga qo'yadigan shartlar uchta holat hisoblanadi.

Birinchi, moliyaviy pensiya resurslarini odamlarning ishlab yurgan va ishlaymay qo'ygan davrlarida to'plash, taqsimlash va qayta taqsimlashda, ishchining, ish beruvchining va davlatning iqtisodiy

imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Boshqa tomondan, sug'urtalangan shaxslarni keksalik va nogironlikda keladigan risklardan himoyalashda zarur bo'lgan ijtimoiy himoyalash darajasining qonunan kafolatlangan turi ham e'tiborga olinishi kerak. Ushbu yondashuvning iqtisodiy mazmuni sug'urtalangan ishchilar va pensionerlar o'rtasida moddiy resursalarni qayta taqsimlashda optimal nisbatlarni joriy qilishni ko'zda tutadi.

Ikkinchidan, pensionerlarni moddiy ta'minlash standartlari sug'urtachilarning (ishchilar va ish beruvchilar) pensiya to'lovlarini moliyalashtirishdagi burchlari bilan maqsadli bog'langan. Keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganda va mujddatidan oldin mehnat qilishga layoqatini yo'qotganda (kasbiy pensiya) pensiya tayinlash mezonlarini o'zida aks ettirgan, qonunan belgilangan shartnomalar kiritilgan. Shuningdek, zarur hajmdagi moliyaviy resurslarning miqdorini ularning turlariga (sug'urtalangan shaxslarni, ularning davolanishi va realibitatsiyasini moddiy ta'minlash) qarab, aniq qilib asoslash maqsad qilingan.

Uchinchidan, pensiya sug'urtasi va ta'minoti institutlarining aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi maqsadli ravishda quyidagilarni tizimli ravishda qayta ko'rib chiqish asosida amalga oshiriladi: yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilishning shu kabi institutlarini tashkil etishning nazariy holatlari va tartiblarini; shuningdek, pensiya sug'urtasining tamoyillari va vazifalarini, turlari va sohasini, tavsiflarini; industrial rivojlangan davlatlar va o'z mamlakati tajribalarini ishlatishni; moliyaviy baho berish uslublarini, shu bilan birga pensiya va yordam pullari miqdorini hisoblab chiqishga imkon beruvchi hisob-kitoblarni; shuningdek, mamlakat Pensiya fondi budjetining kirim va chiqim qismlarining hisob-kitobini; sug'urta mablag'larini to'plash hamda ularni sug'urta tizimi boshlang'ich elementlari (yollanma mehnat - oylik maosh - sug'urta badallari – mablag'lar - sug'urta to'lovlari) bilan moliyaviy bog'liq asosida sug'urtalangan shaxslar o'rtasida qayta taqsimlash usullarini; ijtimoiy sug'urta sub'ektlari iqtisodiy va huquqiy munosabatlarining boshlang'ich asoslarini shaxsiy va jamoaviy qiziqishlarga qarab ko'rib chiqishni; ijtimoiy sug'urta sub'ektlarining iqtisodiy va huquqiy munosabatlarining bazaviy asoslarini, shuningdek, pensiya

sug'urtasining me'yoriy-qonuniy bazasini ularning mexanizmlarini samarali boshqarishdagi shaxsiy javobgarligi nuqtai nazaridan aniqlashtirib olishni.

Aynan shu kabi zarur tasavvurlarning ro'yobga chiqishini iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda majburiy va ixtiyoriy pensiya sug'urtasi institutlarining paydo bo'lishi deb qarash mumkin edi. Aynan shu institutlar mehnatga to'lanadigan haq miqdorini qaytadan ikki qismga ajratgan xolda ko'rib chiqish bilan aholining keksa qatlamining daromadini ta'minlaydi:

1. Ishchiga uning va oilasining joriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida bevosita to'lanadigan oylik maosh va boshqa to'lovlar, mehnatga haq to'lashga tegishli bo'lgan ijtimoiy to'lovlar.

2. Ishchining oylik maoshidan oldindan ushlab qolinadigan hamda ish beruvchi tomonidan oylik maoshga qo'shimcha to'lanadigan to'lovlar. Bunday to'lovlar maxsus sug'urta fondlarida saqlangan va ular mehnatga layoqatini yo'qotganda, keksalikda yoki ishchining o'limi holatlarida kompensatsiya uchun mo'ljallangan.

Ijtimoiy adolat o'rnatilishi uchun oylik maoshning to'plangan (sug'urtalangan) qismining ishchining ishlab chiqarishga qo'shgan hissasini (ishlagan vaqtidagi joriy oylik maosh miqdorini), shuningdek, pensiya to'lovi davomiyligini hisobga olgan holda belgilash muhim hisoblangan.

Agar mehnat qilayotgan shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bo'lsa, pensiya tizimi mablag'ni vaqt bo'yicha qayta taqsimlashni ta'minlaydi. Chunki pensiya fondiga badallar to'lash orqali kishi kelajakda, ya'ni ishlamaydigan vaqtida yetarlicha mablag' sarflay olishi uchun bugun kamroq sarflashi lozim bo'ladi.

Pensiya instituti – aholining keksa qatlami daromadlarini nazorat qiluvchi asosiy institutidir. Uning samarali ravishda boshqarilishi ijtimoiy mehnat hamda sug'urta munosabatlarining rivojlanganlik darajasiga, munosib oylik ish haqining mavjudligiga va doimiy daromad qilib turish kabilarga bog'liq. Shuning uchun pensiya sug'urtasining muhim nazariy konstruksiyasi oylik ish haqi borasidagi milliy tizim, bandlik masalalarini boshqarish, ularni soliq hamda ijtimoiy sug'urta tizimlari bilan bog'liq holda amalga oshirish hisoblanadi.

Sug'urtalash tamoyillariga asoslangan pensiya tizimlari, avvalo, moddiy resurslarni «to'lov badallari» sxemasida muvozanatlab turish masalasini ko'rib chiqadi. Pensiya olish oylik muntazam badallar yordamida yetarlicha hajmdagi moddiy resurslarni jamg'arishga olib keladi. Bunday oylik muntazam badallar ishchining foydasi uchun (uning mehnatiga to'langan ish haqining bir qismi sifatida) ishchining o'z oylik ish haqidan va ish beruvchining oylik badallari hisobidan to'lanadi hamda insonlarning butun umri davomidagi mehnat faoliyati davomida maxsus pensiya fondalariga borib tushadi.

Keksalikdagi mehnat pensiyasi ishchilarning mehnat daromadlari hisobiga moliyalashtiriladi, shuning uchun uning miqdori ularning butun mehnat faoliyati davomida olgan oylik ish haqi miqdori bilan taqqoslanadi. Ular uchun pensiya o'zlarining mehnat faoliyati davomida ishlab topgan – «saqlab qo'yilgan oylik maoshi» hisoblanadi.

Sug'urta resurslarini to'plash va sarflashning maqsadi ularni maxsus fondlarda yig'ish va uni faqat risklar yuz bergan holatlardagina berishga asoslangan. Ammo bu narsa qonun yo'li bilan mustahkamlanmagan. Shuning uchun pensiya sug'urtasi tizimida sug'urta resurslariga egalik qilishning yangi shakllarini qonunan mustahkamlash takliflari berilmoqda.

Sug'urta resurslariga egalik qilishning birinchi asosiy shakli pensiya sug'urtasiga jamoaviy shaxsiy egalikni maqsadli ravishda aniqlab olishdan iboratdir. Bunday pensiya sug'urtasi ish beruvchining ishchi foydasi uchun to'lagan sug'urta to'lovlari yordamida shakllantiriladi. Sug'urtalash lozim bo'lgan holatlar yuz berganda (keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganda) – bu jamlangan mulk qonun yo'li bilan avvaldan aniqlangan sug'urtalangan shaxsga beriladi. Sug'urtalangan shaxs bevaqt hayotdan ko'z yumgan hollarda u marhumning yaqinlariga mulk tariqasida o'tadi.

Sug'urta resurslariga egalik qilishning ikkinchi shakli pensiya sug'urtasiga shaxsan jamoaviy egalikni maqsadli ravishda aniqlab olishdan iboratdir. Bunday pensiya sug'urtasi ishchilarning o'zlari to'lagan sug'urta to'lovlari yordamida shakllantiriladi. Unga huquqiy maqom berish kerak bo'ladi. Sug'urta mablag'lariga shaxsan jamoaviy egalik sug'urtalangan shaxslarga ishlatilmagan mablag'larini (ularning vafotidan so'ng) teng miqdorda – yarmini sug'urtalangan shaxslarga,

qolgan yarmini turmush o'rtog'lariga berish masalasini hal etish imkonini beradi.

Sug'urta resurslariga egalik qilishning uchinchi shakli sug'urtalangan shaxsning pensiya sug'urtasiga shaxsiy egaligini maqsadli ravishda aniqlab olishdan iboratdir. Pensiya sug'urtasi ixtiyoriy professional pensiya sug'urtasi hisobiga shakllantiriladi, bunda ish beruvchilar va ishchilar sug'urtachi sifatida maydonga chiqadilar. Bizning fikrimizga ko'ra, bunda mablag'larni taqsimlash nisbati boshqacharoq bo'lishi lozim, ya'ni mablag'ning yarmi sug'urtalangan kishining turmush o'rtog'iga, qolgan yarmi esa sug'urtalangan kishining vasiyatiga ko'ra, uning qonuniy egasiga berilishi ko'zda tutiladi.

Sug'urta resurslariga egalik qilishning bu uchta shakli ishchilar va ish beruvchilarning faoliyatiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi, shuning bilan birga pensiya sug'urtasining haqiqiy sug'urta mexanizmlarining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Boshqa tomondan, pensiya sug'urtasiga egalik qilish muammosining hal etilishi pensiya tizimining moddiy ta'minlash borasidagi masalalarini sug'urtalangan shaxslar ishtirokida hal etishga imkon yaratadi. Buning uchun davlat rahbarlarining siyosiy hohish istagi va ularning ish beruvchilar hamda ishchilar tomonidan ham to'g'ri anglashilganligi talab etildi.

Pensiya tizimini zamonaviy tarzda isloh qilishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bu borada 30-40 yillarga mo'ljallangan tashabbuslarning ishtirokchilar (davlat, ish beruvchilar va ishchilar) tomonidan o'z burch va vazifalarini to'g'ri anglab yetganliklarini nazorat qilishini qonuniy yo'l bilan mustahkamlash hisobalanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Majburiy pensiya sug'urtasini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari co'zlab bering?

2. Pensiya sug'urtasi tashkil etishdagi muhim nazariy va uslubiy masalalar qanday hisobga olingan?

3. Pensiya sug'urtasining samarali boshqarilishini tizimli qanday shartlar hisobga olingan?

## Test

1. Xalqaro tajribada pensiya ta'minoti tizimi nazariy jihatdan qanday yirik guruhga ajratiladi?

A) o'rnatilgan to'lov tizimi (Defined Benefit – DB) va o'rnatilgan badal tizimi (Defined Contribution – DC)

B) o'rnatilgan badal tizimi (Defined Contribution – DC)

C) pay-as-you-go) avlodlar birdamligi

2. Industrial rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish uchun ajratilgan moliyaviy resurslar yalpi ichki mahsulotning necha foizini tashkil etadi.

A) 12-20 foizini

B) 10-15 foizini

C) 15-20 foizini

3. 1889 yilda qayerda majburiy jamoaviy (ijtimoiy) pensiya sug'urtasi joriy etilgan

A) Germaniyada

B) AQShda

C) Fratsiyada

4. 1944 yilda Buyuk Britaniyada qanday pensiya sug'urtalari joriy etilgan

A) majburiy pensiya sug'urtasi va uni to'ldiruvchi korporativ pensiya sug'urtasi

B) majburiy pensiya sug'urtasi

S) majburiy pensiya sug'urtasi va ixtiyoriy pensiya sug'urtasi

5. Pensiya sug'urtasining qanday shakli mavjud

A) Majburiy va ixtiyoriy sug'urta

B) Jamg'arib boriladigan va taqsimlovchi

S) Taqsimlovchi va ixtiyoriy sug'urta

## Mustaqil ish mavzulari

1. Hududiy pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni takomillashtirish.

2. G'aznachilik tizimida Pensiya jamg'armasi ijrosini tashkil qilish.

3. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini boshqarish tizimining vazifalari va funksiyalari.

4. Davlat pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalari.

5. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti yuzasidan huquq va majburiyatlari.

6. Pensiya ta'minotini boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

7. Davlat pensiya ta'minotini tartibga solish usullari.

8. Pensiya ta'minotidagi islohotlarni mamlakatdagi tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish

9. Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish masalalari

10. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish

11. Pensiya sug'urtasi tizimining ishlashiga mehnat bozori holatining ta'siri

#### **4.3-§. «Covid-19» pandemiyasining jahon pensiya tizimiga ta'siri**

Covid-19 pandemiyasi va unga bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotga yalpi milliy mahsulotning (YAMM) qisqarishi, aksiyalarning narxi shok holatida birlishi, ishsizlikning o'sishi, firmalar faoliyatining tugatilishi, foiz stavkalarining pasayishi, davlat soliq tushumlarining pasayishi, davlat xarajatlarining ko'payishi kabi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, Covid-19 dunyo miqyosida yuz minglab insonlar o'limiga olib keldi, bu o'z navbatida pensiya ta'minoti va sug'urta badali to'lovchilariga ta'sir qildi.

Pandemiyaning pensiya dasturlariga ta'siri. Ma'lumki, pensiya dasturlarining 3 turi mavjud bo'lib, bular<sup>94</sup>:

1. Belgilangan daromad (BD).

2. Belgilangan ajratma (BA).

3. Gibriddasturi.

Belgilangan daromad dasturi, odatda, ish beruvchi (homiylar) tomonidan taklif qilinadi va hodimning o'rtacha oyli va ishlagan yil (staj)ini hisobga olgan holda pensiya to'lashni o'z zimmasiga oladi. Ish beruvchi ham, hodim ham ish haqining foizini tashkil etadigan badalga o'z xissalarini qo'shadilar. Keyinchalik bu mablag' belgilangan daromad vada qilingan pensiyalarni naqd pul bilan ta'minlash uchun sarmoya qilinadi. Misol sifatida quyidagi formulani keltirish mumkin:

---

<sup>94</sup> Mirzamahmudov M.M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013. 8-11-b.



### **Oylik pensiya = $k \cdot U_{a'zo \text{ yillar soni}} \cdot X_{o'rtacha \text{ oylik maosh}}$**

Bu yerda  $k$ -maxsus koefitsiyent bo'lib, aksionerlar tomonidan hisoblab chiqiladi va bu ko'rsatkis pensionerning pensiyasi maoshining kamida 40 foizini tashkil etishni ta'minlaydi.

Har yili (Buyuk Britaniyada har uch yilda) vada qilingan pensiyalarni dastur bo'yicha taqqoslaganda belgilangan daromad aktuar bahosidan o'tadi. Bu o'z navbatida pensiya majburiyati ish beruvchining asosiy javobgarligi bo'lishiga qaramay, har ikki tomonga ish beruvchi va hodimning badal stavkalarini o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Belgilangan ajratma dasturida ajratmalar har bir a'zo uchun individual tarzda amalga oshiriladi. Ajratmalar investitsiya qilinib, investitsiyadan kelgan pullar individual tarzda hisob-raqamda kreditlanadi. Xodimlar odatda o'zlarining pul mablag'larini qanday qilib sarmoya kiritishni tanlashlari mumkin (aksariyati bu imkoniyatdan foydalanmaydi), pensiyaga chiqish vaqti kelganda esa qay shaklda olishni o'zlari hal qilishlari mumkin: mulk sotib olish, naqd ko'rinishda olish yoki investitsiya kiritib, foydasini olish kabilar. Ushbu dasturdan AQSHda keng foydalaniladi.

Gibrid dastur belgilangan daromad dasturi asosida aksiyadorlar maslahati bilan belgilangan ajratma ko'rinishida aniq bir hisob-raqamiga to'lab boriladi.

4.2-jadvalda belgilangan daromad va belgilangan ajratma dasturlarining mamlakatlar o'rtasidagi hisoblangan majburiyatlarining nisbiy ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan, Yaponiya, Kanada, Niderlandiya va Buyuk Britaniyada belgilangan daromad pensiya sxemasi, AQSH va Avstraliyada belgilangan ajratma pensiya dasturi shakllanganligini ko'rish mumkin. Keltirilgan mamlakatlar orasida 2019 yildagi umumiy foydaning yuqori ko'rsatkichi AQSH hissasiga to'g'ri kelmoqda.

#### 4. 2-jadval

### Belgilangan daromad va belgilangan ajratma o'rtasidagi bandlik bilan ta'minlanish va 2019 yildagi umumiy foyda<sup>95</sup>

	Yaponiya	Kanada	Niderlandiya	Buyuk Britaniya	AQSH	Avstraliya
Belgilangan daromad	95%	95%	94%	82%	39%	14%
Belgilangan ajratma	5%	5%	6%	18%	61%	86%
Foyda AQSH dollarida	3,386	1,924	1,690	3,451	29,196	2,077

2020 yil 7 oktyabrga qadar Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan butun dunyoda 1049,7 ming o'lim va 35762,7 ming Covid-19 bilan kasallanish holati qayd etildi. Koronavirusdan vafot etgan ishchi va pensionerlar belgilangan daromad pensiya ta'minoti marhum hech qanday pensiya to'lamasligi natijasida majburiyatni kamaytirdi. Vafot etgan pensionerning pensiyasi to'xtatiladi, faqatgina to'liq pensiyaning yarmi ko'rinishida turmush o'rtog'iga nafaqa to'lanadi. Agar xodim ish faoliyati davomida vafot etsa, oladigan pulning aktuar qiymatidan ancha past bo'lgan miqdorda tashkilot tomonidan to'lab beriladi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari belgilangan daromad sxemasining sobiq ishchisiga sotganligi sababli ular ham foyda ko'radilar. Pensiya oluvchining o'limi nafaqa to'lovlarini bekor qiladi, turmush o'rtog'i tirik bo'lsa nafaqalar ancha kamaytirilgan stavkada berish davom etadi. Belgilangan daromad pensiya ta'minoti tizimlari va sug'urta kompaniyalari uchun Covid-19ning ushbu foydali jihati aniq emas. Covid-19 infeksiyasining qayta to'loqiniga duch kelish va Covid-19 tufayli ba'zi bir sabablarga ko'ra tibbiy holatlardan voz kechish, davolanishni istamagan odamlar, Covid-19ga chalinib, umrni qisqartiradigan kabi sabablar o'lim soni ko'payish ehtimoli bo'lishi mumkin. «Cairns et al» tomonidan Covid-19ning Buyuk Britaniyaning uzoq umr ko'rishiga ta'sirini

<sup>95</sup> Charles Sutcliffe. The Implications of the COVID-19 Pandemic for Pensions. Innovation in Business, Economics & Finance 1. 31.07.2020. – P. 235-244.

modellashtirildi, asosiy ta'sir o'lim sanasining bir necha yil oldinga siljitish degan xulosaga kelishdi: 85 yoshida vafot etganlar bugungi kunda 80 yoshida vafot etmoqda (Buyuk Britaniyada Covid-19dan vafot etganlarning 40 foizi 85 yoshdan katta bo'lganlarni tashkil etmoqda). Bu modelning mazmuni shuki, Covid-19ning o'lim darajasi belgilangan daromad dasturi uchun ta'siri juda oz; belgilangan daromad dasturini moliyalashtirish va annuitet narxlari farq qilmaydi.

Koronavirus pandemiyasining davlat pensiyalariga ta'siri. Davlat pensiya ta'minoti odatda yagona va murakkab tuzilmaga ega. Buyuk Britaniyada davlat pensiya badallari xodimlar tomonidan to'lanadi. Xitoyda davlat pensiyalari davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Covid-19 davlat pensiyalariga turli xil yo'llar bilan ta'sir ko'rsatdi.

Covid-19dan so'ng Finlyandiya hukumati ish beruvchilarning davlat pensiya badallari stavkasini 2020 yil oxirigacha 2,6 foizga vaqtincha o'zgartirdi va zaxira fondi yordamida moliyalashtirdi. To'lovlarning qisqarishi ish beruvchilardan ularning 2022-2025 yillarga qadar stavkalarini oshirish orqali qoplanadi. Covid-19 AQSH o'rtacha ish haqi indeksiga asoslaganligi tufayli ijtimoiy nafaqalar kamayishiga olib kelishi mumkin. «Big'sning»<sup>96</sup> taxminlariga ko'ra, Covid-19 AQShning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini avtomatik ravishda kamaytiradi. Uning hisob-kitobiga ko'ra, agar 2020 yilda ushbu indeks 15 foizga pasayib ketsa, 60 yoshga to'lganlarga ijtimoiy ta'minot nafaqaga chiqqanida yiliga 13 foizga kamayadi. Bu AQSH ijtimoiy ta'minoti narxini pasaytiradi, mablag' tugagandan so'ng esa xizmat muddatini 2034 yildan keyin uzaytiradi. Shuningdek, AQShda ishsizlik darajasi 2020 yil fevral oyida 3,5 foizdan 2020 yil aprelda 14,7 foizgacha o'sishi ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy sug'urta badallarining umumiy miqdorini kamaytirdi. Ishsiz ishchilar erta nafaqaga chiqqanligi sababli, ijtimoiy sug'urta to'lovlarida ham o'sish kuzatildi.

Covid-19ning hukumatlar uchun juda katta harajati jismoniy shaxslarni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan iqtisodiy faoliyat va soliq tushumlarining pasayishi natijasida davlat pensiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buyuk Britaniyada 2011 yildan buyon

---

<sup>96</sup> Biggs, A.G. «How the Coronavirus Could Permanently Cut Near-Retirees' Social Security Benefits». PRC WP2020-6, April. [https://repository.upenn.edu/prc\\_papers/675/](https://repository.upenn.edu/prc_papers/675/).

inflyasiya va o'rtacha daromadning o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan darajada ko'tarilishi natijasida davlat pensiyasining yillik oshishi bo'yicha «uch karra qulf» mavjud. Ijtimoiy bozor fondining taxmin qilishicha, «ikkilik qulf» dan chiqib ketish uchun 2,5 foizni olib tashlash hukumatga yiliga 4 mlrd. funt tejash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyaning 8 mln. dan ortiq ishchilarining 80 foizi mehnat ta'tiliga chiqqanligi sababli, ularning o'rtacha daromadi 2020 yilda 7,3 foizga pasaydi. Shu sababli davlat pensiyasi minimum 2,5 foizga oshishi kafolatlanmoqda. 2021 yilda mehnat ta'tili oluvchilar soni kamayishi bilan ularning daromadlari o'rtacha  $7/93 = 8$  foizga o'sishi kerak, holat o'zgarmaguncha davlat pensiyalari 18 foizga oshishi mumkin.

Ba'zi hukumatlar (Norvegiya, Chili, Irlandiya, Fransiya, Xitoy) ma'lum bir daromad oqimini yaratdilar, masalan: davlatni pensiya bilan ta'minlab berish uchun Shimoliy dengiz bo'yi mustaqil boylik fondi yaratildi. Covid-19 harajatlari va daromadlarning kamayishini moliyalashtirishga intilayogan hukumatlar o'zlarining boylik fondidan pul olishlari mumkin. Norvegiyaning Shimoliy dengiz bo'yi xususiy fondida 1,000 mlrd. dollar zaxira fondi mavjud. Shuningdek, Fransiyada Covid-19 tufayli katta pensiya islohotlarini to'xtatib qo'yish bilan, Fransiya Pensiya jamg'armasi davlat pensiyalarini moliyalashtirishga yordam berish uchun kamida 13 mlrd. yevro ajratdi.

Aktiv qiymatidagi o'zgarishlar. Covid-19 va u bilan bog'liq iqtisodiy o'zgarish butun dunyo bo'ylab fond bozorlarida keskin pasayishlarga olib keldi. 2020 yilning 12 fevralidan 2020 yilning 23 martiga qadar FTSE 100 va S&P 500 indeksleri 34 foizga pasaygan, ammo keyinchalik ko'tarilgan. Belginalgan foyda va belgilangan ajratma fondlarida katta miqdordagi aksiyalar mavjud bo'lganligi sababli, bu pensiya to'lash uchun mavjud aktivlar qiymatining katta pasayishiga olib keldi. 2020 yilning birinchi choragida AQSH berilgan foyda pensiya qiymati 14,9 foizga, Buyuk Britaniya pensiya qiymati 19,7 foizga tushib ketdi. Bu ularning belgilangan daromad sxemasini moliyalashtirish koeffitsiyentini yomonlashuviga olib keldi.

Agar belgilangan daromad sxemalarining defitsiti majud bo'lsa, qo'shimcha badallar yordamida bartaraf etish kerak. Xissa stavkalarini

yuqoriligi ish beruvchilarga qo‘shimcha moliyaviy bosimni keltirib chiqaradi, bu ularning dividendlari, investitsiyalari va boshqa ixtiyoriy xarajatlarini kamaytirishga olib keladi. Shuningdek, ishchilarning badal stavkasi o‘ssishi, ularning bir martalik daromadlarini kamaytirishi va ularni pensiya sxemasidan kelib chiqib, kechiktirilgan pensiya oluvchilarni rag‘batlantirishi mumkin. Belgilangan daromada’zolari uchun aktivlar qiymatining pasayishi ularning pensiya hajmini kamaytirdi, bu esa o‘z navbatida ularning pensiyaga qadar ko‘proq va uzoqroq ishlashini anglatadi.

Covid-19 sababli kelib chiqqan qimmatli qog‘ozlar narxining pasayishi uzoq muddatli ta’sirga ega hodisa bo‘lishi mumkin, belgilangan daromad sxemasini moliyalashtirish esa, Covid-19dan avvalgi darajaga qaytaradi. Shunga qaramay, yutqizganlar ham bo‘ladi. Ayrim mamlakatlarda belgilangan daromad sxemasi a’zolari nafaqaga chiqmasdan avval yig‘ilib qolgan mablag‘dan pensiya sifatida olishlari mumkin. Ana shu xizmatdan foydalangan a’zolar va ishchilar yutqizganlar hisoblanishadi. Buni oldini olish maqsadida Kanada hukumati vaqtinchalik pensiyalarni o‘tkazish haqida ta’qiq qo‘ydi. Buyuk Britaniyada belgilangan daromad sxemasi a’zolari foydalarini belgilangan ajratma sxemasiga o‘tkazishlari mumkin, xatto ular 55 yoshdan yuqori bo‘lishsa, yig‘ilgan pulni qisman yoki hammasini olish imkoniyatlari bor.

Avstraliya ishsiz a’zolariga pensiya fondidan 20,000 doll. olishga ruxsat berdi, bu esa pul mablag‘larini olishning keskin o‘ssishiga olib keldi. AQShning «CARES 2020» qonuni belgilangan daromad dastur a’zolariga 100000 AQSH dollarigacha o‘z pensiya hisobraqamlaridan jarimasiz pul yechib olish imkoniyatini berdi va ushbu a’zolarining 30 foizi Covid-19 pandemiyasi boshlanganidan buyon o‘zlarining pensiyalaridan olishgan. Islandiya esa yoshidan qat’iy nazar, 75,000 yevrogacha bo‘lgan miqdorda pensiyadan pul olishga ruxsat berdi. Lekin Covid-19ning uy xo‘jaliklari budjetiga yetkazgan zararini qoplashga harakat qilinayotgan bir paytda, pulni yechib olish nafaqani moliyalashtirish uchun mavjud bo‘lgan pensiya fondi mablag‘larini kamaytiradi. Bu shuningdek, a’zolarining pensiya aktivlari qiymatlari past bo‘lganida, mablag‘larni naqd pulga aylantirayotganliklarini anglatadi.

Pandemiya yetkazgan zararni tartibga solinishi. Pensiya regulyatorlarining munosabati ish beruvchilar va a'zolarning badallarini to'xtatib turish, normativ-huquqiy hujjatlarni yumshatish nuqtai nazaridan mamlakatlar bir-biridan farq qiladi. AQSH «US cares 2020» qonuniga ko'ra, 72 yoshdan oshgan doimiy pensionerlarga pensiya fondidan minimal miqdorda pul olish talabini to'xtatdi. Buyuk Britaniya to'lovga layoqatsizligi to'g'risidagi qonunni yumshatdi, kreditorlarning qarzlarini undirish huquqini chekladi, bu esa o'z navbatida pensiyani himoya qilish jamg'armasi tomonidan to'lanmagan pensiya badallari uchun ish beruvchilarni soliqqa tortish imkoniyatini pasaytiradi. Islandiya pensiya jamg'armalari tomonidan qiritilgan xorijiy investitsiyalar kronaning qadrini pasaytirishi mumkinligi tufayli Markaziy bank ulardan 2020 yil mart oyidan 2020 yil sentabr oyiga qadar chet el investitsiyalarini jalb qilmasliklarini so'radi. Qoidalarni (masalan, ish beruvchilarning badallari, a'zolarning pensiyalarini olish, to'lovga qodir emasligi) uzaytirilgan muddatlar (masalan, aktuarlarni baholash, pensiya regulyatoriga hisobotlarni) to'xtatgan, qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ygan tartibga soluvchilar, shuningdek, ba'zi faoliyatlarga cheklov qo'ygan. Qoidalarni qachon va qanday tiklashni Covid-19 darajasiga qarab hal etadi.

Covid-19 pensiyalarga qisqa muddatli salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu salbiy ta'sirlarning aksariyati uzoq muddatli istiqbolda yo'q bo'lib ketishi kerak, bu esa aktivlar narxi va foiz stavkalarining Covid-19dan oldingi darajaga ko'tarilish tezligiga va darajasiga bog'liq. Belgilangan daromad sxemasidan pul o'tkazganlar yoki belgilangan ajratma sxemasidan naqd pul olganlar, ushbu vaziyatda yutqazganlar hisoblanishadi. Covid-19 natijasida muvaffaqiyatsizlikka uchragan ish beruvchilar belgilangan daromad sxemasini yetarli darajada moliyalashtirmagan bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu belgilangan daromad dasturlarining a'zolari (ammo pensionerlar emas, chunki ular odatda to'liq kompensatsiya bilan ta'minlanadi), shuningdek, Covid-19 dan kelib chiqqan pensiya firibgarligi darajasini ko'tarilganligi kabi, yutqazadiganlar ham bo'ladi. Pensiya regulyatorlari ish beruvchilardan Covid-19 davrigacha bo'lgan qoidalar va badallarga qaytishni talab qilishadi.

Shuningdek, ular ish beruvchilarning kechiktirilgan hissalarini qo‘shishi kerak bo‘lgan vaqt ko‘lamini hal qilishi kerak.

Covid-19 koronavirus pandemiyasi tomonidan yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul jahon mehnat va moliya bozorlariga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda – bu o‘z navbatida pensiya tizimlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, siyosatga oid javoblar aholining zaif qatlamlarini zudlik bilan himoya qilish va pensiya tizimlari kelajakda dunyo aholisi yoshiga qarab pensiya daromadlarini yetkazib berishni ta‘minlash o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishi kerak. «Jahon banki hukumatlar ushbu muammoni hal qilishlari uchun ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan to‘rtta muhim siyosiy savollarga yechimni taklif qiladi»<sup>97</sup>:

Birinchi, daromadlarning keskin pasayishi moliyaviy aktivlarga ta‘sirini qanday yumshatish mumkin? Ta‘sir darajasi tizimining turiga qarab farqlanadi. Sarmoyalar rentabelligining pasayishi, belgilangan hissa tizimlariga darhol ta‘sir qiladi. Masalan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) 2008 yilgi moliyaviy inqiroz jahon pensiya aktivlarini 23 foizga kamaytirganini prognoz qilgan edi. Investitsiyalarning rentabelligi belgilangan nafaqa dasturlarini moliyalashtirish koeffitsiyentlarini pasaytiradi – OECD so‘nggi inqirozdan faqatgina davlat pensiya ta‘minoti rejalarini moliyalashtirish darajasiga 1 trillion AQSH dollar miqdorida ta‘sirini prognoz qilmoqda. Pandemiya yirik salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi kutilmoqda, 2008 yilgi moliyaviy inqirozdan olingan saboqlar bozor o‘zgaruvchanligi davrida tartibga soluvchi moslashuvchanlikning muhimligini ko‘rsatdi: yillik renta sotib olish vaqtidagi ba‘zi bir moslashuvchanlikka imkon berish yoki belgilangan nafaqa sxemalariga ularning moliyalashtirish stavkalarini tiklash uzoq vaqtga ruhsat berish. Lotin Amerikasi mamlakatlari avvalgi tanazzuldan kelgan xulosalari – pandemiya davrida pensiya yoshiga yaqin xavfsiz aktivlar hayotiy siklik mablag‘larga o‘tish ahamiyatlidir. So‘nggi yillarda bir nechta mamlakatlarda ijtimoiy pensiyalar va minimal pensiyalarning tez sur‘atlarda kengayishi shuningdek, inqirozning

---

<sup>97</sup> <https://blogs.worldbank.org/psd/pension-payments-and-pandemics-four-potential-policy-responses>.

nafaqa oluvchilarga, ayniqsa, kam daromadli kishilarga ta'sirini kamaytiradi.

Ikkinchidan, nafaqa oluvchilarni qanday qo'llab-quvvatlash mumkin? Inqiroz aholining ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlami bo'lgan keksalar va nogironlarning moliyaviy holatini yaxshilash dolzarbligini ko'rsatmoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi ehtiyojlar va xarajatlarning mumkin bo'lgan o'sishi vaqtincha pensiya oshirilishi bilan kamaytirilishi mumkin, xususan ushbu mablag'lar aynan Covid-19 bilan og'rikan bemorlar uchun yoki barcha nafaqa oluvchilar uchun umumlashtirilgan holda sarflanishi mumkin. Covid-19 mamlakatlardan ijtimoiy himoya tizimidagi ko'p sonli qismi hisoblangan nafaqa oluvchilarga qanday qilib to'lovlarni amalga oshirishni qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Qariyalar naqd pul bilan to'lovlarni olayotganlarida ijtimoiy masofaga erishish qiyin, bu infeksiya xavfini oshiradi. Buning uchun bir nechta choralarni amalga oshirish lozim: yangi protokollarni joriy etish, to'lovlar oralig'ini kamaytirish, ishonchnoma tizimini joriy etish. Banklararo to'lovlarni amalga oshirish Pensiyalarni elektron tarzda to'lash imkoniyatidir. Ruanda va Hindiston raqamli pensiya to'lovlariga o'tayotgan mamlakatlar hisoblanadi.

Uchinchidan, yaqin kelajakda pensiya badallarini saqlab qolish kerakmi? Koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga, ish o'rinlariga va ishchilar daromadlariga ta'siri hukumatlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Covid-19 ning iqtisodiy oqibatlarini hisobga olgan holda, hukumatlar tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan choralarni qidirmoqdalar. Xodimlar va ish beruvchilar tomonidan pensiya ta'minoti uchun to'lovlarni to'xtatib turish yoki kamaytirish ish haqini kamaytirishga va ishchilarni saqlab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga, pensiya ta'minotini yanada mustahkamlash va global qarib borayotgan aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun to'lov ta'tilini uzoq muddatli islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish kerak. Xususan, to'lov ta'tili – bu iqtisodiy barqarorlik qaytib kelgandan so'ng, pensiya badallarini to'lash deganidir. Masalan, 2008 yilgi inqirozdan keyin Estoniya pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar miqdorini ko'paytirgan holda to'lab berilishini yo'lga qo'ygan. AQShning ba'zi ish beruvchilari



kelajakda ish haqi oshishi bilan badallarni bosqichma-bosqich oshirishni afzal, deb hisoblaydilar.

To'rtinchidan, pensiya jamg'armalari yosh ishchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi kerakmi? Hukumat oldida turgan yana bir siyosiy tanlov – mehnatga layoqatli odamlarga pensiya jamg'armalaridan erta foydalanish huquqini berishdir. Ko'pgina quyi va o'rta daromadli mamlakatlarda ishsizlikni sug'urtalash dasturlari juda kichik yoki umuman mavjud bo'lmay, ular ko'lamini kengaytirish hukumatning katta miqdordagi mablag'larini talab qiladi. Pensiya aktivlariga ega bo'lgan mamlakatlar uchun eng ko'p foydalaniladigan usul – bu dasturlar orqali mablag'larni qarzga olish hamda qisqa muddatli ehtiyojlarni qoplash uchun soliq jarimalarisiz pensiya jamg'armalariga hissa qo'shish imkoniyatini berishdir. Jumladan Avstraliya, Malayziya va Peru kabi mamlakatlarda ma'lum darajada ushbu usul qo'llanildi. Shunga qaramay, pensiya ishsizlik nafaqasiga o'rindosh emasligini tan olish kerak va pul mablag'larini yechib olish cheklangan, vaqt bilan chegaralangan va faqat favqulodda ehtiyojlar uchun (aks holda pensiyada yetarli daromadlarni yetkazib berish qiyin bo'ladi) bo'lishi kerak. Misol uchun, 15 yillik badallardan so'ng pensiya jamg'armalaridan 25 foiz mablag'ni yechib olish, ishchi nafaqaga chiqqanidan so'ng, umrbod pensiya daromadidan 15 foiz kam bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, uzoq muddatli ichki kapitalning ushbu muhim manbalarini jiddiy ravishda tugatish xavfini tug'diradi, bu esa iqtisodiyotning tanazzuldan chiqib ketishi bilan tiklanishi kerak. Ba'zi rivojlanayotgan bozorlarda pensiya jamg'armalari YAIM hajmining sezilarli foizini tashkil qilishi mumkin (masalan, Janubiy Afrikada deyarli 100%). Hukumatlar, shuningdek, 2008 yilgi tanazzuldan keyin ba'zi Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi erta pensiya yoki nogironlik bo'yicha nafaqa olish huquqini olishga qarshi turishlari kerak, chunki bu pensiya tizimlarini uzoq muddatli moliyalashtirish shartlariga putur yetkazadi.

Beshinchidan, bugungi kunda pensiya tizimini loyihalashda to'lovlarni ertangi kun ehtiyojlari bilan muvozanatlash juda qiyindir. Iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar va Covid-19 pandemiyasi davrida pensiya tizimlari keksayib borayotgan

dunyo aholisining pensiya daromadlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan to'lovlarni ta'minlovchi aktivlarni imkon qadar ko'proq saqlab qolishni va ularni uzoq muddatli, xavfsiz va barqaror investitsiyalarga ajratilishini ta'minlash lozim.

### **Nazorat savollari**

- 1.«Covid-19» pandemiyasining pensiya tizimiga salbiy oqibatlari
2. «Cairns et al» tomonidan Covid-19ning salbiy oqibatlari kamaytirish chora-tadbirlari.
3. Koronavirus pandemiyasining davlat pensiyalariga ta'siri.

### **Test**

1. Buyuk Britaniyada Covid-19dan vafot etganlarning 40 foizi necha 85 yoshdan katta bo'lganlarni tashkil etgan?

- A) 85 yoshdan
- B) 55 yoshdan
- S) 75 yoshdan

2. Xitoyda davlat pensiyalari qanday davlat budjetidan moliyalashtiriladi?

- A) Davlat budjetidan
- B) Sug'urta badallaridan
- S) Davlat pensiyasi mavjud emas

3. Finlyandiya hukumati ish beruvchilarning davlat pensiya badallari stavkasini 2020 yil oxirigacha necha foizga vaqtincha o'zgartirdi?

- A) 2,6 foizga
- B) 5 foizga
- S) 4 foizga

4. Buyuk Britaniyaning 8 mln. dan ortiq ishchilarining 80 foizi mehnat ta'tiliga chiqqanligi sababli, ularning o'rtacha daromadi necha foizga pasaydi?

- A) 7,3 foizga
- B) 8 foizga
- S) 9 foizga

5. Covid-19 pandemiyasi paytida Fransiya Pensiya jamg'armasi davlat pensiyalarini moliyalashtirishga yordam berish uchun qancha pul ajratildi?

- A) 13 mlrd. evro

B) 10 mlrd. yevro

S) 5 mlrd. Evro

### **Mustaqil bimavzulari**

1. Pandemiya pensiya tizimiga yetkazgan zararni tartibga solinishi

2. Islandiyada pensiya jamg'armalari tomonidan qiritilgan xorijiy investitsiyalar

3. Covid-19 koronavirus pandemiyasi tomonidan yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul

4. Koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga, ish o'rinlariga va ishchilar daromadlariga ta'siri

5. Covid-19 ning iqtisodiy oqibatlari

### **4.4-§. O'zbekistonda pensiya tizimining rivojlanish tendensiyalari**

Aholining turmush darajasini izchil oshirish va turmush sifatini yaxshilash, doimiy ravishda aholini nochor qatlamlarini himoyalash maqsadida islohotlar olib boriladi. Ushbu islohotlarning o'tkazilishidan maqsad aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlariga manzilli, ya'ni aholining ma'lum bir guruhiga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimini barpo qilishdan iboratdir.

O'zbekiston hududida pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va taraqqiyotini oltita bosqichga ajratilgan holda tadqiq etish mumkin.

Birinchi bosqich 1924-1955 yillarga daxldor bo'lib, bu davrda «yagona pensiya tizimi mavjud bo'lmagan»<sup>98</sup>. Ushbu davr pensiya ta'minotining tarmoq xususiyatlari bilan xarakterlanadi. 1924 yildan oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari pensiya ta'minoti bilan qamrab olingan bo'lsa, 1928 yildan pensiyalar to'qimachilik sanoat xodimlariga, 1929 yildan esa og'ir va mashinasozlik sanoati xodimlariga tayinlanish boshlangan. «1930 yilda «Pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'g'risida»gi nizom ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra mehnatda jarohatlanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lgan shaxslar pensiya bilan ta'minlangan»<sup>99</sup>.

<sup>98</sup> Усманова М., Саттарова Г. Право социального обеспечения Республики Узбекистан. – Т.: «ТДЮУ», 2016. – С. 15.

<sup>99</sup> Ziyadullayev M.Dj. O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yur. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtor. – Toshkent: «Akademiya nashriyatlik».

Ikkinchi bosqich 1956-1990 yillarni qamrab oladi. «1956 yil 14 iyulda aholini davlat pensiya ta'minoti bilan yanada kengroq qamrab olishni nazarda tutuvchi «Davlat pensiyalari to'g'risida»gi sobiq Ittifoq qonuni qabul qilingan»<sup>100</sup>. Faqatgina 1956 yildan sovxoz ishchilari va 1968 yildan kolxoz ishchilari pensiya ta'minoti bilan qamrab olingan va ayni shu davrdan boshlab, fuqarolarning to'liq davlat pensiya ta'minoti yuzaga kelgan. Xususan, «ishchi va xizmatchilar, harbiy xizmatchilar, nogironlar va boquvchisini yo'qotganlar davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan»<sup>101</sup>. Shuningdek, «erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda hamda ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan »<sup>102</sup>. 1990 yil 15 mayda «SSSRda fuqarolar pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun»<sup>103</sup> qabul qilinib, fuqarolarga quyidagi pensiya turlari joriy qilingan: «mehnat pensiyalari (yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, xizmat qilgan yillari uchun pensiyalar) va ijtimoiy pensiyalar»<sup>104</sup>. Ijtimoiy pensiyalarni olish huquqiga mehnat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan mehnatga layoqatsiz barcha fuqarolar ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ega bo'lganlar.

Fuqarolar pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotining uchinchi bosqichi 1991-2000 yillarni o'z ichiga qamrab oladi va uni haqli ravishda istiqloq yillari O'zbekistonda pensiya tizimi rivojlanishidagi muhim dastlabki bosqichlardan biri sifatida qayd etish zarur. 1991 yil 14 yanvarda O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining «SSSR Pensiya fondining O'zbekiston Respublikasi bo'limini tashkil etish to'g'risidagi»<sup>105</sup> 9-son qarori qabul qilindi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi. Aynan, shu davrlarda

---

markazi", 2019. 20-21-b..

<sup>100</sup> <https://www.segodnya.ua/newsarchive/14-ijulja-1956-v-cccr-pojavilic-pencii.html>.

<sup>101</sup> [http://www.pfrf.ru/info/order/organization\\_appointment\\_payme/~2077](http://www.pfrf.ru/info/order/organization_appointment_payme/~2077).

<sup>102</sup> 1956 yil 14 iyulda qabul qilingan «Davlat pensiyalari to'g'risida»gi SSSR qonuni, 8-modda.

<sup>103</sup> Юлий Цезардан мерос анъана. Пенсия тўлаш тарихи ва энг кўп пенсия тўловчи давлатлар хақида (kun.uz).

<sup>104</sup> 1990 yil 15 mayda qabul qilingan «SSSRda fuqarolar pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun. 2, 119-moddalar.

<sup>105</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

hayotimizning huquqiy kafolati hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Fuqarolarning mehnat huquqlari ifoda etuvchi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi ishlab chiqildi. «Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxati»<sup>106</sup> ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi «Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»<sup>107</sup>gi 319-son qaroriga asosan ijtimoiy pensiyalar bekor qilinib, ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar uchun ijtimoiy nafaqalar joriy etildi. 1997-2000 yillarda Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari Davlat budjeti tarkibiga birlashtirildi hamda Pensiya jamg‘armasiga davlat maqsadli jamg‘armasi maqomi berildi.

2001-2009 yillarni mamlakatda davlat pensiya ta‘minoti rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi sifatida e‘tirof etish mumkin. «2001 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi»<sup>108</sup> va Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar davlat soliqlari va yig‘imlariga tenglashtirildi. 2005 yildan pensionerlarga amaldagi pensiya to‘lovlariga qo‘shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish va turmush farovonligini oshirish maqsadida jamg‘arilib boriluvchi pensiya ta‘minoti tizimi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 595-son Qaroriga muvofiq, 2005 yilning 1 yanvaridan «fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i summasidan tegishli ravishda chiqarib

---

<sup>106</sup> <https://lex.uz/docs/1976988>.

<sup>107</sup> 319-son 24.06.1994. Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida (lex.uz).

<sup>108</sup> <https://lex.uz/docs/292357?ONDATE=01.03.2001%2000>.

tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning 1 foizi miqdorida»<sup>109</sup> 2005 yilning 1 yanvaridan. Viloyatlar, shaharlar va tumanlarda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bo'linmalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4161-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalari tashkil etildi.

Beshinchi bosqich 2010-2016 yillarni qamrab oladi va ushbu yillar mobaynida davlat pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asoslari mustahkamlandi. 2010 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalar tayinlash, moliyalashtirish va uning monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari zimmasiga yuklatildi. 2011 yilda «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»<sup>110</sup>gi Nizom qabul qilindi. Sohaga axborot texnologiyalari faol joriy etila boshlandi. 2012 yilda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, to'lash va hisobotlarni yuritish bo'yicha markazlashtirilgan PK «Pensiya» dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Mazkur dasturiy ta'minot zamonaviy innovatsiya dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yish, markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarni to'liq, ishonchli hamda tezkor axborot bilan ta'minlash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir. PK «Pensiya» dasturi orqali 2013-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi, Soliq organlari, Adliya organlari, G'aznachilik bo'limlari bilan o'zaro elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. 2013 yilda imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish bo'yicha kasb va lavozimlar ro'yxati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi. 2015 yil 18 fevraldagi «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturiga muvofiq hamda 100 yoshga to'lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e'tibor qaratish, shuningdek, pensionerlar, 1941-1945 yillardagi urush

---

<sup>109</sup> <https://lex.uz/docs/396902>.

<sup>110</sup> <https://lex.uz/docs/4761708>.

va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida yoshi 100 ga to'lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga 2015 yil 1 maydan «har oyda eng kam ish haqining 100 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov»<sup>111</sup> to'lash belgilandi. 2016 yildan fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallarini hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish maqsadida fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni yakka tartibda hisobini yuritish amaliyotga joriy etildi. 2016 yildan boshlab «chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish»<sup>112</sup> tartiblari ishlab chiqildi. 2016 yil 1 iyuldan boshlab «pensiya tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish staji 5 yildan 7 yiliga»<sup>113</sup> uzaytirildi.

2017-2021 yillar pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotining oltinchi bosqichi bo'lib, ushbu yillarda pensiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Bu bosqichda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida pensiyalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish, pensionerlarning to'laqonli hayot kechirishlarini hamda umr uzayishini ta'minlash kabi vazifalar belgilandi va ularning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda. «2017 yilning fevral oyidan boshlab barcha turdagi pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlarsiz to'liq hajmda naqd shaklda»<sup>114</sup> berilishi belgilandi. 2018 yil 1 yanvardan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tibbiyot tashkilotlarida ishlovchi shifokor-pensionerlarga pensiya to'liq miqdorda to'lanishi belgilandi. 2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimini isloh qilish Konsepsiyasi loyihasi ishlab

---

<sup>111</sup> <https://lex.uz/docs/2575143>.


<sup>112</sup> <https://lex.uz/docs/2904908>.

<sup>113</sup> <https://daryo.uz/k/2016/04/27/ozbekistonda-pensiya-tayinlash-uchun-talab-etiladigan-minimal-staj-oshirildi/>.

<sup>114</sup> <https://lex.uz/docs/3104579>.

chiqilib, umuhalq muhokamasiga qo'yildi va takomillashtirilib borilmoqda. 2019-2030 yillarda davlat pensiya tizimini isloh etish Konsepsiyasi ishlab chiqilishi yuzasidan chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. «2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda»<sup>115</sup> to'lanib kelinmoqda. «Pensiyaning hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o'n barobarigacha»<sup>116</sup> oshirildi. O'zbekistonning soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga ko'ra, «fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari (8%) bekor qilindi»<sup>117</sup>. Bugungi kunda pensiya tizimida raqamlashtirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda.

Hozirda milliy pensiya ta'minoti tizimi ikki darajali bo'lib, avlodlar birdamligiga asoslangan «taqsimlanuvchi» hamda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidan iborat (4.2-rasmga qarang).



#### 4.2-rasm. O'zbekistonda fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilishi<sup>118</sup>

1. Avlodlar birdamligiga asoslangan «taqsimlanuvchi» pensiya ta'minoti tizimida ish beruvchilar va ishlovchilar Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lov va badallarni to'lab boradi. «Shakllangan mablag'lar hisobidan pensionerlarga pensiyalar to'lab boriladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi. Masalan, T avlod

<sup>115</sup> <https://lex.uz/docs/4103211>.

<sup>116</sup> <https://lex.uz/docs/4103211>.

<sup>117</sup> <https://lex.uz/docs/3802378>.

<sup>118</sup> Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. 14-b.



pensiyaga chiqdi, uning uchun T+1 avlod pensiya to'laydi, T+1 uchun esa T+2 va hokazo. Demak, hech qanday fond yaratilmaydi. Hech kim o'zi uchun to'lamaydi. Kim Pensiya jamg'armasiga ajratma o'tkazayotgan bo'lsa, demakki, u o'zidan oldin pensiyaga chiqqan fuqaro pensiyasi mablag'ining manbai bo'lib qoladi»<sup>119</sup>.

2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida joriy qilindi. Mazkur tizim pensionerlarning real daromadlarini oshirish va hayot darajasini yaxshilash imkonini bermoqda.

Qayd etish joizki, taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlari ma'lum afzallik va kamchiliklarga ega. Taqsimlanuvchi pensiya tizimining asosiy maqsadi fuqarolarni kambag'allikdan himoya qilish mexanizmini amalga oshirishdan iborat va mazkur tizim demografik o'zgarishlarga moslashtirilmagan. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining maqsadi bozor iqtisodiyoti mamlakatlariga xos bo'lgan iqtisodiy samaradorlikdir. Biroq, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini darhol joriy qilish mumkin emas va ushbu tizim moliya bozorlaridagi o'zgarishlarga juda sezgirdir. Quyidagi 4.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin.

2010-2021 yillar davomida iqtisodiyotda bandlar soni 17 foizga o'sgan bir paytda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 24,2 foizga oshgan. Huddi shu davrda 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish darajasi 80,4 foizga teng bo'lgan

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish sur'ati pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan, bir vaqtning o'zida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'ati iqtisodiyotda bandlar sonining o'sish sur'atidan yuqoridir.

---

<sup>119</sup> Mamatov B.S. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi: joriy holati va takomillashtirish yo'llari // «Bozor, pul va kredit» jurnali. №3, 2018. 48-55-b.

### 4.3-jadval

#### Milliy pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari<sup>120</sup>

No	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 Yil	2014 Yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1.	Jami aholi, mln. Kishi	28,0	29,1	29,5	29,9	30,5	31,0	31,5	32,1	32,6	33,2	33,9	34,5
2.	Iqtisodiy faol aholi, mln. kishi	12,2	12,5	12,8	13,1	13,5	13,7	14,0	14,3	14,6	14,8	14,7	15,0
3.	Iqtisodiyotda bandlar, mln. kishi	11,6	11,9	12,2	12,5	12,8	13,0	13,2	13,5	13,2	13,5	13,2	13,6
4.	Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar, ming kishi	3265,8	3160,9	3071,3	3090,9	3119,5	3203,9	3324,2	3488,9	3690,3	3878,4	4029,3	4056,8
5.	55 yoshdan oshgan ayollar, ming kishi	1336,7	1437,9	1506,8	1582,9	1672,7	1764,8	1866,3	1972,6	2077,4	2184,8	2293,1	2393,1
6.	60 yoshdan oshgan erkaklar, ming kishi	728,3	781,4	812,8	852,2	889,4	932,2	982,8	1041,4	1104,4	1181,1	1259,9	1331,5
7.	O'rtacha oylik ish haqi miqdori, ming so'mda	504,8	628,0	739,6	865,9	1017,9	1171,6	1293,8	1453,2	1822,0	2324,5	2660,0	3200,0
8.	Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori, ming so'mda	171,9	218,5	274,0	330,8	404,3	438,2	494,2	556,8	640,5	733,2	848,5	924,7
9.	O'rtacha umr ko'rish davomiyligi, yilda (yosh)	73,0	73,0	73,1	73,4	73,4	73,6	73,8	73,7	74,6	75,1	73,4	74,6

<sup>120</sup> Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 2010-2021 yillar davomida 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar soni muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan.

2010-2021 yillar mobaynida barcha omillarning ta'siri ostida tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori 5,38 martaga o'sgan bir sharoitda o'rtacha oylik ish haqi 6,34 martaga o'sgan, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining o'sish sur'ati tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Bu va yuqorida qayd etilgan holatlar pensiya ta'minoti tizimida istiqbolga qaratilgan samarali islohotlar yo'nalishlarini tadqiq qilish zaruriyatini yanada oshirmoqda.

Umuman, pensionerlar sonining o'sib borishi aholining tabiiy ko'payishi darajasining yuqoriligi hamda umr ko'rish davrining uzayib borayotganligini ko'rsatadi. «1991-2020 yillar davomida, ya'ni 30 yil ichida tug'ilishlar soni 16,4 foizga oshgan»<sup>121</sup>. Bu esa avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan zarur choralar ko'rilishini taqozo etadi.

2010 yilda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 73 yilni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 74,6 yilga teng bo'lgan. «2025 yilga borib, aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 76,4 yoshga yetishi prognoz qilingan»<sup>122</sup>. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkichning darajasi ancha yuqori. Chunonchi, «Yaponiyada umr ko'rish davomiyligi 85, Italiyada 84, Janubiy Koreyada 81,3, AQShda 79,1, Turkiyada 75,5 va Gruzuyada 75,1 yilni tashkil etmoqda»<sup>123</sup>.

Umr ko'rish davrining uzayib borishi bilan pensiya oluvchilar sonining tabiiy ravishda ko'payishi Pensiya jamg'armasida ularning moliyaviy ta'minotini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda

---

<sup>121</sup> <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-30-jilda-tugilishlar-soni-164-foizga-oshgan>.

<sup>122</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.


<sup>123</sup> Программа развития Организации Объединённых Наций (ПРООН) / United Nations Development Programme (UNDP). Life Expectancy Index 2020. Рейтинг стран мира по средней продолжительности жизни 2020.; <https://tyulyagin.ru/ratings/rejting-stran-mira-po-prodolzhitelnosti-zhizni.html>.

moliyaviy resurslar (daromadlari) bo‘lishini taqozo etadi. So‘nggi yillarda soliq tizimidagi islohotlar natijasida 2019 yil 1 yanvardan<sup>124</sup>:

- fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilindi (2019 yilgacha fuqarolarning oylik daromadidan 8% gacha miqdorida sug‘urta badali to‘langan);

- davlat maqsadli jamg‘armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi;

- xususiy korxonalar, shuningdek, ustav jamg‘armasida davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan yuridik shaxslarga yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi.



**4.3-rasm. 2019-2028 yillarda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari, xarajatlari, defitsitining prognozi va o‘zgarish tendensiyasi (trln. so‘mda)<sup>125</sup>**

Shuningdek, 2019 yil 1 oktabrdan boshlab, Pensiya jamg‘armasi hisobiga to‘langan yagona soliq to‘lovi summasi mahalliy budjetlarga o‘tkazildi hamda «2020 yil 1 yanvardan boshlab davlat korxonalari,

<sup>124</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

<sup>125</sup> Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ma’lumotlari va prognoz ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan.

davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga pasaytirildi»<sup>126</sup>. Natijada, 2019 yildan boshlab Pensiya jamg‘armasi budjetida defitsit yuzaga kelgan. Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishdagi jiddiy o‘zgarishlarni hamda 2019-2028 yillar mobaynida yiliga o‘rta hisobda 335297 nafar fuqaroga yangi pensiyalar tayinlanishini ham hisobga oladigan bo‘lsak, defitsit darajasi o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda (4.3-rasm).

Bu esa Pensiya jamg‘armasi moliyaviy barqarorligining ta‘minlanishi uchun respublika budjetidan transfert shaklida subsidiya ajratish orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishini taqozo etadi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan «Ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlari to‘g‘risida»gi 102-sonli Konvensiya hamda Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksida barcha mamlakatlar pensionerlar uchun ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlariga erishish lozimligi ko‘rsatilgan (4.4-jadval). Ijtimoiy ta‘minotning minimal xalqaro me‘yorlariga ko‘ra, pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizdan kam bo‘lmasligi tavsiya etilgan.

#### 4.4-jadval

### Xalqaro me‘yorlariga muvofiq pensiya miqdorlarining minimal standartlari<sup>127</sup>

Stajga nisbatan talablar		Qoplanish koeffitsiyenti (ilgari olingan daromadiga nisbatan moddiy to‘lov miqdori)		
		Yolg‘iz pensioner uchun, % da	Qaramog‘ida bo‘lgan pensioner uchun, % da	
Xalqaro mehnat tashkilotining 102-sonli Konvensiyasi, 1964 y.	Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksi, 1990 y.	Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksi, 1990 y.	Xalqaro mehnat tashkilotining 102-sonli Konvensiyasi, 1964 y.	Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksi, 1990 y.
<b>Yoshga doir pensiya</b>				
30 yil davomida badallarni to‘lash yoki ish bilan band	40 yil davomida badallar to‘lash yoki mehnat	50	40 (pensiya yoshidagi erkak kishi va uning	65 (pensiya yoshidagi erkak kishi va

<sup>126</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi PF-5837-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

<sup>127</sup> Конвенция N102 Международной организации труда «О минимальных нормах социального обеспечения». Статья 67. Приложение к разделу XI периодические выплаты типовому бенефициарию. – С. 21.; <https://rm.coe.int/16802f4244>.

bo'lish yohud mamlakatda 20 yil davomida yashash	faoliyati bilan band bo'lish yohud mamlakatda yashash		to'rmush o'rtog'i uchun)	uning to'rmush o'rtog'i uchun)
<b><i>Nogironlik pensiyasi</i></b>				
15 yil davomida badallar to'lash yoki ish bilan band bo'lish yohud mamlakatda 10 yil daomida yashash	15 yil davomida badallar to'lash yoki mehnat faoliyati bilan band bo'lish yohud mamlakatda yashash	50	40 (erkak kishi turmush o'rtog'i va ikki nafar farzandi bilan)	65 (erkak kishi turmush o'rtog'i va ikki nafar farzandi bilan)
<b><i>Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi</i></b>				
15 yil davomida badallar to'lash yoki ish bilan band bo'lish yohud mamlakatda 10 yil daomida yashash	15 yil davomida badallar to'lash yoki mehnat faoliyati bilan band bo'lish yohud mamlakatda yashash	50 (beva ayol uchun)	40 (beva ayol uchun)	65 (beva ayol, ikki nafar farzandi bilan)


Ammo, O'zbekistonda 2010 yildan to 2021 yilgacha bo'lgan davrlarning birortasida ham pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizlik darajani qayd etmagan (3.4-rasm). Jumladan, 2010-2021 yillar davomida ushbu koeffitsiyent o'rtacha 35,4 foizni tashkil etib, talab etilgan xalqaro me'yordan 4,6 foizga kam. Ushbu holat hanuzgacha munosib pensiya miqdorlariga erishilmaganligini ko'rsatadi va pensionerlarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish nuqtai nazaridan salbiy omildir.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) mamlakatlarida ham 2016-2020 yillarda pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizlik darajani qayd etmagan. Biroq, «Yevropa mamlakatlarida qoplanish koeffitsiyenti 60 foiz atrofida tebranadi, IHTTga a'zo mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 54,5 foizni tashkil qiladi»<sup>128</sup>. YEOII mamlakatlarining barchasida o'rtacha umr ko'rish davri ham uzayib bormoqda. 2021 yilda pensiyaga chiqish yoshining o'rtacha darajasi Armanistonda 63, Belorusda 60, Qozog'iston 61,5, Qirg'isistonda 60,5 va Rossiya Federatsiyasida 59 yoshni tashkil qilgan. «YEOII mamlakatlari bo'yicha jami aholi tarkibida mehnatga layoqatli

<sup>128</sup> OECD Pensions at a Glance. 2019. OECD and G20 indicators. OECD Publishing, Paris. – P. 154.

yoshdan kattalar ulushi 7 foizdan yuqoridir»<sup>129</sup>. Bunday holat pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va pensionerlarning turmush farovonligini yaxshilash nuqtai nazaridan milliy pensiya modellarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyentining mavjud holati tayinlangan pensiya miqdorlarining ham kichikligini ko'rsatadi. «Pensiya miqdori, eng avvalo, ish staji davriga bog'liq bo'lib, erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda hamda ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar»<sup>130</sup>.



#### 4.4-rasm. Pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti (foiz hisobida)<sup>131</sup>


Ammo, O'zbekistonda 2010 yil 1 yanvar holatiga ish staji to'liq bo'lmagan pensiya oluvchilar soni jami pensiya oluvchilarning 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yil 1 yanvarga kelib, bu ko'rsatkich 29,2 foizga yetgan, ya'ni 2010-2021 yillar davomida ularning salmog'i 26,5 punktga yoki 10,8 martaga oshgan (4.5-rasm).

<sup>129</sup> Жадвал тегишли (Пенсионное обеспечение. Статистика Евразийского экономического союза за 2021 год. Евразийская экономическая комиссия. Материал подготовлен Департаментом статистики. – М., – С. 2-49.; Евразийский экономический союз в цифрах: краткий статистический сборник; Евразийская экономическая комиссия. – М., 2021. – 188 с.) ҳисобот ма'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>130</sup> O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-son «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni. 7-modda.

<sup>131</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bunday o‘shni, asosan, ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lanmaslik hamda korxonalar tomonidan ish staji va ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar arxiv idoralariga topshirilmaganligi bilan asoslash mumkin. Bir vaqtning o‘zida bunday holat boshqa omillar bilan bir qatorda (norasmiy ishsizlik va boshq.) mamlakatda o‘rtacha pensiya miqdorining ham kamayishiga olib kelgan. Chunki, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar mavjud stajga mutanosib miqdorda hisoblab chiqiladi. Oqibatda, kam miqdorda pensiya oluvchi fuqarolar soni ko‘payib boradi. Bu, o‘z navbatida, davlat tomonidan kam miqdorda pensiya oluvchi fuqarolarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishini taqozo etadi.



**4.5-rasm. Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiya oluvchilarning jami pensionerlar tarkibidagi salmog‘ining o‘zgarishi (foiz hisobida)<sup>132</sup>**

Ana shunday chora-tadbirlardan biri «mamlakatimizda minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibining amaliyotga joriy etilganligidir»<sup>133</sup>. Pensiya oluvchi fuqarolarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, birinchi navbatda, Pensiya

<sup>132</sup> Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>133</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 avgustdagi 544-son «Minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi Qarori.



jamg'armasining moliyaviy holatiga, uning daromadlari barqarorligiga bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda Pensiya fondining daromadlari, asosan, ijtimoiy soliqlardan tushumlar hamda Davlat budjetidan transfertlar hisobiga shakllantirilmoqda.

Ijtimoiy soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan belgilangan bo'lib, «budjet tashkilotlari uchun 25 foizni (budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida davlat ulushi 50 % va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar; qaysi yuridik shaxs ustav fondining 50 foizi va undan ko'proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalar) va boshqa soliq to'lovchilar uchun 12 foizni tashkil qiladi»<sup>134</sup>. Shuningdek, «SOS – O'zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari uchun 7 foizni va ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar hamda korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar uchun 4,7 foiz miqdorida belgilangan»<sup>135</sup>.

Pensiyalarni hisoblab chiqarish tartibini yanada soddalashtirish maqsadida jismoniy shaxslarning ayrim toifasi uchun ijtimoiy soliq stavkalari unifikatsiya qilindi. Jumladan, yiliga kamida bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari (270000 so'm) miqdorida quyidagilar tomonidan ijtimoiy soliq to'langanda ularning ish bilan band bo'lgan davri (mehnat staji) pensiya tayinlashda hisobga olinishi belgilangan:

– o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar, xususan, «maydoni 4 sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud 50 boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar hamda mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari ixtiyoriy tartibda»<sup>136</sup>;

– yakka tartibdagi tadbirkor va dehqon xo'jaligi boshlig'i hamda «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari (ular 25 yoshga to'lguniga qadar ishlagan davri) majburiy tartibda.

---

<sup>134</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 405-modda. <https://lex.uz/docs/4674902>.

<sup>135</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 405-modda. <https://lex.uz/docs/4674902>.

<sup>136</sup> <https://lex.uz/docs/5193212>.

2022 yil 1 yanvardan budget tashkilotlari bo'yicha ijtimoiy soliqlardan tushumlarning 99,2 foizi, boshqa to'lovchilar bo'yicha 98,4 foizi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy ahvolini yaxshilash (shu jumladan, defitsitini qoplash) maqsadida 2019 yildan boshlab, Davlat budgetidan transfertlar ajratilmoqda.

«2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish maqsadida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari»<sup>137</sup> belgilandi. Ushbu konsepsiya doirasida budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllantirilishi tarkibida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Natijada, 2019 yil 1 yanvardan<sup>138</sup>:

– mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytirildi: barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining (12%) 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirish belgilandi (01.01.2005-31.12.2017 yillarda ushbu stavka 1 foizni, 31.12.2018 yilgacha 2 foizni tashkil etgan);

– fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari bekor qilindi (2019 yilgacha fuqarolarning oylik daromadidan 8% gacha miqdorida sug'urta badali to'langan);


– pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida budget tashkilotlari va davlat korxonalarini, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilandi, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi;

---

<sup>137</sup> PF-4947-son 07.02.2017. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (lex.uz).

<sup>138</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-5468-son Farmoni.

– «oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to‘lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtirildi: davlat maqsadli jamg‘armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi»<sup>139</sup> (korxonalar tomonidan 3,2% miqdorda majburiy ajratmalar amalga oshirilgan, uning 1,5 foizi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan).



#### 4.6-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibining o‘zgarishi<sup>140</sup>

Shuningdek, 2019 yil 1 oktabrdan boshlab, Pensiya jamg‘armasi hisobiga to‘langan yagona soliq to‘lovi summasi mahalliy budjetlariga o‘tkazildi hamda «2020 yil 1 yanvardan davlat korxonalari, davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25

<sup>139</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5468-son Farmoni.

<sup>140</sup> Huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish asosida ishlab chiqilgan.

foizdan 12 foizga pasaytirildi»<sup>141</sup>. Natijada, Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarining 3 ta yo'nalishi bekor qilindi, ayrimlari qisqardi (4.6-rasmga qarang).

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining boshqa daromad manbalarini quyidagilar tashkil etadi: qonunchilikka muvofiq boquvchisini yo'qotgan taqdirda, shuningdek, «mehnatda jarohatlanganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarni to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi»<sup>142</sup>; muddatidan ilgari tayinlangan pensiyalarni (yoshga doir) to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari; «vaqtincha bo'sh mablag'larni tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirishdan olingan daromadning 80 foizi (qolgan 20 foizi Pensiya jamg'armasi xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladi)»<sup>143</sup>; «hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda ijtimoiy soliq va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalari»<sup>144</sup>; «yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar»<sup>145</sup>; Davlat budjetidan transfertlar.

2019-2021 yillar mobaynida pensionerlar soni hamda yangi tayinlangan pensiyalar soni 8 foizga o'sgan bo'lsa, 2022-2028 yillar davomida pensionerlar soni 31,5 foizga, yangi tayinlangan pensiyalar soni 27,7 foizga o'sishi prognoz qilingan (4.5-jadvalga qarang).

---

<sup>141</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5837-son Farmoni.

<sup>142</sup> <https://lex.uz/docs/492899>.

<sup>143</sup> <https://lex.uz/docs/492899>.

<sup>144</sup> <https://lex.uz/docs/492899>.

<sup>145</sup> <https://lex.uz/docs/5408686>.

## 4.5-jadval

### 2019-2021 yillarda pensionerlar soni va yangi tayinlangan pensiyalar soni hamda uning prognoz ko'rsatkichlarining o'zgarishi, ming nafar<sup>146</sup>

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 Yil	2027 yil	2028 yil
Pensionerlar soni	3162,1	3312,7	3424,6	3588,4	3756,9	3932,2	4115,3	4310,4	4510,9	4720,6
shundan: yangi tayinlangan pensiyalar soni	277,3	288,3	299,8	313,4	327,5	340,6	354,2	368,4	383,2	4003,5

Bugungi kunda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari ko'plab olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilmoqda. Jumladan, Marinella Cadoni, Roberta Melis, Alessandro Truddalarning tadqiqotlarida «rivojlangan davlatlarning demografik tuzilishi va mehnat bozori bilan bog'liq masalalar, pensiya fondlari yillar davomida katta sarmoyalar to'plashini anglatishi, ular institutsional investorlar sifatida fond bozorlarida muhim rol o'ynashi tadqiq etilgan»<sup>147</sup>. Yibing Chen, Xiaolei Sun, Jianping Lilar ham mazkur masalani tadqiq qilishgan, ularning fikriga ko'ra «rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlarining daromadlari, nafaqat, badallar va majburiy to'lovlar, subsidiyalardan, shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatidan ham shakllanadi»<sup>148</sup>. Hozirda taqsimlanuvchi tamoyil asosida tashkil etilgan ijtimoiy ta'minot tizimini kombinatsiyalash evaziga uning mablag'lari professional investitsion faoliyatda foydalaniladi, biroq bu tizim mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatdan kelib chiqib turlichadir. O'ziga mos investitsiya maqsadi va risk siyosatiga ega bo'lmagan pensiya fondlari, odatda, uni o'ta darajada riskli (xatarli) deb hisoblashadi. Shuning uchun ham

<sup>146</sup> Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>147</sup> Marinella Cadoni, Roberta Melis, Alessandro Trudda. Pension funds rules: Paradoxes in risk control. Finance Research Letters 22 (2017) 20–29. P.: 20 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612316301994>.

<sup>148</sup> Yibing Chen, Xiaolei Sun, Jianping Li. Pension Fund Asset Allocation: A Mean-Variance Model with CVaR Constraints. Procedia Computer Science Volume 108, 2017, Pages 1302-1307. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187705091730697X>.

investitsion qaytim investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar kabi kam bo'ladi, bu esa aktivlarni joylashtirish jarayonini osonlashtiradi.

### **Xulosa**

Pensiyalarga xos bo'lgan muhim xarakterli belgilar va xususiyatlar uning mazmun-mohiyatini ifodalashda o'ta prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, muayyan mehnat stajiga ega bo'lish, muayyan holatlarda taqdim etilishi, fuqarolarga moddiy ahvolidan qat'iy nazar tayinlanishi, pensiya miqdori esa fuqaroning mehnat staji va ish haqi miqdoriga bog'liqligi, maxsus jamg'armadan to'lanishi, yo'qotilgan daromad (ish haqi) kompensatsiyasi sifatida oyma-oy to'lab borilishi shular jumlasidandir. Ana shu xarakterli belgilarning barchasi bir vaqtning o'zida namoyon bo'lganda ular pensiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Aks holda, ya'ni muhim xarakterli belgilarning bir qismi namoyon bo'lganda, pensiyalar nazariy va amaliy jihatdan o'zini to'la namoyon eta olmaydi.

Jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimi nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi: o'rnatilgan to'lovlar va o'rnatilgan badallar tizimi. O'rnatilgan to'lov tizimida pensiya ta'minoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda to'lov miqdori aktuar hisoblar yordamida oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish haqlari va oldingi staji asosida hisoblanadi. O'rnatilgan badal tizimida pensiya to'lovining miqdori oldingi to'langan badallarning hajmiga bog'liq bo'ladi, bunda pensiya fondining mablag'laridan investitsion faoliyat yordamida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida hisob-raqamga ega bo'ladi va unda badallar jamg'arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to'lovlarini olishda riskning mavjudligidir;

Pensiya sug'urtasi mexanizmlarini amaliyotda qo'llash – yollanma ishchilarni ijtimoiy himoyalashning eng samarador chorasi, ish beruvchilar va ishchilar uchun qulay va imkon darajada qilingan moddiy imkoniyatidir. Pensiya sug'urtasi, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy sug'urta turlarining kiritilishi moddiy yetishmovchiliklarga sabab bo'ladigan risklarning salbiy ta'sirlarini sezilarli ravishda

pasaytirdi, kelgusida ularning salbiy ta'sirlarini eng past darajagacha tushirish hamda zararlarni qoplash chora-tadbirlarini ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

2010-2021 yillar davomida iqtisodiyotda bandlar soni 17 foizga o'sgan bir paytda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 24,2 foizga oshgan. Xuddi shu davrda 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish darajasi 80,4 foizga teng bo'lgan. Demak, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar sonining o'sish sur'ati pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan, bir vaqtning o'zida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'ati iqtisodiyotda bandlar sonining o'sish sur'atidan yuqoridir. Bu esa fuqarolar peniya ta'minoti tizimini isloh qilish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan zarur choralar ko'rilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy ta'minotning minimal xalqaro me'yorlariga ko'ra, pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Ammo, mamlakatimizda 2010 yildan to 2021 yilgacha bo'lgan davrlarning birortasida ham ushbu koeffitsiyent 40 foizlik darajani qayd etmagan. Buning asosiy sabablaridan biri pensionerlar tarkibida ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya oluvchilar sonining yuqoriligidir (2010 yilda 2,7 %dan 2021 yilga kelib 29,2 foizga yetgan). Bunday o'sishni, asosan, ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lanmaslik hamda korxonalar tomonidan ish staji va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv idoralariga topshirilmaganligi bilan izohlash mumkin. Bunday holat mamlakatda o'rtacha pensiya miqdorining kamayishiga va kam miqdorda pensiya oluvchilar sonining ko'payishiga ham olib kelgan. 2021 yil 1 iyuldan mamlakatimizda minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibining amaliyotga joriy etilishi va jahon amaliyotida ushbu ko'rsatkichdan kambag'allik chegarasi sifatida foydalanilishidan kelib chiqib, belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdorini va undan kam pensiya oluvchi shaxslarning pensiyalarini minimal iste'mol xarajatlariga muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

## Nazorat savollari

1. Keksa yoshdagilar hayotidagi asosiy ijtimoiy xavflar qanday?
2. Davlatning pensiya ta'minoti borasidagi siyosatni amalga oshirish bosqichlari, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Ijtimoiy sug'urta stavkalari va ularni belgilovchi omillar.
4. Qanday pensiya institutlari bor (rivojlangan mamlakatlar misolida)?
5. Ijtimoiy pensiya sug'urtasi tizimining moliyaviy jixatlari nimalardan iborat?
6. Pensiya sug'urtasining turlari: davlat pensiya sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi va ular o'rtasidagi nisbat.

## Test savollari

1. O'zbekiston hududida pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va taraqqiyotini necha bosqichga ajratish mumkin?
  - A) oltita
  - B) uchta
  - S) ikkitaga
2. Qachon «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi qarori qabul qilingan?»
  - A) 2004 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 2005 yilning 1 yanvaridan amalga oshirilgan.
  - B) 2002 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 2003 yilning 1 yanvaridan amalga oshirilgan.
  - S) 2004 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 2004 yilning 1 yanvaridan amalga oshirilgan.
3. «2019 yil 1 yanvardan. «Pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori eng kam oylik ish haqining necha barobariga oshirildi?»
  - A) sakkiz barobaridan o'n barobarigacha
  - B) olti barobaridan sakkiz barobarigacha
  - S) sakkiz barobaridan o'n ikki barobarigacha
4. Hozirda milliy pensiya ta'minoti tizimi qanday pensiya ta'minoti tizimidan iborat?
  - A) taqsimlanuvchi hamda jamg'arib boriladigan
  - B) taqsimlanuvchi hamda xususiy pensiya



S) jamg'arib boriladiga

5. 2010-2021 yillar davomida iqtisodiyotda bandlar soni necha foizga oshgan?

A) 17 foizga

B) 15 foiz

S) 10 foizga

### **Mustaqil ish mavzulari**

1.O'zbekistonda Davlat pensiya ta'minotining huquqiy asoslari.

2.Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotining zarurligi va ahamiyati

3.Pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi

4.Pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati.

5.Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash.

6.Davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalarning turlari

7.Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari

8.Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslari barqarorligini ta'minlovchi omillar.

## V BOB. TIBBIY SUG‘URTA

### 5.1-§. Jahonda tibbiy sug‘urtaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida aholining betob qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi uzoq tarixga ega. Qadimiy Yunoniston va Rim imperiyasi davrida aholiga ijtimoiy yordam beradigan jamiyatlar mavjud bo‘lib, ular aholidan badallar evaziga, mehnat qobilyatini yo‘qotgan shaxslarga mablag‘ ajratar edilar. «O‘rta asrlarda kasallik yoki nogironlik holati yuz berganda aholining ijtimoiy himoyalash bilan ustaxona va xunarmandchilik uyushmalari va cherkovlar shug‘ullangan»<sup>149</sup>.

Kasalxonalarda tibbiy yordam ko‘rsatishning birinchi uyushgan shakllari O‘rta asrlar davrida paydo bo‘la boshladi. VII asrda kasalxonalar barpo etish Vizantiyada, XII asrda esa ko‘pgina arab mamlakatlarida keng tarqala boshladi. Ularning vazifalari bemorlarni davolash, ruhiy xasta va yolg‘iz keksalarni parvarishlash, jumladan, yuqumli kasalliklar (moxov) bilan kasallanganlarni izolyasiya qilishdan iborat edi. Infeksiyaga qarshi kurashish uchun Yevropada XII-XIII asrlarda, infeksiyaga chalingan bemorlarni izolyasiya qilish maqsadida kasalxonalar tashkil etilgan. Jumladan, Fransiyada XVI asrda 1000dan ortiq kasalxonalar va moxov koloniyalari mavjud edi.

Xozirgi kundagi G‘arbiy Yevropadagi faoliyat yuritayotgan aksariyat kasalxonalar kelib chiqishi o‘rta asrlarda aholining asosiy qismini tashkil etuvchi aholini ijtimoiy jihatdan kam ta‘minlangan qatlami uchun tashkil etilgan xayriya muassasalariga borib taqaladi, aholining boy qatlami esa ko‘pincha uy sharoitida yoki kichik xususiy kasalxonalarda davolanishgan.

Kasalxonalarni tashkil etish va moliyalashtirish xristian dinidagi rahmdillik g‘oyalariga bog‘langan holda bo‘lib, aksariyat kasalxonalar cherkovlar tasarrufida barpo etilgan va ularga avliyo homiylar nomlari qo‘yilgan. Shunday qilib, 1123 yilda Londonda Avliyo Varfolomey

---

<sup>149</sup> Ройк В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 320.

kasalxonasi, 1231 yilda Parijda Otel-De kasalxonasi, 1288 yilda esa Florensiyada Santa-Mariya-Nuova kasalxonasi tashkil etilgan.<sup>150</sup>

XVII asrda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishi va yirik shaharlar paydo bo'lishi natijasida kasalxonalarni tashkil etish rivojlana boshlandi va ularni moliyalashtirish xususiy xayriyalar hisobidan amalga oshirildi.

Infeksion kasalliklarning ko'payishi, jumladan shaharlarda keng tarqalishi, harbiy xizmatchilarga tibbiy yordamni tashkil etilishi zaruriyati G'arbiy Yevropa mamlakatlari hukumatlarining sog'liqni saqlash sohasiga e'tibor qaratilishiga turtki bo'ldi. XIX asr oxirida davlat kasalxonalarni tashkil etish va moliyalashtirishda ishtirok etib infeksiyalar kasalliklarga qarshi bo'lgan kurashda davlat aholiga tibbiy yordam ko'rsatishi orqali faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu davrda aholiga tibbiy yordamning ixtisoslatirilgan jumladan, jarrohlik amaliyotining turlari paydo bo'la boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida infeksiyalar kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar Robert Kox va Lui Pasterlarning kashfiyotlaridan so'ng aniqlandi, infeksiyalar kasalliklarning kamayish holatlari kuzatildi. XIX asrning 50-60 yillarida fransuz mikrobiologi Lui Paster tomonidan ishlab chiqarilgan «Mikrob nazariyasi» bilan amalmiyotda foydalanila boshlandi, va infeksiyalar kasalliklarning epidemiologiyasi bilan kurashish choralarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash imkoniyatlarini berdi. Yuqorida qayd etilganidek, XIX asrning 70-80 yillarida nemis mikrobiologi Robert Kox sibir yazvasi batsillasi, vabo vibrioni va sil bakteriyasini kashf etdi, 1894 yilda esa fransuz olimi Aleksandr Yersen bubonli vabo, 1898 yilda hind olimi Ronald Ross bezgak etiologiyasi va uning tarqalishida chivinlarning tutgan o'rnini aniqladi.

Birinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarda tibbiyot sohasini rivojlantirishga, kasallanish tavakkalchiliklarini baholash yordamida sanitar muassasalar va infratuzilmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratildi va bu esa o'n minglab sil kasalligiga chalinganlar uchun mo'ljallangan yirik sanatoriylar barpo etilishi asnosida difteriya,

---

<sup>150</sup> Реформа больниц в новой Европе./ Фигерас Ж., Макки М., Моссиалос Э., Солтман Р.Б. Серия изданий Европейское обсерватории по системам здравоохранения. – М.: «Вес Мир», 2003. – С. 15-17.

tif isitmasi kasalliklarining kamayishiga va vaboni yo‘q bo‘lishiga olib keldi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash milliy tizimi rivojlanishining ikkinchi davrida aholining turmush darajasi oshib borgan sari yurak-qon tomir va saraton kasalliklari bilan kurashishga jiddiy e‘tibor berila boshlandi. XX asrda tibbiy yordamning ixtisoslashtirilishi jarayoni rivojlanishi bir tendensiyasiga aylandi. Ushbu holat tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida kasalxonaning mavqeini kuchayishi, tibbiy mutaxassislari sonini ortishiga olib keldi (5.1-jadvalga qarang).

### 5.1-jadval

#### G‘arbiy Yevropa kasalxonalarida tibbiy yordam rivojlanishining bosqichlari<sup>151</sup>

Kasalxonalar	Muddati	Kasalxonalar yaratish tushunchalari
<b>Davolash</b>	VII asr	Kasalliklar haqidagi Vizantiya, Yunon va Arab ta‘limotlari
<b>Parvarish, ruhiy parvarish va qo‘llab quvvatlash</b>	X-XVII asrlar	Insoniyat hayotidagi rahmdillik haqidagi xristian ta‘limotlari
<b>Yuqumli kasalliklarni izolyasiya qilish</b>	XI asr	Yuqumli kasallarni davolash
<b>Kambag‘allarni davolash</b>	XVII asr	Xayriya va davlat muassasalari
<b>Aholining keng qatlamiga tibbiy yordamlar ko‘rsatish</b>	XIX asr oxiri	Tibbiy yordam va jarrohlik; o‘lim sonining yuqoriligi
<b>Jarrohlik markazlari</b>	XX asr boshi	Kasalxonalarni yangi va yuqori texnologiyalar bilan ta‘minlash, aholi o‘rta qatlamining pullik tibbiy xizmatlarga ehtiyojlarini oshishi
<b>Markazida kasalxonalar mavjud turli sohalarga ixtisoslashgan sog‘liqni saqlashning milliy tizimi</b>	1950 yillar	Murakkab tibbiy texnologiyalarga ega katta shifoxonalar
<b>Umumiy profildagi hududiy kasalxona</b>	1970 yillar	Mahalliy, ikkilamchi va uchinchi kasalxonalarni umumlashtiruvchi umumiy profildagi hududiy kasalxonalarning paydo bo‘lishi
<b>O‘tkir holatlarni davolovchi shifoxonalar</b>	1990 yillar	Qisqa muddat ichida tez davolash
<b>Ambulator jarrohlik markazlari</b>	1990 yillar	Bemorlarni bir sutkagacha olib qolish, «oson» jarrohlikni keng qo‘llash

<sup>151</sup> Реформа больниц в новой Европе./ Фигерас Ж., Макки М., Моссиалос Э., Солтман Р.Б. Серия изданий Европейское обсерватории по системам здравоохранения. – М.: «Вес Мир», 2003. – С. 16.

Rivojlangan mamlakatlar aksariyatining sog'liqni saqlash milliy tizimida tibbiy sug'urta alohida o'rin egalladi. Tibbiy sug'urtaning shakllanishi XVIII asr oxirida keng vujudga kelayotgan va rivojlanayotgan fabrika ishchilarining o'zaro yordam jamg'armalarining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Ushbu jamg'armalardan ishchilarning to'lagan sug'urta badallari hisobidan ularning kasallikka duchor bo'lgan hollarida bir martalik yoki vaqti-vaqti bilan tibbiy xizmatlar uchun to'lov ajratilar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator Yevropa mamlakatlarida tadbirkorlar va ishchilarning kasaba uyushmalari tashabbusi bilan kasalxona jamg'armalari tashkil etila boshladi. Ushbu jamg'armalar ish beruvchi va yonlanma ishchilarning badal to'lovlari hisobidan tashkil etilgan, hamda ishchilar betob bo'lgan holatlarida quyidagi moddiy va tibbiy yordamlar ko'rsatishni ta'minlagan: kasallik davrida ishga layoqatsizligi tufayli yo'qotgan oyligini qisman qoplash uchun to'lovlar to'lash; tibbiy yordam va dorilar uchun to'lovlar; ishchi vafot etsa, bir martalik to'lov to'lash; farzand ko'rgan onaga bola uchun nafaqa berish. Germaniyada 1894 yilda kansler Bismark davrida ilk bor «Majburiy tibbiy sug'urta tizimi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. XX asrning birinchi yarmida aksariyat Yevropa mamlakatlarida tibbiy sug'urta to'g'risidagi qonunni qabul qilindi. «Ushbu tizim ish beruvchi va yonlanma ishchilar, davlat va fuqarolar o'rtasidagi tibbiy yordam ko'rsatish sohasida yangi iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlar shakllantirildi»<sup>152</sup>. Ushbu munosabatlar ijtimoiy sug'urtalashning birdamlik tamoyiliga ko'ra moliyalashtirishga asoslangan, jumladan, ish beruvchi va yonlanma ishchilar o'zlari tibbiy sug'urta badallarini to'laydilar, davlat tomonidan esa tibbiy sug'urta faoliyat ko'rsatish uchun moliyaviy va huquqiy asoslari shakllantirildi.

Kasallik xavfining oqibatlari uchun shaxsiy jamoaviy javobgarlikning ushbu turi aholining sog'liqni saqlash uchun katta moliyaviy resurslarni shakllantirish va ijtimoiy sug'urta tamoyillariga asoslangan milliy tibbiy sug'urta tuzilmalarini yaratishda shaxsiy va jamoaviy sa'y-harakatlarni birlashtirish muhimligini anglash imkonini berdi. Ushbu tizimlar sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi

---

<sup>152</sup> Роиқ В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры. – М.: «Проспект», 2016. – С. 320.

va aksariyat mamlakatlarda budget tomonidan qo‘shimcha to‘lovlar bilan to‘ldiriladi. Dastlab ijtimoiy sug‘urta joriy etilganida ushbu tizim ishchilar qamrab olingan edi, keyinchalik ishchilarning oilalari jalb etildi, bir qator mamlakatlarda esa jami aholi qamrab olindi.

Majburiy tibbiy sug‘urta davlat ijtimoiy sug‘urta tizimining komponenti hisoblanib, davlat dasturlari tomonidan belgilangan shartlar asosida barcha fuqarolarni tibbiy yordam va dori vositalari olish imkoniyati bilan ta‘minlaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida tashkil etilgan shaxsiy sug‘urta xarakteriga ega bo‘lib, qo‘shimcha tibbiy yordamlar imkonini beradi. Ushbu sug‘urta turi jamoaviy, (korporativ asosda) professional asosida tashkil etilib va individual ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Davlatning sog‘liqni saqlash tizimida jami aholi tibbiy yordam olish huquqiga ega bo‘ladi va ular soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Milliy miqyosda ilk bor davlat sog‘liqni saqlash tizimi Sovet Ittifoqida (XX asrlarning 30-yillarida), Buyuk Britaniya (1948 y), Irlandiya, Skandinaviya va Janubiy Yevropa davlatlarida tashkil etildi. Xususiy tibbiyot va ixtiyoriy tibbiy sug‘urtalash AQShda ustunlikka ega bo‘lgan. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tizimlari doirasida jismoniy shaxslar ma‘lum tibbiy xizmatlarga sug‘urta shartnomasi doirasida huquqlari evaziga sug‘urta kompaniyasiga sug‘urta badalini to‘laydilar. Shu sababli, shaxsiy tibbiy sug‘urta mukofot sifatida tibbiy xizmatlarning turli paketlarini taklif etadi, aksariyat xizmatlarning xajmi va tarkibi sug‘urtalanganlarning ayrim guruhlarida sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Xususiy sug‘urta har bir sug‘urtalangan shaxs uchun tavakkalchilikni baholash bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori xarajatlar bilan bog‘liq. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tizimlarida to‘langan sug‘urta badallari (mukofoti) miqdori qator xususiyatlarga ega:

– sug‘urtalangan shaxslarning yoshiga bog‘liq bo‘lib (shartnoma tuzilgan davri holatiga) – shartnoma qanchalik erta tuzilgan bo‘lsa, shuncha arzonroq bo‘ladi;

– sug‘urtalangan shaxslarning jinsiga bog‘liq bo‘lib, kasallik va ularning oqibatlari turlicha bo‘ladi;

– transportda, kundalik hayotda turli xil kasalliklar etiologiyasi jumladan avtohalokat natijasida olingan jarohatning murakkabligi va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar darajasi farqlanadi.

Shu nuqtai nazardan tibbiy yordam ko‘rsatish uchun xavfning oqibatlarini baholash va sug‘urta mexanizmini shakllantirish, nogironlik davrlarini va mehnatga layoqatsizliklarni hisobga olish nuqtai nazaridan muxim hisoblanadi.

Tibbiy sug‘urta bo‘yicha mukofotlar kelajakdagi badallarning qiymati va kelajakdagi xarajatlarning kutilayotgan tengligi asosida hisoblanadi. Sug‘urta shartnomasini tuzishda mukofot miqdori, taxmin qilinayotgan kasalliklarning yoshi, jinsi va xavflariga bog‘liq holda hisoblanadi. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaning xususiyati shundaki, unda tanlov erkinligi va badallarni to‘lash imkoniyati mavjud. Shuning uchun kasal bo‘lish xavfini hisobga olgan holda, naqd pul badallarini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslar xususiy sug‘urta kompaniyasi bilan sug‘urta shartnomasini tuzadilar.

Ushbu sug‘urta tizimi turli miqdordagi daromadlarga ega guruhlar o‘rtasida o‘zaro subsidiyalashni ta‘minlamaydi. Tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj boshqalarga nisbatan yuqori bo‘lganlar odatda pastroq daromadga ega bo‘lib, tavakkalchilik bilan bog‘liq sug‘urta badallarini to‘lay olmaydilar. Shuning uchun, ishlaydigan odamlar uchun tibbiy yordamni tashkil qilish masalalari haqiqatdan ham faqat majburiy tibbiy sug‘urta doirasida, sog‘liqni saqlash yordami bilan hal qilinishi mumkin.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tizimlari, o‘rtacha tibbiy xizmatlardan foydalanishni hohlovchi yuqori daromadli aholi qatlamlari uchun, shaxsiy ehtiyojlari va xohishlarini hisobga olgan holda milliy sog‘liqni saqlash tizimlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar to‘plamini to‘ldirishni istaganlar uchun tibbiy xizmatni tashkil qilishning maqbul usulidir.

XXI asr bo‘sag‘asida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shakllanayotgan turli tibbiy yordam muassasalaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqidagi jamoatchilik fikri asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlarda tibbiy sug‘urta asta-sekinlik bilan davlat tibbiyotiga aylandi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa aksincha,

so‘nggi 20 yil davomida davlat sog‘liqni saqlash tizimi bilan birgalikda majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug‘urta institutlari rivojlanib bormoqda.

Tibbiy sug‘urta tizimining xolati mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. «Jahon banki tomonidan sog‘liqni saqlash tizimi faoliyat ko‘rsatishining xususiyatlari va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonining tashkil etilishi mamlakatlarni daromadlari darajasiga qarab taxlil etilgan:»<sup>153</sup> rivojlangan mamlakatlar (aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlarning yuqoriligi); rivojlanayotgan mamlakatlar (aholi daromadlari darajasi o‘rtacha, o‘tish iqtisodiyoti); bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar (aholi yuqori daromadga ega emas).

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, quyi va o‘rta-quyi daromadlari mamlakatlarda aholining o‘limiga sabab bo‘layotgan kasalliklarni oldini olish, ularga qarshi kurashish dasturlari asosan xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy tashkilotlar, donor mamlakatlar tomonidan ajratilayotgan mavblag‘lar, aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan turli maqsadli xalqaro bitimlarga asoslangan ijtimoiy loyihalar asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu mamlakatlar guruhida aholi daromadlari ularning yetarli darajadagi turmush farovonliklarini ta‘minlash imkonini bera olmasligi sababli, aksariyat mamlakatlarda tibbiy sug‘urta xizmatlaridan foydalanish uchun aholining moddiy imkoniyatlari yetmaydi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan natijada aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham nisbatan cheklanadi.

O‘rta-yuqori daromadli mamlakatlar va yuqori daromadli mamlakatlarda aholining daromadlari nisbatan yuqori bo‘lganligi va ularning ijtimoiy sug‘urta xizmatlaridan keng foydalanishga o‘z intilishlarining mavjudligi ushbu mamlakatlar guruhida aholi tibbiy xizmatlardan o‘zlarining tibbiy sug‘urta polislari orqali foydalanish amaliyoti keng tarqalgan. Natijada aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifati takomillashgan holda, ulardan aholining foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda (5.2-jadvalga qarang).

---

<sup>153</sup> Шпак И.А. Тенденции развития рынка страховой медицины США. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: «Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации». 2019. – С. 18.



## 5.2-jadval

### Jahonda aholi o'limiga sabab bo'layotgan kasalliklar TOP-10 kasalliklar (mamlakatlar guruhi bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan)<sup>154</sup>

	Quyida daromadli mamlakatlar			O'rta-quyi daromadli mamlakatlar			O'rta-yuqori daromadli mamlakatlar			Yuqori daromadli mamlakatlar		
	2000 y.	2010 y.	2020 y.	2000 y.	2010 y.	2020 y.	2000 y.	2010 y.	2020 y.	2000 y.	2010 y.	2020 y.
Alsgeymer kasalligi va boshqa demanslar	-	-	-	-	-	-	20,0	30,3	34,1	58,3	60,0	62,7
Bezgak	50,1	43,5	38,8	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Buyrak yetishmovchiligi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	35,3	29,0	22,4
Diareya kasalligi	65,3	62,3	57,9	38,9	34,1	29,8	-	-	-	-	-	-
Jigar raki	-	-	-	-	-	-	30,1	25,5	21,9	-	-	-
Jigar sirrozi	-	-	-	40,0	34,5	27,2	-	-	-	-	-	-
Ishemik yurak kasalligi	58,3	55,2	53,8	130,1	124,6	118,7	154,0	148,5	142,1	155,1	148,2	144,3
Yo'g'on va to'g'ri ichak saratoni	-	-	-	-	-	-	-	-	-	40,6	33,8	29,0
Yo'l-transport jarohatlari	40,9	35,3	31,8	39,5	33,5	27,0	30,0	25,8	22,1	-	-	-
Ko'krak bezi saratoni	-	-	-	-	-	-	-	-	-	29,1	26,3	20,9
Qandli diabet	-	-	-	41,0	35,6	27,8	29,7	25,0	22,8	32,0	28,9	24,3
Qon tomir kasalliklari	57,8	48,9	43,7	75,3	68,5	60,9	120,2	115,3	109,9	68,2	65,4	63,0
Quyida nafas yo'llarining infeksiyalari	80,3	78,7	76,2	53,9	48,5	44,3	36,1	28,5	23,1	52,1	46,0	38,9
OIV/OITS	54,2	52,3	45,9	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Oshqozon raki	-	-	-	-	-	-	29,0	24,7	20,5	-	-	-
Sil kasalligi	50,3	42,0	35,1	40,8	35,6	30,2	-	-	-	-	-	-
Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi	-	-	-	49,9	45,6	41,2	60,7	53,9	47,3	59,1	53,2	47,3
Traxeya, bronx, o'pka saratoni	-	-	-	-	-	-	49,1	42,3	34,9	60,1	54,3	49,9

<sup>154</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'luotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2020. Geneva, World Health Organization. <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates/ghe-leading-causes-of-death>.

Tug‘ilish asfiksiyasi va tug‘ilish jarayonidagi jarohatlar	38,7	35,3	32,0	–	–	–	–	–	–	–	–	–
Erta tug‘ilish asoratlari	49,8	42,3	34,1	40,8	34,9	27,5	–	–	–	–	–	–


Ushbu tadqiqot ishida yuqorida qayd etilgan mezonlardan kelib chiqib, tibbiy sug‘urta bozorining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari va amal qilish mexanizmi aniqlandi (5.1-rasmga qarang). Taxlillar ko‘rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi majburiy (davlat yoki ijtimoiy) va ixtiyoriy (xususiy) tibbiy sug‘urta hisobiga rivojlanib, samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

5.1-rasm ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, taraqqiy etgan mamlakatlar tibbiy sug‘urta bozorining rivojlangan tizimiga ega bo‘lib, aholi daromadlari yuqori va davlat tomonidan samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi tufayli sog‘liqni saqlash tizimi va undagi tibbiy sug‘urta xizmatlari majburiy va tibbiy sug‘urta badallari hisobidan qoplanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tibbiy sug‘urta bozori sust rivojlangan bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va tibbiy xizmatlar, asosan, davlat budjeti va qisman tibbiy sug‘urta badallari evaziga amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatlar to‘lig‘icha davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Umuman, rivojlangan, rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarda tibbiy sug‘urta bozori holati (tibbiy xizmatlar narxi, sifati, qamrovi va h.k.) mazkur mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi ustun darajada davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu holat zarur tibbiy xizmatlarni olish va ularni yuqori sifatini kafolatlay olmaydi. Fikrimizcha sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish hamkorlikda (davlat va xususiy) bo‘lishi hamda ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urta mexanizmlaridan foydalanishga asoslanishi kerak. Tibbiy sug‘urta bo‘yicha jaxon tajribalarida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urta mexanizmlaridan samarali foydalaniladi.



**5.1-rasm. Rivojlangan, rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarda tibbiy sug'urta bozorining xususiyatlari va amal qilish mexanizmi<sup>155</sup>**

<sup>155</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijalari asosida shakllantirilgan.

## Nazorat savollari

1. Aholini ijtimoiy himoya tizimida tibbiy sugʻurtaning oʻrni baholang?

2. Sogʻliqni saqlash tizimini sugʻurta asosida moliyalashtirish modellari?

3. Xorij mamlakatlarda tibbiy sugʻurta fondi mablagʻlarining sarflanish yoʻnalishlari tarkibi aytib bering?

## Test savollari

1. Kasalxonalarda tibbiy yordam koʻrsatishning birinchi uyushgan shakllari nechanchi asrlarda paydo boʻla boshladi?

A) VII asrda Vizantiyada

B) X asrda Bobilda

S) XV asrda Germaniyada

2. Germaniyada 1894 yilda kim tomonidan «Majburiy tibbiy sugʻurta tizimi toʻgʻrisida»gi qonun qabul qilingan?

A) kansler O. Bismark

B) Lui Paster

S) Ronald Ross

3. Sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirishning zamonaviy usuli bu ?

A) Tibbiy sugʻurta

B) Dalat buyudjeti

S) Pullik xizmatlar

4. A.P. Arxipov tomonidan tibbiy sugʻurtalashga qanday taʼrif berilgan?

A) tibbiy sugʻurtani aholining manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli

B) tibbiy sugʻurta – bu sugʻurta faoliyatining alohida tashkiliy shakli

S) tibbiy sugʻurta – bu obʼekti tibbiy xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan harajatlar

5. Rivojlangan mamlakatlarda sogʻliqni saqlash tizimini qanday modellar asosida moliyalashtiriladi?

A) Majburiy va ixtiyoriy tibbiy sugʻurta

B) Davlat buyudjeti

S) Aholi daromadlari

## **Mustaqil ish mavzulari**

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va tibbiy sug'urta munosabatlari: o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro ta'sir nazariyasi va metodologiyasi.

2. Tibbiy sug'urtani rivojlanish evolyusiyasi.

3. Sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlar va ko'rsatkichlar nisbatining samaradorligi.

4. Majburiy tibbiy sug'urta tizimining qiyosiy tahlili.

5. Bismark modeliga mos ravishda tashkil etilgan tibbiy sug'urta modeli: ularning kuchli va zaif tomonlari.

### **5.2-§. Tibbiy sug'urtaning mohiyati va zaruriyati**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tibbiy sug'urtani tutgan o'rnini baholash, bozor munosabatlarini rivojlanish sharoitida tibbiy sug'urtani joriy etish va tibbiy xizmatlar bozorida xususiy sektorni barqaror sur'atlarda rivojlantirishning joriy tajribasini kompleks o'rganish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega muammo xisoblanadi.

Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qimlaridan biri hisoblanib, uning moliyaviy ta'minotida tibbiy sug'urta ajratmalari muhim o'rin egallaydi. Tibbiy sug'urta – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog'liqni saqlash sohasidagi jamiyat a'zolari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sug'urta badallarining jamg'arilishi hisobiga sug'urta hodisasi ro'y berganda tibbiy xizmatlar ko'rsatishni kafolatlanishini ifodalaydi. Tibbiy sug'urta tibbiyot tashkiloti sug'urtasi bilan shartnomasi bo'lgandagina shaxsga sug'urta hodisasi ro'y berganda ma'lum bir xajmdagi tibbiy xizmatlarni bepul taqdim etadi. Fuqarolar dastlabki sug'urta to'lov badalini amalga oshirgan vaqtdan boshlab, sug'urta hodisasi yuz berganda tibbiy xizmatlarni olish huquqiga ega bo'ladilar. Tibbiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi muxim o'ziga xos tayanch nuqtasi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda tibbiy sug'urtaning mohiyati to'g'risida yagona, umumiy qabul qilingan tarif mavjud emas. Fikrimizni isboti sifatida iqtisodiy adabiyotda keng tarqalgan quyidagi yondoshuvlarni keltirishimiz mumkin:

– «tibbiy sugʻurta – bu obʻekti tibbiy xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan harajatlardan, jumladan kasallik bilan bogʻliq harajatlardan iborat boʻlgan sugʻurtaning bir turi»<sup>156</sup>;

– «tibbiy sugʻurta – bu sugʻurta faoliyatining alohida tashkiliy shakli»<sup>157</sup>;

– «tibbiy sugʻurta – turli koʻrinishdagi sogʻliqni yoʻqotish jarayonida aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli»<sup>158</sup>;

– «tibbiy sugʻurta shartnomasi mamlakatimizda sogʻliqni saqlash sohasini bozor munosabatlariga muvofiq oʻz-oʻzini moliyalashtirish vositasi sifatida baholanadi. Ushbu shartnoma orqali aholining barcha qatlamlari haq toʻlash evaziga koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qoʻlga kiritadi va ushbu xolat sogʻliqni saqlash sohasining iqtisodiy rivojlanishiga sabab boʻladi. Tibbiy sugʻurta shartnomasining majburiy koʻrinishi aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishning shakli hisoblanadi»<sup>159</sup>;

– «tibbiy sugʻurta sogʻliqni saqlash sohasidagi aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishning shakli boʻlib, kasallik yoki baxtsiz hodisa yuz berganda, sogʻligʻi yoʻqolgan taqdirda sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta dasturiga kiritilgan tibbiy xizmatlar uchun qoʻshimcha xarajatlarini qoplaydigan sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish boʻyicha majburiyatlarni yuklaydigan sugʻurta turlari majmuasi hisoblanadi»<sup>160</sup>.

A.P.Arkipov tomonidan tibbiy sugʻurtalashga iqtisodiy mazmunini toʻliq yoritishga qaratilgan taʼrif berilgan. Uning fikricha, tibbiy sugʻurtalash sugʻurtalanuvchining sugʻurta badallari sugʻurta dasturiga kiritilgan yoki shartnomada koʻzda tutilgan tibbiy xizmatlar uchun tibbiy muassasada koʻrsatiladigan tibbiy, davolash-praktika yordami uchun qisman yoki toʻliq qoplanishi miqdorida toʻlash

<sup>156</sup> Аюшиев А.Д., Русакова О.И. Медицинское страхование: Учеб. пособие. – Иркутск: «Изд-во ИГЭА», 1997. – С. 40.

<sup>157</sup> Шихов А. К. Страхование право: Уч. пособие. 3-е изд. – М.: «ЗАО Юстицин-форм», 2004. – С. 304.

<sup>158</sup> Финансы/В.М. Родионова, Ю.Я. Вавилов, Л.М. Гончаренко и др.; под ред. В.М. Родионовой. – М.: «Финансы и статистика», 1993. – С. 187.

<sup>159</sup> Boltayev M.S. Tibbiy sugʻurta shartnomasini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari. Yuridik fan. nomz. ilm. dar. ol. uch. baj. diss. Avtoref. – T.: «OʻMU», 2011. 18-19-b.

<sup>160</sup> Шахов В., Ахвледиани Ю. Страхование. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2011. – С. 140.

majburiyatlarini nazarda tutadi<sup>161</sup>. Muallif tibbiy sug'urta va shartnoma munosabatlarining dasturiy xarakteriga e'tibor qaratgan holda tibbiy, dori-darmonlari yordamida yoki profilaktik yordam kabi tibbiy yordamning turlarini ko'rsatadi. Tibbiy xizmatlar xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya mexanizmining asosini belgilaydi. V.Shaxov va Yu.Axvledianidan farqli ravishda, A.Arhipov «tibbiy sug'urtani aholining manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli»<sup>162</sup> deb hisoblamaydi va kompensatsiya bo'yicha sug'urta to'lovchilarining barcha xarajatlarini hisobga olgan holda ular qo'shimcha ravishda o'zlarining qisman qamrab olinishi mumkinligiga havola qilinadi.

B.X.Aliyev va Yu.M.Maxdiyevlar «tibbiy sug'urtaning maqsadi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jamg'arilgan mablag'lar hisobidan tibbiy yordam olishlarini ta'minlash, jumladan, profilaktika choralarini qo'shimcha moliyalashtirish»<sup>163</sup> deb ta'kidlaganlar.

Yu.T.Axvlediani va V.V.Shaxovlar esa «tibbiy sug'urtani aholining ijtimoiy himoya qilish shaklli va aholini ijtimoiy himoya qilish tibbiy xarajatlarni qoplashda namoyon bo'ladi»<sup>164</sup>, deb ta'rif berganlar.

G.V.Chernovanning fikricha, «tibbiy sug'urtaning o'ziga xos xususiyati tibbiy yordam ko'inishdagi sug'urta himoyasini taqdim etishdan iborat». Tibbiy sug'urta (tibbiy xarajatlarni sug'urtalash) tibbiy yordam ko'rsatish shaklida davolash xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.<sup>165</sup> Ushbu ta'rif sug'urta ijtimoiy himoyaning shakli sifatida sug'urtalovchiga tibbiy yordam ko'rsatiladi va sug'urtachilar ushbu davolanish xarajatlarini qoplashlarni bildiradi.

L.A.Orlanyuk-Malitskaya tibbiy sug'urtalashni «sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'ini tiklash bilan bog'liq moddiy xarajatlarni qoplashni nazarda tutuvchi shaxsiy sug'urta turlari»<sup>166</sup> majmui deb ta'riflaydi. Ushbu yondoshuv yuqoridagilaridan tibbiy sug'urta turi ko'rsatilganligi va sug'urtalangan shaxslarga ko'rsatiladigan yordam va xizmat turlariga urg'u berilmaganligi bilan farq qiladi.

---

<sup>161</sup> Axvlediani Ю.Т., Шахов В.В. Страхование. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2012. – С. 318.

<sup>162</sup> Архипов А.П. Страхование. – М.: «КНОРУС», 2012. – С. 97.

<sup>163</sup> Алиев Б.Х., Махдиева Ю.М. Основы страхования. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2014. – С. 327.

<sup>164</sup> Axvlediani Ю.Т., Шахов В.В. Страхование. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2012. – С. 318.

<sup>165</sup> Страхование: экономика, организация, управление / под ред. Г.В. Черновой. – М.: «Экономика», 2010. Т. 2. – С. 64.

<sup>166</sup> Страхование / под ред. Л.А. Орланюк-Малицкой, С.Ю. Яновой. – М.: «Юрайт», 2011. – С. 422.

Rossiyalik iqtisodchilar A.B.Bloxin, L.I.Vasilsova, S.L.Leontevlar «sogʻliqni sugʻurtalashni fuqarolarning sogʻliqni saqlash sohasida manfaatlarini himoya qilish bilan bogʻliq sugʻurta faoliyatini tashkiliy shakli sifatida taʼriflaydilar»<sup>167</sup>. Ular tibbiy sugʻurtalanish natijasida sugʻurtalangan shaxsda kasallik yuz berganda moddiy qiyinchiliklar toʻgʻrisida ogohlantiradilar.

«Finansovo-kreditnyy ensiklopedicheskiy slovar»datibbiy sugʻurtaga «shaxsiy sugʻurtaning bir tarmogʻi sifatida korxonalar, mahalliy dasturlarning, aholining tibbiy xizmatlarini moliyalashtirishda foydalanadigan fuqarolarning hissasi bilan ishonchli fondlarni shakllantirishni nazarda tutishi takidlanadi»<sup>168</sup>. Avvalgi taʼriflardan farqli oʻlaroq, bunda tibbiy sugʻurtani sugʻurta turlarining majmui emas, balki shaxsiy sugʻurtaning koʻrinishi sifatida taʼriflangan. Muallif aholiga tibbiy xizmatlar koʻrsatish uchun ajratiladigan mablagʻlarni shakllantirishning maqsadga muvofiqligini taʼkidlagan holda mablagʻlarni shakllantirish manbalari koʻrsatib oʻtilgan.

Tibbiy sugʻurta majburiy sugʻurtalash turi sifatida davlat tomonidan sugʻurtalangan shaxsga majburiy tibbiy sugʻurtaning hududiy majburiy tibbiy sugʻurta dasturi doirasida bepul tibbiy yordamlar koʻrsatishda kafolat berishga qaratilgan davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar tizimi deb taʼriflanadi. Qonuniy majburiy tibbiy sugʻurta ijtimoiy, kafolatlangan, dasturiy va cheklangan xarakterga ega boʻladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan taʼriflarga aniqlik kiritilishi lozim. Jumladan, tibbiy sugʻurta aksariyat holatlarda ijtimoiy himoya shakli sifatida eʼtirof etilgan. Tadqiqotlar koʻrsatishicha, ijtimoiy himoya kategoriyasi keng maʼnodagi tushuncha boʻlib, ijtimoiy sugʻurta, ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy yordam kabi tushunchalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Tibbiy sugʻurta oʻziga xos xususiyatlarga ham ega. Tibbiy sugʻurta pullik tibbiy xizmatdan foydalanuvchiga, sugʻurta shartnomasida yoki sugʻurta tashkiloti bilan oʻzaro hamkorlik shartnomasiga ega boʻlgan tibbiyot muassasasiga toʻlanadi. Bunda sugʻurta puli sugʻurtalangan shaxsning kasallik

---

<sup>167</sup> Блохин А.Б., Васильцова Л.И., Леонтьев С.Л. Экономика здравоохранения. – Екатеринбург: «Изд-во Урал. гос. экон. ун-та», 2000. – С. 36.

<sup>168</sup> Финансово-кредитный энциклопедический словарь / кол. авт. под общ. ред. А.Г.Грязновой. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – С. 500.



holatini hisobga olib, sug'urta hodisasi ko'zda tutilgan hollarda to'lanadi. Kasallik yoki baxtsiz hodisa yuz berganda, sog'lig'i yo'qolgan taqdirda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta dasturiga kiritilgan tibbiy xizmatlar uchun qo'shimcha xarajatlarni qoplaydigan ijtimoiy sug'urtaning turiga tibbiy sug'urta deyiladi. Tibbiy sug'urta sog'liqni saqlash tashkilotlari va tibbiyot xodimlarining o'z faoliyatlarining yakuniy natijalari bo'yicha mas'uliyatini va iqtisodiy manfaatdorligini oshirishning muhim dastagi hamda tibbiyot tashkilotlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish omili hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ta'riflar asosida tibbiy sug'urtalashning ijtimoiy xarakterga egaligi, kompensatsiya mexanizmi, shartnoma munosabatlari, dasturiy asos, tabiiy shakl, mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish, maqsadli jamg'armalar, kafolatlar, muayyan komponent (tibbiy, dorivor, profilaktika va boshqa yordam), majburiy va ixtiyoriy shakllar kabi iqtisodiy tabiatini ifodalovchi belgilarini farqlash mumkin.

Davlat tibbiy sug'urta tizimi ilk bor Germaniyada kansler O.Bismark tomonidan joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim ishchilarni kasallanish, baxtsiz hodisalar, nogironlikdan sug'urta qilishni nazarda tutgan. Davlat tibbiy sug'urtasiga doir qonunlarning asosini «Salomatlik – ijtimoiy mehnat samaradorligini oshiruvchi kapital» tamoyili tashkil etgan. Xususan, Germaniyada ijtimoiy sug'urtaga daromadlarni taqsimlashning muhim mexanizmi sifatida yondashiladi. Davlat tibbiy yordamni moliyalashtirilish bo'yicha majburiyatini ijtimoiy sug'urtalash tizimini tashkil etish o'z zimmasiga olgan bo'lib, tibbiy sug'urta mamlakatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga moslashgan bo'ladi.

Tibbiy sug'urta tizimini tashkil etishning jahon tajribasi ko'rsatishicha sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning yetakchi manbasini davlat va sug'urta kompaniyalarining tibbiy sug'urta mablag'lari tashkil etadi (5.3-jadvalga qarang).

### 5.3-jadval

## Sog'liqni saqlash (tibbiy sug'urta) tizimini tashkil etishning jahon tajribasi<sup>169</sup>

Model turi	Ijtimoiy sug'urta	Davlat	Bozor
Mamlakat	Germaniya	Fransiya	AQSH
<b>Modelning tamoyili</b>	Sog'liqni saqlash – «inson kapitali» sifatini aniqlashning muhim omili. Tibbiy xizmat–sog'liqni saqlash uchun zarur bo'lgan xarajatlar	Tibbiy xizmat– ijtimoiy-maishiy farovonlik. MTS dasturlari tibbiy xarajatlarning bir qismini qoplashi zarur	Tibbiy xizmat–shaxsiy farovonlik, ya'ni sotilgan yoki sotib olingan oddiy tovar
<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	MTS–60%, its– 10%, davlat budjeti – 15%, shaxsiy mablag'lar – 15%	MTS – 50%, ixS– 20%, Davlat budjeti –10%, Shaxsiy mablag'lar– 20%	Xususiy sug'urta – 40%, shaxsiy mablag'lar – 20%, keksalar va kam ta'minlanganlarga mo'ljallangan dasturlar – 40%
<b>Xarajatlarning samaradorligi nazorati</b>	Nazorat xususiy va davlat sug'urtachilari tomonidan amalga oshiriladi	Nazoratni sug'urtalovchilar amalga oshiradi: xususiy sug'urta kompaniyalari va davlat ijtimoiy sug'urta tashkilotlari	Nazorat sug'urta kompaniyalari–xususiy sug'urtachilar tomonidan amalga oshiriladi.
<b>Tibbiy xizmatlar olish imkoniyatlari</b>	Aholining 90 % MTS dasturlari bilan, 10% ITS dasturlari bilan qamrab olingan. Bunda MTS qilinganlarning 3 foizi ITSga ega	Aholining 80 % MTS dasturlari bilan qamrab olingan	Bemorlarning to'lov qobiliyati cheklangan, keksalar va kam ta'minlanganlarga mo'ljallangan dasturlar barcha muhtojlar uchun amal qilmaydi
<b>Ko'rsatilgan tibbiy xizmat turlari</b>	MTS va its dasturlarining uyg'unlashganligi uchun xizmatlar ko'lamining kengligi	MTS va ITS dasturlarining uyg'unlashuvi hisobiga xizmatlar ko'lamining kengligi	Turli-tuman davolash va profilaktik tibbiy xizmatlar

<sup>169</sup> Система здравоохранения Республики Узбекистан: основные тенденции и перспективы развития. Аналитический доклад 2011/11. ПРООН. – Т., 2011. – С. 38 маълумотлари асосида шакллантирилган. Германиянинг шифохона ғазналари / Ахборотмаркази./ URL: <http://www.infozentr.de/ru/articles/content/149.>, (Finegold K. New census estimates show 3 million more americans had health insurance coverage in 2017: ASPE issue brief / Kenneth Finegold // Office of the assistant secretary for planning and evolution: website. 2017. November. URL:[http://aspe.hhs.gov/health/reports/2017/CPSIssueBrief/ib\\_cps.cfm](http://aspe.hhs.gov/health/reports/2017/CPSIssueBrief/ib_cps.cfm)).

<b>Yangi texnologiyalar dan foydalanish</b>	Turli tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi	Turli tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi	Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga qilingan investitsiyalarning aksariyat qismi sog'liqni saqlash sohasida amalga oshiriladi
<b>Tibbiy xizmatlar narxlarini tartibga solish</b>	Iqtisodiy vaziyat o'zgarishiga qarab, narxlar qayta ko'rib chiqiladi	Narxlar hukumat tomonidan yiliga 2 marta qayta ko'rib chiqiladi va tartibga solinadi	Narxlar bemor, sug'urtalovchi va sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida shakllanadi

Majburiy sug'urtaning rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lmasin, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning shakllanishiga to'sqinlik qila olmadi. Aksincha, ixtiyoriy tibbiy sug'urta so'nggi 20-30 yil ichida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida mustahkam o'rin oldi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta asosida sog'liqni saqlash tizimida sug'urta tamoyillarini qo'llash imkoniyati tug'ildi. Barcha mamlakatlarda jamlangan xorijiy tajribaning muxim xususiyati tibbiy sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy tizimlarini bir-birini to'ldirib turadigan modeli tashkil etadi va bu barcha kasalliklar va uning oqibatlarini qoplash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy adabiyotda sug'urtalashning muhim funksiyalari sifatida risk, jamg'arma, investitsiya, profilaktika va nazorat qilishga farqlanadi. Risk funksiyasi zarar ko'rgan sub'ektlar faoliyatini qayta tiklash uchun moliyaviy resurslarni shakllantirib, hayoti va sog'lig'i uchun zarur xarajatlarni qoplashdir. Ushbu vazifa sug'urtalovchiga xavfni va sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan shaxsga sug'urta to'lovlarini taqdim etish mexanizmida namoyon bo'ladi, va sug'urta hodisalarining sug'urtalanuvchini iqtisodiy farovonligiga ta'siri tufayli sodir bo'laligan o'zgarishlarni ifodalaydi. Jamg'arma vazifasi kapitallashuv mexanizmidan foydalangan holda aholini erishilgan turmush darajasini saqlash va yaxshilashni ta'minlaydi. Ushbu funksiya uzoq muddatli sug'urtalashning turlarida to'liq namoyon bo'ladi. Investitsiyalash vazifasi sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyotda vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni investitsiyalash imkonini beradi. Profilaktik vazifa sug'urtalashning

riskni kamaytirish choralari moliyalashtirishni ta'minlaydi va sug'urtalovchilarga ularning yuzaga kelish ehtimolligini kamaytirish, jumladan, yetkazilgan jiddiy zararining kamaytirish imkonini beradi. N.P.Saxirova fikricha, «sug'urta profilaktikasi vazifasi sug'urta munosabatlaridagi barcha ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatini ifodalaydi va zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini oladi»<sup>170</sup>. Shuning uchun, N.P.Saxirova sug'urta tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning muxim vazifasi sifatida sug'urta hodisalari yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirish, ularning salbiy ta'siri darajasi va yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar orqali xavf-xatarlarni oldini olish deb ta'rif beradi.

Sug'urta nazorati funksiyasi sug'urta jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'ladi. Sug'urta fondi mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish zararlarning o'z vaqtida, kafolatli qoplanishini ta'minlashga mo'ljallangan. Sug'urtalovchilarni sug'urtalash operatsiyalarini nazorat qilish mablag'larni to'plash va ulardan foydalanish bosqichida, vaqtincha bo'sh mablag'larni investitsiyalashda amalga oshiriladi.

Milliy daromadning qayta taqsimlash funksiyasi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat va mintaqaviy hokimiyat organlari (tibbiy, ijtimoiy va pensiya sug'urtasi) darajasida markazlashtirilgan sug'urta fondlarini shakllantirishda ifodalanadi. Milliy daromadlarni qayta taqsimlash funksiyasi davlat darajasida majburiy tibbiy sug'urta fondini shakllantirish va uning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni uning resurslaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Davlat budjetining mablag'larini tejash vazifasi – tabiiy ofatlar, yirik baxtsiz hodisalar sodir bo'lish ehtimolida mavjud bo'lgani tufayli budjetdan naqd pul ko'rinishidagi kompensatsiyalarni to'lashning moliyaviy yuklamasini sug'urta kompaniyalariga o'tkazishda namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishni rag'batlantirish funksiyasi ayrim turdagi sug'urta turlarini qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>170</sup> Сахирова Н. П. Страхование: учеб. пособие. – М.: «ТК Велби», Изд-во Проспект, 2006. – С. 26-27.

Davlat organlari orkali nazorat qilish funksiyasi sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish, mijozlarning faoliyati va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'yicha hisobotlar taqdim etiladi. T.A.Fedorova tibbiy sug'urtaning funksiyalari bilan bir qatorda, «sug'urta shartnomasini tuzayotganda sug'urtalash xavfiga e'tibor qaratishni, shaxsiy farovonlik uchun zarur bo'lgan shart sifatida qo'rquvni kamaytirishning muhimligini ta'kidlaydi»<sup>171</sup>.

Sug'urtalashning moliyaviy funksiyasi davlat budjeti mablag'laridan (tibbiy, ijtimoiy, pensiya ta'minoti) sug'urtalashni amalga oshirishda davlat daromadining manbai sifatida sug'urta vositasida foydalanish hisoblanadi. Tibbiy sug'urtaning tovon funksiyasi, sug'urtalangan shaxsga tibbiy muassasaga murojaat qilish orqali kelib tushgan xarajatlarni qaytarib berishga asoslanadi, tovon ularga fuqaroning shaxsiy mablag'laridan emas, balki sug'urta fondi hisobidan to'lanadi.

Sug'urtalashning ijtimoiy funksiyasi sug'urtalangan shaxsga sug'urta hodisasi yuz berganda shakllangan sug'urta mablag'lari hisobiga tibbiy va profilaktik yordamini moliyalash, sug'urtalangan shaxsning moddiy farovonlik darajasini saqlab qolish imkonini beradi.

Yuqorida kayd etilgan funksiyalar moliyaviy majburiyatlarni qayta taqsimlash asosida sog'liqni saqlash sug'urtasini shakllantirish uchun asoslar mavjud degan xulosa kelish imkonini beradi.

Iqtisodiy adabiyotda sug'urtalashning tamoyillarini aniqlash, tahlil etish va ularning muhimlarini tibbiy sug'urtalash amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiq. Jahon amaliyotida zararni tenglashtirish, kompensatsiya oldini olish sug'urta tamoyillarini farqlanadi.

Majburiy tibbiy sug'urta aholiga teng huquq asosida tibbiy yordam olishni kafolatlaydi va to'langan mukofotga bog'liq ravishda tibbiy yordamga hajmini oshirmaydi. Majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasiga shaxs to'lovlar bo'yicha qarzdor bo'lsa ham tibbiy yordamlar ko'rsatiladi. Bunday holda, ekvivalentlik tamoyili majburiy tibbiy sug'urta badallari bilan sug'urta qoplamasining muvofiqligi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyil tibbiy sug'urta sohasida moliyaviy innovatsiyalarni qo'llash uchun tibbiy yordamlar hajmini muvozanatlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

---

<sup>171</sup> Страхование / под ред. Т.А. Федоровой. – М.: «Экономистъ», 2009. – С. 38-39.

Tibbiy sug'urtalashning birdamlik tamoyili barcha sug'urta ishtirokchilari hisobidan tibbiy sug'urta polisi mavjud sug'urtalangan shaxsga ko'rsatiladigan tibbiy yordamlar uchun to'lovni tashkil etadi va tibbiy yordam uchun murojaat qilgan shaxs tomonidan to'lanadigan badal miqdoriga muvofiq amalga oshiriladi. Tibbiy sug'urtada ko'rsatiladigan tibbiy yordam uchun to'lov shakllangan sug'urta fondidan amalga oshiriladi, uning to'ldirilishi sug'urta qiluvchining majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydi.

Tibbiy sug'urtani qoplash tamoyili sug'urta mukofotini ixtiyoriy tibbiy sug'urta bilan to'ldirilgan dastur doirasida va sog'liqni saqlash sohasini majburiy sug'urtalash bo'yicha hududiy dastur doirasida moliyalashtirishni nazarda tutadi. Tibbiy yordam ko'rsatishning belgilangan miqdori tibbiy sug'urta sohasida optimal ko'rsatilishi mumkin bo'lgan moliyaviy yordamni bildiradi.

Tibbiy sug'urtaning funksiyalari va tamoyillari tibbiy sug'urtalash shakllari xususiyatlarini aniqlash va moliyaviy yangiliklarni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar bilan tanishish imkonini beradi.

Mamlakatimizda aholining davlat va xususiy mulkchilik shaklidagi tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy yordamlar olishning Konstitutsiyaviy huquqlari belgilangan. Budget mablag'lari hisobidan aholiga bepul ko'rsatiladigan tibbiy yordam moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish jarayonlarini davlat tomonidan boshqarilish amaliyotini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilinishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi bo'lib, aholini tibbiy xizmatlar bozoridagi xarajatlarini qisman yoki to'liq qoplab beradi.

Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida mamlakatda majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish imkoniyatlari va shartlari muhokama qilinmoqda. Majburiy tibbiy sug'urtaning joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi, sog'liqni saqlash sohasida va sug'urta bozorini isloh qilishga bag'ishlangan hukumat dasturlari ko'zda tutilmoqda. Tibbiy sug'urta ijtimoiy himoyaning aholi sog'lig'ini saqlashga qaratilgan shakli bo'lib, fuqarolarga sug'urta hodisasi ro'y berganda jamg'arilgan mablag'lar hisobidan tibbiy

yordam ko'rsatish va profilaktika tadbirlarini moliyalashtirishni kafolatlaydi.

Pullik tibbiy xizmatda ushbu sug'urta turi tibbiy xarajatlarini qoplash uchun vosita, bepul xizmatda esa tibbiy xarajatlarni moliyalashtiruvchi qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

Majburiy tibbiy sug'urtaning ommobopligi aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratilgan sharoitda davlat sug'urta dasturlarida belgilangan miqdorda tibbiy, dori va profilaktika yordamlarini olishni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Majburiy tibbiy sug'urtaning maqsadi sug'urta badallarini yig'ish va jamg'arilgan mablag'lar hisobidan aholini barcha qatlamlariga qonunchilikda belgilangan shartlarda va kafolatlangan miqdorlarda tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Majburiy tibbiy sug'urtani moliyalashtirish davlat budjeti mablag'lari va sug'urtalanuvchilarning majburiy maqsadli to'lovlari hisobidan amalga oshirish ko'zda tutilmokda. Jamlangan mablag'lar shu maqsadda tuzilgan budjetdan tashqari maxsus maqsadli jamg'arma tomonidan boshqariladi. Majburiy tibbiy sug'urta doirasida bevosita sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan sug'urtalash bo'yicha litsenziyaga ega hamda majburiy tibbiy sug'urtaning hududiy fondlari bilan shartnoma imzolagan tibbiy sug'urta tashkilotlari shug'ullanadi. Ular fuqarolarga hududiy fond mablag'lari hisobidan tibbiy xizmatlar ko'rsatadi va ushbu yordamning hajmi va maqsadli ishlatilishini nazorat qiladi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta majburiy sug'urta singari fuqarolarga sug'urtaviy moliyalashtirish yo'li bilan tibbiy yordam olishni kafolatlaydi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta majburiy sug'urtaning to'ldiruvchisi hisoblanadi va fuqarolarga majburiy tibbiy sug'urta dasturlarida belgilangan xizmatlardan boshqa tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi.

Sug'urtalangan shaxs ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan xizmat turlaridan sug'urta mukofoti to'langan miqdorlarda foydalanadi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlarida ishtirok etish davlat tomonidan qat'iy belgilanmaydi va u alohida shaxslarning kasbiy jamoasining talablarini amalga oshiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, ixtiyoriy tibbiy sug'urta fuqarolarga kasallik yoki

baxtsiz xodisa natijasidagi xarajat va yo‘qotishlarning kompensatsiyasini namoyon qiladi. Tibbiy sug‘urta umumjahon standartlariga ko‘ra, kasallik tufayli yuzaga keladigan ikki risklarini qoplaydi:

– sog‘liqni tiklash, rehabilitatsiya va parvarishlash bo‘yicha tibbiy xizmatlar xarajatlari;

– nogironlik tufayli kasbiy faoliyatni amalga oshira olmaslik va undan keladigan daromadni yo‘qotish. Tibbiy xarajatlarni qoplashdan sug‘urtalovchini davolash va mehnatga qobiliyatini tiklash bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarni qoplaydi. Shunday qilib tibbiy xarajatlarni sug‘urtalash mijozning kutilmaganda kelib chiqadigan xarajatlaridan ziyon ko‘rganda uning moliyaviy holatini himoyalaydi.

Tibbiy sug‘urtalangan shaxs kasal bo‘lgan kunlarida daromadini yo‘qotganda sug‘urtalovchi tovon puli to‘laydi. Tovuq puli miqdori va to‘lov boshlanadigan sana shartnomada qayd etiladi va u sug‘urtalangan shaxsning oladigan daromadiga hamda kasallik natijasida yo‘qotgan daromadning ish beruvchi yoki majburiy tibbiy sug‘urtalanuvchi tomonidan qoplaydigan muddatga bog‘liq bo‘ladi, ushbu muddat mehnat qonunchiligida yoki ijtimoiy sug‘urtani amaldagi tizimida belgilangan bo‘ladi. Tibbiy sug‘urtaning maqsadi fuqarolarga sug‘urta hodisasi ro‘y berganda jamg‘arilgan mablag‘lar hisobidan tibbiy yordam berishni va profilaktika tadbirlarini moliyalashtirishni kafolatlashdan iborat.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati shundaki, u ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy sug‘urta doirasida beriladigan kafolatlarni yuqori imkoniyat darajasida zamonaviy shartlarda amalga oshiriladi. Bu birinchi o‘rinda yuqori narxlarda davolash va diagnostika turlarini o‘tkazishga, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni qo‘llashga qulay davolash sharoitlari bilan ta‘minlashga bog‘liq. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta shartnomasi boshqa sug‘urta shartnomalari kabi mijoz yoki sug‘urtalovchining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin. Sug‘urtalanuvchi sug‘urtalovchi zimmasiga olgan majburiyatlarini noto‘g‘ri bajarganda, jumladan, sug‘urta mukofoti miqdorini oshirgan holatda shartnomani bekor qilishi mumkin. Sug‘urtalovchi esa sug‘urta mukofotini belgilangan muddatda to‘lamaganda, sug‘urtalanuvchi arizada o‘z haqidagi to‘liq va to‘g‘ri



ma'lumotni keltirmaganda, tibbiy ko'rsatmaga roiya etilmaganda va tibbiy polis boshqa shaxs tomonidan foydalanilganda shartnoma bekor qilinishi mumkin. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomasini amal qilish shartnoma muddati tugaganda, tomonlar kelishuviga ko'ra, sug'urtalangan shaxs vafot etganda sud qarori bilan to'xtatiladi.

Xozirgi kunda COVID-19 pandemiya oqibatida katta bosim sog'liqni saqlash tizimlariga tushmoqda. Mamlakatlarda koronavirus bemorlarini davolash bo'yicha xarajatlar ham iqtisodiy o'sish suratlariga qarab farq qilmoqda. Ayrim mamlakatlarda davolanish uchun mablag'lar davlat tomonidan to'liq qoplanayotgan bo'lsa, ba'zilarida esa fuqarolar tibbiy sug'urtalari hisobidan, sug'urta bo'lmagan taqdirda o'z hisoblaridan tibbiy davolanish uchun haq to'lashlari kerak bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud bo'lib, majburiy tibbiy sug'urta rivojlangan mamlakatlarda aholiga tibbiy va dori-darmonli ko'rinishidagi xizmatlarni tenglik, mavjudlik va minimal me'yorlar asosida taqdim etishga qaratilgan. Tibbiy xizmatlar majburiy tibbiy sug'urta mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tibbiy sug'urta dasturlarida belgilangan miqdor va shartlarda ta'minlanadi. Majburiy tibbiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining muhim yo'nalishi bo'lib, sog'liqni saqlashni moliyalashtirishda budjet mablag'larini ajratish uchun qo'shimcha mablag'larni taqdim etishning moliyaviy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari**

1.Xorij mamlakatlarida tibbiy sug'urtasi tizimi tarkibi va uning mamlakat YAIM hajmidagi ulushi ko'rstakichlari.

2.Majburiy tibbiy sug'urta tizimining afzalliklari va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi roli.

3.Ixtiyoriy tibbiy sug'urta tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

### **Test savollari**

1.Germaniyada ijtimoiy sug'urta tizimi qaysi xizmatlarni moliyalashtirilishni o'z zimmasiga olgan?

A) Davlat tibbiy yordamni

B) Tibbiy xizmat

S) Pullik tibbiy xizmat

2. Germaniyada ijtimoiy sug'urta modelining asosiy tamoyili qaysi?

A) Sog'liqni saqlash – «inson kapitali» sifatini aniqlashning muhim omili. Tibbiy xizmat–sog'liqni saqlash uchun zarur bo'lgan xarajatlar

B) Tibbiy xizmat– ijtimoiy-maishiy farovonlik. Majburiy tibbiy sug'urta dasturlari tibbiy xarajatlarning bir qismini qoplashi zarur

S) Tibbiy xizmat–shaxsiy farovonlik, ya'ni sotilgan yoki sotib olingan oddiy tovar

3. AQSHda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbari qaysi?

A) Xususiy sug'urta – 40%, shaxsiy mablag'lar – 20%, keksalar va kam ta'minlanganlarga mo'ljallangan dasturlar – 40%

B) Majburiy tibbiy sug'urta – 50%, ixs– 20%, Davlat budjeti – 10%, Shaxsiy mablag'lar– 20%

S) Majburiy tibbiy sug'urta –60%, its– 10%, davlat budjeti – 15%, shaxsiy

mablag'lar – 15%

4. Fransiyada aholisining necha foizi majburiy tibbiy sug'urta dasturlari bilan qamrab olingan?

A) 80 foizi

B) 90 foizi

S) 70 foizi

5. Majburiy tibbiy sug'urtaning maqsadi bu

A) sug'urta badallarini yig'ish va jamg'arilgan mablag'lar hisobidan aholini barcha qatlamlariga qonunchilikda belgilangan shartlarda va kafolatlangan miqdorlarda tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

B) sug'urta badallarini yig'ish va jamlash

S) kafolatlangan miqdorlarda tibbiy yordam ko'rsatish

### **Mustaqil ish mavzulari:**

1. Beveridj modeliga mos ravishda tashkil etilgan tibbiy sug'urta modeli: ularning kuchli va zaif tomonlari.

2. O'zbekistonda Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining asosiy yo'nalishlari va vazifalari.

3.O‘zbekistonda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etish chora-tadbirlari.

4.Sog‘liqni saqlash tizimini sug‘urta asosida moliyalashtirish modellari

5.O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani rivojlantirish holati va muammolari.

### **5.3-§. Tibbiy sug‘urta rivojlanishining modellari**

Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilishda sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish modellarini ishlab chiqish va optimallashtirish sohasida katta tajribaga to‘plangan. Rivojlangan mamlakatlar aholini bepul tibbiy xizmatlar bilan qamrab olishni kengaytirish, moliyalashtirish manbalari, mablag‘larni taqsimlash usullari borasida, hamda sog‘liqni saqlash sohasini samaradorligini oshirish va harajatlarini kamaytirish maqsadida tibbiy sug‘urta tizimdan oqilona foydalanishga erishmoqdalar. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda aholiga sifatli keng ko‘lamli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy sug‘urta va maqsadli davlat dasturlarni amalga oshirish uchun alkogol va tamaki mahsulotlarining olinadigan aksiz soliqini hisobidan moliyalashtirish amaliyoti qo‘llanilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tamaki mahsulotlarining chakana narxidagi aksiz solig‘i ulushini kamida 75% tashkil qilishni tavsiya qiladi. Ushbu ko‘rsatkichga Yevropa mintaqasidagi 53 ta mamlakatdan 26 tasida erishilgan. Xorij mamlakatlaridan alkogol va tamaki mahsulotlariga soliqning kiritilishi sog‘liqni saqlash sohasini qo‘shimcha moliyalashtirishda manba sifatida ko‘llanilmoqda. Ushbu xolat, axolini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog‘liqni saqlash sohasini yaxshilashga, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklardan erta o‘limni kamaytirish sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda ko‘llab kelinmoqda.

Jahonda amal qilayotgan sog‘liqni saqlash modellari universal xarakterga ega emas, shu munosabat bilan modellarning kuchli va zaif tomonlari, xorij davlatlarini bu borada tajribalarini tahlili O‘zbekiston aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish va optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaxondagi sog‘liqni saqlash tizimining barcha modellarini uch turga bo‘lish mumkin<sup>172</sup>:

1. Budget modeli (davlat tizimi)
2. Sug‘urta modeli (ijtimoiy sug‘urta tizimi)
3. Xususiy model (nodavlat yoki bozor tizimi).

Beveridj modeli sifatida mashhur bo‘lgan birinchi modelning xarakterli tomoni ushbu modelda davlat yetakchi o‘rinni egallaydi. Moliyalashtirishning bosh manbai bo‘lib soliq tushumlari xizmat qiladi. Barcha aholi uchun tibbiy xizmatlar bepul ko‘rsatiladi. Odatda, YaIMdagi sog‘liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlarining ulushi 8-11 foizni tashkil etadi. Xususiy sug‘urta va qo‘shimcha to‘lovlar muhim rol o‘ynaydi.

Moliyalashtirishning bosh manbai – davlat budjeti hisoblanib, tibbiyot xodimlari xususiy boshqaruv kompaniyalari nazorati ostida budjet mablag‘larini oladi. Hukumat sog‘liqni saqlash xarajatlarining aksariyat qismini (70% dan ortiq) ta‘minlagan holda, bir vaqtning o‘zida tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi va tibbiy xizmatlardan foydalanuvchi rolini bajaradi. Sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Tibbiy xizmatlarning aksariyat davlat davolash-profilaktik muassasalari va xususiy shifokorlar tomonidan ko‘rsatiladi va xususiy tibbiy muassasalarga ikkilamchi o‘rin beriladi.

Davlat tibbiy xizmatlar va tibbiy uskunalar bozorini qat‘iy nazorat qiladi, tibbiyot xizmatlar bozoriga kirish tartib-qoidalarini belgilaydi, to‘lovlar ro‘yxatini tuzadi, tarif siyosati va narx belgilash yordamida esa ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar hajmini nazorat qilinadi. Tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini nazorat qilish jarayoni tibbiy muassasalarni akkreditatsiyalash va shifokorlarga litsenziya berish ko‘rinishida professional tibbiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday tizimda qo‘shimcha to‘lovlar darajasi muxim ahamiyatga ega emas.

Bismark modeli nomi bilan tanilgan ikkinchi model ko‘pincha tartibga solinadigan tibbiy sug‘urta tizimi sifatida belgilanadi. Ushbu model tibbiy xizmatlar bozorining davlat tomonidan tartibga solinishining rivojlangan tizimi ijtimoiy kafolatlar bilan birlashgan

---

<sup>172</sup> Омельяновский В.В. и др. Зарубежный опыт: модели финансирования и организации систем здравоохранения. Финансовый журнал / Financial journal №3 2014. – С. 23.

holda aralash iqtisodiyot tamoyillariga asoslanadi. Sug'urta fondlari davlat tomonidan moliyalashtirilganda majburiy tibbiy sug'urta dasturlari jami aholini qamrab oladi va tibbiy xizmatlar xarajatlarining 70 foizdan ortig'ini davlat qoplaydi, hamda davlat tomonidan sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar, budget modeliga nisbatan yuqoriroq bo'lib YAIM hajmining 9-13 foizini tashkil qiladi. Mablag'larni taqsimlashda xususiy notijorat, tijorat sug'urta fondlari va sug'urta kompaniyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda bozorning mavqei katta bo'lib, bemorlar sug'urta kompaniyalari va xizmat ko'rsatuvchilarni tanlashda erkinlikka.


Sug'urta bozori ishtirokchilari ko'pligi sababli ijtimoiy sug'urta modelidagi sog'liqni saqlash tizimini boshqarish shaklini markazlashtirilmagan deb nomlash mumkin. Ko'pgina tibbiy xizmatlar majburiy ro'yxat bo'yicha to'lanadi. Qo'shicha to'lov tizimidan faol foydalaniladi. Tibbiy xizmatlar turli mulkchilik shakllaridagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan holda, ular tarkibiga xususiy notijorat kompaniyalari ustunlik qiladi. Birlamchi tibbiy yordam xususiy xizmatlar ko'rsatuvchi sifatida faoliyat olib boruvchi oilaviy shifokorlar tomonidan taqdim etiladi. Tibbiy xizmatlar bozori rivojlangan, xususiy sug'urta yordamchi rol o'ynaydi. Tibbiy xizmatlar bozorini tartibga solishda hukumat salmoqli mavqega ega bo'lgan holda, budget tizimlariga nisbatan ahamiyatsiz. Davlat sug'urta fondlari faoliyatini tartibga soladi, sug'urta fondlari esa tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchilar assotsiatsiyasi bilan birgalikda ularning xajmi va sifatini aniqlaydi.

Sog'liqni saqlashning xususiy modeli xususiy sug'urta kompaniyalari va fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisobiga, pullik xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda bozor yetakchi o'rinni o'ynaydi. Davlat amalda bozor tomonidan qondirilmagan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi, ya'ni ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning (ishsizlar, kam ta'minlangan va nafaqa oluvchilar) tibbiy xizmatlar ko'rsatishga bo'dgan xarajatlarini qoplaydi.

Xususiy modelda moliyalashtirishning 50 foizdan ortig'i fuqorolarni shaxsiy xususiy mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Pul mablagʻlari xususiy sugʻurta fondlarida toʻplanadi va tibbiy davolash muassasalariga yoʻnaltiriladi. Tibbiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishi markazlashtirilmagan boʻlib, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda qoplanadigan tibbiy xizmatlar va texnologiyalar xususiy sugʻurta rejalari doirasida taqdim etiladi. Davlat cheklangan miqdordagi davlat dasturlari doirasida toʻlanadigan toʻlovlar roʻyxatini belgilaydi. Tibbiy xizmatlar va xususiy tibbiy sugʻurta bozori yetarli rol oʻynaydi va davlatning roli esa cheklangan boʻladi. Tibbiy xizmatlarning aksariyat qismi xususiy tibbiy davolash muassasalari va xususiy shifokorlar tomonidan koʻrsatiladi. Xususiy tibbiy sugʻurta kompaniyalari yordamida tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhiti shakllanadi. Sogʻlom raqobat muhiti sharoitida tibbiy xizmatlar sifati yaxshilanadi va xizmatlar aholining moddiy jihatdan taʼminlangan qatlamga moʻljallangan boʻladi. Taxlillar koʻrsatishicha YAIM tarkibida sogʻliqni saqlashga sarflanadigan xarajatlarning ulushi budjet va sugʻurta modellariga qaraganda yuqori boʻladi. Tibbiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini tartibga solishda davlatning roli budjet va ijtimoiy sugʻurta tizimlariga qaraganda salmoqli boʻlmaydi. Davlat tibbiy texnologiyalar bozoriga kiradi, sugʻurta kompaniyalari faoliyatlarini nazorat qiladi, va sogʻlom raqobat muhitini himoyalash bilan shugʻullanadi. Tibbiy xizmatlar sifatini taʼminlash masalalari tibbiy muassasalar va shifokorlar faoliyatini professional tibbiy tashkilotlar tomonidan litsenziyalash va akkreditatsiyalash orqali hal etiladi.

Quyidagi 5.2-rasmda rivojlangan mamlakatlarda sogʻliqni saqlash tizimini budjet, sugʻurta va xususiy modellari tasniflanishi keltirilgan.



**5.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlardagi sog'liqni saqlash tizimining tasnifi<sup>173</sup>**

Ijtimoiy himoya tizimi borasida – AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Kanada mamlakatlarning tajribalarini tahlil etamiz. Germaniya ijtimoiy sug'urtaning klassik modeli namunasi hisoblanib, uning moliyalashtirish manbalari quyidagicha taqsimlanadi: ijtimoiy tibbiy sug'urta – 60%, xususiy tibbiy sug'urta – 10%, davlat budjeti – 15% va fuqarolarning shaxsiy vositalari – 15%. Germaniya aholisining deyarli 90% ijtimoiy tibbiy sug'urta dasturlari va 10% esa xususiy tibbiy sug'urta dasturlari bilan qamrab olingan, holda ijtimoiy sug'urtalanganlarning 3% ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisiga ega.

«Germaniyada sog'liqni saqlash xarajatlarining mamlakat YAIM dagi ulishi 7,8-11,7 foizni tashkil etadi»<sup>174</sup>. Davlat budjeti manbalaridan sog'liqni saqlash xarajatlarining 75% qoplanadi. Sog'liqni saqlashning moliyaviy mablag'lari harakati quyidagi ko'rinishiga ega edi, dastlab ular ijtimoiy tibbiy sug'urtaning davlat fondida jamlanadi, so'ngra

<sup>173</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijalari asosida shakllantirilgan.


<sup>174</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013 (<http://www.bloomberg.com/visual-data/best-and-worst/most-efficient-health-care-countries>).

tibbiy davolash muassasalari xizmatlarini nazorat qiluvchi notijorat sug'urta tashkilotlarining hisoblariga tushadi. Shifoxonalar jamg'armalari deb nomlangan shifokorlar uyushmalari ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimining asosini tashkil etadi. Ular majburiy tibbiy sug'urtada qonuniy kafolatlangan xizmatlarni ko'rsatish va moliyalashtirishni boshqaradigan o'z-o'zini tartibga soluvchi tuzilmalarni yaratadi. Shifoxonalar jamg'armalari xususiy notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lib, kasallik bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urtalash bilan shug'ullanadi. Shifoxonalar jamg'armalari va tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchilarning vakillaridan tashkil topgan to'lovchilarning (shifokorlar, stomatologlar uyushmalari, shifoxonalar) birlashgan komissiyalari davlat miqyosida tibbiy xizmatlar uchun imtiyozlar, standartlar, tarif va narxlarni belgilaydi. Hududlar darajasida esa ushbu komissiyalar tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzadi, nazorat va ruxsat berish vazifalarini bajaradi.

Mamlakat qonunchiliga ko'ra yillik daromadi 50 ming yevrodan oshgan shaxslargina tibbiy sug'urtalash faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Aholining qolgan qismi esa majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urtalash bilan qamrab olingan bo'lishi kerak. 1996 yildan buyon shifoxonalar jamg'armalarini tanlash va shartnoma tuzilgandan 18 oy o'tgach, jamg'armani o'zgartirish imkoni mavjud. Germaniyada ma'lum aholining guruhlari uchun mo'ljallangan kasbiy jamg'armalar mavjud, va ushbu jamg'armalar turli qanday kasb egalari bilan shartnoma tuzishga majbur hisoblanadi.

Mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini boshqaruvini xaddan tashqari markazlashtirilmagani uchun federal hukumat bilan yer hukumatlari o'rtasida vakolatlarni bo'lib berilganligi bilan ajralib turadi. Federativ davlatda tibbiy xizmatlar bozori rivojlangan bo'lib, davlat tibbiy sug'urta tizimida yetakchi rolni o'ynaydi, xususiy sug'urta esa to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Tibbiy yordam ko'rsatish nodavlat notijorat tibbiyot muassasalari ustunlik qiladigan turli mulk shaklidagi tashkilotlar va xususiy shifokorlar tomonidan amalga oshiriladi. Kasalxonalarda tibbiy xizmatlarga haq to'lash budjet va klinik-statistik guruhlarning usullari, birlamchi yordam uchun esa tibbiy xizmatlar to'lovi usuli bilan to'lanadi.






**5.3-rasm. Germaniyada aholining o'limiga sabab bo'layotgan TOP-10 kasalliklar ro'yhati (100 000 aholiga nisbatan)<sup>175</sup>**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda tibbiy sug'urtaning amaliyotga keng tatbiq etilganligi sababli so'ngi 2000-2019 yillarda mamlakatda aholining turli og'ir kasalliklarga chalinish holatlari sezilarli darajada qisqardi. Jumladan, tahlil etilayotgan davrda aholining ishemik yurak kasalligi bilan og'rishi holatlari 1,6 martaga, qon tomir kasalliklariga chalinish holatlari 1,7 martaga kamaydi (5.3-rasmga qarang).

Xalqaro ekspertlar fikricha, mamlakat aholisining tibbiy sug'urta polislariga egaligi sababli aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi bilan bir qatorda, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati ham takomillashib bormoqda. Natijada «aholining og'ir kasalliklarga chalinishi, barvaqt o'lim holatlari yildan-yilga kamayib bormoqda»<sup>176</sup>.

<sup>175</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzilgan <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates/ghe-leading-causes-of-death>.

<sup>176</sup> Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2019. World Health Organization. <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates>.



#### 5.4-rasm. Germaniya tibbiy sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari (mln. yevroda)<sup>177</sup>

Germaniyada 2010-2014 yillarda aholining tibbiy sug'urta xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan intilishi sezilarli darajada ortdi. Natijada tahlil etilayotgan davrda sug'urta fondlarining daromadlari orta boshladi. Mamlakatdagi demografik qarish muammosining mavjudligi va yangi turdagi turli kasalliklarning tarqalishi sababli o'lim holatlari, aholining kasallanishi va turli orttirilgan nogironliklarning vujudga kelishi sababli 2010-2019 yillarda mamlakatda sug'urta fondlarining o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun sarflanadigan xarajatlari qismi ortib va 2017 yilda mamlakatda tibbiy sug'urta xizmatlarini moliyalashtirishning «Zinszusatzreserve (ZZZ)» usuli amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu usul yordamida sug'urta fondlari xarajatlarini qisqartirishga erishildi (5.4-rasmga qarang). Ushbu usul o'lim holatlari vujudga kelganda beriladigan turli nafaqa va to'lovlarni to'lash tartibiga o'zgartirish kiritishdan iborat bo'ldi.

Buyuk Britaniya budjet modelida sog'liqni saqlash xarajatlarning 85 foizi davlat budjeti tomonidan qoplanadi va 15 foizi xususiy tibbiy sug'urta hisobidan to'lanadi. Pul mablag'lari davlat budjetida jamlanadi, va davolash profilaktik muassasalarini moliyalashtirishni boshqaruvchi o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarga beriladi. Sog'liqni saqlashning markazlashgan boshqaruvi shakli amal qiladi.

<sup>177</sup> Germaniya Federal Moliyaviy xizmatlar agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan. [https://www.bafin.de/EN/PublikationenDaten/Datenbanken/Datenbanken\\_node\\_en.html](https://www.bafin.de/EN/PublikationenDaten/Datenbanken/Datenbanken_node_en.html).

«Umumiy davlat xarajatlari YaIMni 9,4% ni tashkil etib, shundan sogʻliqni saqlash sohasiga sarflangan xarajatlarining YAİM hajmida 7,7 foizni tashkil etadi»<sup>178</sup>. Aholi bepul tibbiy xizmatlar bilan qamrab olingan va tibbiy xizmatlar uchun qoʻshimcha toʻlovlar deyarli mavjud emas. Aholining mehnat qobiliyatiga ega qatlami uchun bir retsept uchun 7,85 funt sterling miqdoridagi doimiy toʻlovlar qoʻllaniladi.


Mamlakatda tibbiy xizmatlarning aksariyati qismi davolash profilaktik muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, birlamchi tibbiy yordam esa xususiy shifokorlar tomonidan koʻrsatiladi. Tibbiy xizmatlar bozori va xususiy sugʻurta qoʻshimcha rolni oʻynaydi. Aholiga ijtimoiy va tibbiy yordamni Buyuk Britaniya milliy sogʻliqni saqlash xizmati va mahalliy hukumatni oʻz ichiga oluvchi ijtimoiy va tibbiy xizmatlar koʻrsatadi. Angliyada sogʻliqni saqlash boʻyicha 10 ta strategik dasturlar mavjud va ular hududlarda milliy sogʻliqni saqlash xizmati faoliyatini qoʻllab quvvatlash, muvofiqlashtirish va boshqarishni taʼminlaydi. Ushbu, sogʻliqni saqlash boʻyicha strategik dasturlar mahalliy boshqaruv hokimiyat organlari, taʼlim, xayriya va jamoat fondlari bilan ishlaydi.

Tibbiy xizmatlarga haq toʻlash, bir kishiga hisoblangan statsionar davolanish xizmatlar va natija uchun birinchi yordam uchun toʻlovlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat shifokorlar va davolanish profilaktik muassasalarni akkreditatsiyalash, shifokorlar faoliyatini tartibga solish bilan shugʻullanadi. Tibbiy xizmatlar toʻlovlari darajalari va narxlari birlamchi tibbiy yordam koʻrsatish boʻyicha trast fondlar tomonidan boshqariladi. Xozirda Angliyada 152 ta birlamchi tibbiy yordamlar koʻrsatuvchi trast fondlar mavjud va ular milliy sogʻliqni saqlash xizmati budjetining 80 foizini nazorat qiladi. Shuningdek, Angliyada 167 ta shifoxonalar va 129 jamgʻarma trastlari mavjud boʻlib, ular Angliyadagi statsionar davolanishning katta qismini taʼminlaydi. «Birlashgan qirollikda Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada milliy sogʻliqni saqlash xizmatining mustaqil mahalliy tizimlari mavjud»<sup>179</sup>.

<sup>178</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013.

<sup>179</sup> Kullman D. PHIS Pharma Profile United Kingdom  
(<http://whocc.goeg.at/Literaturliste/Dokumente/>)



**5.5-rasm. Buyuk Britaniyada aholining o'limiga sabab bo'layotgan TOP-10 kasalliklar ro'yhati (100 000 aholiga nisbatan)<sup>180</sup>**

Xalqaro ekspertlarning fikricha, Buyuk Britaniya sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyotida tibbiy sug'urta xizmatlari bilan bir qatorda, trust fondlarning tashkil etilganligi aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning qamrov darajasini oshirish imkoniyatini bermoqda. Natijada 2000-2020 yillarda mamlakat aholisining turli og'ir kasalliklar bilan og'rishi va kasallik sababli o'lim holatlarini qisqartirishga erishildi. Jumladan, o'rganilayotgan davrda aholi o'limiga eng ko'p sabab bo'lgan ishemik yurak kasalligi holatlari qariyb 2,2 martaga, qon tomir kasalliklari – 1,9 marta, quyi nafas yo'llarining infeksiyanishi holatlari esa – 1,8 martaga kamaydi (5.5-rasmga qarang)

AQShda sog'liqni saqlashning xususiy modeli faoliyat ko'rsatadi, va jami aholini qamrab oluvchi milliy tizim mavjud emas. AQSH tibbiy yordam sohasidagi davlat kafolatlari faqat cheklangan fuqarolar doirasiga nisbatan qo'llaniladigan va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish qisman mavjud bo'lgan yagona rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Moliyalashtirishning yetakchi manbai bo'lib tibbiy xizmatlar xarajatlarning 50 foizdan ortig'ini xususiy sug'urta qoplaydi. Boshqa manbalarni keksa va kam taminlangan fuqarolar uchun dasturlar, hamda fuqarolarning shaxsiy pul mablag'larini o'z

CountryInformationReports/PHIS%20Pharma%20Profile%20UK%20Feb2011.pdf).

<sup>180</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzilgan <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates/ghe-leading-causes-of-death>

ichiga oladi. Davolanish profilaktik muassasalari va xususiy shifokorlarni moliyalashtirishning boshqaruvi xususiy tibbiy sug'urta kompaniyalarning qo'lida bo'lib qolmoqda. Davlat ijtimoiy himoyaga muxtoj fuqarolar uchun maxsus davlat dasturlari orqali resurslarni taqsimlashni boshqaradi. Milliy sog'liqni saqlash tizimini boshqaruvu markazlashmagan. «Umumiy davlat xarajatlarining YAIM hajmidagi ulushi 17,2 foizni tashkil etib, shundan sog'liqni saqlash xarajatlari ijtimoiy manbalardan YAIM hajmidagi ulushi 9,1 foizni tashkil etadi»<sup>181</sup>. Tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta'minlash bemorlarning to'lov qobiliyati bilan cheklangan. Keksalar va kambag'allar uchun mo'ljallangan ijtimoiy dasturlar ijtimoiy himoyaga muxtojlar qatlam uchun qo'llanilmaydi va zarur bo'lgan tibbiy xizmatlarni deyarli qoplamaydi. 50 millionga yaqin aholiga umuman hech qanday tibbiy xizmat ko'rsatilmaydi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vazirligi sog'liqni saqlash siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Vazirlikning tibbiy xizmatlar bozoridagi mavqei katta emas, vazirlikning vazifalari quyidagilardan iborat: tibbiy yordam tizimi va ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishini nazorat qilish, tibbiyot fanini qo'llab quvvatlash, sog'liqni saqlash sohasidagi, aholining farovonligi va ijtimoiy himoya sohasidagi holatini nazorat qilish va hukumatga ma'lumotlarni yetkazib turish. Vazirlik tarkibidagi sog'liqni saqlash xizmati va tibbiy yordamni moliyalashtirish boshqarmasi tibbiyot muammolarini bevosita xal qiladi. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan «Mediker» va «Medikeyd» tibbiy xizmatlar markazlari ish olib boradi. Ular nazorati ostida keksalar (65dan yuqori) va og'ir kasallikka chalingan fuqarolar uchun tibbiy sug'urta dasturlari faoliyat olib boradi. Tibbiy xizmatlar markazlari shtatlar huqumati bilan birgalikda kam ta'minlanganlar, hamda xususiy tibbiy sug'urta dasturlariga imkoni bo'lmagan kam daromadga ega bo'lgan oilalar farzandlari uchun tibbiy xizmatlar dasturlarining boshqaruvi bilan shug'ullanadi.

Tibbiy muassasalar xususiy notijorat (koyka fondidan 70%), xususiy tijorat (jami koykalarini 15%) va davlat (jami koykalarini 15%) modellariga bo'lingan holda xususiy tibbiy muassasalar yetakchi o'rin

---

<sup>181</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013.

egallaydi.<sup>182</sup> Davlat tibbiy muassasalari xususiy bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish huquqiga ega. 2009 yilda barcha shifoxonalarning 89% ga yaqini 200 va undan ortiq yotoqqa ega edilar. Shifoxonalar xizmati uchun to'lov bir necha to'lov usullari birikmasi yordamida amalga oshiriladi: tibbiy xizmat to'lovi, bir bemorning kasalxonada davolangan kuni, klinik statistik guruhlar to'lovi, shuningdek to'lovlar turi statsionar davolanishda bo'lgan bemorlarning soniga ham bog'liq. Birlamchi tibbiy yordam uchun to'lov kishi boshi uchun to'lov va xizmat uchun to'lov turlari hisobga olinib amalga oshiriladi. Kasalxona shtat birligida bo'lgan shifokorlar ish haqining oylik maoshi ko'rinishida to'lanadi, lekin aksariyat qismi xizmati uchun to'lov ko'rinishida mukofotlanadi. Oila shifokorlari xususiy tadibirkor unvoniga egadir.


Davlat o'z dasturlari doirasida tibbiy xizmatlar bozori xajmi va sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga soladi. Xususiy dasturlar doirasida tibbiy xizmatlar xajmi xususiy sug'urta kompaniyalari tomonidan tartibga solinadi. Sifat nazorati professional tibbiy birlashma va tashkilotlar boshqaruvida bo'lgan davolash profilaktik muassasalarni akkreditatsiyalash va shifokorlarga litsenziya taqdim etish yordamida amalga oshiriladi.

AQSH amaliyotida tibbiy sug'urta dasturlarining amal qilishi va aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning qamrov darajasini oshirish bilan bir qatorda ayrim turdagi inson hayoti uchun havfli bo'lgan kasallik holatlarini uchrashining oldini olish imkonini bermoqda. Xususan, «2000-2020 yillarda mamlakatda ishemik yurak kasalligi sababli vujudga kelayotgan o'lim holatlari 1,4 marta, aholining qon tomir kasalliklari 1,3 martaga, o'pka saratoni sababli hayotdan ko'z yumish holatlari 1,2 martaga kamaydi»<sup>183</sup>. Shu bilan bir qatorda quyi nafas yo'llarining infeksiyalanishi va ko'krak bezi saratoni kasalliklari sababli o'lim holatlarining vujudga kelishining to'liq oldi olindi (5.6-rasmga qarang).

---


<sup>182</sup> International Profiles of Health Care Systems / The Commonwealth Fund (<http://www.commonwealthfund.org/>).

<sup>183</sup> Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2020. World Health Organization. <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates>



**5.6-rasm. AQShda aholining o'limiga sabab bo'layotgan TOP-10 kasalliklar ro'yhati (100 000 aholiga nisbatan)<sup>184</sup>**

2006-2020 yillarda AQSH tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatish sohasi rivojlanish tendensiyalarida biroz salbiy tendensiyalar kuzatildi. Jumladan, tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi fondlarning jami aktivlari tahlil etilayotgan davrda YaIMga nisbatan 1,72 foizdan 1,08 foizga pasaydi.



**5.7-rasm. AQSH tibbiy sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari<sup>185</sup>**

<sup>184</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzilgan <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates/ghe-leading-causes-of-death>

Shu bilan bir qatorda tibbiy sug'urta fondlarining rentabelligi ko'rsatkichshi o'rganilayotgan davrda 5,9 foizdan 4,6 foizga pasaydi. xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilayotgan fikrlarga ko'ra, AQSH tibbiy xizmatlar bozoridagi ushbu holat so'nggi yillarda barqarorlashgan holda, keyingi davrda rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lish ehtimoli yuqori hisoblanadi (5.7-rasmga qarang).

Fransiyaning sog'liqni saqlash tizimi ijtimoiy sug'urta modelining yorqin misoli hisoblanadi. «Tizim 50% ijtimoiy tibbiy sug'urta vositalaridan, 20% xususiy tibbiy sug'urta vositalari, barcha tibbiy xarajatlarning 10% ni davlat budjetidan va 20%i esa fuqarolarning shaxsiy mablag'laridan qoplanadi»<sup>186</sup>. «Ijtimoiy tibbiy sug'urta bilan barcha aholining 95%i qamrab olingan. Umumiy davlat xarajlari YAIM hajmning 12,5 foizini tashkil etib, shundan sog'liqni saqlash sohasidagi davlat xarajatlari YAIM hajmining 9,7 foizini tashkil etadi»<sup>187</sup>.

Pul mablag'lari ijtimoiy tibbiy sug'urtaning davlat jamg'armalarida jamlanadi va so'ngra esa umumiy tibbiy sug'urtaning davolash profilaktik muassasalarni moliyalashtiruvchi xususiy notijorat jamg'armalariga yo'naltiriladi. Sog'liqni saqlash boshqaruvi markazlashmagan. Sog'liqni saqlashning hududiy bo'limlari davlat, xususiy davolash profilaktik muassasalardagi statsionar va ambulator tibbiy yordamni tashkillashtirish uchun javobgar hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar bozori rivojlangan bo'lib, xusuiy sug'urta to'ldiruvchi rolini o'ynaydi.

Fransiyada tibbiy xizmatlar tizimi xususiy bo'lsa-da, turli mulkchiik shakllaridagi muassasalar mavjud. Statsionar tibbiy xizmatlar uchun to'lov klinik statistik guruhlar va global budjet usullari yordamida amalga oshiriladi va bu aholiga tibbiy xizmtlar ko'rsatishning qamrov darajasini oshib bormoqda. Aholi sihat-salomatligiga yaxshilash, tibbiy xizmatlar ko'lamini shakllantirish va aholi umr davomiyligini oshirishga imkonin bermoqda. Xususan, «2000-2019 yillarda mamlakatda ishemik yurak kasalligi sababli vujudga kelayotgan o'lim holatlari 1,3 marta, aholining qon tomir

---

<sup>185</sup> AQSH sug'urta komissiyasi milliy assotsiatsiyasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [https://www.naic.org/insdata\\_home.htm](https://www.naic.org/insdata_home.htm).

<sup>186</sup> [https://www.nifi.ru/images/FILES/Journal/Archive/2014/3/03\\_3\\_2014.pdf](https://www.nifi.ru/images/FILES/Journal/Archive/2014/3/03_3_2014.pdf).

<sup>187</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013.



kasalliklari 1,2 martaga, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi sababli hayotdan ko'z yumish holatlari 1,7 martaga kamaydi»<sup>188</sup>. Shu bilan bir qatorda kasalliklari sababli o'lim holatlarining vujudga kelishining to'liq oldi olindi.

Kanadaning sog'liqni saqlash tizimi 1984 yilda sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunda belgilangan quyidagi tamoyillarga asoslanadi: davlat boshqaruvi, universallik, mobillik va qulaylik. Kanadaning sog'liqni saqlash tizimini ijtimoiy tibbiy sug'urta deb tasniflangan holda ustun darajada davlat modeliga o'xshash. Ushbu sog'liqni saqlash tizimi – Buyuk Britaniya (sog'liqni saqlashning davlat modeli) va AQShning (sog'liqni saqlashning bozor modeli) sog'liqni saqlash siyosatining ta'siri shakllangan. Tibbiy xizmatlardan foydalanish aholining 98-99% ni qamrab olgan «Mediker» davlat tibbiy sug'urta tizimi tomonidan ta'minlanadi. Kanadada sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning yetakchi manbai tibbiy xarajatlarning 90% ni qoplovchi federal jamg'arma va qishloqlarning sug'urta jamg'armalari hisoblanadi. Qolgan 10 foizini esa xususiy sug'urta va ixtiyoriy xayriyalar tomonidan qoplanadi. «Umumiy davlat xarajatlari YAIM hajmidagi ulushi 10,8 foizni, shundan sog'liqni saqlash xarajatlari YAIM hajmining 7,6 foizini tashkil etadi»<sup>189</sup>. Davlat budjetidan mablag'lar federal jamg'arma va viloyatlarning sug'urta jamg'armalariga yo'naltiriladi, so'ngra esa davolanish profilaktik muassasalari va xususiy shifokorlar manzillariga yo'naltiriladi. Sog'liqni saqlash boshqaruvi shakli markazlashmagan. Odatda, shifoxonalarni moliyalashtirish budjet usuli yordamida, ya'ni avvaldan kelishib olingan tibbiy xizmatlar xajmi uchun viloyat sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin bir qator hududlar amaldagi ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarga ko'ra budjetni shakllantirishga o'tib olgan.

Birlamchi va statsionar tibbiy yordam ko'rsatishda yetakchi o'rinni sog'liqni saqlashning xususiy muassasalari va xususiy shifokorlar o'ynaydi. Kasalxonalarining turli mulkchilik shakllariga ega bo'lishiga qaramay, aksariyati xususiy notijorat kasalxonalari

---

<sup>188</sup> Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2019. World Health Organization. <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates>.

<sup>189</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013.

hisoblanadi. Odatda, ular viloyat sog‘liqni saqlash organlari yoki mazkur hududda yashovchi yetakchi ekspertlarga ega bo‘lgan shifoxonalar uyushmalari boshqaruvida bo‘ladi.

Kanada sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish amaliyotida davlat tibbiy sug‘urta xizmatlari bilan bir qatorda nodavlat va notijorat tashkilotlar tomonidan aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning qamrov darajasini oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Sog‘likni saqlash tizimini samarali moliyalashtirish va aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish orqali mamlakatda surunkali kasalliklardan bevaqt hayotdan ko‘z yumish holatlari kamayishiga erishgan

«Tibbiy xizmatlar xajmi va sifatini nazorat qilish qisman davlat qo‘lida bo‘lsa, qisman esa nodavlat va notijorat tashkilotlar tasarrufidagi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi»<sup>190</sup>:

1. Kanada sog‘liqni saqlash kengashi, uning vazifasi sog‘liqni saqlash sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha monitoring olib borish va hisobot berish.

2. Kanada bemorlar xavfsizligi instituti, bemorlar xavfsizligi sohasida tajribalarni to‘plash va tarqatish uchun tashkil etilgan.

3. Kanada sog‘liqni saqlash ma‘lumotlari instituti, sog‘liqni saqlash sohasidagi ma‘lumotlarni to‘playdi va standartlashtiradi.

4. Kanada tibbiy birlashmasi, shifokorlarni litsenziyalash va davolash standartlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

5. Kanada akkreditatsiya uyushmasi, sog‘liqni saqlash tashkilotlari – soqliqni saqlashning mintaqaviy organlari, kasalxonalar, uzoq muddatli tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar va jamoat markazlarini akkreditatsiya qilishga javob beradi.

---

<sup>190</sup> International Profiles of Health Care Systems.

## 5.4-jadval

### Sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlar va ko'rsatkichlar nisbatining samaradorligi<sup>191</sup>

Mamlakat	Umr ko'rish davomiyligi	Sog'liqni saqlash xarajatlarining mamlakat YaIMdagi ulushi %	Aholi boshiga sarflanadigan sog'liq saqlash xarajatlari, (AQSH dollarida)
AQSH	78,6	17,2	8608
Germaniya	80,7	11,7	4875
Buyuk Britaniya	80,8	9,4	3609
Fransiya	81,7	12,5	4952
Kanada	80,9	10,8	5630

Tahlillar ko'rsatishicha, sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lari jami turli mamlakatlarda farqlanadi. Aholining umr davomiyligi va boshqa sog'liqni saqlash sohasi ko'rsatkichlari sarflangan miqdorga mutanosib emasligi, bu, birinchidan, sarflangan mablag'larni samaradorligidagi farqlarni ko'rsatadi, ikkinchidan, aholining umr ko'rish davomiyligiga boshqa omillar ham ta'sir etishini ko'rsatadi. 5.4-jadvalda tahlil qilingan rivojlangan mamlakatlardagi aholi umr ko'rish davomiyligi va sarflanayotgan xarajatlar misolida kuzatish mumkin.

Jaxon amaliyotidagi soqliqni saqlash tizimi faoliyatining qiyosiy tahlili qilish natijasida sog'liqni saqlash modellarining afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida quyidagi ilmiy xulosalar olish imkonini beradi (5.5-jadvalga qarang):

- mamlakatlar ijtimoiy himoyaning faqat bitta modelidan foydalanilmaydilar va universal model mavjud emas;
- sog'liqni saqlashning barcha modellarida yetakchi moliyalashtirish manbai mavjud;
- budget va sug'urta modellaridagi xarajatlarning 70 foizdan ortig'ini davlat ta'minlaydi;

<sup>191</sup> Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data (<http://www.bloomberg.com/visual-data/best-and-worst/most-efficient-health-care-countries>).

– sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligini ta‘minlashning muhim omili – aholini bepul tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish, resurslardan foydalanish samaradorligi va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

– mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishi davlat budjeti mablag‘larisiz sug‘urta to‘lovlari amalga oshirib bo‘lmaydi.

Jahon amaliyotida tibbiy sug‘urtalash yollanib ishlovchilar uchun majburiydir, rivojlangan mamlakatlarda majburiy tibbiy sug‘urta sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy asosini tashkil qiladi.

Jahondagi tibbiy sug‘urta tizimini tashkil etish rivojlangan bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning yetakchi manbasi tibbiy sug‘urta mablag‘lari hisoblanadi. Ushbu jarayonda davlat va sug‘urta kompaniyalarining faol ishtirok etadilar. Har bir mamlakat davlat budjeti mablag‘lari va majburiy tibbiy sug‘urta orqali sog‘liqni saqlashga sarflangan xarajatlarini moliyalashtiriladi.

## 5.5-jadval

### Majburiy tibbiy sug‘urta tizimining qiyosiy tahlili (2020yil)<sup>192</sup>

Davlatlar	Sog‘liqni saqlash xarajatlari		Aholining majburiy tibbiy sug‘urta bilan qamrab olinishi, (%hisobida)	Majburiy tibbiy sug‘urta tizimida sug‘urtalovchilar	Ish haqi fondidan to‘lanadigan sug‘urta badallari, (%hisobida)	Ish beruvchilar va ishchilar o‘rtasida sug‘urta badalining taqsimlanishi, (%hisobida)
	YaIMga nisbatan, ulushi (%hisobida)	Aholi jon boshiga sarflanadigan xarajatlari, (AQSH dollari)				
Belgiya	10,6	4884,07	99-100	Davlat	7,4	52/48
Germaniya	11,3	5410,63	92	Kasalxona kassalari	9-15	50/50
Rossiya	7,1	892,85	90	Davlat	5,1	100/0
AQSH	17,1	9402,54	90	Sug‘urta kompaniyalari	3-9,5	Ishjoyigabog‘liq holda
Fransiya	11,5	4958,99	80	Davlat	13,6	66/34
Shveysariya	11,7	9673,52	99,5	Davlat fondi	10,1	50/50
Yaponiya	10,2	3702,95	100	Davlat	8,2	50/50

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2020 yilda dunyo mintaqalari bo‘yicha «Xalqaro sog‘liqni saqlash reytingi» e‘lon

<sup>192</sup> <http://ifmr.uz/возможности-и-перспективы-развития-м/>.

qilindi. Ushbu reyting natijalarini hisoblashda tashkilot ekspertlari 100 balli baholashni amalga oshirdilar va quyidagi 13 ta indikatorlar tizimidan foydalanishdi.<sup>193</sup>

- sog‘liqni saqlash tizimining huquqiy asoslari va tibbiy xizmatlarni molityalashtirish amaliyoti;

- tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish va markazlashtirish;

- oziq-ovqat havfsizligi;

- tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining laboratoriya xonalarining holati va rivojlanish darajasi;

- zoonoz kasalliklarga chalinish holatlari (hayvonlardan yuqadigan infeksiyon kasalliklar);

- tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va qamrov ko‘lamini nazorat qilish;

- sog‘liqni saqlash tizimining kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasi va ularning salohiyati;

- sog‘liqni saqlash tizimi va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning favqulodda holatlarga tayyorgarlik darajasi;

- aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning turlari va ularning sifati;

- infeksiyon kasalliklarni tarqalishini oldini olish;

- yangi turdagi kasalliklarga chalinish holatlari darajasi;


- kimyoviy hodisalarning tabiiy-ekologik jarayonlarga ta‘siri;

- radionuklear favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar asosida jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2020 yilda jahonda sog‘liqni saqlash tizimining reytingi 63 ga teng bo‘ldi. Afrika (44) va Janubi-Sharqiy Osiyo (61) mintaqalarida ushbu ko‘rsatkich jahonning o‘rtachadan past ko‘rsatkichni qayd etdi (5.8-rasmga qarang).

---

<sup>193</sup> Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlari asosida tuzilgan (<https://www.who.int/data/gho/whs-2020-visual-summary>).



**5.8-rasm. Jahon mintaqalari bo'yicha «Sog'liqni saqlash tizimi reytingi» ko'rsatkichi, 2020 y.<sup>194</sup>**

Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishda yevropa ittifoqi mamlakatlarining aksariyati tibbiy sug'urta xizmatlari amaliyotga keng tatbiq etilganligi sababli ushbu mintaqada sog'liqni saqlash tizimi reytingining huquqiy asoslari va tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish amaliyoti (80), tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish va markazlashtirish (82), tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va qamrov ko'lamini nazorat qilish (79), aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning turlari va ularning sifati (79) kabi tarkibiy komponentlari ko'rsatkichi yuqori hisoblanadi (5.6-jadvalga qarang).

Shu o'rinda aytish joizki, Amerika qit'asida hisoblangan reyting ko'rsatkichi Janubiy va Shimoliy Amerika uchun o'rta hisobda hisoblangan bo'lib, mintaqa ko'rsatkichlari Yevropa Ittifoqi ko'rsatkichlaridan nisbatan past hisoblanadi. Ammo, ushbu mintaqada ham tibbiy sug'urta xizmatlari AQSH va Kanada mamlakatlarida ixtiyoriy ravishda joriy etilgan hisoblanadi. Xorij mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tibbiy sug'urta tizimini rivojlanish boy tajribasini qiyosiy tahlil qilib, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash tizimida tibbiy sug'urtani joriy etishda ijodiy qo'llash masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

<sup>194</sup> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzilgan (<https://www.who.int/data/gho/whs-2020-visual-summary>).

## 5.6-jadval

### Jahonda «Sogʻliqni saqlash tizimi reytingi» va uning tarkibiy komponentlari koʻrsatkichi<sup>195</sup>

	Afrika	Amerika	Janubi-Sharqiy Osiyo	Yevropa	Sharqiy oʻrta yer dengizi	Gʻarbiy tinch okeani	Jahon
Sogʻliqni saqlash tizimining huquqiy asoslari va tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish amaliyoti	43	74	67	80	64	76	<b>65</b>
Tibbiy xizmat koʻrsatishni muvofiqlashtirish va markazlashtirish	51	78	69	82	74	72	<b>70</b>
Zoonoz kasalliklarga chalinish holatlari (hayvonlardan yuqadigan infeksiyon kasalliklar)	50	72	58	80	77	65	<b>67</b>
Oziq-ovqat havfsizligi	43	78	53	77	64	75	<b>64</b>
Tibbiy xizmat koʻrsatish muassasalarining laboratoriya xonalarining holati va rivojlanish darajasi	56	79	73	81	69	81	<b>72</b>
Tibbiy xizmat koʻrsatish sifati va qamrov koʻlamini nazorat qilish	61	78	78	79	72	84	<b>73</b>
Sogʻliqni saqlash tizimining kadrlar bilan taʼminlanganlik darajasi va ularning salohiyati	49	70	60	71	64	68	<b>63</b>
Sogʻliqni saqlash tizimi va aholiga tibbiy xizmat koʻrsatuvchi muassasalarning favqulodda holatlarga tayyorgarlik darajasi	40	73	58	73	65	75	<b>62</b>
Aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlarning turlari va ularning sifati	41	64	61	79	68	70	<b>62</b>
Infeksiyon kasalliklarni tarqalishini oldini olish	43	68	71	66	60	69	<b>60</b>
Yangi turdagi kasalliklarga chalinish holatlari darajasi	36	70	53	60	64	70	<b>56</b>
Kimyoviy hodisalarning tabiiy-ekologik jarayonlarga taʼsiri	32	60	45	69	56	70	<b>54</b>
Radionuklear favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi	32	59	45	77	57	54	<b>55</b>
<b>Sogʻliqni saqlash tizimi reytingi</b>	<b>44</b>	<b>71</b>	<b>61</b>	<b>75</b>	<b>66</b>	<b>71</b>	<b>63</b>

<sup>195</sup> Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlari asosida tuzilgan (<https://www.who.int/data/gho/whs-2020-visual-summary>).

Sogʻliqni saqlash tizimidagi jamlangan boy, ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish mahalliy sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash imkonini beradi. Xorij tajribalari koʻrsatishicha, tibbiyot sektorida davlat ishtirokining darajasi yuqori boʻlgan mamlakatlarda aksariyat hollarda koʻrsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilanishiga, hayot davomiyligini ortishiga erishadilar.

Shu bilan birgalikda aholining daromad darajasi, demografik holat va tibbiy sugʻurta tizimi moliyalashtirilish imkoniyatlarini inobatga olinib, xususiy sektorni rivojlantirib borishi lozim. Jamiyatda moliyaviy yoki huquqiy maqomidan qatʻiy nazar har bir shaxs foydalanish imkoniyatiga ega boʻlgan tibbiy xizmatlarning minimal roʻyxati kafolatlangan boʻlishi lozim.

### **Nazorat savollari**

1.Xorij mamlakatlarida tibbiy sugʻurtasi tizimi tarkibi va uning mamlakat YAIM hajmidagi ulushi koʻrstakichlari.

2.Majburiy tibbiy sugʻurta tizimining afzalliklari va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi roli.

3.Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta tizimining oʻziga xos xususiyatlari.

### **Test savollari**

1.Yevropa mintaqasidagi necha mamlakatlar alkogol va tamaki mahsulotlariga soliqning kiritilishi xisobiga sogʻliqni saqlash sohasini qoʻshimcha moliyalashtirishda manba sifatida koʻllaydi?

A) 53 ta mamlakatdan 26 tasida

B) 53 ta mamlakatdan 30 tasida

S) 60 ta mamlakatdan 15 tasida

2. Jaxondagi sogʻliqni saqlash tizimining moliyalashtirish qanday modellari mavjud?

A) Budget modeli (davlat tizimi), sugʻurta modeli (ijtimoiy sugʻurta tizimi) va xususiy model (nodavlat yoki bozor tizimi).

B) Tibbiy sugʻurta va xususiy model (nodavlat yoki bozor tizimi).

S) ijtimoiy sugʻurta va nodavlat yoki bozor tizimi

3. Germaniya aholisining necha foizini ijtimoiy tibbiy sugʻurta dasturlari bilan qamrab olingan?

A) 90 foiz

B) 80 foiz



S) 85 foiz

4. Kaysi xorij mamlakatlarda davlat moliyalashtiradi, Semashko-Beveridj tizimi asosida sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtiradi?

A) B.Britaniya, Irlandiya, Daniya, Portugaliya, Italiya va Ispaniya

B) Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada va Belgiya

S) AQSH, Isroil va Janubiy Koreya

5. Germaniyada sog‘liqni saqlash xarajatlarining mamlakat YAIM dagi ulishi necha foizni tashkil etadi?

A) 7,8-11,7 foizni

B) 10 foizni

S) 12 foizni

### **Mustaqil ish mavzulari**

1.Xorij mamlakatlarda tibbiy sug‘urta fondi mablag‘larining sarflanish yo‘nalishlari tarkibi.

2.Majburiy tibbiy sug‘urta tizimining afzalliklari va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi roli.

3.Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

4.Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tibbiy sug‘urtaning ilmiy-nazariy asoslari.

5.Tibbiy sug‘urta xizmatlari bozorining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari.

### **5.4-§. «Covid-19» pandemiyasi sharoitida tibbiy sug‘urtaning amal qilish xususiyatlari**

JSST 2020 yil 30 yanvarda dunyoda yangi koronavirus Covid-19 pandemiyasini e‘lon qildi. Covid-19 pandemiyasi jahondagi oxirgi ming yillikning 23 ta pandemiyasi bilan qiyosiy taqqoslasak, eng halokatli yigirmatalikka kirmaydi. «Deutsche Bank» tadqiqot mualliflari 100 ming kishining o‘limiga olib kelgan pandemiya va epidemiyalarni tahlil qilishdi. Ular 24 ta kasallik ro‘yxatini tuzdilar va ushbu kasalliklardan dunyo aholisining qanchasi o‘lganligini hisobladilar. Oxirgi ma‘lumotlarga ko‘ra, «dunyoning 191mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan»<sup>196</sup>. So‘nggi yuz

---

<sup>196</sup> Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. www.uza.uz.

yillikda eng keng tarqalgan pandemiya 1918-1919 yillarda Birinchi jahon urushidan keyin tarqalgan «Ispaniya grippi» edi. Uning qurbonlari o‘sha yillarda dunyo aholisining 2,7 foizini tashkil etgan.

### 5.7-jadval

#### Dunyo aholisining pandemiya va epidemiyalarni oqibatlari tahlili

Yillar	Pandemiya nomi	Vafot etganlar	Dunyo aholisining vafot etganlari, jamiganisbatan foizda
541-542	Vabo	60 mln	28,51
1347-1351	Qora o‘lat	200 mln	42
1918-1919	Ispaniya grippi yoki «ispanka»	50 mln	2,72
1981 yildan to hozirgi kungacha	OIV	30 mln	0,57
2020 yildan to hozirgi kungacha	COVID-19	1 mln 765 ming	-

Ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi ikki ming yil ichida insoniyat tarixidagi eng xavfli kasallik «Qora o‘lat» 1347-1351 yillardagi pandemiyasi bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘sha davrdagi dunyo aholisining 42 foizi yoki 200 million kishi vafot etgan. 541-542 yillardagi Vizantiya imperatori Yustinian I davrida tarqalgan vaboda esa yer aholisining 28,5 foizi yoki 60 million kishi vafot etgan.

Koronavirus kabi kasalliklar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uning ta’sirini yumshatish mamlakatdagi aholi jon boshiga sarflanadigan sog‘liqni saqlash xarajatlari miqdori va sug‘urta tizimining rivojlanganligiga darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Koronavirus pandemiyasi davrida jahon iqtisodiyoti, jumladan jahon sug‘urta bozori zarar ko‘rmoqda. Dunyo YAIM hajmida sug‘urta sohasining ulushi 6,1 foizni tashkil etmoqda. Koronavirus pandemiyasi davrida ko‘rayotgan AQShda yig‘iladigan sug‘urta mukofotlari hajmi dunyo sug‘urta bozorining 25,0 foizini tashkil etmoqda, jumladan AQShda sug‘urta sohasining YaIMdagi ulushi

11,3 foizni tashkil etmoqda. Pandemiya zarari ko'rayotgan Yevropa davlatlarida (Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Italiya va boshqalar) sug'urta sohasining YaIMdagi ulushi 8,4 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Rossiyada 1,5 foizni, Qozog'istonda 0,9 foizni, Armanistonda 0,6 foizni, O'zbekistonda 0,4 foizni tashkil etmoqda<sup>197</sup>. Ushbu raqamlar mamlakatimizda sug'urta bozorining rivojlanmaganligini ko'rsatmoqda, jumladan sug'urta tizimini, tibbiy sug'urtani pandemiya sharoitidan kelib chiqib, qayta isloh qilish zarurligini belgilab bermoqda. Majburiy tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish aholini ijtimoiy himoya qilishda har qiluvchi rol o'ynaydi. «Majburiy tibbiy sug'urta tizimi amal qilayotgan Fransiyada aholi tibbiy xarajatlarining 60-80 foizi davlat hisobidan qoplab beriladi»<sup>198</sup>. Qolgani fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan yoki ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi doirasida ish beruvchi hisobidan qoplanadi.

Mamlakatimizda aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoya tadbirlari bilan to'liq qamrab olish, karantin tadbirlari amal qilishi davrida kam ta'minlangan oilalar va ishsizlarga vaqtinchalik nafaqalar berish tizimini yanada kengaytirish, sog'liqni saqlash va sanitariya-epidemiologiya xizmatining koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyuldagi «Jahon banki ishtirokida «O'zbekistonda koronavirus Covid-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralar ko'rish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-4772-son Qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, umumiy qiymati 106,75 mln. AQSH doll.ga teng bo'lgan loyihaning 53,3 foizi mamlakatimizda kam ta'minlangan oilalarga vaqtinchalik nafaqalar berish tizimini kengaytirish va ishsizlik bo'yicha nafaqalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi (5.8-jadvalga qarang).

---

<sup>197</sup> <http://www.kafolat.uz/uz/news/info/company/1146/>.

<sup>198</sup> <http://www.finmarket.ru/insurance/?nt=1&id=5214903>.

## 5.8-jadval

### «O‘zbekistonda koronavirus Covid-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralar ko‘rish» loyihasining parametrlari<sup>199</sup>


№	Chora – tadbirlar va mas’ul vazirliklar	Loyihaning qiymati, ming.doll.da
<b>1</b>	<b>Loyihaning umumiy qiymati</b>	<b>106 757,1</b>
	<i>Shu jumladan,</i>	
<b>2</b>	<b>Koronavirus «Covid-19» infeksiyasiga qarshi choralar ko‘rish uchun Milliy sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash (Sog‘liqni saqlash vazirligi)</b>	<b>37 750,0</b>
2.1	<i>Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun tibbiy diagnostika va davolash asbob uskunalari va jihozlarini shoshilinch harid qilish</i>	37 500,0
2.2	<i>Aholi bilan o‘zaro munosabatlar va xatar haqida habardor qilish bo‘yicha faoliyatni kuchaytirish</i>	250,0
<b>3</b>	<b>Uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (Moliya vazirligi)</b>	<b>56 900,0</b>
3.1	<i>Kam ta‘minlangan oilalarga vaqtinchalik nafaqalar berish tizimini kengaytirish</i>	51 900,0
3.2	<i>Ishsizlik bo‘yicha nafaqalar</i>	5 000,0
<b>4</b>	<b>Loyihani boshqarish, monitoring qilish va baholash (Sog‘liqni saqlash va Moliya vazirliklari)</b>	<b>350,0</b>
<b>5</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasining soliq va bojxona imtiyozlari shaklidagi ulushi va investitsiya davri mobaynidagi O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan amalga oshiriladigan to‘lovlar (Moliya vazirligi)</b>	<b>11 757,1</b>

Jumladan, koronavirus pandemiyasi va global inqiroz davrida Davlat budjetining barqarorligini ta‘minlash va budjet xarajatlarini maqbullashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Koronavirus pandemiyasi sharoitida mamlakatimizda tashkil etilgan Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi hisobotiga ko‘ra 2020 yil 29 dekabrgacha bo‘lgan davrda jami 16,0 trln. so‘m mablag‘ kelib tushgan. Jumladan, Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot bankining budjeti qo‘llab-quvvatlash uchun jalb qilingan mablag‘lar 2,02mlrd. so‘mi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi 3,8 mlrd. so‘m, O‘zbekiston

<sup>199</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.07.2020 yildagi PQ-4772-son Qaroriga 1-ilova.

Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari (shu jumladan xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga 1,6 mlrd. soʻm va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish dasturi loyihasi doirasida 5,8 mlrd. soʻm hisobidan shakllantirildi.

Ushbu xarajatlarning 4,0 trln. soʻmi koronavirusga qarshi kurashish boʻyicha tadbirlarni moliyalashtirish, jumladan, ushbu mablagʻlarning 37,5 foizi dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan taʼminlash hamda karantinda saqlash xarajatlarini qoplash maqsadida ishlatilgan boʻlsa, 62,5 foizi esa tibbiyot xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralarini amalga oshirishga yoʻnaltirildi (5.9-rasmga qarang).



**5.9-rasm. Inqirozga qarshi kurashish jamgʻarmasi koronavirusga qarshi kurashish boʻyicha tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan xarajatlari tarkibi (29.12.2020 yil holatiga koʻra, foizda)<sup>200</sup>**

Jahon banki ekspertlari tomonidan 2020 yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasining jahon xoʻjaligi va mamlakatlarning turli guruhlar iqtisodiyotiga taʼsirini oʻrganish va global iqtisodiy rivojlanish istiqbollari bagʻishlangan «Jahon iqtisodiyoti istiqbollari» nomli maʼruzasida keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, pandemiya inqirozi oqibatida jahon iqtisodiyoti 5,2 foizga, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda YaIMning oʻsish darajasi 7 foizga, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu koʻrsatkich

<sup>200</sup> [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=571](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=571) maʼlumotlari asosida tuzilgan.

2,5 foizga, aholi jon boshiga daromadlar 3,6 foizga kamayishi natijasida, dunyoda 60 mln. odam o‘ta qashshoq ahvolga va millionlab insonlarning kambag‘allik chegarasiga tushishi mumkinligi prognoz qilindi.<sup>201</sup>

Mamlakatlarda koronavirus inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan turli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ishlab chiqilib, global hamkorlik bitimlari imzolandi va aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida tezkor choralar amalga oshirildi. Shuningdek, pandemiya sababli ishsiz qolgan aholi guruhlari, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini qashshoqlik holatiga tushib qolishini oldini olish va ularni ma‘lum bir darajada turmush farovonligi bilan ta‘minlash maqsadida ijtimoiy himoya tadbirlarini moliyalashtirish uchun mamlakatlar budjeti, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘shimcha mablag‘lar ajratildi. Jumladan, «108 mamlakatda jami 550 ga yaqin inqirozga qarshi kurash dasturlari qabul qilindi. Ularning 289 tasi aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari bo‘lib, shundan 27 tasi sog‘liqni saqlash tizimini qamrov darajasini oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini takomillashtirishga yo‘naltirildi»<sup>202</sup>.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, pandemiya sharoitida ishsizlarning soni keskin ortib, ularning soni 40 mln.dan ziyodni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari bo‘yicha ishsizlik ko‘rsatkichi 2020 yilning boshida o‘rta hisobda 6,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, pandemiya sababli yil oxirida ushbu ko‘rsatkich qariyb 1,5 marta ortishi mumkinligi bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar berildi. Xususan, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Gretsiya kabi mamlakatlarida aholining ishsizlik darajasi 12 foizdan ortdi.<sup>203</sup>

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlarining fikricha, koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari natijasida global iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichi 3 foizga qisqarishi prognoz qilingan. Ilmiy prognozlar natijalariga ko‘ra, «iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichi

---

<sup>201</sup> Jahon banki ma‘lumotlari asosida tuzilgan (<https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2020/06/08/covid-19-to-plunge-global-economy-into-worst-recession-since-world-war-ii>).

<sup>202</sup> <https://fss.ru/ru/news/455863/486693.shtml> ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>203</sup> <https://uza.uz/oz/business/pandemiya-sharoitida-i-tisodiyet-muammolarning-echimi-bormi-25-05-2020>.

taraqqiy etgan mamlakatlarda 6,1 foizga (jumladan, AQShda 5,9 foizga, YEI mamlakatlarida o‘rta hisobda 7,5 foizga), rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlarda esa 1,0 foizga (masalan, Rossiyada 5,5 foizga, Qozog‘istonda 2,5 foizga) pasayadi»<sup>204</sup>.

Koronavirus pandemiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Pandemiya sababli joriy etilgan krantin tadbirlari natijasida ko‘plab korxonalar faoliyatining toxtatilishi, mamlakat chegaralarining yopilishi sababli 2020 yilda aholining ishsizlik darajasi 15 foizdan ortdi.<sup>205</sup> Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020 yilning 9 oy moboynda iqtisodiy o‘shish sur‘ati 4,1 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichiga (5,7 foiz) nisbatan 1,6 foiz kamayishi kuzatilgan.

Covid-19 pandemiyasi davrida koronavirusga chalingan insonlarni davolash va aholi salomatligini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar turli mamlakatlarda turlicha amalga oshirilmoqda. Bunday davrda eng katta bosim sog‘liqni saqlash tizimiga tushmoqda. Koronavirus bilan kasallanganlarni davolash ham mamlakatning iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga hamda sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modeliga qarab farq qilmoqda (5.9-jadvalga qarang).

### 5.9-jadval

#### Covid-19 pandemiyasi sharoitida davolash xarajatlari va tibbiy sug‘urtaning ahamiyati<sup>206</sup>

Mamlakatlar	Kasallika chalinganlar soni, ta	Bir bemorni davolashning o‘rtachasi xarajatlari, AQSH dollari hisobida	Tibbiy sug‘urta hisobidan qoplangan qismi, foizda
<b>Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar</b>			
AQSH	28 319 964	34 000	50,0
Germaniya	2 348 748	32 000	96,0

<sup>204</sup> <https://uza.uz/oz/business/pandemiya-sharoitida-i-tisodiyet-muammolarning-echimi-bormi-25-05-2020>.

<sup>205</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2020/07/02/employment/>.

<sup>206</sup> <https://teyit.org/en/claims-about-treatment-expenses-of-covid-19-in-some-countries/> ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan.

Buyuk Britaniya	4 047 843	30 000	50
Fransiya	3 469 539	25 000	80,0
Ispaniya	3 086 286	20 000	50
<b>Bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlar</b>			
Xitoy Xalq Respublikasi	89 788	12 250	66,6
Hindiston	10 931 492	4 150	-
Turkiya	2 594 128	15 973	10
<b>Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar</b>			
Rossiya Federatsiyasi	4 099 323	3 150	60,0
O'zbekiston	79 461	4 650	-
Qozog'iston	203 259	540	
Qirg'iziston	85 564	734	30,0

Ayrim mamlakatlarda bunday kasallikka duchor bo'lgan bemorlar to'liq Davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan bo'lsa, ba'zilarida fuqarolar tibbiy sug'urtadan, tibbiy sug'urta mavjud bo'lmagan mamlakatlarda esa davolanish bilan bog'liq xarajatlarni o'z hisobidan amalga oshirmoqda. Masalan, koronavirusga chalingan har bir bemorni test tizimlarini o'tkazish va davolash xarajatlarining salmoqli qismi tibbiy sug'urta hisobidan qoplanmoqda. Jumladan, ushbu ko'rsatkich Germaniyada 96 foizni, Fransiyada 80 foizni AQShda 50 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda tibbiy sug'urta tizimi shakllanganligi sababli aholi o'rtasida koronavirus kasalligiga chalinganlardan test tizimlarini o'tkazish salmog'i ancha yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda jami aholi sonining 30-50 foizi koronavirus kasalligini aniqlash va oldini olish maqsadida test tizimlari amalga oshirilgan. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlar Braziliya va Turkiya mamlakatlarida esa jami aholi sonining 5-15 foizga test tizimlari amalga oshirilgan. Bundan ko'rinadiki, aksariyat mamlakatlarda «Covid-19» pandemiyasi sharoitida bemorlarni davolash xarajatlarini qoplashda tibbiy sug'urta muhim o'rin egallagan. Shu bilan birga Davlat budjeti hisobidan koronavirus bilan kasallanganlarni davolash xarajatlari ham salmoqli ulushni egallaydi.



Rossiya Federatsiyasida koronavirus bilan kasallangan bemorlarni davolash xarajatlari qisman Davlat budjetidan hamda majburiy tibbiy sug'urta hisobidan amalga oshirilmoqda. Bunda koronavirusni davolash uchun sarflanayotgan xarajatlar miqdori hududlar bo'yicha farq qiladi. Masalan, «koronavirus infeksiyasining yengil shakllari aniqlangan (kasallik alomatlarsiz o'tayotgan) bemorlar uchun 352 AQSH dollari, koronavirus infeksiyasi o'rtacha og'ir kechayotgan (tana harorati ko'tarilayotgan) bemorlar uchun 1,8 ming AQSH dollari va koronavirus infeksiyasi og'ir kechayotgan bemorlar uchun 7,3 ming AQSH dollari miqdorida xarajat qilinmoqda»<sup>207</sup>. Ta'kidlash joizki, «Rossiyada sog'liqni saqlashni moliyaviy ta'minlashda majburiy tibbiy sug'urta muhim o'rin egallab, sog'liqni saqlash tarmog'igadagi jami tushumning 62 foizini tashkil qiladi»<sup>208</sup>. Koronavirus pandemiyasi sharoitida tibbiy yordamning moliyaviy ta'minoti majburiy tibbiy sug'urta tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

AQShda koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash xarajatlari ularning tibbiy sug'urtasi hisobidan qoplanadi. «Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bitta bemorni davolashning o'rtacha qiymati 30 ming AQSH dollariga teng bo'lishi mumkin»<sup>209</sup>. FAIR Health<sup>210</sup> tashkilotining tahlillariga ko'ra, tibbiy sug'urtasi bo'lmagan yoki sug'urtasi koronavirusga o'xshash kasalliklar davolanishini nazarda tutmagan fuqarolar Covid-19 bilan kasallansa, 42 mingdan 74 ming AQSH dollargacha xarajat qilishlariga to'g'ri kelishi mumkin. Bunda, «sug'urtalanmagan fuqaro 6 kunlik gospitalizatsiya uchun 73,3 ming AQSH dollari atrofida to'lashi kerak bo'lsa, tibbiy sug'urtasi mavjud bemorlar davolanishi uchun mablag'ning bir qismini to'lashlari kerak»<sup>211</sup>. Shuni ham qayd etish zarurki, AQShda 28 mln. nafarga yaqin insonlar tibbiy sug'urtalanmagan. Ularning tahminan 2 mln. nafari koronavirusga

<sup>207</sup>

[https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/08/treatment-cost/?utm\\_source=push&utm\\_medium=telegram](https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/08/treatment-cost/?utm_source=push&utm_medium=telegram).

<sup>208</sup> Аналитический доклад: «Влияние коронавируса Covid-19 на ситуацию в Российской Федерации». [https://gks.ru/bgd/regl/b19\\_34/Main.htm](https://gks.ru/bgd/regl/b19_34/Main.htm) (дата обращения: 13.04.2020).

<sup>209</sup> <https://www.cnbc.com/2020/04/09/heres-what-you-need-to-know-about-coronavirus-treatment-costs.html>.

<sup>210</sup> Mazkur tashkilot iste'molchilarning sog'liqni saqlash bilan bog'liq xarajatlarini baholashga ko'maklashuvchi va tibbiy sug'urta bo'yicha ma'lumotlar taqdim etuvchi mustaqil xalqaro notijorat tashkilotidir.

<sup>211</sup> <https://iz.ru/995843/2020-04-05/nazvana-stoimost-lecheniia-ot-koronavirusa-v-ssha>.

chalinib, davolanishga muhtoj<sup>212</sup>. Bu esa hozirgi pandemiya sharoitida ularning moddiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, hayotiga tahdid qiladi. Bu esa tibbiy sug'urta aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishdagi hayotiy zarurat ekanligini yana bir tasdiqlaydi. Germaniya va Ispaniyada koronavirusdan kasallangan bemorlarning davolanish xarajatlari davlat tomonidan va tibbiy sug'urta hisobidan qoplanadi.

Xitoy Xalq Respublikasida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash xarajatlari asosan davlat tomonidan qoplanadi. Bunda bitta bemorni davolash uchun o'rtacha 3,2 ming AQSH dollari sarflanadi. Koronavirus infeksiyasini yuqtirgan bemorlarning holatiga qarab, mazkur mablag' miqdori farqlanadi: «og'ir ahvoldagi koronavirus bemorini davolashga o'rtacha 21,2 ming AQSH dollari, alohida holatlarda o'ta og'ir ahvoldagi bemorlarni davolashga 141 ming AQSH dollarigacha mablag' sarflangan»<sup>213</sup>. Koronavirus infeksiyasiga chalingan bemorlarni davolash xarajatlarining 66,6 foizi tibbiy sug'urta hisobidan qoplanadi.

Qirg'iziston Respublikasida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlari davlat hisobidan amalga oshiriladi. «Bunda yengil ahvoldagi koronavirus bemorini davolash uchun 107 AQSH dollari, o'rta ahvoldagi bemor uchun 220 AQSH dollari, og'ir ahvoldagi bemor uchun 1007 AQSH dollari va o'ta og'ir ahvoldagi bemor davolanishiga 1600 AQSH dollari sarflanadi»<sup>214</sup>.

Qozog'iston Respublikasida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash xarajatlari «Ijtimoiy tibbiy sug'urta jamg'armasi» tomonidan amalga oshiriladi. Koronavirus bilan kasallangan bitta bemorni davolash uchun kuniga 38 AQSH dollari atrofida mablag' sarflanmoqda, bu esa bitta bemorning davolanish xarajatlari (14\*38) 532 AQSH dollariga teng deganidir.

O'zbekistonda koronavirus infeksiyasiga chalingan barcha bemorlar davlat budjeti hisobidan davolanmoqda. O'rta ahvoldagi har bir bemor uchun 3,2 ming AQSH dollari, og'ir ahvoldagi, jonlantirish

<sup>212</sup> <https://www.cnn.com/2020/04/09/heres-what-you-need-to-know-about-coronavirus-treatment-costs.html>.

<sup>213</sup> [https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/08/treatment-cost/?utm\\_source=push&utm\\_medium=telegram](https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/08/treatment-cost/?utm_source=push&utm_medium=telegram).

<sup>214</sup> <http://kabar.kg/news/v-kyrgyzstane-bol-nykh-s-covid-19-lechat-besplatno-za-schet-gosudarstva-abdikarimov/>.

bo‘limida yotgan har bir bemorga o‘rtacha 6,4 ming AQSH dollari mablag‘ sarflanmoqda. Pandemiya davrida aholini tibbiy muhofaza qilish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi birinchi navbatda aholi sog‘lig‘iga eng katta ustuvorlik berilgani va bu bo‘yicha barcha imkoniyatlar to‘liq safarbar etilganligi natijasida qisqa muddatlarda karantin choralari bosqichma-bosqich bekor qilinishiga erishildi.

Dunyoda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar samarasi natijasida koronavirus kasalligida vaksina ishlab chiqila boshlandi. 30dan ko‘proq xorij mamlakatlarda koronavirusga qarshi emlash boshlangani ma‘lum qilingandi. JSST hozircha Pfizer, BioNTech, AstraZeneca/Oxford, COVAX va «Sputnik V» kompaniyalari vaksinasini qo‘llashni ma‘qullagan, biroq dunyoda bir nechta vaksinalardan foydalanilmoqda va sinovlardan o‘tkazilmoqda. Jumladan ayrim mamlakatlarda ixtiyoriy ko‘ngillilar tomonidan emlash bosqichlari boshlangan.

«O‘zbekistonda ham Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati ma‘lumotlariga ko‘ra, birinchi navbatda emlanadigan aholi qatlamlari e‘lon qilinib, ularning soni 4 mln 112 ming 668 nafarni tashkil etadi»<sup>215</sup>: 65-74 yoshgacha bo‘lgan qariyalar – 1 mln 85 ming 797 nafar; 75 yoshdan 84 yoshgacha bo‘lgan keksalar – 388 ming 686 nafar; 85 yosh va undan yuqori keksalar – 139 ming 280 nafar; Tibbiyot xodimlari – 447 ming 976 nafar; Surunkali kasalliklari bor aholi (18-65 yosh) – 888 190 nafar; Maktab o‘qituvchilari – 689 ming 383 nafar; Maktabgacha ta‘lim muassasasi xodimlari – 223 ming 426 nafar; Qurolli kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari – 180 ming nafar.

O‘zbekistonda emlash jarayoniga 3138 ta emlash punktlari, 862 ta mobil brigadalar (har birida 1 nafar oilaviy shifokor, 1 nafar vaksinator va 1 nafar muolaja hamshirasi mavjud) jalb etilgan. Ushbu fuqarolar o‘zlari yashaydigan hududlardagi tibbiyot muassasalarida tashkil etilgan emlash xonalarida ixtiyoriy tamoiyilasosida emlanadi.

O‘zbekistonda koronavirusga qarshi emlash 2021 yilmart oyining birinchi yarmida boshlanishini ma‘lum qilgandi. Birinchi navbatda koronavirus yuqish xavfi darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar emlanishi

---

<sup>215</sup> <https://kun.uz/news/2021/02/16/ozbekistonda-birinchi-navbatda-4-milliondan-oshiq-kishi-emlanadi>.

va u faqatgina ixtiyoriylik tamoyili asosida amalga oshirilishi ma'lum qilingan. «O'zbekistonda koronavirusga qarshi kurashish tadbirlari va vaksina uchun 3 trillion so'm ajratish rejalashtirilgan edi»<sup>216</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, koronavirus infeksiyasiga chalingan bemorlarni davolash, test tizimlarini amalga oshirish va emlash uchun sarflanadigan xarajatlar miqdori mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, xususiyy tibbiyotning taraqqiyotiga, tibbiy sug'urta tizimining rivojlanganlik darajasiga va sog'liqni saqlash tizimida aholi jon boshiga ajratilgan mablag'lar miqdoriga bog'liq bo'ladi. JSSTning standartlariga muvofiq, mamlakatlar YAIM hajmining kamida 6 foizini sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirishi zarur. «Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti standartlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 7 foizni tashkil qiladi»<sup>217</sup>. Rossiya Federatsiyasida sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lar mamlakat YaIMning 5,3 foizini tashkil qiladi va belgilangan me'yordan kam. Taqqoslash uchun bu ko'rsatkich «AQShda 17,1 foizni, Shvetsariyada 12,2 foizni, Yaponiyada 10,9 foizni, Germaniyada 7,1 foizni tashkil etadi»<sup>218</sup>. O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkich 3 foiz atrofida. Bu esa mazkur mamlakatlarda tibbiy sug'urtaning ham taraqqiy etganligi ko'rsatadi. Bu davlatlarda pensionerlar, ijtimoiy yordam (nafaqa) oluvchilar, kam daromadga ega bo'lganlar ham tibbiy sug'urta uchun mablag' ajratadilar. AQShda Medikeyr va Medikeyd dasturlari ish haqi uchun kam miqdorda haq to'lanuvchi fuqarolarga ham munosib darajada tibbiy yordam olish imkonini beradi.

### **Nazorat savollari**

1. Tibbiy sug'urta rivojlanishining xorij tajribasi.
2. O'zbekistonda tibbiy sug'urta xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.
3. O'zbekistonda tibbiy sug'urtani shakllanish shart-sharoitlari va rivojlantirish muammolari.

### **Test savollari**

---

<sup>216</sup> <https://kun.uz/news/2021/02/16/ozbekistonda-birinchi-navbatda-4-milliondan-oshiq-kishi-emlanadi>.

<sup>217</sup> Ройк В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 284.

<sup>218</sup> [https://zen.yandex.ru/media/show\\_me\\_world/rashody-na-zdravoohranenie-v-stranah-mira-skolko-v-rossii-tratiat-na-cheloveka-5d7b74e23d87363e8924eb78](https://zen.yandex.ru/media/show_me_world/rashody-na-zdravoohranenie-v-stranah-mira-skolko-v-rossii-tratiat-na-cheloveka-5d7b74e23d87363e8924eb78).

1.541-542 yillardagi Vizantiya imperatori Yustinian I davrida tarqalgan vabosidan yer aholisining necha foizi vafot etgan.

A) 28,5 foizi yoki 60 million kishi

B) 35 foiz yoki 70 million kishi

S) 30 foizi yoki 60 million kishi

2. Qaysi mamlakatda yig'ildigan sug'urta mukofotlari hajmi dunyo sug'urta bozorining 25,0 foizini tashkil etadi.

A) AQShda

B) Germaniyada

S) Yaponiyada

3. Fransiyada koronavirusga chalingan har bir bemorni test tizimlarini o'tkazish va davolash xarajatlarini necha foizini tibbiy sug'urta hisobidan qoplangan.

A) 80 foizni

B) 96 foizni

S) 50 foizni

4. AQShda koronavirus bilan kasallangan sug'urtalanmagan fuqaro 6 kunlik hospitalizatsiya uchun necha ming AQSH dollari atrofida to'langan.

A) 73,3 ming AQSH

B) 6 ming AQSH

S) 50 ming AQSH

5. Qozog'iston Respublikasida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash xarajatlari qaysi manba tomonidan amalga oshiriladi.

A) «Ijtimoiy tibbiy sug'urta jamg'armasi»

B) davlat budjeti

S) Fuqoroniing xisobidan

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Beveridj modeliga mos ravishda tashkil etilgan tibbiy sug'urta modeli: ularning kuchli va zaif tomonlari.

2. O'zbekistonda Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining asosiy yo'nalishlari va vazifalari.

3. O'zbekistonda majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etish chora-tadbirlari.

4.Sogʻliqni saqlash tizimini sugʻurta asosida moliyalashtirish modellari

5.Oʻzbekistonda tibbiy sugʻurtani rivojlantirish holati va muammolari.


### **5.5-§. Oʻzbekistonda tibbiy sugʻurta xizmatlari bozorini shakllanishi, xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari va muammolari**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirishda ijtimoiy sugʻurta muhim oʻrin egallaydi. Bugungi kunda sugʻurtalash mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Hukumat tomonidan sugʻurta sohasini isloh qilish borasida qator chora-tadbirlar va dasturlar amalga oshirildi. Bu, oʻz navbatida, mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sugʻurta bozori shakllanishini taʼminladi.

Oʻzbekistonda sugʻurta sohasi iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining jadallik bilan rivojlanayotgan sektorlaridan biri hisoblanadi. 2020 yilda Oʻzbekistonda 40 ta sugʻurta kompaniyalari oʻz faoliyatini amalga oshirib, kompaniyalarning 3 tasi hayotni sugʻurtalash tarmogʻida faoliyat yuritmoqda. «2019 yilda sugʻurta summasi jami 690462,7 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlib, 2018 yilga nisbatan 15,6 foizga koʻpaydi. Ixtiyoriy sugʻurtaning ulushi 68,0 foiz boʻlsa, 32,0 foizi majburiy sugʻurtaga toʻgʻri keladi. 2019 yilda sugʻurta mukofotlari tushumi 2138,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shundan ixtiyoriy sugʻurta 1832,1 mlrd. soʻm (85,7 foiz umumiy summadan), va majburiy sugʻurta 306,7 mlrd. soʻm (14,3 foiz) tashkil etmoqda. 2019 yilda jami sugʻurta toʻlovlari hajmi 808,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi»<sup>219</sup>. 2013-2019 yillarda jami sugʻurta toʻlovlari tarkibida majburiy sugʻurta toʻlovlari hajmi jadal surʼatlarda oʻsish tendensiyasiga ega boʻldi (5.10-rasmga qarang).

---

<sup>219</sup> <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/8975-o-zbekiston-respublikasida-sug-urta-bozori>.



**5.10-rasm. Sug'urta to'lovlari tarkibida majburiy va ixtiyoriy sug'urta to'lovlari ulushi nisbatan, foiz hisobida<sup>220</sup>**

Majburiy sug'urta to'lovlari tarkibida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish va transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish turiga to'g'ri keladi. Ixtiyoriy sug'urta to'lovlari hajmi esa pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Tahlillar ko'rsatishicha, ixtiyoriy sug'urta to'lovlari tarkibida tibbiy sug'urta salmoqli o'rin tutmoqda. O'zbekistonda sug'urta bozorida «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, «Alskom» sug'urta kompaniyasi va «Ingo-Uzbekistan» sug'urta kompaniyalari tibbiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqda. Ushbu kompaniyalar tibbiy sug'urta qilingan shaxs to'satdan kasal bo'lganda, shaxs hayoti va sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatganda, dasturda belgilangan tibbiy xizmatlar va sug'urta summasi doirasida ro'yxatdagi tibbiy muassasalariga murojaat etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplab beradi. Kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi kutilmagan tibbiy xarajatlar vujudga kelganda sug'urtalangan shaxsning mablag'ini tejoychi zamonaviy vositadir. Ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash shartlariga muvofiq sug'urta shartnomasi (polisi)da nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz

<sup>220</sup> Министерство Финансов Республики Узбекистан. Государственная инспекция по страховому надзору. Отчет по регулированию и надзору за страховой деятельностью в Республике Узбекистан за 2013-2019 годы. (<http://insurance.uzreport.uz/files/docs/report2018.pdf>).

berganda, dasturda belgilangan tibbiy xizmatlar va sugʻurta summasi doirasida roʻyxatdagi tibbiy muassasalariga murojaat etishi bilan bogʻliq xarajatlar qoplamasini taʼminlash majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

2019 yilda ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari toʻplash boʻyicha «Oʻzbekinvest-hayot» shoʻba sugʻurta kompaniyasi, yetakchi oʻrin egalladilar. Taxlillar koʻrsatishicha ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlarining ulushi «Oʻzbekinvest-hayot» shoʻba sugʻurta kompaniyasi sugʻurta portfelida 25,8 foizni, «Kafolat» sugʻurta kompaniyasi sugʻurta portfelida 12,3 foizni va «Alskom» sugʻurta kompaniyasi sugʻurta portfelida 11,0 foizni tashkil qildi. ««Alskom» sugʻurta kompaniyasining mijozlari soni 21000 dan ortiq kishini tashkil etmoqda, va hozirda tibbiy sugʻurta xizmatlaridan foydalangan mijozlarga 2,9 mlrd. soʻmdan ortiq tibbiy xizmatlar xarajatlari qoplab berildi»<sup>221</sup>. Sugʻurta kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan sugʻurta dasturlari bir-biridan koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlarning hajmi, taqdim etilayotgan imkoniyatlari bilan farq qiladi.

### 5.10-jadval

#### 2019 yilda Respublikadagi sugʻurta tashkilotlari faoliyatining koʻrsatkichlari va tibbiy sugʻurtaning ulushi<sup>222</sup>

Koʻrsatkichlar	Jami sugʻurta turlari boʻyicha	Tibbiy sugʻurta boʻyicha	Jami sugʻurta tarkibida tibbiy sugʻurtaning ulushi, %da
Tuzilgan shartnomalar soni, birlikda	7401287	40855	0,6
Sugʻurta summasi, mlrd. soʻmda	690462,7	7535,7	1,1
Sugʻurta mukofotlari tushumi, mlrd. soʻmda	2138,8	26,5	1,2
Sugʻurta toʻlovlari, mln. soʻmda	808,6	17,5	2,2

<sup>221</sup> <https://alskom.uz/uz/services/legal/yur-lichnoe-strakhovanie/1219/>.

<sup>222</sup> <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/8975-o-zbekiston-respublikasida-sug-urta-bozori>.



2019 yilda sugʻurta boʻyicha tuzilgan jami shartnomalarning atigi 0,6 foizi, sugʻurta summasining 1,1 foizi, sugʻurta mukofotlari tushumining 1,2 foizi va jami sugʻurta toʻlovlarining 2,2 foizi tibbiy sugʻurta ulushiga toʻgʻri kelmoqda. Ushbu holat mamlakatimizda tibbiy sugʻurta tizimining rivojlanmaganligidan dalolat beradi va aholi salomatligini yaxshilash, ularning tibbiy xizmatlardan foydalanishlari nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2013-2019 yillarda tibbiy sugʻurta boʻyicha xizmat koʻrsatuvchi sugʻurtalovchilar soni 8 tadan 15 nafarga yetdi, tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha toʻlanadigan sugʻurta mukofotlari hajmi deyarli 3,5 martaga va ixtiyoriy tibbiy sugʻurta toʻlovlari hajmi esa 4,1 martaga koʻpaydi. Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlarini yoʻqotilish darajasi umumiy hisobda oʻsish surʻatiga ega boʻlgan. Jumladan,, 2013 yilda sugʻurta mukofotlarining 55 foizi tibbiy sugʻurta qildirganlar uchun toʻlab berilgan boʻlsa, 2019 yilga kelib ushbu koʻrsatkich 64,5 foizni tashkil etdi (5.11-jadvalga qarang).

### 5.11-jadval

#### Oʻzbekistonda ixtiyoriy tibbiy sugʻurta bozori rivojlanishining koʻrsatkichlari<sup>223</sup>

Koʻrsatkichlar	2013 yil	2016 yil	2017 Yil	2018 Yil	2019 yil
Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta xizmatlari taqdim etuvchi sugʻurtalovchilar soni,	8	11	12	14	15
Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari hajmi, mln. soʻm	6833, 2	9347,9	17976, 9	19496, 6	23852, 1
Respublikada jami sugʻurta mukofotlari hajmi tarkibida ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari ulushi, %da	2,0	1,3	1,9	1,1	1,2
Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta toʻlovlari hajmi, mln. soʻm	3758, 5	7260,5	10661, 6	11389, 9	15386, 7
Respublikada jami sugʻurta toʻlovlari hajmi tarkibida ixtiyoriy tibbiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha	5,6	5,6	3,9	2,5	2,2

<sup>223</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maʼlumotlari asosida tuzilgan.

sug'urta to'lovlarining ulushi, %da					
Ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini yo'qotilish darajasi	55,0	77,6	59,3	58,4	64,5

Tahlillar ko'rsatishicha, tendensiya mamlakatimizda tibbiy sug'urtaning asta-sekin rivojlanib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Mamlakatda umumiy sug'urta mukofotining o'sish sur'ati inflyasiyaning o'sish sur'atidan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, YaIMda sug'urta mukofotlarining ulushi rivojlangan mamlakatlardagiga qaraganda past darajada turibdi (atigi 0,3 foiz). Tadqiqotlar ko'rsatishicha, AQShda ushbu ko'rsatkich 8,6 foizni, Buyuk Britaniyada – 13,4 foizni, Germaniyada – 6,5 foizni, Fransiyada 8,5 foizni tashkil etdi. Ushbu mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta mukofotining YaIMga nisbatan ulishi muntazam o'sib bormoqda.

Sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash bilan kam sonli kompaniyalar shug'ullanayotganligiga qaramay, bunday xizmatlar ko'rsatish sharoitlari va mexanizmi amalda bir-biridan farq qilmaydi. Tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatishda sug'urta kompaniyalari assistans kompaniyalarning xizmatlaridan foydalanadilar. Assistans kompaniyalarining muhim vazifasi sug'urtalangan shaxslarga tibbiyot muassasalar orqali tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilishdan iborat. Buning uchun assistans kompaniyalari sug'urtalovchilardan sug'urta hodisalari to'g'risida xabarlarini qabul qilib turishni va sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida taqdim qilingan sug'urta polisi asosida kerakli yordam ko'rsatishni tashkil qilishlari lozim. Assistans kompaniyalarga qo'yilgan bunday talab O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab qo'yilgan.

«Tibbiy sug'urtalashda sug'urtalangan shaxsning unga kasallik tufayli yetkazilgan, qo'shimcha xarajatlarni taqozo qilgan zarar bilan bog'liq manfaatlari sug'urtalanadi»<sup>224</sup>. Shuning uchun tibbiy sug'urta sug'urtaning mulkiy turiga kiradi. Ammo, tibbiy sug'urtaning mulkiy

<sup>224</sup> Фогельсон Ю. Введение в страховое право. Просто о сложном. 2-ое издание. – М.: «БИК», 2001. – 327 с.

sug'urtaning boshqa turlariga nisbatan alohida xususiyati shundaki, sug'urta to'lovlari yetkazib bo'lingan zararning xarakteriga ega bo'lmaydi, balki ular ushbu zararning oldini oladi, chunki davolash xarajatlarini sug'urtalangan shaxsning o'rniga sug'urtalovchi to'laydi.

Sug'urta hodisasi deb sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati davomida tibbiy xizmatlar ko'rsatilishini talab qilib tibbiyot muassasasiga murojaat qilishiga aytiladi. Ushbu murojaatga mijozning salomatligiga baxtsiz hodisa, o'tkir kasallik yoki surunkali kasallikning kuchayishi tufayli zarar yetgan bo'lishi lozim. Natijada sug'urtalovchining sug'urtalangan shaxsga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun sug'urta summasi va limiti doirasidagi sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyati vujudga keladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda risklarni baholash uchun salomatlikning xolati to'g'risidagi deklaratsiya qo'llaniladi. Agar sug'urtalangan shaxs ushbu deklaratsiyada ma'lum bir surunkali kasallik borligini ko'rsatsa, asosiy sug'urta mukofotiga oshiruvchi koeffitsiyent qo'llaniladi. Sug'urta mukofotining miqdorini aniqlashda sug'urtalangan shaxsning yoshi, sug'urtalash dasturi, sug'urta summasi va albatta, sug'urtalash davri omillar muhim ahamiyatga ega. Sug'urtalash amaliyoti ko'rsatishicha ko'p sonli sug'urtalangan shaxslarni sug'urtalash lozim bo'lsa, yosh mezon odatda hisobga olinmaydi.

O'zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug'urta turini ko'rsatishni ilk bor boshlagan sug'urta kompaniyasi – «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. Ushbu kompaniyada ixtiyoriy tibbiy sug'urta sektori faqat so'nggi yillardagina jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. Buni shundan ham ko'rish mumkinki, 2005 yilda respublikada ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatuvchi 3 ta kompaniya faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2019 yilga kelib ularning soni 15 dan ortiq bo'ldi.

Tibbiy sug'urta xizmatlari bozori taxlili ko'rsatishicha, tibbiy sug'urtalash masalalari mamlakatda alohida me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinmaydi. Mustaqillik yillarida ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalarining soni ko'paydi, shunga mutanosib ravishda tibbiy sug'urtalash hajmi ko'payib ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining sifati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda ijtimoiy sug‘urta tizimini rivojlantirish holati, tibbiy xizmatlar bozori, amaldagi ixtiyoriy tibbiy sug‘urtalashning tashkiliy shakllari va mexanizmlari, fuqarolarning bepul tibbiy xizmatlar olishiga oid huquqlarini ta’minlash bo‘yicha mexanizmning amal qilishi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashuvi bosqichi talablariga javob bermaydi. Yuqoridagi qayd etilgan xolatlardan kelib chiqib, majburiy tibbiy sug‘urta to‘g‘risidagi qonun ishlab chiqish va mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urtalashni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Respublikaning barcha hududlarida tibbiy xizmatlarning kafolatlangan hajmlarini hisoblab chiqish va klinik-xarajat guruhlarini shakllantirish asosida bemorlarning maqsadli kontingentlari va tibbiy yordamning maqsadli turlari uchun majburiy tibbiy sug‘urtaga oid maxsus dasturlarni joriy etish, majburiy tibbiy sug‘urta dasturlari bo‘yicha moliyaviy mablag‘larni jamlovchi va taqsimlovchi majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi davlat va xususiy sektorlarini o‘z ichiga oladi. Xususiy sektor sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanmagan bo‘g‘ini bo‘lib qolmoqda. «2019 yilda respublikada 4 mingga yaqin xususiy tibbiy tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 67 foizi Toshkent shahrida hamda viloyat markazlarida joylashgan»<sup>225</sup>.

Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida respublika xususiy tibbiy muassasalarida aholi tomonidan sifatli tibbiy xizmatlarni tanlash imkoniyatini kengaytirish masalasi ko‘rib chiqilishi zarur. Eng muhimi, ilg‘or xorij tajribalaridan kelib chiqib, majburiy tibbiy sug‘urta dasturi bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatishda xususiy tibbiy tashkilotlarning ishtirokini kuchaytirish talab etiladi.

Jahon tajribasi tahlili ko‘rsatishicha, davlat va xususiy davolash-dagnostik muassasalari faoliyatining reglamentini belgilovchi ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining monitoringi va nazoratini olib borish uchun eng samarali usul – bu tibbiy sug‘urtadir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida aholining 80-100 foizi tibbiy sug‘urtalangan. Shu bilan birgalikda, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar

---

<sup>225</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2018/02/05/medical-insurance/>.

sifati to'g'ridan-to'g'ri aholini sug'urtalash tizimining rivojlanganlik darajasi va klinik-statistik, tibbiy-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanuvchi tibbiy axborot tizimiga bog'liq.

O'zbekistonda aholining tibbiy sug'urta bilan qamrab olinishi o'ta past darajada qolmoqda (umumiy aholi sonining 0,1%), sug'urta xizmatlari ixtiyoriy ravishda muassasalarga hamda alohida jismoniy shaxslarga 40 ta sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etiladi. Ushbu holat tibbiy yordamni standartlashtirish tamoyillariga asoslangan tibbiy xizmatlarning xarakteri, sifati, hajmi va narxini tartibga soluvchi zarur huquqiy asos va tibbiy axborot tizimining yo'qligi bilan bog'liq hmsoblanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, smetali moliyalashtirish davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash nuqtai nazaridan jiddiy nuqsonlarga ega. Jumladan, mablag'larning ajratilishi ko'rsatilayotgan xizmatlarni yakuniy natijalarga bog'lamasdan amalga oshirilishi ushbu resurslardan oqilona foydalanish mezonlarini ta'minlamaydi va xo'jalik yurituvining xarajatlarni ko'paytirishga bo'lgan moyilligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari va ilg'or xorij tajribalariga tayanib, xalqaro standartlar va JSSTining tavsiyalarini implementatsiya qilgan holda sog'liqni saqlash sohasini kompleks huquqiy tartibga solish, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tashkil etish tizimini takomillashtirish, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqobat muhitini yaxshilash, «elektron sog'liqni saqlash» tizimlarini keng joriy etish, majburiy tibbiy sug'urta dasturlarini joriy etilishini qo'llab-quvvatlash uchun sog'liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlarni hisobga olish va daliliy bazani tashkil etish maqsadida sog'liqni saqlash hisobvaraqlari milliy tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa**

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilish sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur sohaning barqarorlashuvi bilan tibbiy xizmatlar bozorini rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Umuman, tibbiy sug'urtani joriy etish – bu sog'liqni saqlash sohalariga

investitsiyalar kiritish, natijada iqtisodiy o'sish uchun innovatsiyalarning shakllanishiga, tashabbusning vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Xalqaro amaliyotda tibbiy sug'urta barcha yollanib ishlovchilar uchun majburiydir, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida esa barcha fuqarolar majburiy tibbiy sug'urta tizimi bilan qamrab olingan. Bunday holat tibbiy sug'urta tizimining tashkil etilishi va amal qilishining jahon tajribasi o'zining rivojlangan tizimiga ega ekanligini ko'rsatadi va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib tibbiy sug'urta mablag'lari hisoblanadi.

Tibbiy sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatish mexanizmi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisobiga rivojlanib, samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan va sust rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimining faoliyati asosan davlat mablag'lari hisobidan ta'minlanmoqda va bunday tizim zarur tibbiy xizmatlarni olish hamda tibbiy xizmatlarning yuqori sifatini kafolatlay olmaydi. Shuning uchun sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish hamkorlikda (davlat va xususiy) bo'lishi hamda ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta mexanizmlaridan foydalanishga asoslanishi kerak.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, majburiy tibbiy sug'urta universal modeli amaliyotda yo'q. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy salohiyati, sog'liqni saqlash sohasi va sug'urta tizimidan kelib chiqqan holda majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy qiladi. Fikrimizcha, majburiy tibbiy sug'urtaning joriy etilishi amaldagi sug'urta bozorining rivojlanishiga va mamlakatdagi sog'liqni saqlash tizimidagi muammolarning bartaraf etilishiga, aholiga kafolatlangan tibbiy xizmatlar taqdim etilishiga olib keladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilish sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur sohaning barqarorlashuvi bilan tibbiy xizmatlar bozorini rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Xorij tajribalari shuni ko'rsatadiki, majburiy tibbiy sug'urtaning universal

modeli amaliyotda yo‘q. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy salohiyati, sog‘liqni saqlash sohasi va sug‘urta tizimidan kelib chiqqan holda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy qiladi. Fikrimizcha, majburiy tibbiy sug‘urtaning joriy etilishi amaldagi sug‘urta bozorining rivojlanishiga va mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolarning bartaraf etilishiga, aholiga kafolatlangan tibbiy xizmatlar taqdim etilishiga imkon yaratadi.

### **Nazorat savollari**

1. Xalqaro sug‘urta bozorida tibbiy sug‘urta tizimining o‘rni.
2. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.
3. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani shakllanish shart-sharoitlari va rivojlantirish muammolari.
4. Mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish imkoniyatlari.

### **Test savollari**

1. 2020 yilda O‘zbekistonda nechta sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyat amalga oshiriladi?
  - A) 40 ta
  - B) 20 ta
  - S) 60 ta
2. O‘zbekiston sug‘urta bozorida yetakchi o‘rin egallab kelayotgan sug‘urta kompaniyalari qaysilar?
  - A) «Kafolat», «O‘zbekinvest» va «Alskom» sug‘urta kompaniyalari
  - B) «Kafolat», «O‘zbekinvest» va «Agro» sug‘urta kompaniyalari
  - S) «Xayot», «O‘zbekinvest» va «Agro» sug‘urta kompaniyalari
3. 2013-2019 yillarda tibbiy sug‘urta bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi sug‘urta kompaniyalar soni nechtaga yetgan?
  - A) 8 tadan 15 nafarga
  - B) 10 tadan 15 nafarga
  - S) 10 tadan 11 nafarga
4. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta mukofotlarining ulushi YaIMda necha foizni tashkil etadi?
  - A) 0,3 foiz
  - B) 10 foiz

S) 9 foiz

5. Germaniyada tibbiy sugʻurta mukofotlarining ulushi YaIMda necha foizni tashkil etadi?

A) 6,5 foiz

B) 10 foiz

S) 9 foiz

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Tibbiy sugʻurta tushunchasi, mohiyati va tamoyillari.

2. “Tibbiy sugʻurta toʻgʻrisida ” gi qonun loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqilishi, tarkibi va yoʻnalishlari.

3. Tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar.

4. Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar.



## **VI BOB. IJTIMOIIY SUG‘URTANI ISLOH ETISH SOXASIDA XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI**

### **6.1-§. AQShdagi ilk ijtimoiy himoya shakllari, sanoat inqilobi, Buyuk Depressiya va ijtimoiy sug‘urta islohotlarining jadallashuvi**

Iqtisodiy xavfsizlikning ilk ko‘rinishlari sanoat inqilobidan oldingi ko‘rinishlariga xos. Misol uchun AQShda sanoatlashish davridan oldin ko‘pchilik aholi qishloq xo‘jaligi bilan kun ko‘rishgan va o‘zlariga zarur resurslar bilan o‘zlarini o‘zlari ta‘minlashgan. Yollanib ishlash holatlari kam bo‘lgan, katta oilalalarda yashashgan. Statistik tasdiq sifatda shuni aytish mumkin, 1880 yilda AQSHning 72 foiz aholisi qishloq xududida va atigi 28 foizi shaharlarda yashashgan. 50 yil o‘tganidan so‘ng esa 1930 yilda bu nisbat tegishli 44 foizga va 56 foizga o‘zgarib ketadi.

Federal sug‘urta tizimi ilk marta fuqarolik urushi munosabat bilan pensiyalar joriy qilingan. Urush qatnashchilari va ularning oilalariga hukumat urush boshidanoq nafaqalar to‘lashni boshlagan. 1893 yilda mazkur xarajatlar budjetning 41,5 foizini tashkil qilgan. Bir yil ichida (1892 dan 1893 yilga qadar) federal budjet 2 million profitsitdan 18 million defitsit tomonga o‘zgargan. Ijtimoiy sug‘urta uchun katta budjet xarajatlar talab etilishi bilan birga aholi umr ko‘rish davomiyligi ko‘rsatkichlari o‘sha davda ijtimoiy sug‘urtaga zaruriyatni yuzaga chiqarmagan. 1850 yilda tug‘ilgan erkak kishining kutilayotgan umr davomiyligi atigi 38 yil, ayollarniki esa 40 yil bo‘lgan xolos. Ammo keyinchalik, XX asrda sanitariya va sog‘liqni saqlash sohalaridagi taraqqiyot aholining uzoq umr ko‘rishiga sabab bo‘ldi.

Sug‘urta amaliyotida manfaatlarni mulk egalaridan keng jamoat tomon siljishiga prezident F.Ruzveltning «Hayotdagi xavf xatarlar» lozungi ostidagi g‘oyalari sabab bo‘lib, XIX asr oxirida, veteranlar pensiya tizimi – ijtimoiy sug‘urta dasturiga o‘zgardi. Shuni aytish joizki, fuqarolik urushi veteranlariga pensiyalar 2003 yilga qadar to‘langan. Shu tariqa odatiy iqtisodiy himoya usullari kuchsizlanib, yangi usullarga talab paydo bo‘ldi. Industrial jamiyat kontekstida ijtimoiy sug‘urta iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash metodi bo‘lib

xizmat qila boshladi. Sug'urta xodisasi ro'y bergan holatlarda alohida fuqarolarga, markaziy fondga to'lagan badallar hisobiga daromadlarni kafolatlash ijtimoiy sug'urta konsepsiyasini tashkil qildi. Ijtimoiy sug'urtaning an'anaviy sug'urtadan farqi shundaki, hukumatlar aktuar prinsiplarni chetlab o'tgan holda ijtimoiy siyosat elementlarini nafaqalar adekvatligi va ishtirokchilar tengligiga tayangan qilgan holda qo'llash imkoniyatga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy sug'urta avvalo Yevropada tashkil topganligi uchun AQShda soha predmetini o'rganish imkoniyati mavjud bo'ldi. Bu ishga birinchilardan kirishganlar: Kolumbiya Universiteti professori, ijtimoiy sug'urta bo'yicha ilk amerika kitobi muallifi – Genri Siger va Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti professori Barbara Armstrong bo'ldilar.

Qo'shma Shtatlarda ommaviy ijtimoiy sug'urta islohotlariga qadar shtatlar kesimida 1935 yilga qadar yirik o'zgarishlar yuz bera boshlagan edi. Misol uchun Viskonsin shtatida 1911 yilda yollanma ishchilarni kompensatsion dasturlar bilan qamrab olish ishlari boshlangan edi. 1934 yilda ishsizlikdan himoyalash dasturi qabul qilindi.

Ijtimoiy dasturlar asosan faol siyosiy harakatlar natijasida qabul qilingan. XX asrning ilk ikki o'n yilligidayoq onalar pensiyalari uchun uyushgan harakatlar olib borilgan edi. Shu tariqa muhtoj bolali oilalarga yordam berish g'oyasi olg'a surilgan. Onalarning birinchi pensiya dasturi 1911 yilda qabul qilindi. 1920 yilga kelib 48 shtatdan 40 tasi shunday dasturlarni qabul qilib bo'lishdi. Ammo oylik to'lovlar u qadar ko'p va miqdor jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmagan. Masalan, bu miqdor Massachusets shtatida 69,41 AQSH dollariga teng bo'lgan bo'lsa, Arkanzasda 4,33 AQSH dollarni tashkil qilgan.

Yoshga doir pensiya uchun harakat Qo'shma Shtatlarda eng faollardan bo'lgan. Bu harakatlarda shtatlarning qonun chiqaruvchi organlarini, aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshga doir pensiyalarni joriy etishga undash ko'zda tutilgan. Yoshga doir pensiyalar lobbingi qator fuqarolik institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

1930 yilda ijtimoiy ta'minot to'g'risida qonun va boshqa ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 1935 yilga kelib 30 shtatda

pensiya dasturlari bor bo'lsada, atigi 3 foiz keksa yoshdagilar nafaqa olishar, nafaqa miqdori esa kuniga 65 sentni tashkil qilar edi (oyiga 19,50 AQSH dollari).

1929 yilda boshlangan va davom etib kelyotgan depressiya Amerikadagi deyarli barcha jarayonlarga ta'sir qildi. Ayniqsa keksa yoshdagi aholi eng ko'p jabr chekkanlardan bo'lishdi. 30 yillarda ko'plab pensiya harakatlariga (pensiyalarni joriy qilishga) sabab bo'lgan keksalar orasida ishsizlik, daromad yetishmasligi va umuman bugungi kunda oddiy hol sifatidagi pensiyaga chiqish amaliyoti yo'qligi sabab bo'ldi. Harakatlar orasida eng radikali Taunsend rejasi deb sanaladi. Reja 60 yoshdan oshgan har bir pensionerga 200 dollar miqdoridagi oylik nafaqani vada qilgan, shu bilan birga o'sha davrda o'rtacha oylik ish haqi 100 dollar miqdorida edi.

Luizianalik senator Xyu Long farovonlik ryejasini, Charlz ota Koflin ijtimoiy adolat uchun ittifoq rejasini va Apton Sinkler Kaliforniyada qashshoqlikni tugatish rejalarini olg'a surishdi. 10 million pensionerlar mazkur harakatlarga uyushib, rejalarini milliy siyosat darajasigacha ko'tarishga harakat qilishdi. O'sha davrda prezident bo'lgan F.Ruzvelt kongressga murojatida real pensiya tizimiga ehtiyoj mavjudligini ta'kidladi. Buyuk Depressiya yangi industrial jamiyatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimi yo'qligi natijasi, deb sanaldi. Shu tariqa inqiroz amerikaliklarni ijtimoiy sug'urta tizimini qabul qilishga majbur qildi. «Keng qamrovli himoya tadbirlaridan biri bu daromadlar kafolatidir. Iqtisodiy himoya dasturi kambag'allik va muhtojlikka olib keluvchi barcha xavflardan ximoyani ta'minlashi lozim»<sup>226</sup>. Tarixshunoslar Prezident F.Ruzveltning boshqaruvi davrini ikki qismga bo'lishadi: «birinchi yangi kurs» va «ikkinchi yangi kurs».

1933 yildan 1934 yilga qadar davom etgan birinchi davr Depressiya ta'siridan «xalos bo'lish va sog'ayish» davri deb sanaladi. 1935-1937 yillarda Prezident Administratsiyasining iqtisodiy siyosatga uzoq yilga mo'ljallangan o'zgarishlar kiritishga harakatlar, «islohotlar» davri deb yuritiladi. Mazkur islohotlar ijtimoiy sug'urta islohotlarining birinchi bosqichini boshlab berdi. 1935 yilda qabul qilingan «Ijtimoiy ta'minot to'g'risida»gi qonun ikkinchi davrni

---

<sup>226</sup>AQSH Iqtisodiy Xavfsizlik Qo'mitasining Kongressga Murojatidan.

boshlab berdi. Ushbu qonun 7 ta turli dasturlardan tarkib topgan hujjatdir:

1. Keksa yoshdagilarga yordam (fyederal moliyaviy ta'minot va shtatlarning farovonlik dasturlari);

2. Keksa yoshdagilarga federal nafaqalar (ijtimoiy ximoya dasturi);

3. Ishsizlik sug'urtasi (federal moliyalashtiruv va shtatlar darajasidagi boshqaruvga ega milliy ishsizlik sug'urtasi);

4. Muhtoj bolalarga yordam (shtatlar darajasidagi muhtoj bolalar farovonligi dasturi);

5. Shtatlarga Bolalar va Onalar farovonligi uchun grantlar (bo'lajak onalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun shtatlar dasturlarini federal moliyalashtirish);

6. Sog'lom jamiyat mehnati (shtatlarning jamiyat sog'lig'i dasturlarini federal moliyalashtirish);

7. Ko'rlarga yordam (shtatlarning ko'rlarga yordam dasturlarining federal moliyalashtiruvi).

Har bir dastur qonun qabul qilinishi mobayida debatlariga sabab bo'ldi. Asosiy debatlariga birinchi va ikkinchi dasturlar sabab bo'lgan bo'lib, birinchisiga federal rezerv fondining o'rnini belgilash va ikkinchisiga ayrim ish beruvchilarning ixtiyoriy ishtiroki masalalari ko'rilgan.

Moliyalashtirish mavzusiga kelganda Prezident F.Ruzvelt dasturlarni o'zini o'zi qoplovchi bo'lishini, dasturlar daromadlari ishtirokchilar daromadidan badal sifatida to'planishi lozimligi va davlat budjeti daromadlariga salbiy ta'sirga ega bo'lmasligini talab qildi. Shu orqali F.Ruzvelt kelajakdagi defitsitlarni o'ylagan holda ta'minlanmagan xarajatlarni oldini oldi.

Birdamlik (solidar) pensiya dasturini kamchiliklarini inobatga olgan holda IXQ – Iqtisodiy Xavfsizlik Qo'mitasi (CES) investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi rezerv fondini tashkil etishni taklif qildi. Shu tariqa Ijtimoiy Himoya Rezervi Konsepsiyasi paydo bo'ldi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan rezerv mablag'lari faqatgina davlat qimmatli qog'ozlariga yoki AQSH tomonidan kafolatlangan majburiyatlarga yo'naltirilishi mumkinligi belgilandi.

Pensiya tizimining ikkinchi muammosi – bu ilk ishtirokchilarning sof aktuar hisob-kitob qilinganda unchalik adekvat bo‘lmagan pensiya miqdorini olishga majbur bo‘lishlaridadir. Shuning uchun davlat pensiya dasturlarida ham, xususiy pensiya tizimlarida ham ilk ishtirokchilarga subsidiyalar ko‘rinishida imtiyozlar berildi. Lekin shunda ham pensiyalar adekvat va adolatli bo‘lishi kerak degan xulosaga kelindi. Adekvat deganda pensiyalar miqdori yetarlicha sahovatli bo‘lishi, adolatli deganda miqdorlar to‘langan badallarga u yoki bu yo‘l bilan bog‘liq bo‘lishi kerakligi, ko‘proq badal ko‘proq pensiya miqdoriga proporsional bo‘lishini nazarda tutishi haqida gap boradi. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish mazkur ikki muvozanat orasida optimallikni aniqlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Qonun qabul qilinganda pensiyaga chiqish yoshi 65 deb belgilandi. Bunga ikki sabab ta’sir ko‘rsatgan. Birinchisi o‘sha paytda mavjud yoshga doir pensiya dasturlarida pensiya yoshi 65 yosh deb belgilangani. Ikkinchisi IXQ aktuariylari tizimni optimal ishlashi uchun hisob-kitoblar natijasida shu yosh eng optimal deb topilgani bo‘lgan (1935 yilda 65 yoshdan keyin kutilayotgan umr davomiyligi erkaklar uchun 12 va ayollar uchun 14 yil deb hisoblangan). Hisoblash formulasida adolatlilikning progressiv aspekti inobatga olingan, ya’ni mehnat faoliyati davrida kam daromadlilar, ko‘p daromadlilarga nisbatan kattaroq qoplash koefitsentiga ega bo‘ldilar. Aynan shu jihat bilan davlat pensiya dasturlari xususiy pensiya dasturlaridan farq qiladi.

Dasturnig dastlabki qamrov darajasi iqtisodiyotda band aholining yarmidan sal ko‘prog‘ini tashkil qilib, asosan savdo va sanoatda bandlarni qamrab olgan edi. Badal ham ishchi ham ish beruvchiga yuklatilgan bo‘lib, birinchi yilda mehnatga xaq to‘lash miqdorining 1 foizini tashkil qilgan va har 3 yilda bir foizga oshirish natijasida 1949 yilga qadar 3 foizga yetkazish bo‘yicha reja qo‘yilgan. Shuningdek, ish haqidan badallar 1937 yilning yanvaridan undirila boshlanib, 1942 yilning yanvaridan birinchi pensiyalar to‘lanishi rejalashtirilgan edi. Inobatga olinadigan ish haqi sifatida 3000 AQSH dollari deb belgilandi va bu chegara ichida qamrab olingan aholining 97 foizi bor bo‘lganligi dasturning muvaffaqiyatini kafolatlab berdi.

## 6.1-jadval

### AQShning asosiy ijtimoiy himoyaga doir qonun hujjatlari

Hujjat nomi	Qabul qilingan sanasi	Asosiy ma'nosi
Ijtimoiy himoya dasturi	1935 yil 14 avgust	Individual pensiya daromadlarini joriy qilish
1939 yilgi o'zgartirishlar	1939 yil 10 avgust	Boquvchisini yo'qotganlarga nafaqalar joriy qilindi. Ammo moliyalashtirish masalasi ochiq qoldi.
1950 yilgi o'zgartirishlar	1950 yil 28 avgust	Qamrov darajasi va moliyalashtirishni oshirish borasidagi o'zgarishlar. Harbiylarga beminnat mehnat krediti imtiyozlarini joriy qilinishi
1952 yilgi qonun	1952 yil 18 iyul	To'lovlar miqdorining oshirilishi, pensiyalar tayinlanishi jarayoni liberalizatsiyalashuvi va harbiylarga beminnat mehnat kreditlari amaliyotini kengayishi
1954 yilgi qonun	1954 yil 1 sentyabr	Qamrov darajasini oshirilishi
1956 yilgi o'zgartirishlar	1956 yil 1 avgust	50 yoshdagilarga nogironlik nafaqalarining joriy qilinishi va ayollarning muddatdan oldin pensiyaga chiqish imkoniyatlarining yaratilishi
1958 yilgi o'zgartirishlar	1958 yil 28 avgust	Nafaqalar va boquvchisini yo'qotganlarga nafaqalar joriy qilindi
1960 yilgi o'zgartirishlar	1960 yil 13 sentyabr	Nogironlik nafaqalarining barcha yoshlarida olish imkoniyati yaratildi
1961 yilgi o'zgartirishlar	1960 yil 30 iyun	Erkaklarga muddatdan oldin pensiyaga chiqish imkoniyatlari yaratildi
1967 yilgi o'zgartirishlar	1968 yil 2 yanvar	Nogiron bevalarga nafaqalar joriy qilindi
1972 yilgi Qarz chegarasi haqidagi qonun	1972 yil 1 iyul	Yashash minimumi summasining yillik avtomatik korreksion meyorlari joriy qilindi

1980 yilgi o'zgartirishlar	1980 yil 9 iyun	Nogironlik maqomini belgilash qoidalari takomillashtirildi
1981 yilgi Omnibus Budjet muvofiqligi to'g'risidagi akt	1981 yil 13 avgust	Yuqori maktabdan keyingi ta'lim talabalari nafaqalari bekor qilinishi
1983 yilgi o'zgartirishlar	1983 yil 20 aprel	Imtiyozlar kamaytirilishi va soliqlarning oshirilishi. Uzoq va qisqa to'lov qobiliyati muammoga aylandi.
1993 yilgi Omnibus Budjet muvofiqligi to'g'risidagi akt	1993 yil 10 avgust	Nafaqalarning soliq solinadigan qismining 50%dan 85% ga oshirilishi
2000 yilgi Nafaqa oluvchilarning mehnat qilish erkinligi qisqartirilishi to'g'risidagi akt	2000 yil 7 aprel	Pensiya yoshiga to'lganlar uchun daromadlarni aniqlash testi bekor qilindi. Ilgari ular ishlagan va ma'lum miqdorda daromad olib boshlagan taqdirda pensiya olish huquqlari to'xtatilar edi.

*\*ikkinchi bosqichga aloqador normativ xuquqiy xujjatlar shulardan iborat. 2000 yildan keyingi qabul qilingan qonun va o'zgartirishlar uchinchi bosqichga tegishli.*

1942 yildan 1972 yil oralig'idagi muddat dasturlarning kengayishi davri deb baholanadi va ijtimoiy sug'urta islohotlarining ikkinchi bosqichini deyarli butunlay qamrab oladi. 1972 yildan so'ng xarajatlarning qisqartirilishi siyosati olib borilgan. Quyida ijtimoiy himoyaga oid 20 ta eng muhim qonun xujjatlari aks ettirilgan (6.1-jadvalga qarang).

Ishtirokchilarga pensiya va nafaqalarni to'lash 1942 yildan boshlanganini hisobga oladigan bo'lsak, 1937 yildan 1942 yilgacha badal to'lagan va shu muddat ichida 65 yoshga to'lganlarga asosiy dasturdan biroz farq qiladigan bir martaalik 3,5 foiz qoplash koeffitsentga ega to'lovlar amalga oshirilgan. Badallar maoshlarning 1 foizi miqdorida bo'lganini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur bir martaalik to'lovlar juda yetarli kompensatsiya bo'lgan, deb hisoblash mumkin.

Amerika tarixida biirinchi ijtimoiy to'lovni olgan shaxs Ogayo shtatining Klivlent shaxri tramvay haydovchisi bo'lgan. 1937 yil 1

yanvarda uning oxirgi ish kuni bo'lgan va o'sha kuni u 5 AQSH dollari maosh olgan va 5 sent miqdoridagi badalni to'lagan. Natijada 1942 yilda u 17 sentlik chekni bir martalik ijtimoiy to'lov sifatida ogan. Bundan so'ng 1937-1942 yillar uchun 441000 dan ziyod odamlar umumiy summasi 25 million AQSH dollari miqdoridagi bir martalik ijtimoiy to'lovlarni olishgan.

1939 yilgi o'zgartirishlar ham katta ta'sir ko'rsatdi deb ishonch bilan ayta olamiz. Mazkur o'zgartirish vafot etgan pensionerlarning oila a'zolariga, ya'ni uning bevasi va har bir voyaga yetmagan bolalari pensiyani hisoblash uchun bazaviy miqdorning 50 foizidan qoplash koefitsenti bilan nafaqaga ega bo'lar edilar. Yolg'iz bevalarda esa boquvchisini pensiya daromadining 75 foiziga xuquq paydo bo'la boshladi. 1939 yilgi o'zgartirish natijasida bir shaxsga yo'naltirilgan ijtimoiy sug'urta tizimi oilani sug'urta qilish tizimiga aylandi. Bu tizimda erkak kishi oila boquvchisi, ayol kishi esa voyaga yetmagan bolalar tarbiyachisi rovida jamiyatda ishtirok etishardi. O'zgarishlar dastur qiymatini ancha oshirdi va rezerv summassini kamayishiga olib keldi. Moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga ehtiyoj vujudga keldi. 1935 yildagi hujjatga asosan Ijtimoiy himoya fondi aslida g'aznachilik departamentidagi hisob yozuvi edi xolos. O'zgartirish kiritilgan yildayoq ortiqcha mablag'larni saqlash maqsadida Trast fondi tashkil qilindi, ammo investitsion yo'nalishlarni aniqlash masalasi ochiqligicha qolayotgan edi.

Prezident F.Ruzveltning talabini bajarish uchun aktuar hisob-kitoblardan keyin 1935 yilning o'zida 1939 yildan 1950 yilgacha badallarni oshirish grafiqi tuzilgan edi. Ammo urush boshlanishi munosabati bilan iqtisodiyotda to'liq bandlik kuzatildi va fond samaradorligi yuqori bo'ldi. Shu sabali 1940 yilgi oshirish rejasi bekor qilindi va keyinchalik ham ushbu grafikka qaytish kuzatilmadi. 1950 yilgacha badal miqdori deyarli o'zgarmasdan saqlanib qoldi. Natijada Kongress diqqatini uzoq muddatli rejalashtirishga emas, balki qisqa muddatlarga qaratdi va bu keyinchalik defitsitga olib keldi.

1950 yilgacha quyidagi bir necha muammolar noroziliklarga sabab bo'lib kelgan: Pensiya daromadlarini oshirib borish dasturi ko'zda tutilmagan; Pensiya daromadlarini miqdori pastligicha qolib kelgani; dastur iqtisodiyotda bandlarning yarmini qamrab olgani.



Pensiya daromadlarining miqdori ozligi noroziliklarni kuchaytirardi. Xatto 1950 yilda ham o'rtacha yoshga doir nafaqa o'rtacha yoshga doir pensiyadan yuqori bo'lgan. Pensiyaga chiqqan kishi naflilik nuqtai nazaridan eng yuqori pensiya daromadini eng birinchi oyda olgan. Ya'ni vaqt o'tgani sayin pensiya daromadlarining miqdori adekvatligi pasayib bordi. Noroziliklar 1950 yilda barcha pensiya va nafaqalarni o'rtacha 77 foizga maxsus hujjat bilan oshirilishiga sabab bo'ldi. Ammo bu noroziliklarni to'xtatishga yordam bermadi. Sababi daromadlar oshirishning mexanizmi ishlab chiqilmasdan ma'muriy yo'l bilan oshirilgan edi. 1950 yildagi o'zgartirishlar qamrov darajasini oshirishga qaratildi. Mehnat bilan band fuqarolarni dastur bilan qamrab olish darajasi 2007 yilda o'rtacha 94 foizni tashkil qildi.

1952 yildan 1954 yilgacha dasturning jadal rivojlanish davri davom etdi. 1954 yilgi qo'shimchalar qishloq xo'jaligida bandlarni, o'zini o'zi band qilganlarni, shuningdek shtatlar va mahalliy davlat xizmatchilarni (ixtiyoriy – guruh ravishda) qamrab olishga yordam berdi. Mazkur davrdagi ko'pgina debatlar «nogironlik davrini muzlatish» («disability freeze») g'oyasini olg'a surgan. Mazkur amaliyot nogironlik davrini stajga xaqiqatdan ham ishlanmagan yoki kam daromadga ega bo'lganligiga qaramay to'liq mehnat davri sifatida inobatga olish imkoniyatini yaratdi. Mazkur mavzudagi o'zgartirishlar dasturga 1954 yilda qo'shildi va bu nogironlik nafaqasini joriy etish uchun birinchi qadam bo'ldi.

1956 yilda nogironlik nafaqalarini dasturga qo'shish qarori bir ovozdan Kongress tomonidan qabul qilindi. Sug'urta tizimi bir qancha chegaralar bilan kiritildi. Misol uchun birinchi nogironlik nafaqalari 50 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan kishilarni qamrab olgan edi. Nafaqani olish uchun 6 oy kutish kerak bo'lgan. Dasturni to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun soliq stavkalari umumiy hisobda 0,5 foizga oshirildi va alohida nogironlik bo'yicha maqsadli fond tashkil qilindi.

Oradan ikki yil o'tib nogironlik nafaqalari amaliyoti liberallashtirildi va bir necha imtiyozlar joriy qilindi. Murojat etgan kundan 12 oy oldingi sana bilan nafaqa tayinlash imkoniyati, boquvchisini yo'qotganlarga nafaqa bo'yicha daromadlarni o'tkazish

imkoniyati va 1960 yilga kelib nogironlik nafaqalarini barcha yoshda tayinlash amaliyoti qo'llana boshlandi.

1956 yilgi qo'shimchalar keyingi bir qator o'zgarishlarga olib keldi: qamrov harbiy xizmatchilarga, o'zini o'zi band qilgan mutaxassislariga, hududlardagi politsiya va o't o'chiruvchilarga qaratildi; ayollarga 62 yoshda, ya'ni muddatdan oldin pensiyaga chiqish imkoniyati berildi; ayollar pensiyasi miqdorini xisoblash uchun kamroq hisobga olinishi amaliyoti ularga ko'proq pensiyalar tayinlash imkoniyatini hosil qildi.

1960 yilda boquvchisini yo'qotgan bolalarga boquvchining pensiya daromadini qoplanishi 50 foizdan 75 foizga oshirildi. 1961 yilda erkaklarga muddatdan oldin pensiyaga chiqish imkoniyati taqdim etildi. Erkaklarni minimal pensiya foydasi o'rtacha hisobda 21 foizga ortdi.

1965 yildagi o'zgartirishlar «Medicare» dasturini yaratilishi bilan birga kechdi va nogironlik atamasiga aniqlik kiritdi. Nogironlikni 12 oygacha yoki ko'proq muddatga yoki umrning oxirigacha belgilash amaliyoti joriy qilindi. 21 yoshgacha talaba bolalar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish imkoniyatiga ega bo'ldilar va bevalik yoshining yuqori chegarasi 60 yoshdan 62 yoshgacha oshirildi. 1969 yilgacha 72 yoshga to'lgan shaxslar ijtimoiy sug'urtada ishtirok etmagan bo'lsalarda sug'urtalangan maqomiga ega bo'ladigan bo'ldilar. Mazkur nafaqa turi uni joriy etgan senator Vinston Luis pruti nomiga «Prouty» nafaqalari deb ataldi.

II Jahon urushidan so'ng AQSH iqtisodiyotidagi o'rtacha ish haqi yiliga narxlar indeksidan ko'ra 2 % ko'proq ortishi kuzatildi. Aktuar hisob-kitoblar har gal faqatgina amaldagi qonunchilikka asoslangan holda o'tkazilardi. Iqtisodiy o'sish va qamrov darajasini ortishi tufayli dasturda daromadlar ortishi ko'zda tutilmasdi. Kongress tomonidan qabul qilingan qarorlar tizimli xarakterga ega bo'lmasdan vaqti-vaqti bilan amalga oshirilardi. Shu sababli Kongress qaror qabul qilishda doimo keragidan ortiqcha daromadga ega bo'lgan holatida bo'lishi kuzatilgan. Shuning uchun pensiya va nafaqalarni oshirish badallar stavkalarini oshirmasdan amalga oshirilishi ko'p kuzatigan.

1972 yilda muhim qonunlar qabul qilindi. Birinchisi, davlat qarzini oshirish to'g'risidagi hujjat. Mazkur hujjat 1975 yildan

boshlab yashash minimumini avtomatik tarzda aniqlashni ko'zda tutdi. Prezident Nikson tomonidan maqullangan siyosatga asosan endilikda pensiya daromadlari nafaqat inflyasiya ta'sirida, balki shu bilan birga o'rtacha ish haqining ortishiga muvofiq avtomatik tarzida oshirilib borish mexanizmi joriy etildi. 1972 yilgi qonun asosida yana bir qator yangiliklar kiritildi: qamrovni yanada kengaytirish maqsadida ijtimoiy sug'urtaga a'zo bo'lishni orqaga surib kelayotganlar uchun kechiktiriladigan mehnat kreditlarini joriy etish (ya'ni tezroq badal to'lashni boshlashga motivatsiyaluvchi chora paydo bo'ldi); kam ish haqiga (yetarli bo'lmagan daromadga) ega fuqarolar uchun qo'shimcha nafaqalar; boquvchisini yoqotgan nabiralar uchun nafaqalar; 60 yoshdagi bevalar uchun nafaqalar; nogironlik nafaqasini ikki yil davomimda olib kelayotganlarni «Medicare» dasturiga kiritish; nogironlik maqomini olishni kutish muddatini 6 oydan 5 oyga qisqartirilishi; 22 yoshga to'lmagan nogiron bolalarga nafaqalar; qo'shimcha sug'urta dasturlari yaratildi.

1970 yillar stagflyasiya<sup>227</sup> bilan kechdi. Ijtimoiy sug'urta aktuariylari 1973 yildan boshlab uzoq muddatli muvozanat endi bo'lmaydi va qisqa muddatlarda ham qiyinchiliklar kuzatiladi, deb hisobot berishdi. 1975-1981 yillar davomida trast fondlarda joylashtirilgan aktivlarni defitsitni qoplash uchun qaytarish rejalashtirildi. Prognoz qilinayotgan yillik defitsitlar ketma-ketligi yaqin dekadada<sup>228</sup> to'liq kuzatilishi kutilmoqda edi. 1983 yilda esa yangi asosiy normativ hujjat qabul qilinishi uzoq va qisqa muddatli muvozanatni ta'minlashi kerak edi.

1977 yilgi hujjatlar soliqlarni oshirilishi va pensiya daromadlarini qisqartirilishi bilan kechdi. Eng kichik pensiya daromadi oyiga 122 AQSH dollari miqdorida muzlatildi. Bazaviy ish haqi 12000 AQSH dollarigacha oshirildi. Bundan oldingi pensiya daromadini avtomatik tarzda aniqlash me'yorlari kamchiliklarini bartaraf etishga ham mazkur hujjat orqali erishilishi kerak edi. Shuning uchun katta e'tibor dasturni moliyalashtirish masalalariga qaratildi. 1990 yilga borib

---

<sup>227</sup> (Lot. stagno – qo'zg'almas qilaman va inflatio – shishmoq, puflangan) – iqtisodiyotda chuqurlashib borayotgan pasayish bilan o'sib borayotgan inflyasiyaning qo'shilishi, iqtisodiyotning turg'unlik, inflyasiya bilan tavsiflanuvchi holati.

<sup>228</sup> (Yun. dekas – o'nlik) – 1) o'n kunlik vaqt. Qadimgi Misrda vaqt o'lchov birligi. Fransiyada 18-a. oxirida fransuz burjua inqilobi davrida hafta o'rnida qo'llanilgan.

badal miqdori 6,2 foiz deb belgilandi. Umumiy daromadlarni testdan o'tkazish (nafaqa yoki pensiya olish xuquqi faqatgina ishlamaydigan yoki ma'lum miqdorgacha qo'shimcha daromadga ega bo'lmaganlarga berilar edi), ya'ni tekshiriladigan vaqt bir oylik bazadan bir yillikka o'tkazildi. Indeksatsiya joriy etilishi bilan vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun inflyasion va o'rtacha ish haqi ortishi ko'rsatkichlari bo'yicha kiritiladigan o'zgartirishlar bir-biridan ajratildi.

Yuqorida keltirilgan o'zgartirishlar natijasini umumiy mehnat haq to'lash fondiga nisbatan foizda ifodalansa quyidagi xulosalarga kelish mumkin: indekslarni ajratilishi natijasida – 4,79%; Pensiya daromadi miqdorlarini qisqartirish natijasida – 0,18%; soliqlar oshirilishi natijasida – 1,78% ga xarajatalarni kamaytirish.

Boshqacha ifodalaganda, umumiy xarajatlarning 26 foizi soliqlar va badallarni oshirish hisobiga, 74 foizi Pensiya daromadlarini qisqartirish hisobiga iqtisod qilinishga erishildi. Ammo, 1977 yilgi o'zgartirish va qo'shimchalar uzoq muddatli moliyalashtirish muammolarini to'la bartaraf etish imkoniyatini bermadi. Moliyalashtirish masalalariga e'tiborning kuchayishi ijtimoiy sug'urta islohotlarining uchinchi bosqichiga tegishli davrni o'z ichiga oladi.

1980 yillarning birinchi yarimida nogironlik nafaqalari yangilanish uchun yana tadqiq etildi. 1970 yillarda kasallikka chalinish holatlari borgan sari ko'payib bormoqda edi. Bu holat Kongress va karter Administratsiyasida xavotir uyg'otdi. Nogironlik nafaqalari summalari boshqaruv ostidan chiqib ketayotgan edi. Xisob Palatasi (General Accounting Office) olib borgan tekshiruv natijasida ijtimoiy himoya bo'yicha nafaqa oluvchilarning 24 foizi aslida anchadan beri nogiron emasligi aniqlandi. Ijtimoiy ximoya Administratsiyasi umumiy harajatlarning 18 foizi nogiron bo'lmagan benefitsiarlarga nafaqa sifatida to'lanayotganini aniqladi.

1980 yilda dastur xarajatlarini boshqarishni takomillashtirish, nafaqa olayotganlarni aniqlash va nogironligi tugaganlarni dasturdan chiqarish vazifalarini ko'zlab – nogironlik to'g'risida asosiy qonun qabul qilindi. 1982 yilda kuzatuv boshlandi va prognozlarga muvofiq yaqin 5 yilda 10 million AQSH dollarini iqtisod qilish ko'zlandi.

1981 yilda boshqaruvga Reygan Administratsiyasi keldi. Yangi Administratsiya jarayonni tezlashtirish orqali budjetni moliyalashtirish masalalarini ijobiy hal qilishga kirishdi. 1981 yil iyulida boshlangan kuzatuvlar ko'pchilikning noroziligi va siyosiy to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Kamiga, kuzatuv qoidalariga ko'ra, tekshiruv faqatgina tibbiy ma'lumotlarni tekshirish bilan kechardi. Benefitsiar bilan yuzma-yuz ko'rish va holatni aniqlash amaliyoti qo'llanmadi. Bu sanoqli holatlarni ommaviy ahborot vositalari orqali shov-shuvli xabarlariga aylantirilishiga olib keldi. Bunga javoban agentlik tomonidan teskari siyosat qo'llana boshladi va bu tibbiy tasdig'ini topmagan holda nogironlik muddatini tugatish amaliyotini ko'paytirib yubordi. Natijada, ommaviy norozilik yanada oshdi, sudlarda ommaviy surishtiruv ishlari boshlanib ketdi va sud tizimi arizalarga to'lib ketishi kuzatildi. Natijada, Ijtimoiy himoya Administratsiyasi tomonidan ayrim sud hukmlarini hisobga olmaydigan siyosatga ega qarorlar qabul qilinishi boshlandi. Bu nomuvofiqlik tufayli to'qqizta shtat gubernatori, ular bilan birga mamlakatning 28 foizi mehnatkashlarni o'z ichiga olgan hududlar nogironlik bilan bog'liq xolatlarni ko'rish amaliyotini to'xtatdi.

Noroziliklar sababli Kongress 1984 yilda Nogironlik nafaqalarini isloh etish aktini qabul qildi. Mazkur hujjat 1980 yilgi hujjat bilan kiritilgan me'yorlarni amaliyotdan chiqarishga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy tadbirlarni o'z ichiga oldi: aholi salomatligini oshirish orqali nogironlik nafaqalarini kamaytirish; ma'lum bo'lgan nomuvofiqliklarni nogironlik tshunchasini aniqlashtirish orqali hal qilish; ijtimoiy himoya Administratsiyasi tomonidan psixologik kasalliklar to'g'risida aniq qoidalarni joriy qilinishi, tugatilgan nogironlik varaqalarini qayta tiklash va yangi qoidalar asosida qayta ko'rib chiqishi lozim bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan siyosiy asosga tayangan holda nogironlik dasturi ishlashni davom ettirdi.

Yuqorida aytilganidek ijtimoiy ximoya dasturi 1975 yildan boshlab har yili defitsitga ega bo'lib, maqsadli fondlar aktivlari uni qoplash uchun sarflanayotgan edi. 1977 yilgi o'zgartirishlar uzoq davrga barqarorlikni vada qilayotgan bo'lsa-da, qisqa muddatlarda ham muammolar hal qilishni talab qilayotgandi. 1978 va 1979 yilgi

hisobotlarga nazar solinganda qarilik, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlikdan sug'urtalashning Federal Kengash a'zolari ko'rsatkichlarni yaxshilanayotganni ta'kidlangandi. Ammo, iqtisodiyotning yomonlashuvi natijasida dastur o'z to'lov qobiliyatini yo'qotib borayotgan edi. 1980 yilga kelib narxlar inflyasiyasi 13,5 foizga yetdi, o'rtacha ish haqi esa 4,9 foizga pasaydi.

Nihoyat 1981 yilga kelib Reygan Administratsiyasi moliyalashtirishning maxsus paketini taklif etdi. Mazkur paket ma'muriy tartibda ixtiyoriy pensiyaga chiqishni 38 foiz kamaytirish imkonini berardi. Taklif Senat tomonidan 96 ga 0 ovoz bilan rad etildi. Bunday sharmandalikdan so'ng Prezident Reygan moliyalashtirish masalalarini o'rganish va takliflar kiritish vazifasini yuklagan holda «Grinspin Komissiyasini» tuzdi. Komissiya 16 ta qisqa muddatli va uzoq muddatli siyosiy o'zgartirishga doir takliflarni aks ettirgan hisobotni Kongressga taqdim qildi. Kongress deyarli o'zgartirishlarsiz barcha takliflarni qabul qildi (takliflarning 4 tasi xarajatlarni ortishiga va 12 tasi xarajatlarning kamayishiga yordam berar edi) va pensiyaga chiqish uchun talab qilinadigan yoshni 65 yoshdan 67 yoshga oshirdi. Prezident Reygan qarorni 1983 yil aprelida imzoladi. Qabul qilingan qonunga tegishli quyidagi asosiy o'zgarish va qo'shimchalar e'tiborga molikdir: davlat xizmatchilari va nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlarini dastur bilan qamrab olish kengaydi (ilgari dasturda ishtirok etgan va dasturdan chiqib ketgan Shtatlar uchun endilikda ishtirok majburiy hisoblandi); yillik yashash minimumidan past daromad oluvchilarga kompensatsion to'lovlarni to'lash sanasi iyundan yanvarga ko'chirildi (amalda 1983 yilda mazkur kompensatsion to'lov umuman to'lanmadi); 2000 yildan boshlab bosqichma-bosqich pensiyaga chiqishning to'liq yoshi 65 dan 67 ga ko'tarildi; o'zini o'zi band qilgan shaxslarga solinadigan badal stavkasi ikki barobar oshirildi (ilgari o'zini o'zi band qilganlar uchun badal stavkasi aralash tipdagi bandlarning badal stavkasidan past edi); Pensiya daromadlarining 50 foizi soliq solish bazasiga kiritilishi amaliyoti joriy qilinib, undirilgan summalar Ijtimoiy himoya Administratsiyasining trast fondlariga yo'naltiriladigan bo'ldi; 1993 yildan boshlab trast fondlarga budjetga kiritilmaydigan operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati berildi.

1983 yil jamg'armaga yo'naltirilgan daromadlarning 52 foizi qo'shimcha badallardan, 34 foizi pensiya daromadlari miqdorlarining o'zgarishi, 15 foizi esa qamrov darajasi o'zgarishidan kelib tushdi. 1983 yilgi hujjat qisqa va uzoq muddatli uzilishlarni to'ldirishga yordam berdi. Uzoq muddatli istiqbolda esa 41 foizi jamg'arma daromadlari badallardan, 38 foizi miqdorlar o'zgarishidan, 21 foizi esa qamrov darajalari o'zgarishidan kelib tushishi rejalashtirildi va aktuariylar tomonidan tasdiqlandi. Pensiya yoshini uzaytirilishidan kelib chiqqan farq 1983 yilning o'zida iqtisod qilingan mablag'larning 34 foizini tashkil qildi. 1983 yilgi qonun natijasidagi o'zgarishlarga Ijtimoiy himoya Byulletenida quyida keltirilgan jadvalda prognoz baholar keltirilgan. Mazkur qonun AQShning ijtimoiy sug'urta sohasida XX asrning oxirgi asosiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi. Lekin shu bilan birga 1990 yillardan so'ng yana bir qancha kichik tuzatishlar kiritilgan (budjetni kelishilgan holda qabul qilish qonuni, fuqarolarning mehnat qilish erkinligi to'g'risidagi qonuni va boshq.)

B.Klinton Administratsiyasi hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng oxirgi 30 yilda birinchi marotaba budjet profitsiti kuzatilgan edi. Ortiqcha mablag'lar davlat asosiy qarzini kamaytirish uchun yo'naltirilgan va shu tariqa budjetni muhim vaziyatlar yuzaga kelganda ijtimoiy majburiyatlarini amalga oshirish kafolati mustahkamlanishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga asosiy qarzni kamayishi natijasida foiz ko'rinishida iqtisod qilingan budjet mablag'larining barchasi Ijtimoiy himoya Administratsiyasi fondlariga o'tkazib berilishi belgilandi. B.Klinton davrida bundan boshqa o'zgarish sodir bo'lmadi.

2009 yilda trast fondlar hisobotida keyingi 75 yillik aktuar hisob-kitob prognozlari chop etildi. Unga ko'ra, yaqin 75 yil ichida dastur soliq solinadigan pensiya daromadlarining 2 foizi miqdorida yoki boshqacha aytganda 5,3 trln. AQSH dollari miqdorida defitsitga ega bo'ladi, deyilgan. 2007 yilning o'zida ishtirokchilar badallari hisobiga pensiya daromadlari sifatida aholiga yo'naltiriladigan to'lovlarning atigi 76 foizi qismi qoplanadi, deb hisoblandi.

Djordj Bush Administratsiyasi vakolatga kirishganidan so'ng 2001 yilda maxsus tadqiqot komissiyasi tuzildi. Ammo prezidentning ikkala boshqaruv davrida ham huch qanday o'zgarishlar soldir

bo'lmadi. Bunga yirik siyosiy va iqtisodiy sabablar katta ta'sir ko'rsatgan.

Barak Obama prezident bo'lganidan so'ng 2010 yil 18 fevralda Fiskal javobgarlik va islohotlar bo'yicha milliy komissiya tuzildi. Mazkur komissiya zimmasiga butun Federal budjetni, shu jumladan, ijtimoiy ta'minot va boshqa sohalarni o'rganish va tadqiq etish yuklatildi. Umuman Barak Obama Prezidentlik davri ijtimoiy himoyani kuchaytirilishi va tibbiy sug'urta bilan qamrab olishni kengaytirish davri deb baholanadi. Iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy adolat masalalariga ko'proq berilgan e'tiborni Barak Obama tomonidan Prezident B.Klinton davrida boshlangan ijtimoiy islohotlarning davom ettirilishi va rivojlantirilishida ko'rishimiz mumkin.

2009 yilda Barak Obama «Amerikani tiklash va reinvestitsiya to'g'risida»gi qonunni imzoladi. Bu hujjat bilan Ijtimoiy himoya Administratsiyasiga qo'shimcha 1 mlrd. AQSH dollari ajratildi. Summaning 500 millioni milliy hisob-kitob markazini yangilashga va informatsion texnologiyalar sotib olishga sarflanishi rejalatirilgan edi. Qolgan yarimi yoshga doir va nogironlik sug'urtasi bo'yicha mehnat yuklamalarini hisoblash va shu yo'nalishda tadqiqot olib borish uchun, shuningdek buning uchun axborot texnologiyalarini sotib olish uchun sarflandi. Qonun loyihasi, shuningdek quyidagi dasturlar bo'yicha har bir benifitsiarga bir martalik 250 AQSH dollari miqdorida iqtisodiy kompensatsiyani to'lashni ko'zda tutdi va amalga oshirdi: 1. Temir yo'l pensionerlari dasturi; 2. Nogironligi bor veteranlar dasturi; 3. Qo'shimcha ijtimoiy ta'minot dasturi.

2019 yil sentyabrida Prezident yana bir qarori bilan mehnat faoliyatini rejalashtirish va qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ta'minot oluvchilarni huquqlarini himoya qilish kafolatini taqdim etib, ijtimoiy sohani budjetdan qo'shimcha moliyalashtirishni 2010 moliya yili oxirigacha uzaytirdi. 2009 yil dekabrda esa 1 yil muddatdan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga sudlangan va qamoqda saqlanayotganlarga, ular bilan birga javobgarlikdan qochib yurgan jinoyatchililarni ijtimoiy ta'minotning barcha turlaridan mahrum qiluvchi hujjatni imzoladi. 2010 yilda nogironligi bo'lgan va ijtimoiy himoya olishga talabgor shaxslarni yuridik vakillarga (advokatlarga)



gonorarlarni kechiktirib (nafaqa tayinlanganga qadar) to‘lash xuquqi kafolatlari berildi.

### **Nazorat savollari**

1. AQShdagi ilk ijtimoiy himoya shakllarini izohlab bering.

2. Ijtimoiy sug‘urtaning an’anaviy sug‘urtadan farqli xususiyatlarini ifoda eting.

3. AQShda ijtimoiy dasturlarning asosiy yo‘nalishlarini tavsiflab bering.

4. AQShda 1935 yilda qabul qilingan «Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risida»gi qonunning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

### **Test savollari**

1. 1880 yilda AQShning necha foiz aholisi qishloq xududida yashashgan?

A) 72 foiz

B) 70 foiz

S) 60 foiz

2. AQShda 1850 yilda tug‘ilgan erkak kishining kutilayotgan umr davomiyligi necha yosh bo‘lgan?

A). erkak kishi 38 yosh, ayollarniki esa 40 yosh

3. AQShda 2003 yilga qadar veteranlar pensiyai kimlarga pensiyalar to‘langan?

A) fuqarolik urushi veteranlariga

B) Ijtimoiy sug‘urtalanganlarga

S) Barcha keksa yoshdagilarga

4. AQShda birinchilardan ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha ilk amerika kitobi mualliflari kimlar?

A) Genri Siger va Barbara Armstrong

B) F.Ruzvelt va Barbara Armstrong

S) Genri Siger va F.Ruzvelt

4. AQShda nechanchi yil ishsizlikdan himoyalash dasturi qabul qilingan?

A) 1934 yilda

B) 1930 yilda

S) 1940 yilda


## **Mustaqil ish mavzulari**

- 1.AQShda ijtimoiy sug'urta tizimining moliyaviy ta'minoti va manbalari.
- 2.AQShda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari.
- 3.AQShda nogironlarni himoya qilish tizimi.
- 4.AQShda ishsizlik sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari
- 5.AQShning asosiy ijtimoiy himoyaga doir qonun hujjatlari

### **6.2-§ Kanadaning ijtimoiy sug'urta tizimi**

Kanada kanadaliklarga moliyaviy, shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy farovonligini oshirishda yordam beradigan ko'plab ijtimoiy dasturlarni taklif etadi. Kanadaning doimiy aholisi va ma'lum migrantlar ijtimoiy dasturlarga foydalanish imkoniyatiga egalar. Kanada federal, viloyat yoki hududiy, munitsiral darajadagi davlat jamg'armalari va ko'plab ijtimoiy dasturlarni boshqaradi. Bazi ijtimoiy dasturlar Kanada bo'ylab bir xil, boshqalari har bir hududda har xil nom va tuzilishga ega. Avvallari kanadaliklar ijtimoiy yordamni cherkovlar va o'zlarining oilalaridan olishgan. Kanadada ijtimoiy dasturlar Ikkinchi jahon urushidan keyin taqdim etildi va mavjudlari kengaytirildi (6.1-rasm).

Ijtimoiy dasturlarning ikki asosiy turi mavjud bo'lib, birinchisi, daromadga asoslangan, ikkinchisi xizmatlarga asoslangan. Daromadga yordam berish dasturlari jismoniy shaxslarga farzandli bo'lganda, kasallanganda, ishsiz qolganida davlat tomonidan nafaqalar ajratiladi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari deb ataladigan dasturlarga ish haqini sug'urtalash bo'yicha imtiyozlar, oilaviy nafaqa va ijtimoiy nafaqa kiradi.



**6.1-rasm. Kanada ijtimoiy dasturlari**<sup>229</sup>

Xizmatlarga asoslangan ijtimoiy dasturlar shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy farovonlikni qo'llab –quvvatlaydigan sog'liqni saqlash, uy joy va ta'lim kabi xizmatlarni ko'rsatadi. Ushbu dasturlarning bazilari jismoniy shaxslarga grant yoki chegirma shaklida bir martalik to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarni amalga oshiradi. Jismoniy shaxslar daromadlar bo'yicha yordam davsturlari va xizmatlarga asoslanagn ijtimoiy dasturlarga kirish uchun federal hukumat tomonidan beriladigan ijtimoiy sug'urta raqamlariga ega bo'lishlari lozim.

Daromadga ko'maklashuvchi ijtimoiy dasturdar quyidagilardan iborat:

1. Mehnatni sug'urtalash bo'yicha imtiyozlar. Bandlikni sug'urta qilish dasturi fuqarolarga kutilmagan ish yo'qotishi, kasalligi yoki jarohat olish holatlarida vaqtincha moliyaviy yordam beradi. Agar ishchilar o'z aybisiz ishdan bo'shasa, ular doimiy nafaqa olish uchun murojaat qilish huquqiga egadirlar. Agar ishchilar kasallik yoki jarohati tufayli ishlay olmasa, kasallik uchun nafaqa olish huquqiga ega.

2. Ishchilarga kompensatsiyalar. Kanadada Ishchilarga haq to'lash bo'yicha kengashlari hududlardagi mehnat faoliyatini tartibga

<sup>229</sup> <https://www.thecanadianencyclopedia.ca/en/article/social-programs-in-canada>

soladi. Ushbu agentliklar ish joyida shikastlanish yoki kasallikdan aziyat chekayotgan ishchilarni sugʻurta qoplamasini taqdim etish bilan shugʻullanadi. Ular ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladi.

3. Oilaviy imtiyozlar. Mehnatni sugʻurtalash dasturi homilador yoki bola parvarishi sababli ishdan ketgan ishchilarga moliviy yordam beradi. Yangi tugʻilgan yoki asrab olingan bolani boqish uchun tshdan ketgan ota-onalar onalik yoki ota-ona taʼtilidan nafaqa olish uchun murojaat qilishlari mumkin. Ota-ona taʼtilini ota-onalar oʻrtasida boʻlishishi mumkin.

Mehnatni sugʻurtalash dasturi shuningdek, jiddiy jarohatlangan, kasal boʻlgan yoki hayotining oxirigacha parvarishga muhtoj boʻlgan oila aʼzolariga qarash uchun ish joyini tark etadigan ishchilarga gʻamxoʻrlik qilish imtiyozlarini taqdim etadi.

Avvallari “Oilaviy nafaqa” deb nomlanadigan Kanada bolalar nafaqasi 18 yoshga toʻlmagan bolalari bor Kanadalik oilalarga oylik toʻlov tarzida berilar edi. Federal hukumat oilaning Kanada bolalar nafaqasi uchun toʻlov miqdorini aniqlash uchun oilaning daromad soligʻi deklaratsiyasidagi maʼlumotlardan foydalanadi. Kanada bolalar nafaqasi soliqsiz boʻlib, u bola nogironligi uchun nafaqani oʻz ichiga olishi mumkin. Bola nogironligi nafaqasi 18 yoshga toʻlmagan bolasi bor va aqliy yoki jismoniy faoliyatida jiddiy buzilishlarga ega boʻlgan oilalar uchun beriladi.

4. Davlat pensiyalari. Old Age Security (OAS)dasturi 65 yosh va undan katta kanadaliklarna, ular ishlagan yoki ishlamagan boʻlsalar ham har oyda toʻlanadi. Ushbu toʻlov pensiya deb ataladi. . Old Age Security dasturi federal hukumatning soliq tushumlari jamgʻarmasi hisoblanadi. Fuqaro oladigan OAS pensiyasining miqdori ular 18 yoshdan keyin Kanadada qancha vaqt yashaganlariga bogʻliq.

Kanada pensiya rejasi bu kanadaliklar va ularning oilalariga pensiya, nogironlik yoki oʻlimidan keyin daromadlarini qisman almashtirish uchun toʻlanadigan oylik toʻlovdir. Ishlayotgan kanadaliklar munosib pensiya olish uchun Kanada pensiya rejasiga muntazam ravishda toʻlovlarni amalga oshiradilar. Kebek provinsiyasi oʻzining pensiya rejasini, Québec Pensiya rejasini yuritadi. Kanada pensiya rejasi “omon qolgan shaxsning nafaqasi” oʻlimi oldidan rejaga kirgan shaxsning turmush oʻrtogʻini yoki qonuniy sherigi uchun

to'laydi. Og'ir nogiron va ishlashga yaroqsiz bo'lgan 65 yoshgacha bo'lgan ishchi nogironlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega.

5. Daromadlarni qo'llab quvvatlash dasturlari moliyaviy yordamga muhtoj odamlarga yordam va ish bilan ta'minlashga yordam beradi. O'zini o'zi boqish imkoniyatiga ega bo'lmagan insonlar uchun bunday mablag'lar oxirgi daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dasturlarni viloyat va hududlar boshqaradi. U nomlanishi turlicha bo'lib, Ijtimoiy yordam (NB, ON, QC, PE, YT), Bandlik va daromadga yordam (MB), Daromadga yordam (BC, NU, NS, NT) va Daromadlarni qo'llab-quvvatlash (AB, NL, SK) kabi yuritiladi. Odamlar ish izlayotgan vaqtda ham "ijtimoiy" to'lovlarni olish imkoniyatiga ega. Daromadlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari ish bilan ta'minlashga yordam beradi. Bunga ish joylari bo'yicha maslahat berish, o'qitish va turli kanallar orqali ta'lim olish imkoniyati kiradi.

6. Tovar va xizmatlarga soliq/muvofiqlashtirilgan savdo solig'i (GST/HST) kreditlari har chorakda to'lanadigan to'lov bo'lib, u kam va o'rta daromadli kanadaliklarga beriladi. Ushbu to'lov har yili to'lanadigan GST yoki HST qismini to'liq yoki qisman qoplaydi. GST/HST kreditini olish uchun kanadaliklar har yili soliqlarni o'sha yil daromad olishgan yoki olmaganliklari to'g'risida ma'lumot topshirishlari shart.

Xizmatlarga asoslangan ijtimoiy dasturlar quyidagilar:

1. Kanada sog'liqni saqlash tizimi. Sog'liqni saqlash tizimi kanadaliklarga sog'lom hayot kechirishga yordam beradigan federal institutdir. Kanada sog'liqni saqlash xizmatlari va ma'lumotlarni taqdim etadigan turli xil bo'limlarga ega. Kanada tibbiy sug'urta dasturi, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan sog'liqni saqlash tizimi (tibbiyot deb ham ataladi) bo'lib, barcha kanadaliklarning kasalxonalar va shifokorlar bilan uchrashishini ta'minlaydi. Fuqarolar va doimiy yashovchilar tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun viloyat yoki hududiy sog'liqni saqlash kartalari (parvarishlar kartalari)ga ega bo'lishi lozim. Federal hukumat odamlarning ba'zi guruhlariga, jumladan Kanada qurolli kuchlari a'zolari va federal qamoqxonalardagi mahbuslarga sog'lig'ini saqlashni bevosita ta'minlaydi.

2. Uy-joy. Federal xukumat 1946 yilda barcha kanadaliklar jumladan, kam daromadli va alohida ehtiyojlarga ega bo'lmaganlar uchun uy-joy olishni yaxshilashga yordam berish uchun Kanada ipoteka va uy-joy korporatsiyasini yaratdi. Uy-joy mulkdorlariga boshpana sotib olish narxini aniqlashda yordam beradigan bir qator qoidalar mavjud. Bularga uy egalari uchun nafaqa va imtiyozlar va arzon uy-joylar kiradi. Subsidiyalangan uy-joylar butun Kanadada mavjud ammo, har bir viloyat va mintaqada siyosat turlicha.

3. Ta'lim. Viloyat va hududlar boshlang'ich va o'rta ta'limni moliyalashtiradi va ta'minlaydi. O'quvchilar o'rta maktabdan keyingi ta'lim uchun to'lov to'laydilar. O'rta maktabdan keyingi talim ham federal va provinsiya hukumatlari tomonidan subsidiyalanadi. Kanada talabalar grantlari va kreditlari o'rta maktabdan keyingi talabalarga o'qish narxiga qarab yordam beradi. Federal xukumat talabalar sportchilarini kasb-hunarga o'qitish va o'qishni qo'llab quvvatlash uchun o'quv kreditlarini taqdim etadi.

4. Yuridik yordam dasturi. Viloyat va federal hukumatlar huquqiy yordam dasturlarini viloyat va hududlar tomonidan boshqariladi. Ushbu dasturlar kam daromadli odamlarga jinoiy, immigratsiya va qochqinlar ishlari bo'yicha yuridik xizmatlardan foydalanishga yordam beradi.

5. Bolalar farovonligi dasturi. Kanadadagi bolalar farovonligi bo'yicha dasturlar xizmatlarni taqdim etib, ularning maqsadlari zo'ravonlik va beparvolikdan himoya qilish hisoblanadi. Shuningdek, ular iloji boricha tug'ilgan bolalarni oilalari bilan ushlab turish uchun oiladagi barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu xizmatlarni yetkazib berish uchun mamlakatning viloyat va xududiy hukumatlari bolalarga yordam ko'rsatadigan jamiyatlarini tuzdilar.

6. Maxalliy xalqlar. 2019 yilda tashkil etilgan federal hukumatning bo'limi bo'lgan Kanada mahalliy xizmatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Inuit va Métis jamoalari uchun ijtimoiy dasturlarga kirishni yaxshilash uchun ishlaydi. Ushbu dasturlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, oila va bolalar farovonligi kiradi. Mahalliy xizmatlar Kanada tub aholisini o'z jamoalari ichida mustaqil ravishda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

7. Nogironlar. Mintaqaviy yordam dasturlari nogironligi bo'lgan odamlarning qamrab olinishi va sog'lom turmush tarziga yordam beradi. Ushbu dasturlar ishtirokchilarga ishlashga, ko'ngilli bo'lib mashq qilishga va kundalik tarmush ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Hamjamiyat idoralari qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lganlar uchn guruhli ular, oilaviy uylar va ixtisoslashgan turar joylar bilan ta'minlaydilar.

8. Kanadaga yangi kelganlar. Kanadadagi ko'chishga ko'maklashish dasturi hukumat tomonidan qochoqlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Qochoqlar – urush yoki ta'qiblar tufayli o'z mamlakatini tark etishga majbur bo'lgan muhojirlar. Immigratsion kreditlar dasturi, qochoqlarga ko'chirish uchun tanlanganlarga moliyaviy kreditlar beradi.

9. Faxriylar. Federal hukumat Kanada Qurolli Kuchlari va Kanada Qirollik Politsiyasining hozirgi va sobiq a'zolariga alohida imtiyozlar taqdim etadi. Ushbu dasturlar daromadlarni qo'llab-quvvatlash, jarohati yoki kasalligi tufayli kompensatsiya, harbiy asirlarga beradigan nafaqa, o'lim nafaqalari va favqulodda yordam fondlarini o'z ichiga oladi.

### **Nazorat savollari**

1. Kanada pensiya tizimini shakllanishi, tarkibi va pensiya turlari.

2. OAS pensiya dasturi tarkibidagi pensiya turlari.

3. Xususiy pensiya dasturi komponentlari: kasbiy-korporativ pensiya fondi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya fondi, xususiy pensiya dasturi.

### **Test**

1. Kanada davlat jamg'armalari va ko'plab ijtimoiy dasturlarni qay darajada boshqariladi?

A) federal, viloyat yoki hududiy, munitsiral darajada

B) Xukumat darajasida

S) Xukumat va munitsiral darajada

2. Kanadada ijtimoiy dasturlarning qanday turi mavjud?

A) daromadga va xizmatlarga asoslangan

B) Ijtimoiy sug'urtaga asoslangan

S) Soliq stavkalariga asoslangan

3. Xizmatlarga asoslangan ijtimoiy dasturlarga nimalar kiradi?

A) ijtimoiy va ma'naviy farovonlikni qo'llab –quvvatlaydigan sog'liqni saqlash, uy joy va ta'lim

B) Aholi farovonligini oshirish

S) Tibbiy xizmat va sug'urta xizmatlari

4. Mehnatni sug'urtalash dasturi qanday imtiyozlarini taqdim etadi?

A) jiddiy jarohatlangan, kasal bo'lgan yoki hayotining oxirigacha parvarishga muhtoj bo'lgan oila a'zolariga qarash uchun ish joyini tark etadigan ishchilarga g'amxo'rlik qilish

B) oila a'zolariga qarash uchun ish joyini tark etadigan ishchilarga g'amxo'rlik qilish

S) Daromdini yoqotgan shaxslar uchun nafaqalar to'lab berish

5. Kanada bolalar nafaqasi necha yoshga to'lmagan bolalarga oylik to'lov tarzida berilar edi?

A) 18 yosh

B) 15 yosh

S) 5 yosh

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Kanada sug'urta fondlari aktivlari tarkibi va uni diversifikatsiyalash masalalari.

2. sug'urta fondlarini investitsion faoliyati.

3. Pensiya fondlari aktivlarini boshqarish.

4. sug'urta fondlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari.

5. Pensiya fondlarini daromadlilik darajasini oshirish.

### **6.3-§. Yaponiyada ijtimoiy himoya dasturlari va ijtimoiy sug'urta tizimi**

Yaponiyaning ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmatlar (ijtimoiy ta'minot agentliklari) dasturlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy yordam dasturi «munosib» turmush tarziga ega bo'lish huquqini ta'minlashda ijtimoiy «oxirgi chora» vazifasini bajaruvchi minimal standart rolini bajaradi.



Urushdan keyingi davrda kambag'allik muammosi va aholini eng zarur buyumlar bilan ta'minlash, uy-joy yetishmovchiligi masalasi intensiv (resurstejam) iqtisodiy o'sish orqali bartaraf etildi. 1970 yildan boshlab Yaponiya fuqarolari «yuz million fuqaroning hammasi o'rta sinfga mansub» bo'lgan mamlakatda yashayabmiz, deb ishonishgan. Biroq, 1990 yillarda «ko'pikli iqtisodiyot» qulaganidan so'ng, iqtisodiy inqiroz sharoitida mehnat shtatlarning qisqarishi va shtatdan tashqari ishchilar sonining ko'payishi tufayli aholi daromadlari o'rtasidagi farq sezilarli bo'lib borgan. Natijada jamiyatida aholining progressiv tabaqalanishini yuzaga keldi. Aholining tabaqalanishi, uzoq va kam haq to'lanadigan ish soatlarida ishlovchilarning («ishlaydigan kambag'allar» – daromadlari qashshoqlik chegarasidan past bo'lgan ishchilar) vujudga kelishi Yaponiyadagi kambag'allik darajasining yuqori bo'lishiga olib keldi.

Yaponiyada kambag'allik chegarasi bir martalik daromadning yarmi miqdorida o'lchanadi. Uy xo'jaliklarining sof bir martalik daromadi – bu har yili soliq va o'tkazmalardan keyin uy xo'jaligi ishlab topadigan pul miqdori. Yaponiyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad yiliga 29798 AQSH dollarini tashkil etadi, bu IHTT mamlakatlari orasida 14 o'rinda va mamlakatlar o'rtacha ko'rsatkichi 33604 AQSH dollaridan past ko'rsatkichdir. Uy xo'jaligining sof boyligi – bu uy xo'jaligining moliyaviy va nomoliyaviy (pul yoki bankdagi hisobvaraqlardagi ulush, asosiy yashash joyi, ko'chmas mulk ob'ektlari, transport vositalari, qimmatbaho buyumlar va boshqalar) daromadlarining umumiy qiymati. Yaponiya uy xo'jaligining o'rtacha boyligi 305878 AQSH dollarini tashkil etadi, bu IHTT mamlakatlari orasida 12 o'rinda va mamlakatlar o'rtacha ko'rsatkichi 408376 AQSH dollaridan pastdir.

Boshqa mamlakatlar kabi Yaponiyada ijtimoiy ta'minot manbai xayriya faoliyatiga yo'naltirilgan. Bunga 539 yilda tashkil etilgan «Shikain» (nochorlik uchun to'rt institut) misol bo'ladi. Imperator sudi, Shogunat (Shogunate), feodal beklari kambag'allarga yordam berar edilar. Shuningdek, buddist ibodatxonalari xam aholining nochor qatlamlariga yordam berardi. Ushbu choralar Konfutsiylik va Buddizmning xayriya etikasiga asoslangan edi. Biroq, ijtimoiy yordam oluvchilar oilasiz kambag'al qariyalar hisoblanar edi. Bu

o'sha vaqtdagi jamiyatdagi o'zaro yordamning prinsipial asosi hisoblangan. Misol uchun, «Gonin-gum» (Edo Erasining besh a'zo guruhi) nafaqat to'lovlarni amalga oshirish uchun guruh bo'lganligi bilan birgalikda, balki jamiyatdagi o'zaro yordam tashkiloti edi.

Yaponiyada «ijtimoiy ximoya» iborasi birinchi marotaba 1946 yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 25 moddasida qo'llanilgan bo'lib, uning ahamiyati va qamrovi noaniq bo'lgan. Biroq, 1950 yilda Bosh vazir huzuridagi ijtimoiy himoya Kengashi kelgusidagi Yaponiya ijtimoiy ta'minot tizimining maqsadlari haqida ma'lumot berdi:

- davlat kambag'allikni (kasalliklar, jarohatlanish, farzand ko'rish, nogironlik, qarilik, o'lim, ishsizlik, ko'p farzandga ega oilalar) qisqartirish maqsadida davlat dasturlar orqali yordam beradi, ijtimoiy sug'urta yoki soliq imtiyozlari shaklida qo'llab-quvvatlashi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga davlat ijtimoiy yordam tizimining minimal turmush darajasini yaratib berishi;
- davlat dasturlarining sog'liqni saqlash va jamiyat farovonligini rivojlanishiga yordam berishi.

Urushdan keyingi davrda Yaponiyaning ijtimoiy ta'minot tizimida tartibsizlik yuzaga kelishi oqibatida Yaponiya ijtimoiy yordam dasturi qabul qildi. 1951 yilda ijtimoiy yordam dastur mablag'ining 16 foizidan ortig'i ijtimoiy ta'minotga ajratildi. 1961 yilda universal tibbiy sug'urta va pensiya ta'minoti qabul qilinishi ijtimoiy himoya bilan kam daromadli aholi qatlamini ham qamrab olinishiga erishildi.

1963-1964 yillarda «Keksalar uchun ijtimoiy ta'minot xizmati to'g'risida»gi va «Onalar va bolalar farovonligi to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilindi va undagi imtiyozlar ijtimoiy ta'minot tizimining takomillashuviga sabab bo'ldi. 1970 yillarning oxirida iqtisodiy o'sish barqaror bo'lgan davrda ijtimoiy himoya tizimi qayta ko'rib chiqildi.

1990 yillardan muhim siyosiy muammo bo'lgan keksalar sonining ortishi fonida tug'ilish darajasining pastligiga qarshi chora-tadbirlar ko'rila boshlandi. Pensiya va tibbiy sug'urta tizimida islohotlar amalga oshirildi. Uzoq muddatli yordamga muhtoj bo'lgan qariyalar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash uchun «Xizmatni sug'urtalash to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bolalarni parvarish

qilishda yordam ko'rsatish uchun bolalarga ko'rsatiladigan xizmatlar takomillashtirildi va moliyaviy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, bandlik holatining o'zgarishi va iqtisodiyot rivojlanishidagi farqning kengayishi bandlik siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya tizimi hududlardagi yashash uchun xarajatlarning turlicha ekaniga qaramasdan ko'p yillik umummilliy dasturga ega. Bugungi kundagi tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Yapon jamiyatidagi ijtimoiy himoya tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimi sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan boshqariladi. Ushbu vazirlik ijtimoiy xavfsizlik dasturlarini rejalashtirish va aniqlash, ularga strategik maqsadlar va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir. Mehnat standartlari, kafolatlangan ish bilan bandlik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ijtimoiy sug'urta tartibga solish ob'ektlari hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta agentligi huzuridagi idora hisoblanib, kichik va o'rta korxonalar xodimlari uchun tibbiy sug'urta xizmatlari, kasbiy pensiya sug'urtasi, umumiy pensiya sug'urtasi, dengizchilarni sug'urtalanishini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli dasturlarni olib borishga ixtisoslashgan. Agentlik va uning filiallari butun mamlakat hududini qamrab olgan umumiy tarmoqqa ega. Mahalliy mehnat munosabatlarini boshqarishda har bir mehnat byurosi xuzurida mehnat standartlari inspeksiyasi va davlat kafolatlangan ish bilan bandlik byurosi tashkil etilgan. Shuningdek, ular baxtsiz hodisalardan sug'urtalanish dasturi bilan faoliyat olib boradi. Yaponiya ijtimoiy ta'minot dasturlari quyidagi 6.2-jadvalda o'z ifodasini topgan.

Davlat tibbiy sug'urta tizimi, davlat pensiya ta'minoti, ishlovchilar uchun tibbiy sug'urta kabi ijtimoiy sug'urta dasturlari badallar va soliq imtiyozlari bilan ham moliyalashtiriladi. Masalan, davlat pensiya ta'minoti omonat hisobvaraqlarini to'liq moliyalashtirmaydi, pensiya xarajatlarning uchdan bir qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Boshqa mamlakatlardagi o'xshash tizimlar bilan taqqoslash uchun ijtimoiy himoya tizimi xarajatlari XMT qoidalariga muvofiq baholanadi. XMTning ta'rifiga ko'ra, ijtimoiy ta'minot xarajatlari

quyidagi talablarga javob beruvchi barcha dasturlar yoki xizmatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Keksalik, boquvchisini yo‘qotganligi, nogironlik, shikastlanish, kasallik va salomatlik, oilaviy sharoit, ishsizlik, uy-joy, va boshqa xavflarda to‘lov uchun mo‘ljallangan dasturlar;

## 6.2-jadval

### Yaponiya ijtimoiy ta‘minot dasturlari<sup>230</sup>

Moliyalashtirish manbasi	Dasturlar
Ijtimoiy sug‘urta fondlari (badallar hisobidan)	Tibbiy sug‘urta Uzoq muddatli parvarish sug‘urtasi Pensiya sug‘urtasi Ishsizlik sug‘urtasi Ish faoliyatidagi baxtsiz hodisadan sug‘urta
Soliq imtiyozlari (badallar hisobidan)	Ijtimoiy yordam dasturi Keksalarga, nogironlarga va bolalarga ijtimoiy xizmatlar Tibbiy yordam va sog‘liqni saqlash Keksalarga tibbiy xizmat

2. Tizim o‘ziga xos xususiyatlarni belgilab beruvchi qonun hujjatlari, individual huquqlar yoki davlatga muayyan majburiyatlarni yuklash, o‘zini o‘zi boqarish yoki yarim davlat boshqaruvi asosida ishlashi;

3. Tizim boshqaruvi qonuniy davlat tomonidan tayinlangan, o‘zini o‘zi boqarish yoki yarim davlat boshqarish yohud xususiy tashkilotga shartnoma majburiyatlarini ijro etish huquqi berilgan bo‘lishi kerak. Buning natijasida xususiy boshqaruv ijtimoiy ta‘minot xarajatlarini hisoblashda kiritilishi, kompensatsiya to‘lash dasturlari ishlab chiqarishda shikastlanishlar ushbu dasturlar tarkibidagi xususiy tashkilotlar tomonidan boshqarilishi mumkin.

Yaponiyada ko‘plab ijtimoiy himoya tizimlari ijtimoiy sug‘urta tizimini qabul qilmoqda. Yaponiyada beshta ijtimoiy sug‘urta dasturiga asoslangan tizimlar mavjud: davlat nafaqasi; tibbiy sug‘urta,

<sup>230</sup> Международная Организация Труда. Международный опыт организации системы социальной помощи. На примере пяти стран. – Москва, 2004. Международное бюро труда, 2015. – С. 59.

uzoq muddatli tibbiy sug'urta, bandlik sug'urtasi va ish bilan bog'liq baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish. Ushbu sug'urtalardan pensiya va tibbiy sug'urta dasturlariga barcha fuqarolar jalb qilingan. Universal pensiya va tibbiy sug'urta Yaponiya ijtimoiy himoya tizimining muhim jihati hisoblanadi. Shuningdek, 40 yosh va undan yuqori aholi qatlami uzoq muddatli parvarishlash sug'urtasi, xodimlar mehnat sug'urtasi va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilingan.

### 6.3-jadval

#### Yaponiya ijtimoiy ta'minot tizimi<sup>231</sup>

Tizimlar	Moliyalashtirish	Foyda		Funksiyaning asosiy turi (XMT standarti)
		Ichki	Naqd pul	
Umumiy pensiya	Ijtimoiy sug'urta		+	Keksalar, nogironlik bo'yicha imtiyozlar
Tibbiy sug'urta	Ijtimoiy sug'urta	+		Kasallanganlar va sog'lomlar
Umumiy tibbiy sug'urta	Soliq	+		Kasallanganlar va sog'lomlar
Uzoq muddatli tibbiy sug'urta	Ijtimoiy sug'urta	+		Keksalar
Keksalar uchun xizmatlar (uzoq muddatli parvarish sug'urtasidan tashqari)	Soliq	+		Keksalar
Oilaviy siyosat	Soliq	+	+	Oilaviy imtiyozlar
Nogironligi bo'lgan insonlar uchun siyosat	Soliq	+	+	Nogironlik imtiyozlari
Umumiy yordam	Soliq	+	+	Ijtimoiy yordam va boshqalar
Mehnat sug'urtasi	Ijtimoiy sug'urta		+	Ishsiz oilalar imtiyozlari
Ish bilan bog'liq baxtsiz xodisa sug'urtasi	Ijtimoiy sug'urta	+	+	Mehnat faoliyatida shikastlanish

<sup>231</sup> National Institute of population and Social Security Research. Social Security in Japan. 2014. – P. 7.

Yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy sug'urta tizimlari ijtimoiy sug'urta mukofotlari va subsidiya shaklidagi soliq tushumlari bilan to'ldiriladi. Ijtimoiy sug'urta badallari barcha sug'urtalanganlarga ularning to'lov qobiliyatlariga ko'ra taqsimlanadi. Shuningdek, Yaponiyada «Kambag'allikka qarshi kurashish choralar» dasturi ko'p bolali oilalar, nogironlarga to'lanadigan nafaqalar va ko'rsatiladigan xizmatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

### **Xulosa**

AQShning ijtimoiy sug'urta islohotlari quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: pensiya ta'minoti bo'yicha ijtimoiy sug'urta dasturlari; uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash maqsadida investitsion trust fondlarining tashkil qilinishi; ijtimoiy sug'urta dasturlarining qamrov darajasining oshirilishi; nogironlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida yangi ijtimoiy maqsadli fondlarning amal qilishi; tibbiy sug'urta joriy qilinganligi; ijtimoiy to'lovlarning inflyasiya va o'rtacha ish haqiga qarab indeksatsiyalash amaliyotining takomillashuvi; ijtimoiy sug'urta tizimini budjetdan qo'shimcha moliyalashtirish amaliyotining mavjudligi va boshq.

Kanadaning ijtimoiy sug'urta dasturlarining ikki asosiy turi mavjud bo'lib, birinchisi, daromadga asoslangan, ikkinchisi xizmatlarga asoslangan. Daromadga yordam berish dasturlari jismoniy shaxslarga farzandli bo'lganda, kasallanganda, ishsiz qolganida davlat tomonidan nafaqalar ajratiladi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari deb ataladigan dasturlarga ish haqini sug'urtalash bo'yicha imtiyozlar, oilaviy nafaqa va ijtimoiy nafaqa kiradi.

Yaponiyada ijtimoiy sug'urta tizimlari ijtimoiy sug'urta mukofotlari va subsidiya shaklidagi soliq tushumlari bilan to'ldiriladi. Ijtimoiy sug'urta badallari barcha sug'urtalanganlarga ularning to'lov qobiliyatlariga ko'ra taqsimlanadi. Shuningdek, Yaponiyada «Kambag'allikka qarshi kurashish choralar» dasturi ko'p bolali oilalar, nogironlarga to'lanadigan nafaqalar va ko'rsatiladigan xizmatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Yaponiyada davlat nafaqasi, tibbiy sug'urta, uzoq muddatli tibbiy sug'urta, bandlik sug'urtasi va ish bilan bog'liq baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish kabi ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sug'urta asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizimda pensiya va tibbiy sug'urta

dasturlariga barcha fuqarolar jalb qilingan. Universal pensiya va tibbiy sugʻurta Yaponiya ijtimoiy himoya tizimining muhim jihati hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1.Boquvchisini yoʻqotganligi boʻyicha ijtimoiy sugʻurtaning xususiyatlarini izohlab bering.

2.Yaponiya ijtimoiy taʼminot tizimining maqsadlari haqida nimalarni bilasiz?

3.Yaponiyada ijtimoiy sugʻurta va joriy qilingan pensiya turlari mavjud?

### **Test**

1.Yaponiyaning ijtimoiy himoya tizimi qanday dasturlarini oʻz ichiga oladi?

- A) Ijtimoiy sugʻurta va ijtimoiy xizmatlar
- B) Ijtimoiy yordamlar
- S) Tibbiy xizmatlar

2. Yaponiyada kambagʻallik chegarasi qanday miqdorida oʻlchanadi?

- A) Bir martalik daromadning yarmi miqdorida
- B) Ikki martalik daromadning yarmi miqdorida
- S) Kambagʻallik chegarasi oʻlchanmaydi

3. Yaponiyada aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha daromad yiliga necha AQSH dollarini tashkil etadi?

- A) 29798 AQSH dollarini
- B) 29000 AQSH dollarini
- S) 30000 AQSH dollarini

4. Yaponiyada «ijtimoiy ximoya» iborasi birinchi marotaba nechanchi yilda qabul qilingan ?

- A) 1946 yilda
- B) 1950 yilda
- S) 1960 yilda

5. Yaponiya qanday ijtimoiy taʼminot dasturlari mavjud?

A) Tibbiy sugʻurta, uzoq muddatli parvarish sugʻurtasi, pensiya sugʻurtasi, ishsizlik sugʻurtasi, ish faoliyatidagi baxtsiz hodisadan sugʻurta

B) Mol-mulkni sug'urtalash, uzoq muddatli parvarish sug'urtasi, pensiya sug'urtasi, ishsizlik sug'urtasi, ish faoliyatidagi baxtsiz hodisadan sug'urta

S) Xayot sug'urtasi, pensiya sug'urtasi, ishsizlik sug'urtasi, ish faoliyatidagi baxtsiz hodisadan sug'urta

### **Mustaqil ish mavzulari**

1.Yaponiyada ijtimoiy himoya dasturlari.

2.Yaponiyada ijtimoiy sug'urta tizimi.

3.Yaponiya tibbiy sug'urta tizimi.

4.Yaponiyada fuqarolarni pensiya ta'minoti tizimini boshqarishning institutsional o'zgarishlari.

5.Yaponiya ijtimoiy sug'urta tizimining me'yoriy-huquqiy asoslari.

6.Ijtimoiy sug'urta fondlarini boshqarish va ularning investitsion faoliyati.



## **VII BOB. YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIDA IJTIMOIY SUGURTA TIZIMI.**

### **7.1-§. Evropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sugurta tizimini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlari**

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida iqtisodiyotida ijtimoiy sug'urta asosiy o'rinni egallab, YAIM hajmining to'rtidan bir qismi uning hissasiga to'g'ri keladi va bunda pensiya sug'urtasi, tibbiy hamda ishsizlik sug'urtalari asosiy salmoqqa ega. Eng muhim xususiyat shundan iboratki, ijtimoiy sug'urta mablag'larini shakllantirishda ish beruvchilar va ishchilarning faol ishtiroki mavjud va mazkur tizimida xususiy sektor yetakchi mavqega ega: Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya mamlakatlarida ko'p darajali pensiya tizimi va majburiy tibbiy sug'urtaning amal qilish; ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning rivojlanganligi; ishsizlik sug'urtasi bo'yicha keng ko'lamdagi ijtimoiy xizmatlar mavjudligi shular jumlasidandir.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat pensiyalari, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar, mehnatda jarohatlanish yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni qoplanishi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha va ishsizlik nafaqalari, asosan, ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Fransiya, Estoniya, Latviya davlatlari) hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari esa ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi. Ijtimoiy sug'urta badallari stavkasiga oid ma'lumotlar 7.1-jadvalda aks ettirgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta bilan bog'liq ta'minot turlari, asosan, ish beruvchi va ishchilarning sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Faqatgina Rossiya Federatsiyasi va Chilida ijtimoiy sug'urta mablag'larini shakllantirish ish beruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Yangi Zelandiyada bu turdagi xarajatlar to'lig'icha davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

## 7.1-jadval

2017 yilda xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badali  
(ijtimoiy soliq) stavkalari (foiz hisobida)<sup>232</sup>

Davlatlar	Ish beruvchi	Ishchi	Jami
Fransiya	10,60	26,00	36,60
Avstriya	14,00	22,20	36,20
Vengriya	15,00	19,00	34,00
Slovakiya	10,20	23,60	33,80
Germaniya	17,40	16,30	33,70
Chexiya	8,20	25,40	33,60
Belgiya	10,90	22,20	33,10
Sloveniya	19,00	13,90	32,90
Gretsiya	12,80	20,00	32,80
Italiya	7,20	24,00	31,20
Rossiya	30,0	0,00	30,00
Polsha	15,30	14,10	29,40
Shvetsiya	5,30	23,90	29,20
Portugaliya	8,90	19,20	28,10
Ispaniya	4,90	23,00	27,90
Turkiya	12,80	14,90	27,70
Latviya	8,50	19,10	27,60
Estoniya	1,20	25,30	26,50
Finlyandiya	7,60	18,20	25,80
Yaponiya	12,50	13,20	25,70
<b>IHTT bo'yicha o'rtacha</b>	<b>8,20</b>	<b>14,20</b>	<b>22,40</b>
Niderlandiya	11,80	10,10	21,90
Lyuksemburg	11,00	10,80	21,80
Norvegiya	7,30	11,50	18,80
Buyuk Britaniya	8,50	9,80	18,30
Kanada	6,60	10,40	17,00
Janubiy Koreya	7,60	9,40	17,00

<sup>232</sup> Taxing Wages. OECD, 2017. Доступно: <https://read.oecdilibrary.org>. Дата обращения: 06.08.2018. (Грищенко Н.Б. Реформы социального страхования: поиск баланса. – М.: Институт социальной политики ФГАОУ ВО «Национальный исследовательский университет», «Высшая школа экономики». 2018. – С. 64).

AQSH	7,10	7,70	14,80
Irlandiya	3,60	9,70	13,30
Shveysariya	5,90	5,90	11,80
Meksika	1,20	10,40	11,60
Chili	7,00	0,00	7,00
Islandiya	0,30	6,40	6,70
Yangi Zelandiya	0,00	0,00	0,00

IHTTga ahzo mamlakatlarda «2018 yilda YAIM hajmining o‘rtacha 20,5 foizi ijtimoiy xarajatlarning ulushiga to‘g‘ri kelgan va uning 8 foizini pensiya xarajatlari tashkil qilgan. Jumladan, bu ko‘rsatkich Italiya va Gretsiyada 16,9 foizni, Janubiy Koreyada 16,2 foizni, Yaponiyada 9,4 foizni va AQShda 7,2 foizni tashkil etgan»<sup>233</sup>. Bunga, asosan, yuqori maosh bilan pensiya yoshiga to‘lgan fuqarolarning ko‘payib borayotganligi va nodavlat pensiya ta‘minoti tizimining rivojlanganligi sabab bo‘lgan.

IHTTga a‘zo bo‘lgan aksariyat mamlakatlarda pensiya tizimini moliyalashtirish «avlodlar birdamligi» prinsipiga asoslanadi. Biroq, Daniya, Kanada, AQSH, Shveysariya va Yaponiyada jamg‘ariladigan pensiya tizimi ham amal qiladi. Yaponiyada pensiya ta‘minotining uchdan bir qismi davlat budjeti hisobidan qoplanadi.

IHTTga a‘zo davlatlarda xususiy pensiya fondlari taraqqiy etgan bo‘lib, pensiya tizimidagi mablag‘lar iqtisodiyotning turli soha hamda tarmoqlariga investitsiya qilinadi. «Fond bozorlari yuqori rivojlangan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari pensiya aktivlarini qimmatli qog‘ozlarga joylashtiradi»<sup>234</sup>. Xususiy pensiya fondlari pensiya aktivlarini yanada ko‘paytirish, shu asosda foyda olish, samarali pensiya ta‘minotini amalga oshirishda mablag‘larni investitsiyalash muhim amaliy ahamiyatga ega.

IHTT mamlakatlari, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati uch darajali pensiya tizimiga ega. Birinchisi, taqsimlanuvchi pensiya tizimi bo‘lib, bunda ish beruvchi va ishchilarning sug‘urta badallari hisobidan davlat majburiy pensiya

<sup>233</sup> <https://www.kommersant.ru/doc/3861499>.

<sup>234</sup> Rudolph H., Richard H., Pablo A. Juan Y. Evaluation of financial performance of pension funds. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. – Washington D.C. 2010. – P. 282.

sugʻurta tizimi joriy etilgan. Ikkinchisi, korporativ (jamgʻarib boriladigan) pensiya boʻlib, bunda korxonalar yoki tarmoq darajasida ishchilar uchun qoʻshimcha sugʻurta badallari joriy etilgan. Uchinchisi, xususiy (jamgʻarib boriladigan) pensiya boʻlib, bunda ishchining oʻz mablagʻlari hisobidan ajratmalar nodavlat pensiya fondlariga, sugʻurta kompaniyalariga yoki kredit tashkilotlariga shartnoma asosida ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Ishchilarga oʻz pensiya jamgʻarmalarini ragʻbatlantirish maqsadida davlat tomonidan muayyan soliq imtiyozlari belgilanadi.

IHTT mamlakatlaridagi pensiya islohotlari tajribalari koʻrsatishicha, pensiya tizimidagi tarkibiy oʻzgarishlarning asosiy yoʻnalishi pensiya majburiyatlarini kamaytirish va pensiya tizimi aktivlarini oshirish evaziga pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash hisoblanadi. Ushbu maqsadda aksariyat mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshini oshirish, erta pensiyaga chiqish muddatini cheklash, pensiya olish huquqiga ega boʻlish uchun talab etiladigan minimal mehnat stajini oshirish kabi islohotlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda IHTTga aʼzo mamlakatlarning aksariyatida kombinatsiyalashgan pensiya tizimi amal qiladi.

Ijtimoiy sugʻurta tizimi doirasida IHTTga aʼzo boʻlgan aksariyat mamlakatlar va Jahon banki tajribalari quyidagilarda namoyon boʻladi:

– ijtimoiy sugʻurta tizimini moliyalashtirishning asosiy manbasi boʻlib, ishchi va ish beruvchining ijtimoiy sugʻurta badallari va davlat budjeti mablagʻlari hisoblanadi. Mazkur tizim sugʻurtaviy hamjihatlik (birdamlik) tamoyiliga asoslanadi hamda ishchi va ish beruvchilarning sugʻurta badallari mutanosib ravishda daromad yoʻqotilishining qoplanishini taʼminlovchi asosiy manba rolini oʻynaydi, davlat budjeti mablagʻlari esa ijtimoiy taʼminotning minimal darajasini taʼminlashga yoʻnaltiriladi;

– minimal ijtimoiy kafolatlarni taʼminlaydigan jamgʻarib boriluvchi va taqsimlanuvchi sxemalarni birlashtirgan koʻp darajali pensiya tizimi joriy etilgan;

– norasmiy sektorda ish bilan band boʻlganlarni mehnat faoliyatini qonuniylashtirish orqali norasmiy bandlikni qisqartirish va pensiya dasturlarini moliyalashtirishning sugʻurta mexanizmini kuchaytirish;

– aholining umr ko‘rish davomiyligi uzayib borayotgan sharoitida kishilarning mehnat faoliyati davomiyligini oshirish, pensiya dasturlarini moliyalashtirishdagi yuklamani (og‘irlikni) kamaytirish maqsadida muddatidan oldin pensiyaga chiqish shart-sharoitlarini cheklash va pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirish (Avtraliya, Avstriya, Belgiya, Daniya, Germaniya, Gretsiya, Isroil, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Polsha, Sloveniya, AQSH, Turkiya, Fransiya, Chexiya, Estoniya, Yaponiya);

– fuqarolar tomonidan mehnat faoliyatining butun davri davomida shakllantirilgan pensiya zaxiralari bilan pensiya miqdorlarining uzviy bog‘liqligini kuchaytirish (Italiya, Shvetsiya, Polsha);

– pensiya olish huquqiga ega bo‘lish uchun minimal mehnat staji muddatiga bo‘lgan talablarni oshirish (Belgiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Sloveniya, Chexiya);

– pensiya fondlarining moliyaviy faoliyati ustidan monitoring va nazoratning kuchaytirilishi (masalan, Germaniyada moliyaviy risklarni boshqarish va mustaqil nazorat qilishni kuchaytirish to‘g‘risida qonun qabul qilingan va boshq.);

– kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish (Germaniya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya, AQSH, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya);

– xususiy pensiya fondlarining tashkil etilganligi va moliyaviy faoliyatining barqarorligi, nodavlat pensiya ta‘minotining (jumladan, korporativ pensiya dasturlari) amal qilishi;

– fuqarolarni ijtimoiy sug‘urta bilan qamrab olish darajasining yuqoriligi hamda ularning ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishdagi hissasining mavjudligi;

– amaldagi sug‘urta bozorining rivojlanishi, mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimidagi moliyaviy muammolarning bartaraf etilishi, aholiga kafolatlangan tibbiy xizmatlarning taqdim etilishi majburiy tibbiy sug‘urta tizimining samarali yo‘lga qo‘yilganligi bilan bog‘liq.

– Umuman olganda, ijtimoiy sug‘urta tizimi zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Belgilangan vazifalarning barcha o‘xshashligi bilan har bir mamlakatda ijtimoiy sug‘urtaning rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy noyob yo‘lni bosib o‘tdi. Davlat hukumati ijtimoiy siyosatini mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-

siyosiy va iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosiy 3 ta model xususiyatlariga moslab qurilgan: Bismark (kontinental, konservativ), Beveridj (anglosakson, liberal) modeli va xususiyy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

Bismark modeli (Kontinental model) ijtimoiy sug'urta mexanizmiga asoslangan bo'lib, u mehnat qobiliyati yo'qolishi bilan sug'urtalanuvchilarga to'liq yoki qisman kompensatsiya beriladi. Ijtimoiy ta'minot budjet badallari, ishchi va ish beruvchining sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ushbu model asosida ish olib borishadi. Ijtimoiy sug'urtaning Bismark modelining afzalligi ish stajiga va daromad miqdoriga qarab, ijtimoiy nafaqalarning o'sishi va bu orqali fuqarolarning mehnat faoliyati rag'batlantiriladi. Bo'sh mablag'larni qo'shimcha ravishda ijtimoiy sug'urta fondlariga jalb qilish orqali ijtimoiy to'lovlar miqdorini ko'paytirish mumkin. Ushbu modeldan foydalanishda ijtimoiy xarajatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qoldiq tamoyiliga amal qilinadi. Bismark modelining kamchiligi ishchilar soni va ijtimoiy sug'urta to'lovlari miqdoriga bog'liqligidadir. Ishchilar sonining kamayishi bilan ijtimoiy to'lovlar darajasi pasayadi yoki ijtimoiy ajratmalar miqdori oshadi.

Kontinental model quyidagi uch asosiy xususiyatdan iborat<sup>235</sup>: ushbu model insonning kasbiy faoliyati davomiyligi va ijtimoiy ta'minot darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni tavsiflaydi; asosiy tamoyil sifatida bozor va davlat nazorati ostida ijtimoiy sug'urta tamoyiliga e'tibor qaratiladi; jamoat tashkilotlari va xayriya fondlari fuqarolarning ijtimoiy ta'minotida juda faol hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi qanday sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi?

2. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta badali (ijtimoiy soliq) stavkalari kanday?

3. Germaniyada «Sanoat xodimlarining kasalligini sug'urta qilish to'g'risida»gi qonun kachon qabul qilingan?

---

<sup>235</sup> <https://review.uz/oz/post/ijtimoiy-sugurta-modellari-jahon-tajribasi-va-ozbekiston-amaliyoti>.

## Test savollari

1. Fransiyada ijtimoiy sug'urta badali (ijtimoiy soliq) stavkalari necha foizni tashkil etadi?

A) Ish beruvchi 10,6 foiz va ishchi 26 foiz

B) Ish beruvchi 20 foiz va ishchi 10 foiz

S) Ish beruvchi 5 foiz va ishchi 10 foiz

2. IHTTga ahzo mamlakatlarda «2018 yilda YAIM hajmining o'rtacha necha foizi ijtimoiy xarajatlar ulushiga to'g'ri kelgan?

A) 20,5 foiz

B) 30 foiz

S) 10 foiz

3. Qaysi mamlakatlarda kech pensiyaga chiqishni rag'batlantiriladi?

A) Germaniya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya, AQSH, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya

B) Rossiya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya

S) Qozoqiston, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya

4. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosiy qaysi model xususiyatlariga moslab qurilgan?

A) Bismark (kontinental, konservativ), Beveridj (anglosakson, liberal) modeli va xususiy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

B) Beveridj (anglosakson, liberal)

S) xususiy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

5. Ijtimoiy sug'urtaning Bismark modelining afzalligi nimadan iborat?

A) Ish stajiga va daromad miqdoriga qarab, ijtimoiy nafaqalarning o'sishi va bu orqali fuqarolarning mehnat faoliyati rag'batlantiriladi.

B) Sug'urta badallari oshirilmaydi ammo ijtimoiy nafaqalar o'sib boradi

S) Ish stajiga va daromad miqdoriga qaralmaydi

## Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi va uning tarkibi.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilishning "Bismark", "Beveridj", "Shved" modellari.

3. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari.

4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ijtimoiy sug'urta tizimini isloh etishga ta'siri.

5. Ijtimoiy ta'minot tizimida sug'urta to'lovlari tarkibiy tuzilishi.

6. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlari.

7. Jahon bankining ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlari.

### **7.2-§. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy moliyalashtirish va sug'urta badali stavkalari**

Germaniya kontinental modelning barcha tamoyillarini amaliyotga to'liq joriy eta olgani bilan ajralib turadi. Bu davlatda sug'urta qonunchiligining asoschilaridan bo'lib, mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o'ynagan kansler O.Bismark hisoblanadi. U birinchi bo'lib mamlakat aholisiga ma'lum ijtimoiy kafolatlar beradigan bir qator qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari «Sanoat xodimlarining kasalligini sug'urta qilish to'g'risida»gi qonun (1884 y.), «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish to'g'risida»gi qonun (1885 y.) hamda «Nogironlik va qarilikni sug'urtalash to'g'risida»gi qonun (1891 y.).

Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu qonunlar orqali shaxsning o'z mustaqilligi, jamoatchilikning qo'llab-quvvatlanishi va hukumatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uch tomon o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Hozirgi kunda Germaniyada ijtimoiy sug'urtaning 4 ta turi amal qiladi: pensiya sug'urtasi, majburiy tibbiy sug'urta, ishsizlik sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta. Ijtimoiy ta'minot tizimi, shuningdek bolalarga nafaqa (bola tug'ilganda bir martalik to'lovlar, kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali oilalarga dotatsiyalar), qochqinlarga yordam, ta'lim uchun nafaqalar, davolanish uchun nafaqalar, pensiya subsidiyalari, urush qurbonlariga, nogironlarga yordam, kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam shaklida ajratilgan davlat mablag'larini qamrab oladi. Germaniya sug'urta



tizimida birinchi o‘rinda mehnatga layoqatli aholi uchun yaxshi va mos iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga urg‘u beradi. Ijtimoiy siyosatning ushbu shakli muvaffaqiyatli bo‘ldi. Lekin undagi muhim bir kamchilik – davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy himoyaga sarflanadi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun ishlayotganlardan olinadigan soliqlarni doimiy ravishda oshirishga to‘g‘ri kelmoqda. Soliqlarning ko‘pligi tufayli odamlar ishlash uchun rag‘batni yo‘qotadilar. Chunki odamlarning soliqlardan ajratib qolgan mablag‘i ishga yaroqsiz odam oladigan ijtimoiy himoya mablag‘iga teng bo‘lib qoladi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun hozirgi vaqtda siyosiy jihatdan ham bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, ulardan asosiysi sifatida ijtimoiy yordam oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishni tashkil etilayotganini aytib o‘tish mumkin.

Davlatning ijtimoiy ta‘minlashning anglosakson (liberal) modeli yuqorida tavsiflangan kontinental modeldan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu model asoschisi 1941-1942 yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug‘urta islohotlari bo‘yicha ishchi guruhni boshqargan ingliz iqtisodchisi U.Beveridj hisoblanadi<sup>236</sup>. Beveridj ijtimoiy sug‘urta tizimiga badallarning yagona miqdorini va ijtimoiy ta‘minotning har xil turlari uchun to‘lovlarning bir xil miqdorini belgilashni taklif qildi. Olingan badallar va to‘lovlar miqdori oluvchining ijtimoiy sug‘urta tizimidagi ishtiroki va u tomonidan o‘tkazilgan badallar miqdoridan qat’i nazar, ma’lum bir guruhga mansubligi asosida belgilandi. Yashash minimumi belgilash taklif qilindi. Agar fuqaro o‘zini yashash minimum bilan ta‘minlay olmaydigan bo‘lsa, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘sha davrdagi aksariyat mutaxassislarining fikriga ko‘ra, Beveridj modeli urushdan keyin iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni tiklashga, mehnat unumdorligini va umuman iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishga imkon berdi. Bundan tashqari, ob‘ektiv sabablarga ko‘ra (homiladorlik, nogironlik va hokazo) sug‘urta badallarini to‘lay olmaganlar uchun ijtimoiy ta‘minot olish imkoniyatini saqlab qolishga imkon berdi. Beveridj modeli dolzarbligi sababli mamlakat tashqarisida ham faol qo‘llab-quvvatlandi. Bu

---

<sup>236</sup> <https://review.uz/oz/post/ijtimoiy-sugurta-modellari-jahon-tajribasi-va-ozbekiston-amaliyoti>.

modelning muvaffaqiyatli tarzdagi amaliyotga tatbig'ini AQSH, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarida ko'rish mumkin.

Anglosakson modelining ba'zi bir asosiy xususiyatlari quyidagilar: ijtimoiy xizmatlar «umumiylig» tamoyiliga asoslanadi va bir xil miqdordagi nafaqalar beriladi (hamma sug'urta badali to'laganlarga teng miqdordagi nafaqa beriladi); hukumat faqat aholi daromadlarining minimal miqdorini saqlash va zaif qatlamlar farovonligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu orqali ijtimoiy sohada minimal ishtirok etadi; ushbu model aniq sug'urta dasturlari uchun alohida sug'urta mukofotlarini hisobga olmaydi. Yagona ijtimoiy to'lovlar yordamida daromadlar yig'iladi va ma'lum ijtimoiy ta'minot sohasining zarur ehtiyojlariga taqsimlanadi; ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning moliyaviy asosi bo'lib birinchi navbatda davlat budjeti emas, balki xususiy sug'urta badallari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada zamonaviy ijtimoiy sug'urta tizimida ikkita tarmoq mavjud: milliy ijtimoiy sug'urta, unga pensiya sug'urtasi dasturlari, nogironlarni sug'urtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, onalikni qo'llab-quvvatlash, kasallik uchun nafaqalar; mamlakat rezidentlariga, shuningdek, Angliyada uzoq vaqt yashagan chet elliklarga tibbiy xizmat ko'rsatadigan milliy sog'liqni saqlash tizimi.

Dastlab AQShda ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonuni 1935 yil 14 avgustda qabul qilingan edi<sup>237</sup>. Vaqt o'tishi bilan ushbu qonun ijtimoiy sug'urtaning yangi qoidalari bilan to'ldirildi va qo'shimchalar qilindi. Qo'shma Shtatlarda yagona, umummilliy, markazlashgan ijtimoiy ta'minot tizimi mavjud emas. U federal qonun yoki shtat qonuni bilan tartibga solinadigan har xil dasturlardan tashkil topgan. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi aniq ikki sohaga bo'linadi: ijtimoiy sug'urta (to'lovlar ishchilardan olinadigan ijtimoiy sug'urta badallaridan hosil bo'lgan sug'urta mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi) va ijtimoiy yordam (to'lovlar budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu federal yoki shtat budjeti bo'lishi mumkin). Shuningdek, bugungi kunda AQShda tibbiy sug'urtadan tashqari ijtimoiy sug'urta tizimi ham ancha rivojlangan

---

<sup>237</sup> <https://review.uz/oz/post/ijtimoiy-sugurta-modellari-jahon-tajribasi-va-ozbekiston-amaliyoti>.

bo'lib, ijtimoiy sug'urta orqali ishsizlik, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik, boquvchisini yo'qotganlik, qarilik kabi sug'urta hodisalari sug'urta qilinadi.

Tizimning tashkil qilinishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir fuqaro ijtimoiy sug'urtalanish huquqiga egaligini tasdiqlovchi muhim hujjat – «Social security number»ga ega. Shuningdek, u fuqarolarning hisob kartochkasi bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda, nafaqa miqdori ish stajga, daromadga va hokazolarga bog'liq holda hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan kambag'allarga, yetim va boshqa ehtiyojmandlarga davlat tomonidan to'lanadigan ijtimoiy ta'minot mablag'lari (masalan, ayrim toifalarga maktabda bepul ovqatlanish, uy-joy va boshqalar beriladi) alohida hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Boquvchisini yo'qotish bilan bog'liq sug'urta hodisasi yuz berganda, agar vafot etgan shaxs sug'urta qilingan bo'lib, uning asosiy ish faoliyatidan kelayotgan daromadi orqali oilasi ta'minlanayotgan bo'lsa, oila asosiy daromad manbaini yo'qotgan hisoblanadi va qo'shimcha moddiy yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda marhuming oila a'zolariga (odatda, turmush o'rtog'i) nafaqa to'lanadi.

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha ijtimoiy sug'urta. Bunda ishlayotgan xodimning bajarayotgan mehnatiga bog'liq bo'lmagan ravishda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishi natijasida sug'urta hodisasi yuz beradi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish uchun xodimning 5 yillik ish staji va ish beruvchi tomonidan belgilangan sug'urta badallarining to'lovi talab qilinadi.

Ishsizlik nafaqasi bo'yicha sug'urta. Bunda sug'urta badallari yillik daromadning 6,2 foizini tashkil qiladi, lekin bu raqamni «korrektirovka» qilishda shtatlar tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Umumiy qoida bo'yicha, ular ish beruvchilar tomonidan to'lanadi. Ushbu badallarni to'lash sug'urtalangan shaxslarga ishsizlik holatida, tegishli nafaqalarni to'lashda kafolat berishga imkon beradi.

Skandinaviya modeli. Shvetsiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining skandinaviya modelidan foydalaniladi. Bugungi kunda zamonaviy, yetuk va

rivojlangan ijtimoiy tizimga ega davlat sifatida, aynan, skandinaviya modelidan foydalangan mamlakatlar misol qilib ko'rsatiladi. Bu model o'zida Bismark va Beveridj modellarining elementlarini jamlaydi.

Ushbu model quyidagi xususiyatlarga ega: ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni amalga oshirishda yetakchi rol mamlakat hukumatiga tegishli bo'lib, barcha ijtimoiy dasturlar davlat budjetidan moliyalashtiriladi; hukumat ishsizlikka qarshi faol kurash olib boradi, uning oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rmoqda; skandinaviya modeli aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlarning tengligi bilan tavsiflanadi; mamlakat aholisi uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy kafolatlar beriladi.

Ijtimoiy siyosatni tartibga solishning eng yorqin skandinaviya modeliga misol – Shvetsiya. Bugungi kunda u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Shvetsiya aholisining ijtimoiy ta'minoti butun mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda davlat kafolati asosida amalga oshiriladi. U soliq va transfert siyosati orqali amalga oshiriladigan aholining barcha qatlamlari daromadlarini qayta taqsimlashga qaratilgan.

Shved modelining asosiy xususiyatlari inson hayotining barcha sohalarida doimiy ijtimoiy himoya va 100 foiz bandlikka erishish, kambag'allar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yo'qligi, yuqori siyosiy va ijtimoiy barqarorlikdir. O'tgan asrning 80-90 yillarida og'ir iqtisodiy vaziyatga qaramasdan skandinaviya modelidan foydalanayotgan hech bir davlat o'z tanlagan yo'lidan voz kechmadi. Biroq, umumiy farovonlikka erishish va yuqori darajada ta'minlangan ijtimoiy kafolatlar mavjudligi davlat budjetidan katta xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun ushbu davlatlarda soliqlar yuqori foizligi bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda hukumatlar tomonidan munisipal budjetda katta miqdordagi mablag'larni to'plash imkoniyatini beradigan zamonaviy soliq konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda, shu orqali mablag'larni to'plash va samarali sarflash yo'lga qo'yilmoqda.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat pensiyalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, mehnatda jarohatlanish yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararining qoplanishi, vaqtincha mehnatga

layoqatsizlik va ishsizlik nafaqalari, asosan, ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari (Rossiya, Qozog'iston, Fransiya, Estoniya, Latviya davlatlarida) hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari esa ish beruvchi va ishchining sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi. Ushbu badal stavkalariga oid ma'lumotlar quyidagi 7.2-jadvalda aks ettirilgan.

7.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta bilan bog'liq ta'minot turlari, asosan, ish beruvchi va ishchilarning sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Faqatgina Rossiya va Chilida ijtimoiy sug'urta mablag'larini shakllantirish ish beruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Yangi Zelandiyada bu turdagi xarajatlar to'liq Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

### 7.2-jadval

#### 2017 yilda xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badali (ijtimoiy soliq) stavkalari (foiz hisobida)<sup>238</sup>

№	Davlatlar	Ish beruvchi	Ishchi	Jami	№	Davlatlar	Ish beruvchi	Ishchi	Jami
1.	Fransiya	10,6	26,0	36,6	18.	Estoniya	1,2	25,3	26,5
2.	Avstriya	14,0	22,2	36,2	19.	Finlyandiya	7,6	18,2	25,8
3.	Vengriya	15,0	19,0	34,0	20.	Yaponiya	12,5	13,2	25,7
4.	Slovakiya	10,2	23,6	33,8	21.	<b>IHTT bo'yicha o'rtachasi</b>	<b>8,2</b>	<b>14,2</b>	22,4
5.	Germaniya	17,4	16,3	33,7	22.	Niderlandiya	11,8	10,1	21,9
6.	Chexiya	8,2	25,4	33,6	23.	Lyuksemburg	11,0	10,8	21,8
7.	Belgiya	10,9	22,2	33,1	24.	Norvegiya	7,3	11,5	18,8
8.	Sloveniya	19,0	13,9	32,9	25.	Buyuk Britaniya	8,5	9,8	18,3
9.	Gretsiya	12,8	20,0	32,8	26.	Kanada	6,6	10,4	17,0
10.	Italiya	7,2	24,0	31,2	27.	Janubiy Koreya	7,6	9,4	17,0
11.	Rossiya	30,0	0,0	30,0	28.	AQSH	7,1	7,7	14,8

<sup>238</sup> Taxing Wages. OECD, 2017. Доступно: <https://read.oecdilibrary.org>. Дата обращения: 06.08.2018. (Грищенко Н.Б. Реформы социального страхования: поиск баланса. – М.: Институт социальной политики ФГАОУ ВО «Национальный исследовательский университет», «Высшая школа экономики». 2018. – С. 64).

12.	Polsha	15,3	14,1	29,4	29.	Irlandiya	3,6	9,7	13,3
13.	Shvetsiya	5,3	23,9	29,2	30.	Shveysariya	5,9	5,9	11,8
14.	Portugaliya	8,9	19,2	28,1	31.	Meksika	1,2	10,4	11,6
15.	Ispaniya	4,9	23,0	27,9	32.	Chili	7,0	0,0	7,0
16.	Turkiya	12,8	14,9	27,7	33.	Islandiya	0,3	6,4	6,7
17.	Latviya	8,5	19,1	27,6	34.	Yangi Zelandiya	0,0	0,0	0,0

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimini moliyalashtirish hajmlari YAIM hajmining 16-25 foizini tashkil etadi. XX asr oxiriga kelib, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot xarajatlari YAIM hajmining 25 foiziga, AQShda 18 foizga, Markaziy Yevropaning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda 17 foizga, Rossiya Federatsiyasida 10 foizga yaqinlashgan<sup>239</sup>. O'zbekistonda ijtimoiy himoya xarajatlari YAIM hajmining 6 foizini tashkil qiladi<sup>240</sup>. Bunday xarajatlar tarkibida tibbiy sug'urta, pensiya sug'urtasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalligidan sug'urtalash, ishsizlik sug'urtasi va turli ko'rinishdagi ijtimoiy nafaqalar asosiy o'rinni egallaydi. Mazkur xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy manbasini sug'urtalanganlar va ish beruvchilarning (yollanma ishchilar foydasiga) sug'urta badallari hamda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar tashkil qiladi.

Barcha mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimi va uning moliyaviy mexanizmi turlicha bo'lib, uning 3 ta modelini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: Bismark (Germaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya), Beveridj (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada)<sup>241</sup> va Sobiq Ittifoq. Aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning modellari aralash tarzda amal qiladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi natijalari bo'lib, industrial mamlakatlarning davlat ijtimoiy ta'minoti tizimlarini tashkil etilishi va jamoaviy majburiy ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etilishi bo'ldi. Ushbu ijtimoiy institularning bosh

<sup>239</sup> [https://studopedia.ru/11\\_37950\\_tema--zarubezhniy-opit-sotsialnogo-strahovaniya.html](https://studopedia.ru/11_37950_tema--zarubezhniy-opit-sotsialnogo-strahovaniya.html).

<sup>240</sup> O'zbekistondagi ijtimoiy himoya tizimini baholash: asosiy diagnostik vosita (CODI) asosida XMT, YUNISEF va Jahon bankining qo'shma hisoboti. – T.: «O'zbekiston», 2020. – B. 7.

<sup>241</sup> Роиқ В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 33.

maqsadlaridan biri aholini ijtimoiy risk yuzaga kelganda daromad bilan ta'minlashdir. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlar XX asr davomida ijtimoiy institutlarni shakllantirgan holda aholi daromadlarini shartnomaviy va davlat ijtimoiy sug'urtasi yordamida ta'minlash tizimiga o'tildi (7.3-jadvalga qarang).

Pensiya sug'urtasining qayta taqsimlovchi va jamg'ariluvchi tizimlarida majburiy va ixtiyoriy institutlarini rivojlantirish uchun mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarida qulay, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi muhim o'rin tutadi.

Qayta taqsimlanadigan pensiya ta'minoti tizimida ishchi tomonidan Pensiya jamg'armalariga ijtimoiy to'lovlar hisobiga to'langan sug'urta miqdorlarini ishchining pensiyaga chiqishidagi davrga keltirish juda murakkabdir. Bunda, ijtimoiy to'lov to'lanadigan davrning davomiyligi, sug'urta tovonining miqdori, sug'urta stavkasi va pensiyaga chiqqandan keyingi davr to'lovlari muddati davomiyligi hisobga olinishi va pensiyalar to'lovi davriga keltirilishi zarurdir.

### 7.3-jadval

#### Rivojlangan mamlakatlarda umumdavlat ijtimoiy dasturlarni joriy etish yillari<sup>242</sup>

Dasturlar	Germaniya	Angliya	Shvetsiya	Fransiya	Italiya	AQSH	Kanada
Mehnatda mayiblanish	1884 yil	1906 yil	1901 yil	1946 yil	1898 yil	1930 yil	1930 yil
Kasallik nafaqalari	1883 yil	1911 yil	1910 yil	1930 yil	1943 yil	-	1971 yil
Pensiya ta'minoti	1889 yil	1908 yil	1913 yil	1910 yil	1919 yil	1935 yil	1927 yil
Ishsizlik nafaqasi	1927 yil	1911 yil	1934 yil	1967 yil	1919 yil	1935 yil	1940 yil
Oilaviy nafaqalar	1954 yil	1945 yil	1947 yil	1932 yil	1936 yil	-	1944 yil
Tibbiy sug'urta	1880 yil	1948 yil	1962 yil	1945 yil	1945 yil	-	1972 yil

Ta'kidlash joizki, bu muammoni hal qilishda mablag'lar oqimini taxmin qilish og'ir kechadi, bunda ijtimoiy to'lovlar muddati 30

<sup>242</sup> Social Economics / eds. J.Eatwell, M.Milgate, D.Newman, London: Macmillanpress Ltd., 1989. – P. 277.

yildan

50 yilgachani tashkil etsa, pensiya to'lovi muddatlari 20 yildan 30 yilgacha davrni o'z ichiga oladi, ya'ni umr ko'rish davomiyligiga qarab inobatga olinishi kerak. Bu qadar uzoq muddat (50-80 yil) davomida keltirilgan ko'rsatkichlarga qator omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin, jumladan, ish haqi fondi va inflyasiya darajasining o'zgarishi, pensionerlarning ishchilarga nisbatan mutlaq soni va nisbati kabi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Fransiya) ijtimoiy sug'urta yuki ishchi va ish beruvchilar o'rtasida teng taqsimlangan (7.4-jadvalga qarang).

#### 7.4-jadval

### Rivojlangan mamlakatlarda majburiy pensiya sug'urtasi tizimida ishlovchi va ish beruvchilarlar o'rtasida sug'urta yuklamasi taqsimoti va sug'urtalangan daromadlarning chegarasi (2019 yil)<sup>243</sup>

Mamlakatlar	Sug'urta tarifi stavkasi, ish haqqiga nisbatan (foizda)			Sug'urta daromadining Chegaralari
	Ishlovchi	Ish beruvchi	Jami	
Avstriya	10,25	12,55	22,8	bir oyga maksimum € 3 450
Finlandiya	4,6	22,75	27,35	bir oyga minimum € 229,3
Fransiya	6,65	9,8	16,45	bir oyiga maksimum € 2 476
Germaniya	9,75	9,75	19,5	maksimum yiliga € 61 800 bir oyiga minimum € 400
Gretsiya	6,67	13,33	20	maksimum kuniga € 78,4, yoki bir oyga € 1 960,2
Italiya	8,89	23,81	32,7	minimum kuniga € 39,16, maksimum yiliga € 8 440
Gollandiya	19,15	8,9	28,05	minimum yiliga € 13 160, maksimum yiliga € 29 543
Polsha	16,26	16,26	32,52	maksimum yillik o'rtacha oylikning 30 barobari
Ispaniya	4,7	23,6	28,3	bir oyiga maksimum € 2

<sup>243</sup> Social Security Programs throughout the World: Europe, 2020.



				731,5
Shveysariya	11,9	11,9	23,8	maksimum yiliga 75 960 frank
Buyuk Britaniya	11	12,8	23,8	minimum haftasiga £ 89
AQSH	6,2	6,2	12,4	maksimum yiliga \$ 90 000
Kanada	4,95	4,95	9,9	minimum yiliga 3 500 dollar, maksimum yiliga 41 100 dollar

Demak, qayta taqsimlanadigan pensiya ta'minoti tizimida ish beruvchilar va ishchilar o'rtasida muvozanatni saqlanishi muhim o'rin tutadi. Lekin, ushbu ko'rsatkich ham turli hil mamlakatlarda turli davrlar oralig'ida, ularda demografik omillar, iqtisodiy faol aholi soni kabi ko'rsatkichlar doimiy ravishda o'zgarib turadi. Misol uchun, iqtisodiy faol aholining pensiya oluvchilarga nisbati 2000 yildan 2015 yilgacha oralig'ida o'rta hisobda Finlyandiya va Ispaniyada 3/4 dan 1/4 gacha, Germaniya va Shveysariyada 1/2 gachaga o'zgarishini ko'rish mumkin<sup>244</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, pensiya tizimlarining evolyusiyasi ularning ijtimoiy va mehnat munosabatlariga, mamlakat milliy mehnat bozori va ish haqi tizimlarini rivojlanishiga, demografik o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar pensiya ta'minoti tizimiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti tizimi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir muhim omillardan biri bo'lib, ijtimoiy to'lovlarni to'lashda quyi va yuqori chegaralarning mavjudligi ham muhim o'rin egallaydi. Chunki, taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti tizimi amalda bo'lgan deyarli barcha mamlakatlarda pensiya hisoblanishida o'rtacha olingan daromadning yuqori chegaralari bilan cheklash miqdorlari joriy etilgan.

Jahon banki va IHTTga a'zo mamlakatlarning ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha tajribalari O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta tizimining takomillashtirilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

<sup>244</sup> [www.apsf.ru/info](http://www.apsf.ru/info).

– ijtimoiy sugʻurta tizimini moliyalashtirishning asosiy manbasi boʻlib, ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sugʻurta ajratmalari, shuningdek, davlat budjeti mablagʻlari hisoblanadi. Bunda sugʻurta ajratmalari daromad yoʻqotilishini qoplovchi asosiy moliyaviy manba rolini oʻynaydi (barcha ishchilar ijtimoiy sugʻurta uchun mablagʻlar jamgʻarilishi jarayoniga jalb etiladi), davlat budjeti mablagʻlari hisobidan ijtimoiy taʼminotning minimal darajasi kafolatlanadi;

– aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar koʻp darajali (taqsimlanuvchi, jamgʻarib boriladigan va xususiy) pensiya tizimiga ega boʻlib, bu fuqarolarning keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beradi;

– aholining umr koʻrish davomiyligining uzayib borishiga mos ravishda pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich oshirilishi;

– fuqarolar tomonidan mehnat faoliyatining butun davri davomida shakllantirilgan pensiya zaxiralari bilan pensiya miqdorlarining uzviy bogʻliqligini kuchaytirish;

– Pensiya olish huquqiga ega boʻlish uchun minimal mehnat staji muddatiga boʻlgan talablarni oshirish;

– nodavlat pensiya taʼminotini rivojlantirish;

– majburiy tibbiy sugʻurtaning rivojlanganligi;

– maxsus ijtimoiy sugʻurta fondlarining mavjudligi va turli ijtimoiy sugʻurta dasturlarining samarali amalga oshirilishi;

– keng turdagi ijtimoiy sugʻurta tizimining mavjudligi (tibbiy, pensiya, ishsizlik sugʻurtalari, baxtsiz hodisalardan va kasallanganda sugʻurtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sugʻurtalash, parvarishga muhtoj boʻlganlik uchun sugʻurtalash, mehnatga layoqatlilik qisman yoki toʻliq yoʻqotilganda sugʻurtalash, dafn marosimi uchun sugʻurta) va badallarga asoslanganligi;

– fuqarolarga keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beruvchi uch darajali pensiya taʼminotining mavjudligi, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sugʻurtaning rivojlangan tizimiga ega ekanligi hamda keng koʻlamdagi ijtimoiy xizmatlarni qamrab oluvchi ishsizlik sugʻurtasining yaxshi yoʻlga qoʻyilganligi, ijtimoiy sugʻurta infratuzilmasining taraqqiy etganligi, oʻz navbatida, ijtimoiy sugʻurta tizimining samarali tashkil etilganidan dalolatdir.

## Xulosa

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati uch darajali pensiya tizimiga ega. Birinchisi, taqsimlanuvchi pensiya tizimi bo‘lib, bunda ish beruvchi va ishchilarning sug‘urta badallari hisobidan davlat majburiy pensiya sug‘urta tizimi joriy etilgan. Ikkinchisi, korporativ (jamg‘arib boriladigan) pensiya bo‘lib, bunda korxonalar yoki tarmoq darajasida ishchilar uchun qo‘shimcha sug‘urta badallari joriy etilgan. Uchinchisi, xususiy (jamg‘arib boriladigan) pensiya bo‘lib, bunda ishchining o‘z mablag‘lari hisobidan ajratmalar nodavlat pensiya fondlariga, sug‘urta kompaniyalariga yoki kredit tashkilotlariga shartnoma asosida ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Ishchilarga o‘z pensiya jamg‘armalarini rag‘batlantirish maqsadida davlat tomonidan muayyan soliq imtiyozlari belgilanadi.

Jahon banki va IHTTga a‘zo mamlakatlarning ijtimoiy sug‘urta tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha tajribalari O‘zbekistonda ijtimoiy sug‘urta tizimining takomillashtirilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishning asosiy manbasi bo‘lib, ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, shuningdek, davlat budjeti mablag‘lari hisoblanadi. Bunda sug‘urta ajratmalari daromad yo‘qotilishini qoplovchi asosiy moliyaviy manba rolini o‘ynaydi (barcha ishchilar ijtimoiy sug‘urta uchun mablag‘lar jamg‘arilishi jarayoniga jalb etiladi), davlat budjeti mablag‘lari hisobidan ijtimoiy ta‘minotning minimal darajasi kafolatlanadi;

- aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘p darajali (taqsimlanuvchi, jamg‘arib boriladigan va xususiy) pensiya tizimiga ega bo‘lib, bu fuqarolarning keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beradi;

- aholining umr ko‘rish davomiyligining uzayib borishiga mos ravishda pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich oshirilishi;

- fuqarolar tomonidan mehnat faoliyatining butun davri davomida shakllantirilgan pensiya zaxiralari bilan pensiya miqdorlarining uzviy bog‘liqligini kuchaytirish;

- Pensiya olish huquqiga ega bo‘lish uchun minimal mehnat staji muddatiga bo‘lgan talablarni oshirish;

- nodavlat pensiya ta'minotini rivojlantirish;
- majburiy tibbiy sug'urtaning rivojlanganligi;
- maxsus ijtimoiy sug'urta fondlarining mavjudligi va turli ijtimoiy sug'urta dasturlarining samarali amalga oshirilishi;
- kyeng turdagi ijtimoiy sug'urta tizimining mavjudligi (tibbiy, pensiya, ishsizlik sug'urtalari, baxtsiz hodisalardan va kasallanganda sug'urtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug'urtalash, parvarishga muhtoj bo'lganlik uchun sug'urtalash, mehnatga layoqatlilik qisman yoki to'liq yo'qotilganda sug'urtalash, dafn marosimi uchun sug'urta) va badallarga asoslanganligi;
- fuqarolarga keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beruvchi uch darajali pensiya ta'minotining mavjudligi, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning rivojlangan tizimiga ega ekanligi hamda keng ko'lamdagi ijtimoiy xizmatlarni qamrab oluvchi ishsizlik sug'urtasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi, ijtimoiy sug'urta infratuzilmasining taraqqiy etganligi, o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta tizimining samarali tashkil etilganidan dalolatdir.

### **Nazorat savollari**

1. Germaniyada ijtimoiy sug'urtaning nechta turi amal qiladi?
2. Rivojlangan mamlakatlarda umumdavlat ijtimoiy dasturlarni joriy etish nechanchi yillardan boshlangan?
3. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ishlovchi va ish beruvchilarlar o'rtasida sug'urta yuklamasi taqsimoti va sug'urtalangan daromadlarning chegarasi kanday?

### **Test savollari**

1. Hozirgi kunda Germaniyada ijtimoiy sug'urtaning nechta turi amal qiladi?
  - A) pensiya sug'urtasi, majburiy tibbiy sug'urta, ishsizlik sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta
  - B) pensiya sug'urtasi, majburiy tibbiy sug'urta
  - S) majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urta
2. Beveridj modeli qaysi mamlakat muvaffaqiyatli tarzdagi amaliyotga tatbig'ini ko'rish mumkin?
  - A) AQSH, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya
  - B) Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya

S) Germaniya, AQSH, Yaponiya, Shveysariya

3. Shvetsiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining qanday modelidan foydalaniladi?

A) Skandinaviya modeli

B) Bismark modeli

S) Beveridj modeli

4. Germaniyada mehnatda mayiblanish umumdavlat ijtimoiy dasturlarni qachon joriy etilgan?

A) 1884 yil

B) 1880 yil

S) 1890 yil

5. AQShda kasallik nafaqalari umumdavlat ijtimoiy dasturlarni qachon joriy etilgan?

A) 1930 yil

B) 1885 yil

S) 1895 yil

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlarda xususiy pensiya fondlari faoliyati va taraqqiyoti.

2. Ijtimoiy sug'urta tizimi zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismi.

3. Ijtimoiy sug'urta mexanizmiga asoslangan Bismark modeli va uning xususiyatlari.

4. Davlatning ijtimoiy ta'minlashning anglosakson (liberal) modeli.

5. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha ijtimoiy sug'urta.

6. Ishsizlik nafaqasi bo'yicha sug'urta.

7. Ijtimoiy himoya bo'yicha Shved modeli.

## **VIII BOB. MAJBURIY KASBIY SUG‘URTALASHNING TURLARI VA KASB KASALLIKLARI SUG‘URTASINI TASHKIL ETISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

### **8.1-§. Ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalardan majburiy sug‘urtalash va kasb kasalliklari**

Har qanday zamonda va har qanday jamiyatda inson hayotiga va sog‘ligiga turli xil xavflar hamda risklar mavjud bo‘lgan: turmushdagi, transportdagi, ishdagi baxtsiz hodisalar; kasbiy faoliyat bilan bog‘liq kasalliklar. Bularning barchasi odamlarning mehnatga qilishga layoqati va ish o‘rinlarini yo‘qotishlariga olib keladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 10 sentyabrdagi PQ-174-sonli «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra, sug‘urtalangan shaxsning u mehnat shartnomasi bo‘yicha o‘z vazifalarini sug‘urta qildiruvchining hududida yoki undan tashqarida bajarayotganda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va sug‘urtalangan shaxsni boshqa ishga o‘tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa hisoblanadi. Sug‘urtalangan shaxsga unga ishlab chiqarishning zararli yoki xavfli omili ta’siri natijasida uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga sabab bo‘lgan o‘tkir yoki surunkali kasallik kasb kasalligini anglatadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasining maqsadi fuqarolarning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasiga bo‘lgan huquqlarini qonunda belgilab qo‘yish orqali ularni ijtimoiy himoya qilish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligi oqibatida xodimning hayoti hamda sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan sug‘urta to‘lovi to‘lanishini ta’minlash hamda mehnatni muhofaza qilish holatini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning sog‘lig‘ini saqlashdan iborat. Mazkur ijtimoiy sug‘urta turini moliyalashtirish, asosan,

sugʻurta qildiruvchilarning sugʻurta badallari va budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi. Sugʻurta tovonini dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik va boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalari tarzida toʻlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Germaniyada ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sugʻurta asosida tashkil etilgan boʻlib, ishchilarni bunday risk turidan sugʻurtaviy himoya qilish ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan majburiy sugʻurtalash tizimi institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur institutlar tomonidan ishlab chiqarishda jarohatlanganlarga, nafaqat, kompensatsiya toʻlanadi, balki davolash va reabilitatsiya xizmatlari tashkil etilishida koʻmaklashadi. Buyuk Britaniyada ishchilarni bunday ijtimoiy risklardan himoyalash xususiy sugʻurta asosida tashkil etiladigan korporativ sugʻurta tizimiga tayaniladi. Kasb kasalliklari boʻyicha sugʻurta tovonini sogʻliqni saqlash tizimi orqali davlat budjetidan toʻlab beriladi.

Fikrimizcha, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligidan ijtimoiy sugʻurtalash ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sugʻurta ajratmalari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplanishi zarur.

Kasbiy faoliyat sohasida «risk» tushunchasi «kasbiy» soʻzi bilan birga toʻldiriladi va ishlab chiqarishdagi muhitning, mashinalar va jihozlarning, xom ashyo va materiallarning ishchilar sogʻligiga hamda mehnat qilish layoqatiga taʼsirini xarakterlaydi. Shuningdek, koʻngilsiz hodisalar (baxtsiz hodisalar yoki kasbiy kasalliklar)ning yuz berish ehtimolligini ifodalaydi. Chunki bunday hodisalar yuz berishi ham, bermasligi ham mumkin.

Kasbiy risklarning kamida oʻnlab turli taʼriflari mavjud. «Ular riskning ehtimollik xarakteri va ishchilarning sogʻligiga yetkazadigan zararlariga qarab, kasbiy risklar turkumiga xos belgilarni oʻzida mujassam etgan boʻladi»<sup>245</sup>. Bu esa mazkur tushunchaning mehnat xavfsizligini yuritish va texnik boshqarish tizimlarida keng koʻlamda ishlatilishidan guvohlik beradi.

---

<sup>245</sup> ГОСТ 12.0.230.2007 Система управления охраной труда. Общие требования; ГОСТ ЕН 1070-2003 Безопасность оборудования. Термины и определения.

Ijtimoiy sug'urta tizimida kasbiy risk, ishchining mehnatga layoqatsizlikka olib keluvchi baxtsiz hodisalar (kasbiy jarohatlar va kasalliklar)ning yuz berish xususiyatini o'zida aks ettiruvchi, ijtimoiy risklarning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. «Kasbiy risk tushunchasi ishchilarning ijtimoiy himoyasini tashkil etishdagi muhim vosita rolini ham o'ynaydi»<sup>246</sup>.

Amaldagi xalqaro hujjatlarda «kasbiy risk» atamasi mehnat vazifasini bajarayotgan ishchi bilan sodir bo'lgan jarohatlar va kasalliklarning ehtimolligi hamda og'irlik darajasi bilan mos keladi.

Kasbiy riskning mazmuni va baholash uslublari u yoki bu fanning risklarning tabiatini o'rganish borasidagi maqsadlariga, uslubiy qurollariga bog'liq. Masalan: ijtimoiy sug'urta, tibbiyot va mehnatni himoyalash, texnika xavfsizligi kabi ijtimoiy institutlar va ilmiy sohalar kasbiy risklarni yetkazadigan zararlari xususiyatlari nuqtai nazaridan qarab chiqadi. Bunday yondashuv ularga risklarning u yoki bu sohalardagi omillarini bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi. Bu sohalar quyidagilardir: texnika, texnologiya va ishlab chiqarish turi, mehnatni tashkil etish, xodimlarni mohirona tayyorlash va mehnatni himoyalash hamda mehnat tibbiyoti. Boshqacha aytganda, ilmiy fanlar kasbiy risklarni o'z nuqtai nazari bo'yicha o'rganadi.

Kasbiy risklarni bir-biriga taqqoslash jarayonida ishlab chiqarish vaqtida yuz bergan jarohatlar, ishlab chiqarish va kasbiy kasalliklarning paydo bo'lishi hamda bo'lib o'tishi va ularning keltirib chiqaradigan og'ir oqibatlariga ta'sir etadigan omillarni aniqlash ham amalga oshiriladi.

Kasbiy risk tushunchasi mehnat tibbiyoti (mehnat va kasbiy kasalliklar gigiyenasi) nuqtai nazaridan, ishchilarda kasb kasalliklari yuz berishidagi miqdoriy qonuniyatlarni ochish va ulardan ishchilarni ogohlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish sifatida qaraladi. Bunda ishlab chiqarish sohasi muhiti (shovqin, vibratsiya, kimyoviy va biologik moddalar, nurlanishni keltirib chiqaradigan radiatsion va boshqa moddalar) va mehnat qilish jarayonidagi omillar (mehnatning tez bajarilish talabi va og'irligi, ish sur'ati) salomatlikka ziyon yetkazish manbasi sifatida o'rganiladi. Mazkur yondashuv

---

<sup>246</sup> Practical Tools and Checklist for Risk Assessment. European Agency for safety and Health at Work, 2007. – P.7.



JSSTning kasbiy riskka bergan ushbu ta'rifida ham qayd etib o'tilgan: risk – bu ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillarga inson organizmining ko'rsatadigan noxush reaksiyalari va kutilayotgan zo'riqishlarini o'zida aks ettiruvchi matematik konsepsiyadir.

Riskning xavflilik darajasi u yoki bu kasalliklarning aniq mehnat sharoitlarida (ishlab chiqarish muhiti holati, moddalarning xavflilik turlari va ularning konsentratsiyalarining sanitariya me'yorlarini buzgan holda oshirilib yuborilishi) ishlayotgan muayyan kasblar guruhida qay darajada keng tarqalib ketganligi bilan aniqlanadi.

Texnika xavfsizligi va mehnatni himoya qilish nuqtai nazaridan kasbiy risk risklarning texnik va tashkiliy omillari (texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va turi, xodimlarni professional tayyorlash va mehnat qilishni himoyalash bo'yicha profilaktika ishlarini olib borish) sifatida qaraladi. Bu omillar ishlab chiqarishda jarohatlar olish darajasi ko'rsatkichlariga va bu ko'rsatkichlarni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy sug'urta nuqtai nazaridan, kasbiy risk tushunchasi sug'urta qilinish holatlari kerak bo'lgan kasb yoki sohalarda mehnat qilayotgan muayyan guruh kasb egalariga kelishi ehtimoli bo'lgan risklarni bildiradi. Bunday risklar tufayli ishchi mehnatga layoqatini va daromadini yo'qotishi natijasida davolanishi va realibitatsiya uchun ma'lum miqdordagi xarajatlarni talab qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish muhimki, bunda jarohat yoki kasbiy kasallik bilan og'rish jarayoni sug'urta qilish kerak emas (bunday jarayonlar ko'rsatkichini nolga tushirishning iloji yo'q, ularning ko'rsatkichini faqatgina pasaytirish mumkin), balki baxtsiz hodisalar sababli mahrum bo'linayotgan daromadlarni va bu risklardan jabr ko'rganlarning davolanishi hamda realibitatsiya qilinishi uchun kerak bo'lgan qo'shimcha harajatlarni sug'urtalash lozim.

«XMT va JSSTning mutaxassislari kasbiy risklarning 150 ga yaqin sinfini va taxminan 1000 dan ortiq ko'rinishini ajratib ko'rsatadi. Ular 2000 dan ziyod turdagi har xil kasb egalariga real xavf solmoqda»<sup>247</sup>. Bunda ushbu sinflar to'liq hisoblanmaydi, faqat mehnat xavfsizligi va gigiyenasining alohida jihatlarini o'z ichiga oladi.

---

<sup>247</sup> Международная организация труда. Энциклопедия по безопасности и гигиене труда: в 4 т., 4-е изд. – М.: «Министерство труда и социального развития», 2001. – Т. 4. – С. 9.

Kasbiy risk tufayli ishchilarga quyidagi dastur bo'yicha xavfga duchor bo'lishlari mumkin: ishlab chiqarishda olingan jarohatlar (kasb kasalligi) – sog'liqni yo'qotish – mehnatga layoqatini yo'qotish – oylik ish haqidan mahrum bo'lish – kasallikdan davolanishning, realitatsiya va kompensatsiya to'lovlarining kechikishi. Bunda shuni ta'kidlab o'tish muhimki, kun ko'rish uchun topib turilgan mablag'dan ham mahrum bo'lish, nafaqat ishchining, balki uning oila a'zolari ham buning orqasidan keladigan nochorlikdan qiynaladi.

Kasbiy risk tushunchasi ijtimoiy riskning kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ko'rinishi bo'lib, turli xil (texnologik, tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy) jarayonlarning natijasi hisoblanadi.

XMTning 102-sonli (32-band) Konvensiyasiga ko'ra, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oqibatlariga quyidagilar kiradi: ishchilarning mehnatga qilishga yaramay qolishi; kasb kasalligi (kasallik holati); hayot kechirish uchun butkul pul topa olmay qolish; ishchining vafotidan so'ng boquvchisini yo'qotgan uning turmush o'rtog'ining yashash uchun mablag'dan ajralishi.

XMTning 102-sonli (32-band) Konvensiyasiga ko'ra, jabr ko'rgan shaxslarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning turlariga quyidagilar kiradi: zarur tibbiy yordam, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolingan davr uchun kasallik bo'yicha moddiy yordami, mehnat qilish layoqatini doimiy yo'qotganda beriladigan nogironlik pensiyasi va vafot etgan shaxsning turmush o'rtog'iga beriladigan pensiya.

Kasbiy risklarning paydo bo'lishi va yuz berishi shartlari quyidagilar hisoblanadi: texnologik va ishlab chiqarishni tashkillashtirish sababli; kasb va ish joyi tanlashdagi erkinlik darajasi (xavfli kasblar va mehnat qilish uchun zararli sharoitlar); ishchilarni ijtimoiy himoya qiluvchi maxsus institutlarning tashkil etilishi va samarasi (mehnatni himoyalash va mehnat tibbiyotining milliy hamda korporativ tizimlari, xavfsizlik texnikasi, majburiy ijtimoiy sug'urta institutlari va h.k.). Masalan, kasb va ish joyini tanlash jarayonida katta ehtimollik bilan risklarning paydo bo'lishi qator sabablarga bog'liq: mablag'ning, hayotda qulay boshqa variantlarni tanlash uchun imkoniyatlarining yo'qligi. Shuning uchun kasbiy risklarni sinflarga ajratishda quyidagilarni alohida ajratib qo'rsatish lozim bo'ladi: riskning o'z xohishi bilan yoki xohishsiz tanlanishi; kundalik va

boshqa bo‘lmagan risklar; riskning qachon kelishini oldindan aytib bo‘lmaslik, shuningdek, ular natijalarining qamrov chegarasi va xarakteri.

Jamiyat rivojlanishidagi industrial bosqichning muhim tavsifi ishchilar, ish beruvchilar va davlat uchun kasbiy risklarga bo‘lgan e‘tiborining oshishi ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ularni oddiy holat, deb hisoblash esa, ko‘plab ishlab chiqarish korxonalariga katta miqdordagi zarar yetkazadi, riskni keltirib chiqaruvchi omillarning kelib chiqishini va ularning oldindan aytish qiyin bo‘lgan oqibatlarining ishchilarning sog‘ligiga, mehnat qilish layoqatiga salbiy ta’sirini sezilarli ravishda tezlashtiradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoati rivojlangan ko‘plab davlatlarda kimyoviy va biologik moddalardan (hozirda bunday xil moddalarning 500 mingdan ziyod turi qayd etilgan) keng ko‘lamda foydalana boshlangan. Ularning 3-4 mingga yaqinligina xavfsizlik jihatdan qoniqarli deb hisoblangan, ya’ni bu kimyoviy va biologik moddalar umumiy miqdorining 2 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari sanoat texnologiyasida gen injenerligi, nurlanishni qaytaruvchi va o‘ziga singdiruvchi turli manbalar faol qo‘llanila boshlanganligini ham ta’kidlab o‘tish muhimdir. Bularning hammasi so‘nggi 50 yilda sanoatning turli sohalarida, qurilishda, qishloq xo‘jaligida va transport sohasida ishlab kelayotgan ko‘plab insonlarning hayot xavfsizligiga kerak vositalar bo‘lib qoldi.

Kasbiy risklarining bu darajada keng tarqalganligi industrial mehnatning yuqori darajada rivojlanganligi bilan tushuntiriladi. Texnika va texnologiyaning, kimyoviy va biologik moddalarning, turli ko‘rinishdagi energiya manbalari va nurlanishni keltirib chiqaruvchi vositalarning faol qo‘llanilishi kishilar hayot faoliyatining deyarli barcha sohalarida risklar paydo bo‘lishiga olib kelaveradi. Shu munosabat bilan kasbiy risklar tabiatini o‘rganish turli xil kasb egalarining ham kasbiy faoliyatiga aylanib qoldi. Bu jarayon uchun turli sohalar – biologiya va tibbiyot, iqtisod va moliya, yurisprudensiya va texnika fanlari, sotsiologiya va psixologiya, sug‘urtalash va matematikadan mutaxassislar jalb qilindi.

Kasbiy risklarni tizimli o‘rganish BMT tizimidagi xalqaro maxsus tashkilotlari – XMT, JSST, Ijtimoiy ta’minot xalqaro assotsiatsiyasi

(ITXA) va boshqa shu kabi tashkilotlarning muhim vazifalari doirasiga qiradi. Shu munosabat bilan, bu faoliyat isboti sifatida, kasbiy risklar bo'yicha XMT hamda JSST hamkorlikda amalga oshirgan tadqiqotchilik va nashriy loyihalarni ta'kidlab o'tish yetarlidir. Masalan: XMT mutaxassislari va dunyoning 65 ta davlatidan hamkorlikka taklif qilingan 2000 dan ziyod ekspertlar tomonidan bajarilgan, kasbiy risklar tabiati va ulardan himoyalash chora-tadbirlari batafsil bayon etib berilgan – «Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi ensiklopediyasi»<sup>248</sup>, bu hamkorlik mevasidir. Mazkur ensiklopediya 25 yil davomida to'rt nashrda tayorlandi va chop etib kelindi.

Jahon hamjamiyati davlatlarining kasbiy risklarni baholash bilan bog'liq bo'lgan tajribalari XMT, JSST hamda Yevropa Ittifoqi kabi nufuzli tashkilotlarning hujjatlari va tavsiyalarida muhrlanib o'tilgan. Ular keng ommaga mo'ljallangan ilmiy adabiyotlar hisoblanishi bilan bir qatorda, mehnat xavfsizligi va gigiyenasining milliy tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish borasidagi muhim nazariy hamda uslubiy baza bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, quyidagi muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan: risklarning xavfli ta'sirlarining oldini olish maqsadida ularni aniqlash va baholash; kasbiy risklar darajasini nazorat qilish davlat tizimini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqarish uchun kasbiy risklarning statistik bazasidan foydalanish; kasbiy risklarning xavfli ta'sirlarini minimal kamaytirish bo'yicha ish beruvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish uchun kasbiy risklarning muhim omillari va sabablarini aniqlash.

### **Nazorat savollari**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi deganda nimani tushunasiz?

2. Amaldagi qonunchilikka ko'ra kasb kasalligini asosiy xususiyatlarini izohlab bering.

3. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasining maqsadlari nimalardan iborat.

---

<sup>248</sup> Энциклопедия Международной организация труда по безопасности и гигиене труда. Международной организация труда. – Женева. В 4 т 1998 / - М. 2001.

## Test savollari

1. «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sugʻurtasi toʻgʻrisida»gi qonun qachon qabul qilingan

A) 2008 yil 10 sentyabrda

B) 2005 yil 10 sentyabrda

S) 2000 yil 10 sentyabrda

2. Ijtimoiy sugʻurta turini moliyalashtirish qaysi mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi

A) sugʻurta qildiruvchilarning sugʻurta badallari va budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi

B) Ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi

S) Moliya vazirligi

3. Risk – bu

A) ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillarga inson organizmining koʻrsatadigan noxush reaksiyalari va kutilayotgan zoʻriqishlarini oʻzida aks ettiruvchi matematik konsepsiyadir

B) ishlab chiqarish vaqtida yuz bergan jarohatlar, ishlab chiqarish va kasbiy kasalliklarning paydo boʻlishi hamda boʻlib oʻtishi va ularning keltirib chiqaradigan ogʻir oqibatlariga taʼsir etadigan omillarni aniqlash

S) mehnat tibbiyoti (mehnat va kasbiy kasalliklar gigiyenasi) nuqtai nazaridan, ishchilarda kasb kasalliklari yuz berishidagi miqdoriy qonuniyatlarni ochish

4. «XMT va JSSTning mutaxassislari kasbiy risklarning nechtaga yaqin sinfini va nechtadan ortiq koʻrinishini ajratib koʻrsatadi

A) 150 ga yaqin sinf va taxminan 1000 dan ortiq koʻrinishi

B) 250 ga yaqin sinf va taxminan 1000 dan ortiq koʻrinishi

S) 50 ga yaqin sinf va taxminan 1000 dan ortiq koʻrinishi

5. XMTning 102-sonli (32-band) Konvensiyasiga koʻra, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarga nimalar kiradi

A) ishchilarning mehnatga qilishga yaramay qolishi; kasb kasalligi (kasallik holati); hayot kechirish uchun butkul pul topa olmay qolish; ishchining vafotidan soʻng boquvchisini yoʻqotgan uning turmush oʻrtogʻining yashash uchun mablagʻdan ajralishi

B) ishchilarning mehnatga qilishga yaramay qolishi; kasb kasalligi (kasallik holati); hayot kechirish uchun butkul pul topa olmay qolish; nogironlarga va keksalarga

S) hayot kechirish uchun butkul pul topa olmay qolish; nogironlarga va keksalarga

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Kasbiy risklarning paydo bo'lishi
2. Yollanma ishlovchilar tomonidan sug'urta badallarini to'lash.
3. Sug'urta badallari to'lashning shaxsiy hisobini olib borish.
4. Mehnat staji va daromadni hisoblash tartibi.
5. Pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lash

### **8.2-§. Ish beruvchilarning ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari uchun javobgarligini sug'urtalash**

Ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urta qilish amaliyoti qariyb 150 yil tarixga ega. Ishlab chiqarish jarayonida ishchi sog'ligiga va mehnat qilish layoqatiga yetkazilgan zarar uchun ilk qoplama, yuz bergan baxtsiz hodisalarda o'z ayblarini tan olishlarida va sud qarorlarining ishchilar foydasiga hal bo'lgan hollardagi fuqaroviy-huquqiy javobgarligi yordamida amalga oshirilgan. Kam hollarda ishchilarning o'z shaxsiy hayotlarini ixtiyoriy ravishda sug'urtalashlari tatbiq etilgan.

Ta'kidlab o'tish kerakki, yollanma ishchilarni ijtimoiy himoyalashning bu kabi shakllari ishlab chiqarish jarayonida jabr ko'rgan ishchilarni ijtimoiy himoyalashning mos darajasini, himoyalashning u yoki bu shakli jihatidan ham, kompensatsiya to'lovlarining yetarlilik va o'z vaqtida to'lanishi jihatidan ham ta'minlay olmaydi. Ish beruvchining fuqaroviy-huquqiy javobgarligiga asoslangan zararni qoplash metodi qator holatlarda, jumladan, avvalo, ish beruvchining barqaror bo'lmagan moliyaviy ahvoli, misol uchun muassasaning tugatilishi va bankrotlik holatlarida, ishchiga yetkazilgan zararni qoplashni ishonchli ravishda kafolatlay olmasligi bilan bog'liq. Shuning uchun XIX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish inqilobi dolzarb mavzu sifatida oldinga surgan muhim ijtimoiy masala – yollanma

ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli mehnat qilishga layoqatini yo‘qotishlari uchun moddiy kompensatsiyalar berish masalasi bo‘lib qoldi.

Bu ancha og‘ir moliyaviy, ijtimoiy va huquqiy masala edi, chunki ishlab chiqarish jarayonida yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli mehnat qilishga layoqatini yo‘qotganida, ishiga bundan keyingi yashashi uchun kerakli kompensatsiya mablag‘i kattagina moliyaviy resurslarni talab etardi.

Ishlab chiqarish jarayonida yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli yollanma ishchi ko‘rgan zararni qoplash masalasini ko‘rib chiqishda fuqaroviy-huquqiy javobgarlik quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi: mehnat shartnomasida ko‘rsatilmagan (sudda isbotlangan) talablar tufayli, yollanma ishchining sog‘ligiga va mehnat qilish layoqatiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlik tamoyili. Bu huquqshunoslik fanida «ish beruvchining delikti» deb ataladi. Delikt (lotincha delictum – jinoiy ish, huquqbuzarlik) – zarar va ziyon yetkazishni o‘z ichiga olgan shaxsiy va fuqaroviy huquqiy ish. Bu kabi zararlarda zarar yetkazuvchining aybdorligini isbotlash majburiyati jabrlanuvchining vakiliga (yoki turmush o‘rtog‘iga) yuklanadi. Delikt munosabatlarning mazmun-mohiyati sud jarayonlarining borish vaqtida boshqa shaxslarga ziyon yetkazish sabablarini qarab chiqishning zarurligidan iboratdir. Agar ish beruvchining (javobgarining) hatti-harakatida mas‘uliyatsizlik va sovuqqonlik kuzatilgan bo‘lib, aynan uning harakatlari yoki hych nima qilmaganligi jarohatga sabab bo‘lgan bo‘lsa, shuningdek shu sababli ham ish beruvchi ish beruvchi aybdor shaxs deb tan olinsa hamda u ish beruvchining mehnatga layoqatini yo‘qotishiga sababchi bo‘lgan bo‘lsa, bunday hollarda jabrlangan ishchiga moddiy to‘lov belgilanadi.

XIX asrda ishchilarning ish beruvchilardan yetkazilgan jarohatlar uchun to‘lov to‘lashni talab qilib, sudlarga yozgan davolari qanoatlantirilmagan. Ko‘pchilik holatlarda ish beruvchilarning sovuqqonligini isbotlab berishning iloji bo‘lmagan, bunday baxtsiz hodisalarga ishchining o‘zi e‘tiborsizligi tufayli duch kelgan, deb uqtirilgan. Boshqacha ifodalaganda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarda ishchiga yetkazilgan zararga to‘lov to‘lash masalasi ko‘pchilik hollarda delikt huquqiy munosabatlar doirasida o‘z

yechimini topmagan. Ularni boshqa institutlar – majburiy ijtimoiy institutlar bilan almashtirish vaqti kelib qolgan. Tadbirkorlarning delikt (qonuniy) javobgarligiga asoslangan huquq institutlarining past natija berishi ish beruvchilar va ishchilarning ijtimoiy, mulkiy va ma'lumot jihatdan teng emasligi, jabrlangan ishchi va uning oila a'zolarining sudga bergan davolarini ko'rib chiqishda sezilarli qiyinchiliklarning mavjudligi bilan bog'lash mumkin.

Baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlashdagi aksariyat qiyinchiliklar kasbiy risklarning murakkab texnik, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy tabiatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Ularning yuz berishi borasida haqqoniy xulosalar chiqarish, hattoki malakali va odil sudlarga ham qiyinlik qilgan. Sud qarorlari natijasida belgilangagan kompensatsiya to'lovlari to'lash uchun asos va ularning miqdorlari turli sudlarda turlicha ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ko'pchilik holatlarda sudyalari aybni jabrlangan ishchining o'ziga qo'yib qo'yishgan va bu bilan ularni mehnatga layoqatini yo'qotishda to'lanishi lozim bo'lgan moddiy to'lovlardan mahrum etganlar, bu bilan ularning oilasini ham ochlik va qashshoqlik yoqasiga olib borib qo'yganlar. Boshqa tomonlan esa, ishchilarning (ishlab chiqarishda jabr ko'rganlar oila a'zolarining) bu kabi holatlarga qarshi namoyish bilan chiqishlari keng ommaviy ko'tarilishlarni keltirib chiqardi, ular qonun chiqaruvchilar va sud hokimiyatidan bunday murakkab vaziyatlardan chiqarish yo'llarini axtarib topishni talab qilganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida industrial jamiyatning o'ta yuqori rivojlanish cho'qqisiga chiqishi, ijtimoiy boshqaruvning chegarasi haqida guvohlik berdi. Bu boshqaruv mehnat shartnomasini tuzish paytida yollanma mehnat qilishdagi shaxsiy va fuqaroviy huquqiy javobgarlik tamoyillariga asoslangan. Boshqacha ifodalaganda, ishchiga yetkazilgan moddiy zararni muhokamasiz kompensatsiya qilib berish mexanizmini yaratish talab qilinardi. Buning yagona yo'li baxtsiz hodisalar yuz berganda javobgarlikni ish beruvchiga yuklashning qonuniy tuzilmasini yaratish edi.

Yirik ishlab chiqarish bosqichi ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarning ob'ektiv va ommaviy xarakteri ish beruvchilar hamda ishchilar orasidagi munosabatlarni boshqarishga o'tish zarurligini namoyish qildi. Bunday munosabatlar ish beruvchining



ishchining sogʻligi va mehnat qilishga layoqatini yoʻqotganida pul toʻlashi hamda boshqa shu kabi holatlar uchun shaxsiy javobgarligining huquqiy meʼyorlariga asoslangan.

1860-1880 yillarda Germaniya, Angliya va Fransiyada bu muammo, nafaqat, siyosatchilarning, balki olimlar, kasaba uyushmalari yoʻlboshchilarining ham diqqatini oʻziga tortdi. Ilmiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlari ijtimoiy sugʻurta nazariyasini ishlab chiqish boʻlib qoldi. Nemis olimlari A.Vagner va G.Shmoller ishlab chiqarish vaqtida ishchilarning hayoti va sogʻligiga yetkazilgan zarar uchun tadbirkorlarning moddiy javobgarligi zarurligini asoslab berdilar. Ular bunday javobgarlikning moliyaviy va huquqiy mexanizmi sifatida ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalardan majburiy ijtimoiy sugʻurtalash tizimini kiritishni taklif etdilar.

A.Vagner va G.Shmoller 1880 yillarda bunday sugʻurta institutlari faoliyatini amalda tatbiq qilishning zarurligini, ishlab chiqarishda yuz beradigan risklarning sodir boʻlish tezligining keskin oshib ketishidan yollanma ishchilar uchun muhimligi bilan bogʻlaydilar. Bu kabi muammolarni oʻsha paytda mavjud boʻlgan fuqaroviy huquqiy va ularga mos murakkab sud jarayonlari yordamida hal qilib boʻlmagan. Ishlab chiqarish vaqtida yuz beradigan baxtsiz hodisalar aybdorlarini aniqlash, shuningdek, ishchining sogʻligi va uning mehnat qilish layoqatiga yetkazilgan zararni qoplash uchun kim javobgarligini aniqlash qabi masalalar, oʻsha davrlarda mavjud boʻlgan fuqaroviy haq-huquqlarga asoslanib, hal etib boʻlmaydigan muammo edi. Shuning uchun A.Vagner va G.Shmoller shaxsiy javobgarlik tamoyiliga asoslangan fuqaroviy-huquqiy javobgarlikni, majburiy ijtimoiy sugʻurtalashni tatbiq qilish yordamida masalani yangicha boshqarish usuliga almashtirishni taklif qildilar. Shunday qilinganda, kompensatsiya toʻlovi haqidagi savolga javob topish masalasi ishlab chiqarish vaqtida jabr koʻrgan ishchi uchun ham, ish beruvchi uchun ham yengil huquqiy jarayon boʻlib qoladi. Shuningdek A.Vagner va G.Shmoller, majburiy ijtimoiy sugʻurta institutlarini shakllantirish uchun zarur boʻlgan nazariy asoslarni ham yaratishdi. Ular ishchining hayoti va salomatligiga yetkazilgan zarar uchun tadbirkorlarning javobgarligini belgilash zarurligini asoslab berdilar, bunday javobgarlikning yuridik va moddiy mexanizmi sifatida ishlab

chiqarishdagi baxtsiz tasodiflardan majburiy ijtimoiy sug'urtalashni joriy qilishni taklif etadilar.

A.Vagner ijtimoiy sug'urtalash borasidagi eng muhim masala – ish beruvchilardan o'z ishchilarini majburiy ravishda (qonuniy ravishda) ijtimoiy risklarning ko'p uchraydigan turlaridan (ish vaqtida kasallikka chalinish, baxtsiz hodisalarga uchrash, keksayganda ishlashga yaramay qolishi asnosida mehnatga layoqatini yo'qotishi) sug'urtalash masalasini hal etish, deb hisobladi. A.Vagner bu masalani hal etishning iqtisodiy asosini sog'lom hayot kechirish garovi hisoblangan munosib oylik ish haqi berish, deb hisobladi. U bunday yondashuvni ish beruvchilar va ishchilar munosabatlari doirasidagi muhim «etik moment» deb qarab chiqdi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy sug'urtalash faoliyatini yollanma ishchilarni himoyalashning ommaviy instituti deb qarash, Germaniya kansleri O.Bismarkning tashabbuslariga ko'ra, qonunlar bilan 1884 yilda Germaniyada joriy qilingan edi. Qabul qilingan qonunlarga ko'ra, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, baxtsiz hodisalarga javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatildi. Bunda ish beruvchi sug'urta to'lovlarini to'lash orqali sug'urta tashkilotlariga (sug'urtachilarga) o'zining ishchilar oldidagi javobgarligini bildirgan. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar yuz berganda sug'urtachi ishchiga kompensatsiya, tibbiy va realitatsiya xizmatlar uchun pul to'lash orqali u bilan o'zaro muomalaga kirishadi. Ijtimoiy himoyaning bunday shaklini tashkil qilishning asosiy tamoyili shundan iboratki, bunda sug'urtachi jabrlangan ishchi uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning qarab chiqilgan barcha shakllarini tashkil qilib beruvchi yuridik shaxs bo'lib qoladi. Bunday tartib-qoida ishchilarning ijtimoiy himoyalashni kuchaytiradi, chunki ishchi kompensatsiya olishi uchun baxtsiz hodisaning, ishchi o'z vazifasini bajarib turgan paytida yuz berganligini isbotlab berish talab etiladi. Bu savolning javobini topish jabrlangan, daromadlarini yo'qotgan shaxslar uchun mo'ljallangan moliyaviy manbalarni axtarib topishni, shuningdek, ishlab chiqarishda jabr ko'rgan ishchilarning davolanishi, tibbiy, kasbiy va ijtimoiy realitatsiyasi uchun to'lovlar – salomatlik va mehnatga layoqatni

yo‘qotish vaqtida to‘lanadigan kompensatsiyaning natural (pullik to‘lov) shaklini talab qilardi.

Salomatlik va mehnatga layoqatni yo‘qotish vaqtida to‘lanadigan kompensatsiyaning natural (pullik to‘lov) shakli quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jabrlangan shaxsga unga kerak ma‘lum bir jihozni taklif qilish (masalan protezlar, nogironlar aravachasi va shu kabilar); qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish (nogironlarni parvarishlash, nogironlarga ularning sharoitini yaxshilash uchun uylar qurib berish va h.k.).

Germaniyada majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimining qonunan kiritilishi ko‘proq samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatadigan ijtimoiy himoya institutlarining shakllanishidagi strategik uzilishni keltirib chiqardi. Bu kabi institutlar faoliyatini dastlab ko‘pgina Yevropa davlatlari, keyinchalik esa (XX asrning 30-60 yillarida) jahon hamjamiyatining ko‘pgina boshqa nufuzli davlatlari ham qo‘llay boshladi. Garchi ko‘pgina davlatlarda ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilishning turli shakllari qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy sug‘urtalash institutlari eng keng tarqalgan sug‘urta institutlar qatoridan bo‘lib qolaverdi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ijtimoiy himoyalash jarayonining iqtisodiy mohiyati ish beruvchining ishchi oldida yetkazilgan zarar uchun shaxsiy javobgarligidan tubdan farq qilardi. U barcha ish beruvchilarning (ish beruvchilar jamoasining) ishlab chiqarishda jabr ko‘rgan ishchilar oldidagi jamoaviy javobgarligiga, mas‘uliyatiga asoslanar edi.

Har bir tadbirkorning mavjud sug‘urta badallarini muntazam ravishda to‘lab borish majburiyati, ularni o‘z ishchilari bilan muayyan baxtsiz hodisa yuz berganida, bu kabi hodisalar bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar va boshqa tashkiliy ishlardan ozod qilar edi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, ishchilarni kasbiy risklardan ijtimoiy sug‘urtalashning iqtisodiy munosabatlari mehnat munosabatlariga asoslangan holda quriladi. Bunda ish beruvchilarning ishchilar foydasiga to‘lagan sug‘urta badallari xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondi mablag‘larining bir qismi hisoblanadi va ular maxsus tashkil etilgan sug‘urta flndlarida saqlanadi. Bu kabi sug‘urta

institutlarining Germaniya, Avstriya, Italiya, Polsha va Finlyandiyada (XIX asrning oxiri va XX boshlarida) qoʻllanilgan ilk yillaridayoq, ularning hech bir shak-shubhasiz munosib tomonlari koʻzga tashlana boshlandi: sugʻurta fondining shakllanishi, sugʻurta fondini moliyalashtirishda barcha ish beruvchilarning ishtirok etish majburiyati, sugʻurta fondlari faoliyati ustidan ommaviy nazoratni (davlat nazoratidan tashqari) qoʻllash.

Rossiyada ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sugʻurta qilish institutlari faoliyatini qoʻllash oʻzining tarixiga ega: 1913 yildan 1918 yilgacha boʻlgan davr va 1921 yildan 1928 yilgacha boʻlgan davr. 1930 yildan boshlab, Rossiyada 70 yil davomida (1930-2000 yillargacha) fuqaroviy-huquqiy javobgarlik institutlari faoliyati tatbiq etila boshlandi.

### **Nazorat savollari**

- 1.Sugʻurtalangan shaxslar qanday huquq va majburiyatlarga ega?
- 2.Sugʻurta qildiruvchilar qanday huquq va majburiyatlarga ega?
- 3.Sugʻurtalovchining qanday huquq va majburiyatlari mavjud?

### **Test savollari**

1.Qaysi nemis olimlari ishlab chiqarish vaqtida ishchilarning hayoti va sogʻligiga yetkazilgan zarar uchun tadbirkorlarning moddiy javobgarligi zarurligini asoslab bergan?

- A) A.Vagner va G.Shmoller
- B) O.Bismark
- S) Barbara Armstrong

2. Rossiyada necha yil davomida fuqaroviy-huquqiy javobgarlik institutlari faoliyati tatbiq etila boshlandi?

- A) 70 yil davomida (1930-2000 yillargacha)
- B) 80 yil davomida (1920-2000 yillargacha)
- S) 90 yil davomida (1910-2000 yillargacha)

3. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar yuz berganda sugʻurtachi ishchiga qanday xizmatlar koʻrsatadi?

A) Kompensatsiya, tibbiy va realibitatsiya xizmatlar uchun pul toʻlash

- B) uyda davolanish xarajatlarini koplaydi.
- S) Pullik xizmatlar xarajatlarini koplaydi

4. A.Vagner ijtimoiy sug‘urtalash borasidagi eng muhim masalalar qaysilarni aytib o‘tgan?

A) ish beruvchilardan o‘z ishchilarini majburiy ravishda (qonuniy ravishda) ijtimoiy risklardan himoyalash

B) Xayotini sug‘urtalash

S) daromadlarini sug‘urtalash

### **Mustaqil ta’lim mavzulari**

1.«Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi va mazmun-mohiyati.

2.Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug‘urtalangan shaxslarning huquq va majburiyatlari.

3.Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasini moliyalashtirish manbalari.

### **8.3-§. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasini amalga oshirish uchun mablag‘lar sug‘urtalovchi tomonidan quyidagilar hisobiga shakllantiriladi: sug‘urta qildiruvchilarning sug‘urta badallari; undiriladigan jarima va penyalar; qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tushumlar<sup>249</sup>. Sug‘urta tovonini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik pensiyasi hamda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tarzida to‘lanadi.

Sug‘urta tovonini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan to‘lanadi. Sug‘urta tovonini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasining maqsadlari uchun sug‘urtalovchi tomonidan to‘plangan pul mablag‘lari hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi.

Sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan dafn etish

---

<sup>249</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 10 sentyabrdagi O‘RQ-174-sonli «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 8-modda.

marosimi uchun beriladigan nafaqa uning oila a'zolariga yoki dafn marosimini o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorlarda to'lanadi.

Nogironlik pensiyasi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida mehnat qobiliyati to'liq yoki qisman yo'qotilganda tayinlanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida nogironlik pensiyasi ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi<sup>250</sup>. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik kelib chiqqan vaqt va nogironlik belgilab qo'yilayotgan muddat qonunchilikda o'rnatilgan tartibda tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan aniqlanadi.

Sug'urtalangan shaxsga nogironlik guruhi tayinlansa, sug'urta to'lovi quyidagi tartibda amalga oshiriladi<sup>251</sup>: sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 100 % miqdorida; sug'urtalangan shaxsga II guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 75 % miqdorida; sug'urtalangan shaxsga III guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 50 % miqdorida; sug'urtalangan shaxsning o'limi holatida sug'urta to'lovi miqdori personal sug'urta summasining 100 % ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi vafot etgan sug'urtalangan shaxsning qaramog'idagi mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga qonunchilikda belgilangan tartibda to'lanadi. Bunda yoshidan va mehnat layoqatidan qat'i nazar, farzandlarga, ota-onadan biriga yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singilga pensiya, agar ular vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralari, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lguniga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa, boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganligidan qat'i nazar, tayinlanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, shuningdek vafot etgan sug'urtalangan shaxsning qaramog'ida bo'lmagan ota-onasiga va eriga (xotiniga) ham, agar ular keyinchalik tirikchilik

---

<sup>250</sup> <https://www.lex.uz/docs/1390913>.

<sup>251</sup> [https://uzbekinvest.uz/legal-entities/ishchilarni-ishlab-chiqarishdagi-bahtsiz-hodisalardan-zhamoavij-sugurta-qilish\\_73](https://uzbekinvest.uz/legal-entities/ishchilarni-ishlab-chiqarishdagi-bahtsiz-hodisalardan-zhamoavij-sugurta-qilish_73).

uchun zarur mablag'lar manбайдan mahrum bo'lib qolgan bo'lsa, to'lanadi.

Har bir tashkilot tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtalangan bo'lsa, to'lovlar sug'urta kompaniyalari orqali amalga oshiriladi. Lekin, sug'urta qilinmagan bo'lsa, ko'p holatlarda, sug'urta to'lovi (kompensatsiya pullari) ish beruvchi korxonaga mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda baxtsiz hodisani tekshirish bo'yicha komissiya tuziladi. 15 kun ichida baxtsiz hodisa sabablari tekshiriladi. Hujjatlar rasmiylashtirilib, har bir jarohat olgan yoki jabr ko'rgan oilaga komissiya a'zolari tashrif buyurib, qonunchilik bo'yicha imkoniyatlari va huquqlarini tushuntirishi shart. Barcha hujjatlar rasmiylashtirilgach, uzog'i bilan 1 oy muddatda barcha to'lovlar amalga oshirilishi kerak. Agar, xodim baxtsiz hodisa tufayli vafot etgan bo'lsa, bir martalik 6 yillik o'rtacha ish haqi to'lab berilishi kerak<sup>252</sup>. Qaramog'ida farzandlari bo'lsa, marhumning o'rtacha oylik maoshi ularning soniga bo'linadi hamda har bir farzandi 18 yoshga kirguncha to'lab boriladi. Agar, baxtsiz hodisa oqibatida jarohat olgan bo'lsa, bir martalik to'lov bir yillik o'rtacha ish haqini tashkil etishi darkor. Bundan tashqari, mehnat qobiliyatini to'la tiklagunga qadar, to'lovlar foizlarda amalga oshiriladi. Ya'ni, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik darajasi foizlarda TMEK tomonidan aniqlanadi. 30 yoki 40 foiz bo'lsa, o'rtacha maoshining shuncha miqdori sog'lig'i tiklangungacha yoki umrbod to'lab boriladi.

Har bir jarohat olgan yoki vafot etgan xodimlar bo'yicha bevosita nazorat olib boriladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi va Pensiya jamg'armasi, mabodo korxonaga tugatilsa, to'lovlar davlat zimmasiga tushadi va moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi 2020 yilda ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar 607 tani tashkil etganini, bu esa 2019 yilga nisbatan 107 taga ko'pligini ma'lum qildi. Oqibatda 693 nafar xodim jabrlangan, shundan 201 nafari halok bo'lgan. 2020 yilda koronavirus pandemiyasiga qaramasdan ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar oshgan. 2020 yil davomida respublikada ushbu ko'rsatgich 607 tani (107 taga ko'paygan) tashkil etgan bo'lsa, 2019

---

<sup>252</sup> <https://kun.uz/71576672>.

yilda ishlab chiqarish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar 500 ta bo‘lgan<sup>253</sup>. Baxtsiz hodisalar oqibatida 693 nafar xodim jabrlangan. Shundan 201 nafar xodim halok bo‘lgan, 457 nafari og‘ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan. Tarmoqlar kesimida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar<sup>254</sup>: sanoatda – 101 ta (oqibatda 23 nafar xodim vafot etgan va 80 nafari og‘ir tan jarohati olgan); qurilishda – 82 ta (oqibatda 31 nafar xodim vafot etgan va 51 nafari og‘ir tan jarohati olgan); qishloq ho‘jaligida – 18 ta (oqibatda 12 nafar xodim vafot etgan va 15 nafari og‘ir tan jarohati olgan).

Ushbu baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida 4014 ta aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan 566 ta yozma ko‘rsatma berilgan. Qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygani uchun 403 nafar mansabdorga nisbatan 4,149 mlrd. so‘m miqdorida ma‘muriy jarimalar qo‘llanilgan. 63 ta holatda inspektorlarning tegishli xulosalari asosida aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Respublika bo‘yicha kasb kasalligi hisobida turgan bemorlar soni 2019 yil 4716 kishini, 2020 yilda esa 4759 kishini tashkil etgan. 2020 yilda kasb kasalligi aniqlangan 43 nafar bemorning 40 nafari sanoatga to‘g‘ri kelgan.

Qayd etish joizki, agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtalamagan bo‘lsa, turgan gap, baxtsiz hodisani yashirishga urinadi. Bunning oldini olish uchun mehnatni muhofaza qilish sohasini ham raqamlashtirish kerak.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urtalashning asosiy maqsadi ishchilarni va ularning oilasini mehnat qilishga layoqatini yo‘qotganda, nogironlikda ma‘lum bir darajada (vaqtinchalik yoki doimiy) daromad bilan ta‘minlash hamda jabrlangan ishchiga tibbiy va realitatsion yordam berish hisoblanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning bunday shakli: sug‘urtalangan shaxslarning sug‘urtalash masalalari borasida kafolatlanganligini; sug‘urta sub’ektlarining mehnat qilish uchun yaratilgan sharoitlarni yaxshilash va mehnat xavfsizligi masalalari bilan iqtisodiy qiziqishi, ishlab

---

<sup>253</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/04/incident/>.

<sup>254</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/04/incident/>.



chiqarishda jarohatlanish holatlari va kasb kasalliklari bilan og‘rish darajasini pasaytirishni; sug‘urtalovchilarning sug‘urta badallarini to‘lash majburiyatlarini; kasbiy riskning turidan kelib chiqqan holda sug‘urta badallari miqdorlarini hisoblab chiqishni; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug‘urtalangan ishchilarni yollanma mehnatga jalb etayotgan barcha ish beruvchilarni sug‘urtachilar sifatida ro‘yxatga olish muhimligini aniqlab beradi.

Shu tariqa, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash instituti sug‘urtalangan shaxslarga kompensatsiya to‘lovlari berish masalalaridan tashqari, shuningdek, ularga tibbiy va realibitatsion yordam ko‘rsatish holatlarini ham qarab chiqadi. Bu kabi keng qamrovli himoya va profilaktik vazifalarni tashkil qilish – ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash institutlarining maqsadi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash munosabatlarining sub’ektlari sug‘urtalangan shaxslar (ishchilar), sug‘urtalovchi va sug‘urtalangan shaxslar, shuningdek, tibbiy va realibitatsiya tashkilotlari hisoblanishadi.

Ko‘pchilik iqtisodiy rivojlangan davlatlarda bu kabi ijtimoiy sug‘urta institutlarini tashkil qilishning umumiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- sug‘urta badallarini faqat ish beruvchilar to‘laydi, ularning ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklar yuz berishidagi ayblari o‘zlari tomonidan tan olinishlari kerak hamda hech qanday sudlar yordamida uni isbotlash talab qilinmaydi;

- sug‘urta to‘lovlarining miqdori kompensatsiya to‘lovlariga, tibbiy va realibitatsiya xizmatlariga ketgan to‘lovlar asosida aniqlanadi. Bu xizmatlarga ketgan xarajatlar biror muassasa, korxonaga yoki biror kasb ishchilari (dengizchilar, uchuvchilar, konchilar) guruhida o‘rganilib, bir necha yillar (5 yil yoki undan ko‘proq) davomida olingan statistik ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Bunda kasbiy risklarning darajasi va kelitrib chiqaradigan og‘ir oqibatlarini ham hisobga olish kerak bo‘ladi.

XMTning 1964 yildagi ishlab chiqarish vaqtida olgan jarohati uchun yordam puli berish haqidagi 121-sonli konvensiyasida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari, shuningdek, ish joyida sodir bo'lgan boshqa xil ko'ngilsiz voqealar tufayli ishchi sog'ligiga yetkazilgan zararlar uchun to'lovlar to'lash tamoyillari batafsil bayon etilgan. Shuningdek unda ishchiga yo'qotgan daromadi o'rnini ma'lum miqdorda qoplash maqsadida to'lovlar to'lash sxemasi, tibbiy va realitatsiya xizmatlari turlari bayon etib berilgan. 121-sonli konvensiyada ishchilarni ijtimoiy himoyalashning quyidagi tamoyillari ham keltirilib o'tilgan:

1. Agar baxtsiz hodisa ishlab chiqarish vaqtida yuz bergan bo'lsa, yordam puli olish huquqi hamma ishchiga birinchi ish kundan boshlab to'lanadi;

2. Yordam pullarining miqdori mehnat yoki sug'urta stajining qanchaligiga, sug'urta badallarining to'langan davri va to'langanligi haqidagi dalillarga bog'liq holda belgilanmaydi. Demak, ishchi sug'urta badalini to'lashni amalga oshirmagan holatlarda ham, yordam puli olish huquqiga ega;

3. Ishchilar yordam pulini baxtsiz hodisalar yuz bergandan ancha vaqt o'tgach, o'zining nojo'ya ta'sirini ko'rsata boshlaganidan keyin ham, bu nojo'ya ta'sirlar o'z tasdig'ini topganidan so'ng ham olish huquqiga egadirlar. Masalan: asbest materiallari bilan ishlash, hattoki bu modda bilan ishlashni to'xtatagandan 20 va 50 yillar o'tgach ham, jiddiy nafas yo'li kasalliklariga (o'pka va mezotelioma raki) olib kelishi mumkin;

4. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari yuz berganda beriladigan yordam pullarning minimal miqdori: myehnat qilishga layoqatini vaqtinchalik yoki butkul yo'qotganda oylik ish haqining 60 foizi miqdorida bo'lishi lozim (odatda, bunday yordam pullarini oluvchilar turmush o'rtog'i va ikkita farzandi bor ishchilardir);

5. Boquvchisini yo'qotganda oylik ish haqining 50 foizi miqdorida bo'lishi lozim (odatda bunday yordam pullarini oluvchilar ikkita farzandi bor beva ayollardir);

6. Davriy (muntazam) yordam pullari boquvchisini yo'qotish (marhumning umr yo'ldoshiga) va mehnatga layoqatini butunlay yo'qotish holatlarida beriladi;

7. Agar nogiron kishi doimiy yordamga yoki boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lsa, unga berilayotgan doimiy yordam pullari miqdori oshirilishi mumkin;

8. Doimiy yordam pullari berish shartlari mehnat qilishga layoqat va mavjud hayot tarzida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan holatlarda qayta ko'rib chiqilishi, vaqtinchalik yoki butkul to'xtatilishi ham mumkin.

9. Ishchi ishga ketayotganda (uyi va ishxonasi oralig'idagi yo'lda) codir bo'lgan baxtsiz hodisalar, ishchilarni ijtimoiy himoya qilish nuqtai nazaridan, ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa bilan tenglashtiriladi;

10. Kasb kasalliklarida beriladigan yordam puli ishchiga yoki ishchi vafot etgan bo'lsa, uning umr yo'ldoshiga to'lanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy sug'urtalash tizimi XMT 194-sonli tavsiyasida keltirilgan kasbiy risklar shakllarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Kasbiy risklarning bunday ro'yxati kasb kasalliklari haqida zamonaviy axborotlar berish maqsadida muntazam ravishda yangilanib turiladi.

Ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urtalashning muhim vazifalari quyidagilar hisoblanadi: ishchilarning sog'ligiga ziyon yetkazilganda va ularning mehnat qilishga layoqati yo'qolgan vaqtlarda, ularning daromadlariga yetgan moddiy zararni qoplash; moddiy resurslarni akkumulyasiya qilish (to'plash) va boshqarish; jabrlangan shaxslarga kompensatsiya pullari to'lash, tibbiy va realibitatsion xizmatlar ko'rsatish yordamida ularning kompleks himoyasini tashkil qilish; ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari oqibatida yuzaga keladigan kasbiy risklarni baholash va tahlil qilishni amalga oshirish; kasbiy risklarning yuzaga kelish ehtimolliklari va ular oqibatlarining og'irlik darajasini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni qabul qilish.

Sug'urtalangan shaxs sog'ligini va mehnatga layoqatini yo'qotgan holatlarda unga oylik ish haqini yo'qotayotganligi uchun kompensatsiya to'lanadi va tibbiy xizmatlar olishi uchun harajatlar to'lab beriladi. Shuningdek, uning mehnatga layoqatini tiklash, mehnat qilishi va ishga joylashishi uchun yetarli shart-sharoit yaratishga yo'naltirilgan tibbiy, kasbiy va ijtimoiy realibitatsiyalar o'tkazish jarayonlari tashkil

etiladi. Xuddi shunday sug'urtachi ham mutaxassislar yordamida kompensatsiya to'lovlari, tibbiy va realibitatsiya xizmatlari ko'rsatish orqali jabrlangan shaxslarning kompleks ijtimoiy himoyasini tashkil etadi.

Sug'urtachining yana bir vazifasi kasbiy jarohat va kasb kasalliklarining ommaviy kasbiy risklar omillarini ajratib ko'rsatish va tahlil etish hisoblanadi. Shu maqsadda sug'urtachilik mutaxassislari tarkibida yuqori malakali texnik inspektorlar va tibbiyot xodimlari shtatlari ham bor. Ular ish joyida va ishlab chiqarishda yuz bergan risklar sabablarini tizimli tekshirish ishlari bilan shug'ullanadilar. Texnik inspektorlar va tibbiyot xodimlari mashinalar hamda ish jihozlari ishga tushirish va ishni tashkil qilish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalarini buzishga chek qo'yish maqsadida ish beruvchilarga ogohlantirishlar yozib berish huquqiga ega.

Sug'urtachilarning nazorat qilish vazifalariga quyidagilar kiradi: xavfsiz faoliyat yuritish qoidalarini qo'pol buzish holatlarida ish beruvchilar va ishchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash; ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar yuz berishidagi aybdor shaxslar o'z xodimlarini sug'urta himoyasiga olishdan qisman yoki to'liq rad etganida, ularni jazolash huquqiga ega.

Ish beruvchilar ishlab chiqarishdagi ishlash xavfsizligini buzganlarida ular uchun so'nggi chora – ular to'layotgan sug'urta badallari miqdorini oshirish hisoblanadi. Bu bilan ularga moliyaviy jihatdan zarar yetkaziladi va ulardan xavfsiz faoliyat yuritish borasida o'z fikrlarini o'zgartirishni talab etadi. O'z faoliyatida qo'pol xatoga yo'l qo'ygan ish beruvchilarga ta'sir etishning eng ma'qul jiddiy quroli – bu baxtsiz hodisalar yuz berganda, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlardan ko'rilgan zararni qoplash borasidagi ularning iltimoslarini rad etishdir. Agar baxtsiz hodisa ish beruvchining e'tiborsiz munosabati tufayli yuz bergan bo'lsa, ishchiga yetkazilgan zararni qoplash uning o'ziga yuklatilishi, ish beruvchining boshqa bu kabi xatolarga yo'l qo'ymasligiga sabab bo'ladi.

Sug'urtachining kasbiy risklarni baholash va ularning sodir bo'lish ehtimolligini kamaytirish borasidagi profilaktik faoliyatining yana bir yo'nalishi korxonalarida «antirisk» hulq-atovorni shakllantirish hisoblanadi. Buning uchun korxonalarda ish beruvchilar

va ishchilarga kasbiy xavf-xatarlarning fizik, kimeviy, biologik va psixologik tabiatini tushuntirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Ish beruvchilar va ishchilar xavfsiz mehnat qilish va potensial xavf-xatarlar talablarini, nafaqat, ma'muriy hamda nazorat chora-tadbirlari orqali, balki kasbiy risklarning sodir bo'lish tabiatini anglash, ishga bo'lgan o'zgacha ijobiy talab hamda ichki madaniyatning shakllanishi asosida ham to'g'ri qabul qiladilar.

### **Xulosa**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa uchun tovon sug'urtasi deb mehnat joyidagi baxtsiz hodisa uchun tovon sug'urtasini taklif etadigan sug'urta kompaniyasi tomonidan ish joyida baxtsiz hodisadan jabr ko'rgan ishchilarga tez va adolatli ravishda tovon to'lanadigan ijtimoiy sug'urta turiga aytiladi va bu sug'urtaning maqsadi mehnat faoliyatini bajarish jarayonida baxtsiz hodisadan jabr ko'rgan ishchilarni reabilitatsiya qilish va ularning jamiyatga qaytishiga ko'maklashishga qaratilgan sug'urta imkoniyatlarini belgilash va boshqarish, shuningdek, baxtsiz hodisalarni oldini olish va ishchilar ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishdan iborat.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan, ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa sifatida, kasb kasalligi esa xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta'siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasalligi sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda baxtsiz hodisa sodir bo'lsa, darrov uning oqibati bilan kurashish boshlanadi. Lekin, bizning fikrimizcha, butun jahonda tatbiq qilingan amaliyot, ya'ni har bir xavf-xatar, risk, baxtsiz hodisa ehtimollarini baholagan holda mehnatni muhofaza qilishni samarali boshqarish tizimini joriy qilish, bu boradagi ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifalarini ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam bilan ta'minlash mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi. Hozirda «mamlakatimiz aholisining 12-15 foizi yoki 4-5 million aholi kambag'allik sharoitida bo'lib, bu ularning kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmasligini anglatadi»<sup>255</sup>. O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarning yarmidan ko'pi milliy ijtimoiy himoya tizimi tomonidan hech qanday ko'mak bilan qamrab olinmagan. Boz ustiga, bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan bolalar nafaqalarining uch turi bilan qamrab olish darajasining muntazam pasayib borishi kuzatilmoqda. Eng achinarlisi, bolali oilalar ham bugungi kunda aholining eng kambag'al qatlamlariga mansub bo'lib qolgan. Shu munosabat bilan hozirgi pandemiya sharoitida aholi bandligini oshirish, daromadlarini ko'paytirish asosida aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish va uning manzilligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganlar (14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalar, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam oluvchilar) sonini kamida 10 foizga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtning o'zida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini turmush farovonligini yaxshilash, ularni kambag'allik chegarasidan chiqarish uchun kasb-hunarga o'qitish, joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalari bilan bog'liq muammolar ham hal etilishi zarur.

### **Nazorat savollari**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasini amalga oshirish uchun mablag'larni shakllantirish tartibini izohlab bering.

2. Sug'urta tovonining turlari va uni to'lash.

3. Ish paytida baxtsiz hodisaga uchragan xodimga qancha miqdorda kompensatsiya to'lanadi?

### **Test savollari**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasini amalga oshirish qanday mablag'lar hisobiga shakllantiriladi?

---

<sup>255</sup> <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/8177-zbekistonning-12-15-foiz-a-olisi-kamba-allikda-ajot-kechiradi>.

A) sug'urta qildiruvchilarning sug'urta badallari; undiriladigan jarima va penyalar

B) ish beruvchilar xisobidan

S) Tibbiy sug'urta xisobidan

2. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik pensiyasi hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi nima xisobidan tayinlanadi?

A) Sug'urta tovonni

B) Sug'urta summasidan

S) Sug'urta mukofotidan

3. Sug'urta tovonni qaysi tashkilot tomonidan to'lanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari

B) Sog'liqni saqlash vazirli tomonidan

Sug'urta kompaniyalari tomonidan

4. Sug'urtalangan shaxsga nogironlik guruhi tayinlansa, sug'urta to'lovi quyidagi tartibda amalga oshiriladi?

A) sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 100 % miqdorida

B) sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 50 % miqdorida

S) sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironlik belgilansa – personal sug'urta summasining 75 % miqdorida

5) Bunda baxtsiz hodisani tekshirish bo'yicha komissiya necha kun ichida baxtsiz hodisa sabablari tekshiriladi?

A) 15 kun

B) 20 kun

S) 10 kun

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik pensiyasi va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlash tartibi.

2. Sug'urta badallari to'lashning shaxsiy hisobini olib borish.

3. Mehnat staji va daromadni hisoblash tartibi.

4. Pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lash.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2019 yil 30 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995 yil 21 dekabr. 284-modda.
3. «Davlat pensiyalari to‘g‘risida”gi SSSR qonuni. 1956 yil 14 iyul.
4. «SSSRda fuqarolar pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun. 1990 yil 15 may.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-son «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 10 sentyabrdagi O‘RQ-174-sonli «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi PF-5837-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategisi to‘g‘risida”gi Farmoni.



13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 maydagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 avgustdagi 544-son «Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi Qarori.

15. «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

16. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

17. An assessment of the social protection system in Uzbekistan, Based on the Core Diagnostic Instrument (CODI). A joint report by ILO, UNICEF, and the World Bank. (ISBN9789220321263 (print), 9789220321270 (web PDF)) Moscow, Russia: International Labour Organization, 2020. – P. 10.

18. Антропов В. Модели социальной защиты в странах ЕС // Мировая экономика и международные отношения. 2005. № 11. – С. 70-77.

19. Андрющенко Г. Модернизация сферы социального страхования в Российской Федерации. Автор. дис. на соис. уч. ст. д.э.н. – М.: «РГСУ», 2011. – С. 16.

20. Агеева Е.В. Социальное страхование: Курс лекций. – Иркутск: «Изд-во БГУЭП», 2013. – С. 11-12.; Конвенция N 102 Международной организации труда "О минимальных нормах социального обеспечения" (Заключена в г. Женеве 28.06.1952).

21. Аюшиев А.Д., Русакова О.И. Медицинское страхование: Учеб. пособие. – Иркутск: «Изд-во ИГЭА», 1997. – С. 40.

22. Ахвледиани Ю.Т., Шахов В.В. Страхование. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2012. – С. 318.

23. Архипов А.П. Страхование. – М.: «КНОРУС», 2012. – С. 97.

24. 1 Алиев Б.Х., Махдиева Ю.М. Основы страхования. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2014. – С. 327.

25. Ахвледиани Ю.Т., Шахов В.В. Страхование. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2012. – С. 318.
26. Boltayev M.S. Tibbiy sug‘urta shartnomasini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari. Yuridik fan. nomz. ilm. dar. ol. uch. baj. diss. Avtoref. – Т.: «О‘МУ», 2011. 18-19-b.
27. Болотина Н.Б. Право социальной защиты: учеб. пособие. – М.: «Знание», 2005. – С. 405.
28. Блохин А.Б., Васильцова Л.И., Леонтьев С.Л. Экономика здравоохранения. – Екатеринбург: «Изд-во Урал. гос. экон. ун-та», 2000. – С. 36.
29. Biggs, A.G. «How the Coronavirus Could Permanently Cut Near-Retirees’ Social Security Benefits». PRC WP2020-6, April. [https://repository.upenn.edu/prc\\_papers/675/](https://repository.upenn.edu/prc_papers/675/).
30. Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2018. 11, 16, 23-b.
31. Гомелля В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель. – М.: «СОМИНТЕК», 1994. – С. 7.
32. Гусаков Д. История пенсионного обеспечения и социального страхования в России. – М.: «Санкт-Петербургский государственный институт психологии и социальной работы», 2010. – С. 260.
33. Зидер Р. Социальная история семьи в Западной и Центральной Европе (конец XVIII-XX в.) / Пер. с англ. – М.: «ВЛАДОС», 1997. – С. 142.
34. Зидер Р. Социальная история семьи в Западной и Центральной Европе (конец XVIII-XX вв) – М.: «Владос», 1997. – С. 142.
35. Ziyadullayev M.Dj. O‘zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yur. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. avtor. – Toshkent: «Akademiya noshirlik markazi», 2019. 20-21-b.
36. Куклин А., Леонтьева А. Социальная защита населения как потребность рыночной системы хозяйствования. Монография. – Тюмень: «ТГУ», 2013. – С. 11
37. Kasimova G., Botirov A. Ijtimoiy soha: boshqarish va moliyalashtirish. – Т.: «Tamaddun», 2016. 163-b.

38. Калашников С. Социальное рыночное хозяйство и социальное государство // Человек и труд. 2003. № 9. – С. 32-45.
39. Кембриджская экономическая история Европы Нового и Новейшего времени. В 2 томах. Т.1: 1700-1870. – М.: «Изд-во Института Гайдара», 2013. – С. 132.
40. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2014. 257-258-b.
41. Mamatov B.S. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari. Monografiya. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2022. 25-38-b.
42. Mamatov B., Nurmuxamedova V. Ijtimoiy ta‘minot. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2019. 75-b.
43. Mamatov B.S. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimi: joriy holati va takomillashtirish yo‘llari // «Bozor, pul va kredit» jurnali. №3, 2018. 48-55-b.
44. Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселения. Мировой экономическая мысль. Сквоз призму веков. В 5 томах.Т.1. От зари цивилизации до капитализма. – М.: «Мысль», 2004. – С. 410-420.
45. Majidov N., Rayxanov U. Ijtimoiy sug‘urta – inson kapitalini takror ishlab chiqarishga kiritilayotgan investitsiyalar shakli sifatida//Moliyachi ma‘lumotnomasi jurnali. – Toshkent, 2016. - №11(59). 34-38-b.
46. Martin Kitchen. The Cambridge Illustrated History of Germany: – Cambridge University Press. 1996. – P. 352.
47. Mirzamahmudov M.M. Davlat maqsadli jamg‘armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. – Т.: «Fan va texnologiya», 2013. 8-11-b.
48. Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации: Монография. – Курган: «Курганского гос. ун-та», 2013. – С.6.
49. Омеляновский В.В. и др. Зарубежный опыт: модели финансирования и организации систем здравоохранения. Финансовый журнал / Financial journal №3 2014. – С. 23.
50. Оуэн.Р. Избранный сочинения, в 2 томах, Т.1.М. – Л.: «Изд-во Академии Наук СССР», 1950. – С. 87-88.

51. Ярошенко И.С. Право социального обеспечения: учеб. пособие. – Киев: «КНЭУ», 2005. – С. 232.
52. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: «Эксмо», 2007. – С. 139-140.
53. Розанваллон П. Новый социальный вопрос. – М.: «AdMarginet», 1998. – С. 19.
54. Роик В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – С. 21.
55. Роик В.Д. Теория и практика организации обязательного медицинского страхования. Учебник и практикум для магистратуры – М.: «Проспект», 2016. – С. 320.
56. Роик В.Д. Страхование рисков старости. Медицинские, гериатрическое и пенсионное. – СПб.: «Питер», 2014. – С. 14-15.
57. Роик В.Д. Превратит старость в радость. Основы жизнедеятельности населения в пожилом возрасте. – М.: «МИК», 2008. – С. 192-216.
58. Роик В.Д. Экономика и финансы и право социальное страхования: Институти и страховые механизми. – М.: «Альпина Паблишер», 2013. – С. 257.
59. Реформа больниц в новой Европе./ Фигерас Ж., Макки М., Моссиалос Э., Солтман Р.Б. Серия изданий Европейское обсерватории по системам здравоохранения. – М.: «Вес Мир», 2003. – С. 15-17.
60. Rudolph H., Richard H., Pablo A. Juan Y. Evaluation of financial performance of pension funds. The Intermantional Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. – Washington D.C. 2010. – P. 282.
61. Сусоколов А.А. Культура и обмен: введение в экономическую активного населения. – М.: «Русская панорама», 2006. – С.131.
62. Шеннаев Х.М. ва бошқ. Суғурта иши. – Т.: «Иқтисод-молия», 2014. 4-б.
63. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: «Соцэкгиз», 1962. – С. 66-69, 73-75.
64. Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 т. – М.: «Челябинск», 2014. Социум Т.2 «Социальная статистика:

изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества». – С. 261-286, 287-310.

65. Сулакшин С. Государственная экономическая политика и экономическая доктрина России. К умной и нравственной экономике. В 5 т., Том 1. – М.: «Directmedia», 2013. – С. 306.

66. Соловьев А.К.. экономика пенсионного страхования: учебные пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2004. – С. 101.

67. Страхование / под ред. Л.А. Орланюк-Малицкой, С.Ю. Яновой. – М.: «Юрайт», 2011. – С. 422.

68. Финансово-кредитный энциклопедический словарь / кол. авт. под общ. ред. А.Г.Грязновой. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – С. 500.

69. Страхование: экономика, организация, управление / под ред. Г.В. Черновой. – М.: «Экономика», 2010. Т. 2. – С. 64.

70. Страхование / под ред. Т.А. Федоровой. – М.: «Экономистъ», 2009. – С. 38-39.

71. Most Efficient Health Care: Countries / Bloomberg Visual Data 2013 (<http://www.bloomberg.com/visual-data/>

72. best-and-worst/most-efficient-health-care-countries).

73. Сахирова Н. П. Страхование: учеб. пособие. – М.: «ТК Велби», Изд-во Проспект, 2006. – С. 26-27.

74. O‘zbekistondagi ijtimoiy himoya tizimini baholash: asosiy diagnostik vosita (CODI) asosida XMT, YUNISEF va Jahon bankining qo‘shma hisoboti. – T.: «O‘zbekiston», 2020. – B. 7.

75. Международная Организация Труда. Международный опыт организации системы социальной помощи. На примере пяти стран. – Москва, 2004. Международное бюро труда, 2015. – С. 59.

76. Taxing Wages. OECD, 2017. Доступно: <https://read.oecdilibrary.org>. Дата обращения: 06.08.2018. (Грищенко Н.Б. Реформы социального страхования: поиск баланса. – М.: Институт социальной политики ФГАОУ ВО «Национальный исследовательский университет», «Высшая школа экономики». 2018. – С. 64).

77. Энциклопедия Международной организация труда по безопасности и гигиене труда. Международной организация труда. – Женева. В 4 т 1998 / - М. 2001.

78. Международная организация труда. Энциклопедия по безопасности и гигиене труда: в 4 т., 4-е изд. – М.: «Министерство труда и социального развития», 2001. – Т. 4. – С. 9.

79. ГОСТ 12.0.230.2007 Система управления охраной труда. Общие требования; ГОСТ ЕН 1070-2003 Безопасность оборудования. Термины и определения.

80. Министерство Финансов Республики Узбекистан. Государственная инспекция по страховому надзору. Отчет по регулированию и надзору за страховой деятельностью в Республике Узбекистан за 2013-2019 годы. (<http://insurance.uzreport.uz/files/docs/report2018.pdf>).

81. Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2019. World Health Organization. <https://www.who.int/data/gho/data/themes/mortality-and-global-health-estimates>.

82. Система здравоохранения Республики Узбекистан: основные тенденции и перспективы развития. Аналитический доклад 2011/11. ПРООН. – Т., 2011. – С. 38. Германиянинг шифохона ғазналари / Ахборотмаркази./ URL:

83. Пенсионное обеспечение. Статистика Евразийского экономического союза за 2021 год. Евразийская экономическая комиссия. Материал подготовлен Департаментом статистики. – М., – С. 2-49.; Евразийский экономический союз в цифрах: краткий статистический сборник; Евразийская экономическая комиссия. – М., 2021. – 188 с.)

84. OECD Pensions at a Glance. 2019. OECD and G20 indicators. OECD Publishing, Paris. – P. 154.

85. Конвенция N102 Международной организации труда «О минимальных нормах социального обеспечения». Статья 67. Приложение к разделу XI периодические выплаты типовому бенефициарию. – С. 21.

86. Программа развития Организации Объединённых Наций (ПРООН) / United Nations Development Programme (UNDP). Life Expectancy Index 2020. Рейтинг стран мира по средней продолжительности жизни 2020

87. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. P harfi. Tahrir hay‘ati T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – T.: «O‘zME», 2008. 50-b.

88. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. I harfi. – T.: «O‘ME» Davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 65-b.

89. Social Security: Workers Educational Manual. Geneva. International Labour Office. 1970. – P. 3.

90. Доклад о Целях в области устойчивого развития. Организация Объединённых Наций. – Нью Йорк, 2019. – С. 21-23. ([https://unstats.un.org/sdgs/report/2019/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2019\\_Russian.pdf](https://unstats.un.org/sdgs/report/2019/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2019_Russian.pdf)).

91. Поланьи К. Великая трансформация: политические и экономические истоки нашего времени. – СПб.: «Алетейя», 2002. – С. 101-240.

92. Джуманова Р. Тенденции и проблемы повышения уровня жизни населения в контексте обеспечения социальной безопасности в Узбекистане//Иқтисодиёт ва таълим журнали. – Тошкент, 2014. – №6. – С. 10-12.

93. Xasanxonova N. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga iqtisodiy tafakkurning ta’siri//Iqtisodiyot va ta’lim jurnali. – Toshkent, 2014. - №2. 7-9-b.

94. Rustamov D. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. 21-b.

95. Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах / А. Федотов // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.

96. Ignacio J.Conde-Ruiz, Clara I. González. From Bismarck to Beveridge: the other pension reform in Spain. Journal of the Spanish Economic Association. Published online: 30 August 2016. This article is published with open access at Springerlink.com.

97. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA:Auerbach Publications, 2008. – P. 2-5.
98. Хмелевская С.А. Пенсионное страхование: философия, история, теория и практика: Учебник. – М.: «Дашков и К0», 2018. – С. 38.
99. Финансовое обеспечение пенсионных систем. Международная организация труда. – М.: «Бюро МОТ в Москве», 2001. – С. 6-11.
100. Charles Sutcliffe. The Implications of the COVID-19 Pandemic for Pensions. Innovation in Business, Economics & Finance 1. 31.07.2020. – P. 235-244.
101. Усманова М., Саттарова Г. Право социального обеспечения Республики Узбекистан. – Т.: «ТДЮУ», 2016. – С. 15.
102. Yibing Chen, Xiaolei Sun, Jianping Li. Pension Fund Asset Allocation: A Mean-Variance Model with CVaR Constraints. Procedia Computer Science Volume 108, 2017, Pages 1302-1307. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187705091730697X>.
103. Шпак И.А. Тенденции развития рынка страховой медицины США. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: «Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации». 2019. – С. 18.
104. Шихов А. К. Страхование право: Уч. пособие. 3-е изд. – М.: «ЗАО Юстицин-форм», 2004. – С. 304.
105. Финансы/В.М. Родионова, Ю.Я. Вавилов, Л.М. Гончаренко и др.; под ред. В.М. Родионовой. – М.: «Финансы и статистика», 1993. – С. 187.
106. Шахов В., Ахвледиани Ю. Страхование. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2011. – С. 140.
107. Фогельсон Ю. Введение в страховое право. Просто о сложном. 2-ое издание. – М.: «БИК», 2001. – 327 с.
108. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zaro sug‘urtaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, O‘zbekistonda uni joriy etishning afzalliklari. «Iqtisodiyot va innovatsion технологиялар» ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2017.



109. Якушев Л.П. Социальная защита (Учебное пособие) Государственная академия управление им. С.Орджоникидзе. – М.: «ГАУ», 1998. – С. 21-40.
110. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Pensiya>.
111. <https://www.segodnya.ua/newsarchive/14-ijulja-1956-v-cccr-pojavilic-pencii.html>.
112. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
113. <https://blogs.worldbank.org/psd/pension-payments-and-pandemics-four-potential-policy-responses>.
114. <https://www.segodnya.ua/newsarchive/14-ijulja-1956-v-cccr-pojavilic-pencii.html>.
115. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. IJTIMOY SUG‘URTA FANINING PREDMETI VA METODI</b>	
1.1-§. Industrial jamiyatgacha bo‘lgan davrda aholini ijtimoiy himoya qilish shakllarining rivojlanishi	<b>6</b>
1.2-§. XVI-XVIII asrlardagi himoya tizimi shakllari rivojlanishi yoki taraqqiy etishi	<b>12</b>
1.3-§. Industrial jamiyat shakllanishi sharoitida ijtimoiy sug‘urtaning nazariy asoslarini rivojlanishi	<b>18</b>
1.4-§. Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashni shakllanishining nazariy asoslari	<b>32</b>
Xulosa	<b>39</b>
<b>II BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA UNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI</b>	
2.1-§. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining huquqiy institutsional asoslari	<b>42</b>
2.2-§. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy sug‘urtani o‘rni	<b>59</b>
2.3-§. Ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning roli	<b>70</b>
Xulosa	<b>79</b>
<b>III BOB. DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASI BO‘YICHA NAFAQALAR TAYINLASH VA TO‘LASH TARTIBI.</b>	
3.1-§. Mehnatga layoqatlilik vaqtinchalik yo‘qotilganda majburiy ijtimoiy sug‘urtalash nafaqasi va sug‘urtalanadigan shaxslarga ajratiladigan yordam pullari miqdorini aniqlash	<b>82</b>
3.2-§. Homiladorlikda va tug‘ruqdan so‘ng beriladigan nafaqalar, ularning miqdorini aniqlash amaliyoti	<b>87</b>
3.3-§. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz holatlarda majburiy sug‘urtalashda sug‘urta badallarini aniqlash tartibini takomillashtirish	<b>95</b>
Xulosa	<b>97</b>
<b>IV BOB. PENSIYA SUG‘URTASI</b>	
4.1-§. Pensiya sug‘urtasining tarixi, predmeti va kategoriyalari	<b>101</b>
4.2-§. Majburiy pensiya sug‘urtasining nazariy asoslari	<b>120</b>
4.3-§. “Covid-19” pandemiyasining jahon pensiya tizimiga ta’siri	<b>128</b>
4.4-§. O‘zbekistonda pensiya tizimining rivojlanish tendensiyalari	<b>139</b>
Xulosa	<b>158</b>

<b>V BOB. TIBBIY SUG‘URTA</b>	
5.1-§. Jaxonda tibbiy sug‘urtaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	<b>162</b>
5.2-§. Tibbiy sug‘urtaning mohiyati va zaruriyati	<b>173</b>
5.3-§. Tibbiy sug‘urta rivojlanishining modellari.	<b>187</b>
5.4-§. “Covid-19” pandemiyasi sharoitida tibbiy sug‘urtaning amal qilish xususiyatlari.	<b>209</b>
5.5-§. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta xizmatlari bozorini shakllanishi, xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari va muammolari	<b>222</b>
Xulosa	<b>229</b>
<b>VI BOB. IJTIMOY SUG‘URTANI ISLOH ETISH SOXASIDA XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI</b>	
6.1-§. AQShdagi ilk ijtimoiy himoya shakllari, sanoat inqilobi, Buyuk Depressiya va ijtimoiy sug‘urta islohotlarining jadallashuvi	<b>233</b>
6.2-§. Kanadaning ijtimoiy sug‘urta tizimi	<b>250</b>
6.3-§. Yaponiyada ijtimoiy himoya dasturlari va ijtimoiy sug‘urta tizimi	<b>256</b>
Xulosa	<b>262</b>
<b>VII BOB. YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIDA IJTIMOY SUGURTA TIZIMI.</b>	
7.1-§. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sugurta tizimini rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvlari	<b>265</b>
7.2-§. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy moliyalashtirish va sug‘urta badali stavkalari	<b>272</b>
Xulosa	<b>283</b>
<b>VIII BOB. MAJBURIY KASBIY SUG‘URTALASHNING TURLARI VA KASB KASALLIKLARI SUG‘URTASINI TASHKIL ETISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI</b>	
8.1-§. Ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalardan majburiy sug‘urtalash va kasb kasalliklari	<b>286</b>
8.2-§. Ish beruvchilarning ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari uchun jamoaga javobgarligini sug‘urtalash	<b>294</b>
8.3-§. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug‘urtalash	<b>301</b>
Xulosa	<b>309</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.</b>	<b>312</b>

**M.N. Umurzakova**

# **IJTIMOIIY SUG‘URTA**

**O‘quv qo‘llanma**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.07.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 18,4. Shartli bosma taboq 18,9.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10